

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi huzuridagi muvofiqlashtiruvchi
kengash tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan*

**Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2021**

UO'K: 336.22(075)
KBK: 65.261.4

Professor J.R. Zaynalovning umumiy tahriri ostida.

Taqrizchilar:

Muxammedov M.M.

Ibragimov N.A.

Mavlonov N.M.

– SamISI “Kasb-hunar ta’limi” kafedrası professori, i.f.d.

– Samarqand shahar “Samarqand Business Advisors” MChJ direktori
o‘rinbosari, professor, i.f.d.

– Samarqand viloyat Davlat soliq boshqarmasi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari

**S 77 Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik / J.R. Zaynalov, S.S. Aliyeva,
Z.O. Axrorov, Z.J. Rasulov va boshq. – T.: “Iqtisod-Moliya” 2021. – 364 b.**

Mazkur darslikda soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, zarurligi, funksiyalari, soliq tizimi, soliq tizimining tarkibiy tuzilishi, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo‘nalishlari, yuridik va jismoniy shaxslarni alohida soliq turlari bo‘yicha soliqqa tortish masalalari o‘z aksini topgan.

Darslikda soliq munosabatlarining nazariy asoslari yoritilgan bo‘lib, u 5111000 – Kasb ta’limi (5230600 – Moliya, 5230700 – Bank ishi, 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit, 5231200 – Sug‘urta ishi), 5230200 – Menajment (xizmatlar sohasi), 5230600 – Moliya, 5230700 – Bank ishi, 5230900 – Buxgalteriya hisobi va audit (sohalar bo‘yicha), 5231200 – Sug‘urta ishi, 5231300 – Pensiya ishi, 5231500 – Baholash ishi, 5232000 – Davlat byudjetining g‘azna ijrosi, 5232100 – Korporativ moliya bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari talabalariga “Soliqlar va soliqqa tortish” fanidan darslik sifatida tavsiya etiladi.

В учебнике нашли отражение экономическая сущность, значение, необходимость, функции налогов, налоговая система, структурное построение налоговой системы, основные направления налоговой политики, проводимой в условиях модернизации экономики, задачи налогообложения отдельными видами налогов юридических и физических лиц.

Учебник, освещающий теоретические основы налоговых отношений, рекомендован в качестве учебника по предмету «Налоги и налогообложение» для студентов направлений образования бакалавриата 5111000 – Профессиональное образование (5230600 – Финансы, 5230700 – Банковское дело, 5230900 – Бухгалтерский учет и аудит, 5231200 – Страхование), 5230200 – Менеджмент (сфера услуг), 5230600 – Финансы, 5230700 – Банковское дело, 5230900 – Бухгалтерский учет и аудит (по отраслям), 5231200 – Страховое дело, 5231300 – Пенсионное дело, 5231500 – Оценка бизнеса, 5232000 – Казначейское исполнение государственного бюджета, 5232100 – Корпоративные финансы.

This textbook reflects the economic nature, value, necessity, functions of taxes, the tax system, the structural structure of the tax system, the main directions of tax policy carried out in the context of modernization of the economy, the task of taxing certain types of taxes of legal entities and individuals.

The textbook, highlighting the theoretical foundations of tax relations, is recommended as a textbook on the subject of “Taxes and Taxation” for students of undergraduate education 5111000 – Professional education (5230600 – Finance, 5230700 – Banking, 5230900 – Accounting and audit, 5231200 – Insurance), 5230200 – Management (services), 5230600 – Finance, 5230700 – Banking, 5230900 – Accounting and audit (by industry), 5231200 – Insurance, 5231300 – Pension, 5231500 – Business valuation, 5232000 – Treasury execution of the state budget, 5232100 – Corporate finance.

UO'K: 336.22(075)
KBK: 65.261.4

ISBN 978-9943-7322-3-0

© J.R. Zaynalov, S.S. Aliyeva, Z.O. Axrorov,
Rasulov Z.J. va boshqalar, 2021
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2021

Kirish


Hozirgi sharoitda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, soliq tizimidagi iqtisodiy islohotlarni yanada takomillashtirish va uni amalga oshirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish, kichik biznes subyektlarini rivojlantirish va uning iqtisodiyotda tutgan o'rnini yanada mustahkamlash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim masalalariga aylanib bormoqda.

Ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan rivojlangan davlatlarda soliq siyosatini byudjet daromadlari istiqbolini belgilash bo'yicha to'plangan keng va boy tajribalarni chuqur o'rganish hamda ularni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish yo'llari ishlab chiqilmoqda.

Shu jumladan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ham davlatning soliq siyosatini aniqlash va belgilashda ularning istiqboliga asoslangan bashoratlarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Lekin, respublikamiz uchun hali qirralari to'la ochilmagan mazkur sohaning barcha yutuq va afzalliklarini o'rganishga bo'lgan munosabat hamda e'tiborning bugungi ahvolini qoniqarli deb bo'lmasligi, bu sohada chuqur va samarali tadqiqotlar olib borish, uning ko'lamini oshirib borish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa, eng avvalo, soliq siyosatining istiqbolini belgilashning mazmuni, vazifalari, xususiyatlari, usullari, samaradorligi kabi o'ziga xos jihatlarini anglashni talab qiladi.

Soliqlar va soliq munosabatlari to'g'risidagi aniq amaliy muammolarni o'rganish davomida ko'p marotaba uning nazariy masalalariga duch kelinadi. Shu munosabat bilan, soliqlar va soliq munosabatlari to'g'risidagi fundamental muammolarini ishlab chiqish, moliyaviy siyosat vazifalarini hal etishning ilmiy asoslanishi jiddiy amaliy ahamiyat kasb etadi.

Afsuski, ko'pincha amaliyot xodimlari o'rtasida amaliy vazifalarni hal etishda nazariyaning muhim emasligi to'g'risidagi fikrlarni eshitib qolamiz. Fikrimizcha, iqtisodiy hodisalarning mohiyati va funksiyalari to'g'risidagi bunday fikrlar o'z navbatida mavjud bo'lganligi ma'noda, nazariya faqat o'zi uchungina



amaliyotni “ro‘yobga chiqaruvchisidir”, biroq bu amaliyotni ilmiy umumlashtirishda nazariyaning rolini aslo kamaytirmasligi lozim, u iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashning eng muhim sharti va omili hisoblanadi. Demakki, har qanday iqtisodiy ko‘rsatkichning amaliy ta’sirchanligini ta’minlash imkonsizdir.

Shu bilan bir vaqtda, soliqlarning umumiy nazariyasi masalalari (soliq toifasi tushunchasi, uning obyektiv zarurligi, takror ishlab chiqarishdagi roli, soliqlarning funksiyalari va boshqalar) tahlili haqida fundamental tadqiqotlar mavjud emas. Bular quyidagi holatlar bilan bog‘liqdir: birinchidan, bozor munosabatlariga o‘tgunga qadar, soliqlar roli tahlili, ularning hozirgi roli bilan taqqoslaganda, pastroq ahamiyatga ega bo‘lganligi, ikkinchidan, soliqlarning funksiyalari to‘g‘risidagi turlicha talqinlarning mavjudligidir.

Soliq tushunchasi paydo bo‘lganidan boshlab, uni joriy qilish va soliq munosabatlarini rivojlantirish bilan muntazam shug‘ullanib kelingan. Soliq munosabatlari va soliqqa tortish masalalari klassik va hozirgi zamon iqtisodchi olimlar asarlarida batafsil yoritilgan. Bundan tashqari respublikamiz iqtisodchi olimlari ilmiy asarlarida soliq va soliq munosabatlari to‘g‘risida fikr yuritganlar. Mazkur darslikni yaratish jarayonida iqtisodchi olimlarning soliqlar bo‘yicha olib borgan ilmiy ishlaridan keng foydalanildi. Shu bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan me‘yoriy hujjatlar va Internet tarmog‘i ma’lumotlaridan hamda hisobot materiallaridan keng foydalanildi.

Darslik Zaynalov J.R. (Kirish, I bob 1.2, 1.3, V bob, VII bob 7.7-7.9, IX bob, XI bob), Aliyeva S.S. (I bob 1.1, 1.6, III bob, VIII bob 8.6-8.9), Axrorov Z.O. (I bob 1.4, 1.5, II bob, VI bob, X bob), Rasulov Z.J. (I bob 1.7, IV bob), Xusanov B.Sh. (VIII bob 8.1-8.5), Latipova Sh.M. (VII bob 7.1-7.6), Xamroyev M.S. (XII bob 12.1), Usmonov P.Sh. (XII bob 12.2, 13.3) va Ernazarov N.E.lar (XIII bob 13.1, 13.2) tomonidan yozildi.

I QISM. BEVOSITA SOLIQ TURLARI

1-bob. “SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” FANIGA KIRISH

Reja

1.1. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining maqsadi, predmeti va vazifalari

1.2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari

1.3. Soliqlarning funksiyalari va tamoyillari

1.4. O‘zbekiston soliq tizimida amalda bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar

1.5. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar: iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra guruhlanishi; byudjetga tushishiga ko‘ra guruhlanishi; soliq to‘lovchilari nuqtayi nazaridan guruhlanishi

1.6. Soliq elementlari

1.7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ustidan soliq organlarining nazorati

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq, soliqqa tortish, soliq tizimi, davlat byudjeti, bevosita soliqlar, bilvosita soliqlar, funksiya, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, soliq tamoyillari, soliq elementlari, soliq obyekt, soliq subyekti, soliq agenti, soliqqa tortish predmeti, soliq bazasi, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq yuki, soliq nazorati.

1.1. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining maqsadi, predmeti va vazifalari

“Soliqlar va soliqqa tortish” fani soliqlarning iqtisodiy mohiyati, ahamiyati, funksiyalari, soliqlarni hisoblash va byudjetga undirish mexanizmini o‘rganishdagi asosiy fan hisoblanadi. Fanning predmetiga to‘xtalishdan oldin “Soliq” toifasiga qisqacha to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak,

“Soliq” toifasi – bu muhim iqtisodiy jarayon bo‘lib, uning paydo bo‘lishi va amal qilishi kishilik jamiyatining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Soliqlar har bir davlat faoliyatining moddiy jihatlarini ta’minlaydi. Jahon iqtisodiyoti taraqqiyotida soliqlar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi.

Amaliyotda va umuman iqtisodiy fanda soliqlarning mohiyatiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Shu sababli ushbu toifa har bir davlat tomonidan o‘ziga xos tarzda foydalaniladi.

Davlat asta-sekin rivojlanib borishi bilan, uning funksiyalari ham muvofiq ravishda kengayib boradi. Bu esa soliqlarga nisbatan qo‘yiladigan talabning kuchayishiga olib keladi. Shu sababli soliq tizimi tobora murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib boradi. Kishilik jamiyati rivojlanishi tarixi shuni ko‘rsatadiki, davlat ma’muriy boshqaruv bilan shug‘ullangan hollarda uning ehtiyojlari ma’lum darajada saqlanib qoladi, davlatning iqtisodiyotni boshqarish majburiyati paydo bo‘lsa, uning xarajatlari va aholidan olinadigan tushumlari ko‘payadi. Bunday holatda soliqlarning shakllari pang-baranglashib boradi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fanining maqsadi – talabalarni O‘zbekiston Respublikasining soliq va soliqqa tortish tizimi bilan yaqindan tanishtirib, ularning iqtisodiy bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy qo‘llay olish ko‘nikmalarini hosil qilishga qaratilgandir.

Hozirgi kunda har bir fanni o‘rganishda uni talabalarga to‘liq yetkazish, talabalarni fikrlashga undash va jalb etish, shu orqali yetuk mutaxassislarni tayyorlash maqsadi yotadi. Fanni o‘rganishda hozirgi davrning ilg‘or uslublaridan va o‘qitishning ilg‘or pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi.

“Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti – bu soliq to‘lovchilarning soliqlar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarning iqtisodiy mohiyati, davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, soliq tizimi va siyosati, soliq turlari bo‘yicha belgilangan imtiyozlar tizimi, soliqlarni hisoblash mexanizmining amaldagi holatini o‘rganishdan iborat. Jumladan, soliq to‘lovchilar va uni o‘zlashtiruvchi, davlat byudjeti, majburiy to‘lovlar, moliyaviy munosabatlar kabi elementlarning o‘zaro

iqtisodiy munosabatlarga kirishish jarayonlarining uslubiy jihatlari, qirralari keng ko‘lamda o‘rganiladi.

Har bir fanning shakllanishi fan predmeti shakllanishi bilan birgalikda, uning ilmiy bilish usullari qaror topishi bilan ham bog‘liq. Har qanday fanni o‘rganishdagi usullar umumiy tavsifga ega, lekin har bir fan o‘z predmetidan kelib chiqib, o‘zining ilmiy bilish usullariga ega. Shuning uchun fanni o‘rganishdagi usullar umumiy va alohida usullarga bo‘linadi.

Fanning vazifasi – talabalarni soliq turlarini, soliq obyektlari, subyektlari, soliqni hisoblash yo‘llarini, uni undirish usullari, imtiyozlari, soliq organlariga hisob-kitoblarni taqdim etish tartibi, hisoblanayotgan soliqlarni buxgalteriya hisobida aks ettirilishini o‘rgatishdan iborat.

Tabiat, jamiyat va tafakkurning rivojlanish qonunlarini o‘rganishning birdan bir to‘g‘ri ilmiy usuli dialektik usuldir. Shuning uchun ham ushbu ilmiy bilish usuli barcha fanlarning, shu jumladan soliq nazariyasi fanining ham nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Dialektik usul shuni ko‘rsatadiki, rivojlanish quyidan yuqoriga qarab sodir bo‘ladi. Bilish esa oddiydan murakkabga tomon rivoj topib boradi. Shuning uchun ushbu usul tadqiqotning induksiya va deduksiya usullarini o‘z ichiga oladi.

Xususiy, yakka dalil olinib, uning asosida umumiy qoida hosil qilinadigan bo‘lsa – induksiya hisoblanadi. Boshdanoq barcha xususiy hollarni o‘z ichiga olgan umumiy qoida hosil qilinsa – deduksiya hisoblanadi.

Shu bilan birga barcha iqtisodiy fanlar kabi “Soliq va soliqqa tortish” fanining ham o‘ziga xos ilmiy bilish usullari mavjud. Ulardan biri ilmiy abstraksiya usulidir. Ilmiy abstraksiya usulining mohiyati shundan iboratki, bunda tahlil paytida obyektning faqat bir tomoniga, o‘rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e‘tibor qaratiladi va halal berishi mumkin bo‘lgan ikkinchi darajali unsurlarning ta‘siri e‘tiborga olinmaydi.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini o‘rganish insonning ilmiy dunyoqarashini kengaytiradi, uning intellektual rivojlanishini rag‘batlantiradi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishga qiziqtiradi.

Soliqlar va soliqqa tortish fanini mukammal o'rganishning afzalligi yana shu bilan izohlanadiki, to'g'ri qaror qabul qilishda insonlar doimo kerakli va ishonchli nazariy bilimga va ma'lumotga ega bo'lishi zarur. Agar ular o'z bilimlariga ega bo'lmasa tajriba va xatolaridan kelib chiqqan, holda o'ziga qimmatga tushgan usulni qo'llashi mumkin yoki boshqalarning tajribasi, xatolarini o'rganishi mumkin, lekin soliq nazariyasidan olgan bilimlariga murojaat qilsa ularning ishi ancha yengillashadi, belgilagan strategiyasi va rejasi aniq bo'ladi.

Ma'lumki, soliqlar bevosita davlatning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir, ya'ni davlat o'zining vakolatiga kiruvchi vazifalarni bajarish uchun moliyaviy manba sifatida soliqlardan foydalanadi. Soliqlarning amal qilishi bu obyektivlikdir, chunki jamiyatni tashkil etuvchi barcha subyektlar ham real sektorda, ya'ni ishlab chiqarish sohasida faoliyat ko'rsatmaydi. Jamiyatda boshqalar tomonidan rad etilgan yoki faoliyati iqtisodiy samarasiz bo'lgan sohalar ham mavjudki, bular soliqlarni obyektiv amal qilishini talab etadi. Aniqroq qilib aytganda jamiyatni norentabel (mudofaa, meditsina, fan, maorif, madaniyat va boshq.) va rentabel sohaga ajralishi hamda norentabel sohani moliyalashtirishning tabiiy zarurligi soliqlarni obyektiv amal qilishini zarur qilib qo'yadi, vaholanki, norentabel sohaning ijtimoiy xizmatlari asosan davlat tomonidan amalga oshiriladiki, ularni moliyalashtirish usuli sifatida yuzaga chiquvchi soliqlar ham shu tufayli bevosita davlatga tegishli bo'ladi.

Jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo'lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarni iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi.

1.2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari

Soliqlarning yuzaga kelinishini qadimiy manbalardan ham kuzatish mumkin. Ammo soliqlardan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda davlat ulardan qurol sifatida foydalanganligini faqat yuzaga kelgan soliq turlari orqali bilish mumkin.

Agarda ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarga bir nazar tashlasak, unda davlat soliqlaridan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishda muntazam foydalaniligidan xulosa chiqarib olishimiz mumkin bo'ladi. Hatto davlatchilikning shakllanishida ham soliqlar yetakchilik qilishgan. Chunki davlatning paydo bo'lishi mukammal barqarorlashmagan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga tayangan. Shuning uchun ham davlatning paydo bo'lishining dastlabki bosqichida moliyaviy va iqtisodiy ishlarni jonlantirishda davlat hukmdorlari har xil soliq to'lovlaridan foydalanishgan va o'z oldilarida turgan muammolarni yechishga harakat qilishgan. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, o'rta asrning barcha moliya fani namoyandalari davlatning o'z vazifalarini bajarishda soliqlardan ehtiyotkorlik bilan foydalanish muhim, deb fikr bildirishgan. Bunday fikr hatto hozirgi taraqqiyot bosqichimizda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, soliqlarni mohiyatini ochishda, ulardan davlat oldida turgan vazifalarni bajarishda o'ziga xos tushunchalarda nomayon bo'ladigan "qurol" yoki "vosita"¹ so'zlariga tayanilishi soliq munosabatlarini cheklanishiga sabab bo'lishi mumkin. Ammo "qurol" va "vosita" so'zlari soliq munosabatlari doirasida davlatning rolini ifodalantirish bilan cheklanadi va soliqlarni aniq ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltirishdagi mohiyati va ahamiyatini ifodalab bera olmaydi. Buning sababi soliqlarni soliq oluvchi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi obyektiv pul munosabatlarini emas, balki yangi qiymatni yuzaga keltirishda namayon bo'ladigan pul munosabatlarida o'z aksini topadi. Shuning uchun ham ularni majburiy to'lovlar sifatida yuzaga kelishida daromad, foyda, mol-mulk, qiymat taqsimoti muhim manba va soliq obyektlari rol o'ynaydilar. Bu borada shuni ham izohlab o'tish kerakki, soliqlarni majburiyligi ham ularning mohiyatini emas, balki ularga xos bo'lgan demokratik xususiyatni aks etiradi, xolos. Buni soliqlarga xos majburiylik xususiyatlari huquqiy me'yorlarga asoslanadi. Bunday huquqiy me'yorlar davlatlarning parlamentlari tomonidan o'rganiladi va jamiyat manfaatlariga molik darajada yetkazilishi orqali

¹ Гагулин Ш.К. Солиқлар ва солиққа тортиш. Т.: Ўзб.Р.ДСҚ, 1996. 4 б.

qabul qilinishi mumkin.

Shunday qilib soliqlar o'z mohiyatidan kelib chiqib yangi qiymatni yuzaga keltirishi bilan bog'liq pul munosabatlarini ifodalaydi.

Demak, soliqlar mohiyatida yangi qiymatni yuzaga keltirishi bilan bog'liq pul munosabatlari yotadi. Shuningdek, ular moliyaning tarkibiy qismi bo'lib, uzoq muddatlarni mo'ljallangan huquqiy me'yorlar bilan mustahkamlangan. Lekin qonunlar bilan mustahkamlangan soliqlar turli omillar ta'sirida ko'zda tutilgan natijalarni qo'lga kiritishiga xizmat qilmasligi ham mumkin. Shu bois ham soliqlar samarali natijalarni qo'lga kiritilishini ta'minlashi va uzoq muddatlarga xizmat qilishi uchun soliq munosabatlarini to'liq ifodalaydigan, ilmiy asoslangan soliq siyosatiga va Respublikamiz Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga bevosita asoslanishi shart.

Soliqlar yangi qiymatni yuzaga keltirishi bilan bog'liq pul munosabatlarini ifoda etganligini e'tiborga olgan holda ularning mohiyatini to'liq yoritilishi soliq munosabatlarini ifodalovchi bir tomondan davlat va ikkinchi tomondan ularni to'lovchilari, ya'ni huquqiy va jismoniy shaxslar o'rtasidagi yuzaga keladigan majburiy to'lovlar, shuningdek, soliqlar funksiyalari bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham soliqlar mohiyatini soliq to'lovlari bilan bog'liq munosabatlar va soliq funksiyalari orqali ifodalab borish zarur.

Soliqlar obyektiv taqsimlash munosabatlari orqali kengaytirilgan ishlab chiqarishning hamma bosqichlarida ishtirok etadi va ishlab chiqarish munosabatlarida o'z aksini topadi. Soliqlarning jamiyat iqtisodiy bazasini ifodalashi tufayli ishlab chiqarishni qiziqtirishda, tovar ishlab chiqarish orqali iste'molni tartibga solishda va markazlashtirilgan pul jang'armalarini yuzaga keltirishda, ijtimoiy himoya va boshqa ijtimoiy zaruriy maqsadlar yo'lida ulardan keng foydalanib kelinmoqda.

Yuqoridagidan kelib chiqqan holda shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, amaliy jihatdan soliqlarning qonuniy harakatlari orqali ularning mohiyatini ifodalash mumkin:

➤ birinchidan, soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga

to'lar ekan, buning evaziga tovar yoki xizmat olmaydi. Soliq miqdori bilan u iste'mol qilgan ijtimoiy ne'mat o'rtasida bog'liqlik yuzaga kelmaydi. Shu xususiyatga ko'ra soliq to'lovchi ko'rsatgan foydasini yoki manfaatini to'lagan soliqlar bilan solishtirsa, unda bunday holat daromadlarni yemirilishiga, soliq to'lashdan bosh tortishga sabab bo'lishi mumkin. Davlat o'z fuqarolaridan yig'ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatsa, hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning iqtisodiy-ijtimoiy va boshqa dasturlarini o'z mablag'lari hisobidan oqilona va ixtiyoriy ravishda ta'minlashga rozi bo'lgan taqdirdagina davlat miqyosida yuksak soliq axloq tamoyillari yuzaga keltirilishi uchun zamin yaratiladi;

➤ ikkinchidan, soliqlar to'la o'z vaqtida to'lash uchun javobgarligi soliq to'lovchilar zimmasiga yuklangan ekan, u ixtiyoriy emas, balki majburiy xususiyatga ega bo'lishi muqarrarligi;

➤ uchinchidan, davlat foydasiga amalda yuzaga keltirilgan daromadning avvaldan qonun doirasida belgilab qo'yilgan qismini undirib olinishi bilan.

Soliqlar iqtisodiy faollikni tartibga solish orqali takror ishlab chiqarish jaryoniga ta'sir ko'rsatadi. Davlat foydaga solinadigan soliqlardan foydalanib, sarmoyani jamg'arish jarayonlariga ta'sir ko'rsatadi, masalan: jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmalari orqali.

Jadallashtirilgan amortizatsiya usuli iqtisodiyotining korporativ sektorida kapital qo'yilmalarni ko'paytirishning muhim omili hisoblanadi, chunki uni qo'llash orqali fan-texnika taraqqiyotini yuksaltirish, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirish, rivojlantirish imkoniyatlari yaratilishi mumkin.

Soliqlar orqali to'lovchilar va byudjet o'rtasida daromadlar taqsimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta e'tiborga olish zarur. Soliq to'lovchilar daromadini davlat o'z xohishicha olmaydi, soliqlarni byudjetga olishning ma'lum chegarasi mavjud. Shu bilan birga, soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyati hisobiga olinib, soliq belgilanadi.

Shuning uchun ham, Davlat soliqlardan makroiqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va boshqa umumdavlat

maqsadlari uchun yetarli moliyaviy resurslar to'plashda keng foydalanishi lozim.

Shu o'rinda soliqlarga turli iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'riflarni keltirib o'tish o'rinlidir. "Soliqlar, – deb yozadi D.Rikardo, – hokimiyat ixtiyoriga kelib tushadigan yer resursi va mamlakat mehnatining bir qismini tashkil etadi va oxir-oqibatda ular kapital hisobidan yoki mamlakat daromadi hisobidan to'lanadi".² Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, D.Rikardo soliqlar mohiyatini yoritib, o'z navbatida A.Smit tomonidan yaratilgan soliqlar nazariyasini ma'lum darajada rivojlanishiga o'zining hissasini qo'shgan.

Soliqlar bo'yicha yana bir ta'rif S.G. Pepelyaev tomonidan berilgan: "Soliq – ommaviy hokimiyat subyektlarining to'lov qobiliyatini ta'minlash maqsadida jismoniy va yuridik shaxslar mulklarini begonalashtirishning majburiylik, yakka tarzda xolisona, qaytarmaslik, davlatning majburlashi bilan ta'minlanganlik asoslarida va jazo yoki kontributsiya xarakteriga ega bo'lmagan qonunda belgilangan yagona shaklidir".³

Hozirgi paytda iqtisodiy adabiyotlarda soliqlarning iqtisodiy mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar chop etilgan. Masalan, "Siyosiy iqtisod" izohli lug'atida soliqlar "... korxonalar, tashkilot va aholini, mamlakat moliyaviy resurslarini tashkil etishdagi ishtirokini xarakterlovchi majburiy to'lovlar tizimi", deb izohlanadi.

Professor D.G. Chernikning fikricha "Soliqlar – davlat tomonidan xo'jalik subyektlari va fuqarolardan qonuniy tartibda o'rnatilgan stavkalarda undirib olinadigan majburiy yig'imlarni o'zida aks ettiradi".⁴

Professor B.G. Boldirev boshchiligida yozilgan "Kapitalizm moliyasi" o'quv qo'llanmasida soliqlarga quyidagicha ta'rif berilgan: "Soliqlar – davlat tomonidan undirib olinadigan, jismoniy va huquqiy shaxslarning majburiy to'lovlari"⁵ haqiqatan ham yuqorida keltirilgan ta'riflar eng sodda va keng omma uchun qulay va tushunarli bo'lishi mumkin. Lekin bu

² Рикардо Д. Начало политической экономики и налогового обложения. Сочинения. Т. 1. М.: Госполитгиздат, С.380.

³ С.Г. Пепеляев и др. Основы налогового права. М.: Финансы и статистика, 2000.

⁴ Черник Д.Г. Налоги в рыночной экономике. М.: Финансы, 1992. №3. С.19.

⁵ Болдырев Б.Г. Финансы капитализма. М.: Финансы, 1987. С.21.

ta'riflar o'zida soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini to'raligicha aks ettira olmaydi. Bundan tashqari, ushbu to'lovlar nima maqsadda undirib olinishi hamda qachon undirib olinishi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bera olmaydi.

Soliqlar davlat byudjeti daromadlarini tashkil etuvchi asosiy manba va iqtisodiyotni boshqaruvchi muhim qurol hisoblanadi. Biroq bu ta'rif soliqlarning mohiyatini to'raligicha yoritmaydi hamda soliqlarning tashkiliy-huquqiy tomonlarini o'zida aks ettira olmaydi. Bundan tashqari iqtisodiy munosabat sifatida, bu munosabatlar obyekt bo'lib nima hisoblanadi, degan savollarga javob bera olmaydi.

Soliqlarni ta'riflashda iqtisodiy adabiyotda umumiylik va xususiylik mavjud. Umuman, soliqlar davlatning mavjud bo'lishi uchun zaruriyat bo'lib, davlat va mahalliy hokimiyat tuzilmalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash, davlat o'z zimmasiga olgan vazifalarni bajarishi uchun o'rnatilgan stavkalarda majburiy tarzda undiriladigan hamda uni to'lovchilarga yakka tartibdagi ekvivalent huquqini bermaydigan to'lovlar hisoblanadi⁶.

Shuni ta'kidlash kerakki, prof. O. Olimjonovning fikriga ko'ra, soliqlar quyidagicha ta'riflansa, soliqlarning mohiyati kengroq yoritiladi va maqsadga muvofiq bo'ladi: "Soliqlar – davlat va jamiyatning pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajmda va o'rnatilgan muddatda jismoniy va huquqiy shaxslardan davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undirib olinadigan to'lovlardir".⁷

Bozor iqtisodiy munosabatlariga o'tish va zamonaviy tuzilmalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi soliq tizimini qayta ko'rilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasini mustaqil deb e'lon qilinishi huquqiy jihatdan ta'minlangan munosabatlarni, shu jumladan soliq munosabatlarini qayta ko'rish zaruriyatini keltirib chiqardi. Avvalo 1992-yil 14-yanvarda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning soliqlari

⁶ Толиматов Ш.А. Корхоналарни ривожлантиришда солиқлар роли: Монография. Т.: Фан ва технология, 2008. 79 б.

⁷ (Олимжонов О. Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида солиқ сиёсати // Ҳаёт ва иқтисод. 1992.

to'g'risida"gi qonun 1997-yil 24-aprelida O'zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi"ni qabul qilinishini, o'tish davrigacha amal qilingan aksariyat soliqlarni bekor qilinishi hamda yangi soliq xillarini amalyotga joriy etilishiga imkoniyat tug'dirib berdi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga javob beradigan soliqlarni amal qilishi, iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlanishiga va uni rivojlantirilishiga sabab bo'ldi. O'tish davrining nobarqarorlik jarayonlari yuzaga kelganda, ularni bir tomondan davlat oqilona soliqlardan foydalangan holda tartibga solishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan davlat soliqlar orqali o'z oldida turgan vazifalarini va funksiyalarini bajarishda yetarli darajada markazlashtirilgan pul mablag'larini tashkil etishga zamin yaratib beradi. Demak soliqlarning obyektiv zarurligi nafaqat zamonaviy munosabatlarni, iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalarni yuzaga kelishi, balkim ana shunday tuzilma va munosabatlarni tartibga keltirish, davlatni boshqarish bilan bog'liq davlatning funksiya va vazifalarini mablag' bilan ta'minlanishning zarurligidan kelib chiqadi.

Shunday qilib soliqlarning obyektiv zarurligi quyidagilar bilan bog'liq bo'ldi:

✓ Bozor iqtisodiy munosabatlarini aks ettiruvchi qonunlarni qabul qilish bilan;

✓ Turli mulk shaklidagi xo'jalik subyektlarini va erkin narxlarni amal qilishi aholi bilan xo'jalik subyektlari o'rtasida faqat qonuniy, huquqiy, demokratik munosabatlarini shakllanishi bilan;

✓ Markazlashgan ma'muriy taqsimotdan o'z-o'zini moliyalashtirishga, iqtisodiy ko'rsatkichlarni xo'jalik subyektlarida mustaqil taqsimotini va rejalashtirilishini amalga oshirilishi bilan;

✓ Bozor iqtisodiy munosabatlariga o'tish bosqichlarida xo'jalik subyektlari faoliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, ishlab chiqarish hajmini pasayishi yoki faoliyatni to'xtatilib qo'yilishi byudjet daromadlarini pasayishi va ularni qoplash uchun salmoqli daromadlar bo'lishini ta'minlash faqat egri soliqlar orqali hal etilishi bilan.

Ammo yuqorida keltirilgan dalillar nafaqat zamonaviy soliq

munosabatlariga amal qilishni, shuningdek, soliq tizimini qayta ko'rishning zarurligi bilan ham bog'liq bo'ldi.

Yangi soliq xillarini ularni yuzaga keltiruvchi manbalar va obyektlarini qonunlar doirasida tashkil etilishiga asos yaratilishi, shular orqali ko'p-mulkchilikni amal qilishiga va rivojlanishiga sharoit yaratilishi, erkin faoliyat yurgizish va ularning qonunlarga zid bo'lmagan chegaralargacha kengaytirilishi turli soliq elementlarini barqarorlashtirib borilish zaruriyatini ham taqozo ettirdi.

Shu tariqa bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik mulk shaklidan qat'iy nazar, o'zi erkin faoliyat ko'rsatishi va butun faoliyatiga o'zi javob berishi, davlatning aralashuvi qonun bilan, ya'ni soliq orqali amalga oshirilishi uchun ham zamin yaratildi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida davlatning yangi funksiyalarini barqarorlashuvi uchun ham imkoniyatlarni yaratilishi ko'pincha soliq munosabatlari bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Bularga kam ta'minlanganlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish va bozor infratuzilmasini tashkil qilish va shuni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni davlat doirasida tashkil etish, nafaqaxo'rlar, talabalar, ko'p bolali oilalar va boshqalarni mablag' bilan ta'minlash, tovar baholarining ko'proq oshgan qismini davlat hisobidan qoplash va boshqalar mustaqil mudofaa qudratiga ega bo'lish, harbiy-texnikaga ega bo'lish, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, tartib-intizom o'rnatish, mamlakatni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham mablag' sarflash, bularning hammasi soliqlarning obyektiv zarurligini va tartiblashtirilib berilishini taqozo etadi. Lekin soliqlarning zarurligi boshqa o'ziga xos munosabatlarni mavjudligi bilan ham bog'liqdir. Misol uchun, bozor iqtisodiyotida hamma narsa sotiladi. Hech nima bepul berilmaydi. Shunday ekan, davlat tomonidan juda katta xarajatlar evaziga qiladigan xizmatlarini sotilishiga zaruriyat tutilishi mumkin. Lekin gap shundaki, bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ko'rsatgan xizmatlari haqi juda katta bo'lganligi uni sotib oluvchilarini yuzaga keltirmaydi. To'g'rirog'i, uni sotib olish istagi tug'ilganda ham mablag'ni alohida holda etmaydi, hamma xo'jalik subyektlari va fuqarolar davlatning xizmatlarini "Ijtimoiy

tovarlar” tushunchasi doirasida o‘zlashtiradilar, ammo ular shu iste’mol doirasida davlat xizmatlarini bajara olmaydilar. Masalan, biror-bir xo‘jalik hech qachon menga mudofaa xizmatlari yoki moliyaviy yordam kerak emas, demaydi. Demak, davlat xizmatlarini o‘zlashtirar ekan, uning haqqini to‘lashni unutmash kerak. Ammo, alohida iste’molchilar bu haqni ixtiyoriy ravishda to‘lagisi kelmaydi. Natijada davlat Oliy Majlis orqali ana shunday to‘lovni majburiy qilib qonunlar doirasida olishga kirishadi. Shuning uchun Oliy Majlis bu haqni to‘lashni majburiy soliq deb qonun orqali belgilab beradi. Davlatning xizmati uchun olinadigan soliq ko‘rinishidagi haq shu nuqtayi nazardan majburiy to‘lov bo‘lmay, ekvivalent xarakteriga egadir. U bozor munosabatlariga mos ko‘proq tushgan holda xizmatlarning oldi-sotdisida o‘z aksini topadi.

Soliqlar rivojlangan tovar ishlab chiqarishning muhim toifasi bo‘lib, albatta yanada kengroq toifa – davlat byudjeti bilan chambarchas bog‘langan. Chunki soliqlar byudjetning shakllanishida ishtirok etadi.⁸

Soliqlar moliyaviy resurslarni davlat ixtiyorida to‘planib borishini ta‘minlaydi, bu resurslardan iqtisodiy rivojlanishning umumdavlat, mintaqaviy vazifalarni hal qilish, ishning samaradorligi va sifatini rag‘batlantirish, ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib daromadlarni tartibga solish uchun foydalaniladi.

Davlat soliqlarni davlat byudjetini shakllantirish uchun amalga kiritadi, soliqlar birorta aniq xarajatlarni qoplash maqsadiga ega emas, bu ayrim turdagi daromadlardan tushadigan tushumlardan amalga oshiriladigan xarajatlar ularga bog‘liq bo‘lib qolishining oldini olish zarurati bilan asoslangan. Biroq bir qancha hollarda umumiy soliqlar bilan birga maqsadli soliqlar ham belgilanadi, ularning amalga kiritilishi iqtisodiy faoliyatda ijobiy rol o‘ynashi mumkin.

U yoki bu iqtisodiy toifaning mohiyatini chuqurroq anglash uchun unga xos umumiy belgilarni aniqlash lozim bo‘ladi. Masalan, kredit iqtisodiy toifa sifatida muddatlilik, qaytarishlik, muayyan miqdorda ustama haq (foiz) to‘lash kabi umumiy belgilarga egaki, ushbu belgilar kredit toifasi

⁸ Вахобов А., Срождиддинова З. Ўзбекистон Республикасининг давлат бюджети. Т.: ТМИ, 2002. 36 б.

mohiyatini kengroq yoritish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu kabi soliq toifasi ham bir qator o'ziga xos belgilarga egaki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa to'lovlardan farqlash uchun xizmat qiladi.

Rus iqtisodchisi A. Medvedev o'zining "Soliqlarni qanday rejalashtirmoq kerak?" nomli kitobida soliqlarga xos bo'lgan ikki belgini, ya'ni majburiylik va ekvivalentsizlik kabi belgilarni qayd etadi.


Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha soliqlarning umumiy belgilarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Soliq to'lovchi pulning u yoki bu summasini davlatga to'lap ekan, buning evaziga bevosita biron-bir tovar yoxud xizmat olmaydi. Alohida olingan soliq to'lovchi tomonidan to'langan soliq miqdori bilan u iste'mol qiladigan ijtimoiy ne'matlar o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lmaydi. Xuddi ana shu xususiyatga ko'ra soliq narxdan, (tovar yoki xizmatlarni ixtiyoriy iste'mol qilganligi uchun to'lanadigan haq sifatida) ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'imlaridan farq qiladi, chunki bular majburiy yoki ixtiyoriy to'lovlar hisoblansada, biroq hamma vaqt hukumat tomonidan ko'rsatilgan xizmatdan muayyan foyda (naf) ko'rilishi bilan bog'liqdir.

Davlatga to'lanadigan soliqlar bilan uning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy ne'matlar o'rtasida bevosita, har bir kishining ko'zi ilg'aydigan bog'liqlikning yo'qligi soliq to'lovchilar soliqqa tortishni yuk sifatida baholashlari uchun sabab bo'ladi, ular soliqlar hisobidan qilinadigan davlat xarajatlarining yo'nalishini ma'qullashlari ham mumkin.

Alohida olingan soliq to'lovchi odatda jamiyat va o'zining ko'rgan foydasi yoki manfaatini to'lagan soliqlari bilan solishtirib o'tirmaydi. Bu shunga olib keladiki, oqibatda fuqarolarning bir qismi soliqlar to'lashdan bo'yin tovlashga, o'z daromadlarini yashirishga urinadi. Davlat o'z fuqarolaridan yig'ib olgan soliqlarni samarali va oshkora tarzda ishlatasa hamda fuqarolarning aksariyat qismi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa dasturlarini o'z mablag'lari hisobidan pul bilan ta'minlashga rozi bo'lgandagina yuksak soliq axloqi tamoyillari yuzaga keladi.

2. Soliqlar majburiy to'lovlar hisoblanadi. Soliqlarning to'liq miqdorda va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik soliq to'lovchilar zimmasiga



yuklangan bo'lsa-da, ular ixtiyoriy emas, majburiy ravishda to'laydilar, davlat soliq to'lashdan bo'yin tovlaganlarni qattiq jazolaydi.

3. Davlat foydasiga soliq to'lash orqali daromadning avvaldan belgilab qo'yilgan, eng muhimi, qonuniy tartibda ko'zda tutilgan qismi undirib olinadi. Ko'pgina davlatlarning, shu jumladan, O'zbekistonning ham qonunlarida soliqlarni belgilash va ularning hajmlarini aniqlashga faqat Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat yoki uning tomonidan vakolat berilgan organlar haqlidirlar, deb mustahkamlab qo'yilgan. O'zining xohish-istagiga qarab yangi soliqlar belgilash yoki ularning hajmlarini aniqlashga hech kimning haqqi yo'q. To'lovlarning qonuniy, ochiq-oydin xususiyatga ega bo'lishi soliqlarning bosh tavsifi hisoblanadi.

4. Soliqlarning yana bir belgisi ularning davlat yoki mahalliy byudjetga kelib tushishidir, ya'ni soliqlar byudjetdan tashqari fondlar yoki turli xil boshqa fondlarga kelib tushmaydi.

5. Soliqlarga xos bo'lgan umumiy belgilardan biri sifatida davlat hamda yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida mulkchilikni qayta taqsimlash jarayonining yuzaga kelishidir. Soddaroq qilib aytganda korxonalar va aholidan olinadigan soliqlar, aslida ularning mulkini ma'lum bir qismini davlat hisobiga o'tkazilishini bildiradi. Bu bilan xo'jalik yurituvchi subyektlarga tegishli bo'lgan mulk daromad shaklida majburiy to'lov bo'lib, davlat mulkiga aylanadi.

Hozirda soliqlarning umumiy belgilarini chuqurroq o'rganish talab etilmoqda. Shu o'rinda soliqlarning umumiy belgilarini to'liqroq va aniqroq, batafsil yoritishi mumkin bo'lgan har qanday iqtisodiy vaziyatlarda o'zgar olmaydigan va doimiy mavjud, ahamiyatli optimal umumiy belgilarini yaratish muammosi hal etilishi lozimdir.

Soliq toifasi boshqa iqtisodiy toifalar: moliya, kredit, sug'urta, investitsiya kabilar bilan umumiy o'xshashlikka ega, ya'ni ularning barchasi pulli munosabatlarni ifodalaydi. Lekin soliqlarning o'ziga xos yuqorida qayd etilgan belgilari mavjudki, ushbu belgilar soliqlarni boshqa iqtisodiy toifalardan farqlash uchun xizmat qiladi.

1.3. Soliqlarning funksiyalari va tamoyillari

Har qanday iqtisodiy toifaning mohiyati va iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida tutgan o'рни, uning bajaradigan funksiyalariga bog'liqdir, shu jumladan soliqlarning funksiyasi yo'q bo'lgan iqtisodiy toifaning o'zi yo'q. Soliq va uning mohiyati unga mansub funksiyalarda toifaning amaliyotdagi harakatida namoyon bo'ladi.

Funksiya deganda toifaning hayotda ko'p qaytariladigan, takrorlanadigan doimiy harakatlari tushuniladi. Xo'sh, shunday ekan unda savol tug'iladi: soliqlarning mohiyati qanday funksiyalar orqali yoritiladi?

Bu to'g'risida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuvlar bo'lmaganligi soliqlar mohiyatini yoritishdagi munozaralar kengayib bormoqda. Ko'pchilik iqtisodchilar va amaliyotchilar soliqlarga xazina va ishlab chiqarishni qiziqtirish hamda nazorat funksiyalari mansub deb hisoblashsa, ba'zilar esa soliqlarga iqtisodni boshqarish funksiyalari ham mansub degan fikrni bildiradilar va ularning xususiyatlarini atroflicha izohlab o'tishga harakat qiladilar.

Soliq tizimida uning uchta, beshta yoki sakkizta funksiyalarini ajratib ko'rsatadilar.⁹ Agar ular tomonidan alohida ajratilib ko'rsatilayotgan funksiyalarni bir tartibda keltiradigan bo'lsak, unda ular quyidagi ko'rinishda o'z aksini topmoqda, ya'ni:

1. Soliq hisobining fiskal¹⁰ (xazinaga oid) funksiyasi;
2. Taqsimlash va qayta taqsimlash funksiyasi;
3. Ishlab chiqarishni qiziqtirish funksiyasi;
4. Tartiblashtirish funksiyasi;
5. Nazorat funksiyasi;
6. Iqtisodiyotni boshqarish funksiyasi;
7. Ijtimoiy funksiya;
8. Soliqlarni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funksiyasi.

⁹ Вахобов А.В., Жўраев А.С. Солиқлар ва солиққа тортиш: Дарслик. Т.: Шарқ, 2009.; Гатаулин Ш.К. Солиқлар ва солиққа тортиш. Т.: Уз.Р ДСҚ 1996.; Яхёев Қ. Ўзбекистоннинг солиқли ва солиқсиз тўловлари. Т.: ТМИ, 1994.; Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник/ Под ред. Самсонова. М.: ИНФРА-М 2001. С. 64-66.

¹⁰ Фискал лотинча *fiscus* - хазина сўзини англатади.

Ushbu funksiyalar iqtisodchi olimlarimiz tomonidan quyidagicha tavsiflanib kelinmoqda. Misol uchun, soliqlarning asosiy funksiyasi sifatida fiskal funksiya alohida ajratib ko'rsatilmoqda. Buning sababi shuki, soliqlar yordamida pul resurslarining markazlashtirilgan jamg'armasi tashkil etiladi. Davlat hokimiyati davlat mudofaasi, boshqaruv organlari, sud organlari va boshqalarni ana shu markazlashtirilgan va xazina funksiyasini boshqaruvchi mablag' hisobidan saqlanadi. Shunday ekan, umumdavlat, xalq xo'jaligi vazifalarini bajarish korxonasi va fuqarolarning olgan daromadlarini bir qismini soliq to'lovlari ko'rinishida va shu orqali davlat byudjetining daromad qismini shakllantirish soliqlarning fiskal funksiyasining eng muhim elementi bo'lib hisoblanadi, deb bashorat etilmoqda.

Darhaqiqat, ishlab chiqarishning rivojlanishi soliqlar funksiyasining ahamiyatini oshib borilishidan dalolat beradi. Ishlab chiqarishni rivojlantirilishi munosabati bilan soliqlar tushumidan tashkil etiladigan moliyaviy resurslarning oqimini ham ko'paytirilishi uchun real zaruriyat yuzaga keladi. Ammo davlatning iqtisodiy-ijtimoiy tadbirlarga borgan sari ko'p moliyaviy resurslarni sarflashi, soliqlarning fiskal funksiyasi bilan emas, balki taqsimot funksiyasi orqali ta'minlanadi. Ammo bunday jarayonni soliqlarning fiskal funksiyasi orqali amalga oshiriladi, degan fikr-mulohazalarga tayanish taqsimot jarayoniga ta'sir etishi mumkin va oxir-oqibatda ishlab chiqarish sohalarida kutilmagan deformatsiyalarga yo'l qo'yilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, ayrim iqtisodchilar tomonidan, iqtisodni tartiblashtirish soliqlarning muhim funksiyasi deb bashorat etilmoqda. Ammo ushbu fikrga qo'shilish funksiyasini tartiblashtirishdan farqi yo'q degan tushunchani yuzaga keltirib chiqargan bo'lar edi. Iqtisodiyotni tartiblashtirish funksiya sifatida emas, balki soliqlarni iqtisodiy taraqqiyotda tutgan rolini ifodalovchi amaliy tushunchadir. Chunki davlat soliqlar yordamida tovar sotilishini, mahsulotlar ishlab chiqarishni, xizmatlarni (ishlarni) amalga oshirishning iqtisodiy shart-sharoitini yuzaga keltiradi. Bu bilan xalq xo'jaligi tarmoqlarining moddiy faoliyati muayyan soliq turi orqali tartibga keltiriladi. Natijada muayyan

tarmoqda ishlab chiqarish sur'atlarini rag'batlantirish imkoniyati yaratiladi. Soliqlar orqali iqtisodiyotni tartibga keltirish sarmoyaning bir tarmoqdan soliqlar ta'sirida maqbul bo'lgan boshqa tarmoqda qo'yilishi kuchaytiriladi yoki pasaytiriladi. Soliqlarning iqtisodiyotda tutgan rolini davlatning bajarayotgan vazifalarini samaradorligi darajasi orqali kuzatish mumkin, ya'ni davlat oqilona soliq siyosatini yurgizish orqali soliq yukini kuchaytirmasdan turib samarali faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratiladi. Shunday ekan soliqlarda iqtisodiyotni tartiblashtiruvchi funksiya emas, balki ta'sir etuvchi xususiyat mavjudligi va bunday xususiyat faqat taqsimot jarayonida yuzaga kelishi mumkin.

Xo'jalik subyektlarining byudjet bilan moliyaviy munosabatlarini bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichlarida takomillashtirish iqtisodiy islohotning eng muhim va qiyin muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Chunki iqtisodiy islohotlarni barqarorlashuvi soliqlar orqali davlat byudjet daromadlarini to'liqligini ta'minlash darajalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qolmoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish, narx o'sishi va inflyatsiyani cheklashning asosiy omili bo'lib ham soliqlar hisoblanmoqda.

Bozor iqtisodiy munosabatlarini evolyutsion yo'llar orqali amaliyotga joriy etilishi soliqlarni davlat byudjeti va mahalliy byudjetlarni to'ldirishning asosiy manbai sifatida xizmat qilishni kuchaytiradi. Soliqlar xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini qamrab olishi bilan birga har bir soliq to'lovchiga nisbatan alohida yondashuvni, soliq yengilliklarini yaratib berilishi orqali kuchaytirilishiga ilk zamin yaratib beradi.

Natijada soliqlar davlat byudjet daromadlarini shakllantirishning asosiy manbai sifatida namoyon bo'lmoqda.

Soliqlardan tashqari davlat byudjet daromadlari davlat sektoridagi korxonalar va tashkilotlarning foydasi, davlat mulkini ijaraga berish va davlat qimmatli qog'ozlaridan daromad olish xususiy tadbirkorlikda davlatning hissaviy qatnashuvidan tushumlar orqali ham tashkil etish imkoniyati yaratib berildi.

Soliqlarning funksiyalari to'g'risida turli xil qarashlar mavjud. Sobiq sotsialistik mamlakatlar iqtisodchilari o'rtasida soliqlar ikki funksiyani

bajaradi, degan qarash keng tarqalgan edi. Bu ikki funktsiya sifatida fiskal va nazorat funktsiyalari tan olinardi. Ularning fikriga ko'ra eng asosiy funktsiya bu soliqlarning fiskal funktsiyasidir, chunki usiz nazorat funktsiyasining mavjud bo'lishi mumkin emas.

G'arb iqtisodchilarining ko'pchiligini nazariyalari angliyalik iqtisodchi J.Keynsning konsepsiyasiga asoslanadi. By konsepsiyaga ko'ra soliqlar fiskal funktsiyasidan tashqari iqtisodiyotni tartibga solish, rag'batlantirish va daromadlarni boshqarish vositasi funktsiyalariga ega, soliqning bu funktsiyalari uni iqtisodiyotni tartibga solish va iqtisodiy barqaror o'sishni ta'minlash vositasi sifatida foydalanish zarurligidan kelib chiqadi.

Neokeynschilik yo'nalishi vakillari bo'lgan L.Xarrot, N.Kaldor, A.Xansen va P.Samuelsonlarning fikriga ko'ra soliqlar iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasiga ega. Ular soliq stavkalarini o'zgartirish va turli imtiyozlar berish yo'li bilan bu funktsiyani bajarish mumkin deb hisoblaydilar.

Soliqlarning daromadlarni boshqarish funktsiyasini yuzaga kelishiga fransuz iqtisodchisi Emil de Jirardenning nazariyasi asos bo'lgan. Bu nazariyaga ko'ra, soliqlar yordamida soliqqa tortishning progressiv shkalasini qo'llash yo'li bilan jamiyat a'zolari o'rtasidagi mulkiy tengsizlikka barham berish mumkin. Hozirgi kunda bu nazariyaning davomchilari bo'lib, amerikalik iqtisodchilar A.Ilersik, G.Koul, fransuz iqtisodchilari M.Klyudo, J.Furaste hisoblanishadi. Ularning fikriga ko'ra, davlat soliqlardan va transfert to'lovlaridan foydalanish yo'li bilan jamiyat milliy daromadini kambag'allar foydasiga qayta taqsimlaydi. Bu nazariyalar soliqlarning daromadlarni tartibga solish funktsiyasi mavjud, degan xulosa kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Malmiginning fikriga ko'ra soliqlar uch funktsiyani bajaradi, ya'ni fiskal, taqsimlash va rag'batlantirish. Uning fikriga ko'ra birinchi funktsiya davlat daromadlari manbalarining tashkil topishi bilan bog'liq, ikkinchisi huquqiy va jismoniy shaxslarning daromadlarini taqsimlashni nazarda

tutadi. Rag‘batlantirish funksiyasi turli imtiyozlar va yengilliklar berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.¹¹

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, G‘arb iqtisodiy adabiyotlaridagi daromadlarni boshqarish funksiyasi I.Malmiginda taqsimlash funksiyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Soliqlar iqtisodiyotning tarixiy rivojlanishi bosqichlarida ushbu rivojlanish jarayonlarini ta‘minlash maqsadiga bo‘ysunuvchi vazifalarni bajaradi. Soliqlarning funksiyalari esa ana shu vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Soliqlar bajaradigan vazifalar ko‘pchilik mamlakatlarning soliq qonunchiligida umumiy o‘xshashliklarga ega. Ana shunday an‘anaviy soliq vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatni zaruriy moliyaviy resurslar bilan ta‘minlab berish. Soliqlarning fiskallik funksiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bu ko‘rsatkich qanchalik yuqori bo‘lsa, soliqlarning fiskallik funksiyasi shunchalik faol bo‘ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmasdan, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlarining ko‘payishi bilan ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi.

❖ Mamlakat iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko‘maklashish. O‘zbekiston Respublikasida soliqlarning ushbu vazifani bajarishi o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, hozirgi kunda sarmoyalarning asosiy qismi savdo va xizmatlar sohasiga yo‘naltirilayotganligidadir va bu albatta, tashvishli holdir. Buning asosiy sababi foyda normasining bu sohalarda kattaligidir. Soliqlar sarmoyalarni bevosita mahsulot ishlab chiqarish sohasiga yo‘naltirishning qudratli vositasi bo‘lishi kerak.

❖ Aholining mehnat faolligini rag‘batlantirish. Soliqlar deyarli barcha mamlakatlarda ushbu vazifani bajaradi. Chunki, ular aholi daromadlarini tartibga solishning muhim vositasi hisoblanadi. Daromadlardan olinadigan soliq stavkalarining eng yuqori chegarasini

¹¹ Мальмигин И. Налоги как элементы финанса. М., 1997. С. 69.

sezilarli darajada pasaytirish ishchi kuchining taklifi bilan bog'liq salbiy oqibatlarining oldini olishga mumkin. 70–80-yillarda Shvetsiyada soliq stavkalarining aholi daromadlariga progressiv ravishda qo'llash malakali ishchilarning boshqa mamlakatlar tomon migratsiyasiga olib kelgan.

❖ Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat tamoyillari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish. Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o'zgaraydigan bo'lishi kerak. Soliq tizimiga mustahkam ishonch bo'lmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, soliqlarning byudjetga ijobiy ta'siridan tashqari, muhim iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish sohasida ham ulardan faol foydalanish mumkin. Narx-navoning isloh qilinishi, tashqi savdoning erkinlashtirilishi, mehnat bozorining isloh qilinishi va hokozolar yangi paydo bo'lgan tijorat strukturalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiradi. Bu vazifani soliq stavkalarining tabaqalashtirish yo'li orqali hal etish mumkin.

Shunday qilib, soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga, balki davlat daromadlarini byudjetning o'rta muddatli rejada hayotiyiligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Soliqlarning funksiyasini o'rganish ularning iqtisodiyotdagi rolini ko'rsatib bersa, soliqqa tortish tamoyillari soliq munosabatlarini amaliyotda tashkil etish, soliqqa tortish, uni undirish amaliyotining mazmunini ochib beradi. Ko'plab iqtisodchilar soliqqa tortish iqtisodiyotning ravnaqiga olib kelishi mumkin bo'lgan tamoyillarni qayd etishgan.

Soliqqa tortish tamoyillarini A.Smit o'zining "Xalqlar boyligining sabablari va tabiatlari" nomli kitobida (1776) ilk bor asoslab bergan:

1. Davlat fuqarolari davlat xarajatlarini qoplashda o'zlari hukumat muhofazasida foydalanayotgan daromadlariga muvofiq tarzda qatnashishlari lozim.

2. Har bir odam to'laydigan soliq aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak, bunda o'zboshimchalik ketmaydi. Soliq miqdori, to'lanadigan vaqti va tartibi uni to'lovchiga ham, boshqa har qanday odamga ham birday aniq va ma'lum bo'lishi zarur.

3. Har bir soliq to'lovchiga har jihatdan qulay bo'lgan vaqtda va tartibda undirilishi kerak.

4. Har bir soliq shunday tarzda tuzilishi kerakki, bunda soliq to'lovchining hamyonidan ketadigan pul davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'ga nisbatan ortiq bo'lishiga mumkin qadar yo'l qo'yilmasin.

Hozirgi sharoitga tatbiqan olganda, soliqqa tortish samarali tizimining quyidagi tamoyillarini ta'riflab o'tish mumkin:

1. *Yetarlilik tamoyili*. Mazkur tamoyilga muvofiq soliqqa tortish darajasi shunday bo'lishi lozimki, u davlat intilayotgan xalq xo'jaligi samaradorligiga erishishni kafolatlay olsin. Soliqqa tortish tizimi iqtisodiyot, ijtimoiy himoya, mudofaa qobiliyati va boshqa sohalardagi davlat siyosatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliya resurslari to'planishini ta'minlasin. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, soliq stavkalari o'z-ozidan soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanmaydi, chunki soliq to'lovchi soliq to'lar ekan, davlat tomonidan bepul xizmatlardan bahramand bo'lgani holda, ayni choqda o'zining ba'zi xarajatlarini qisqartiradi. Masalan, davlat umumiy foydalanish yo'llarining holati yaxshi saqlanishini ta'minlash bilan soliq to'lovchining transport xarajatlarini kamaytiradi, bepul maorif, sog'liqni saqlashni ta'minlash bilan yollanma xodimlarning xarajatlarini qisqartiradi, demak, ish haqi xarajatlarini ham kamaytirgan bo'ladi. Shunday qilib, to'langan soliqlarning faqat xizmatlar ko'rinishidagi talab etilmagan bir qismigina soliq yuki ko'rsatkichi hisoblanadi. Xulosa qilib aytish mumkinki,

yetarlilik tamoyili soliq siyosatini belgilayotganda uni davlatning qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bilan qat'iy ravishda uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

2. *Tadbirkorlik va investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili.* Soliq tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, jumladan, chet el subyektlarini, ishlab chiqarishni rivojlantirish, uskunalar va zamonaviy texnologiyalar sotib olish uchun mablag' yo'naltirishni, ya'ni kapital jamg'arish va shu yo'l bilan texnologiyalarni takomillashtirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishi lozim.

Soliq tizimi resurslarning samarali taqsimlanishiga to'sqinlik qilmasligi hamda xo'jalikni mustaqil yuritish omillarini cheklab qo'ymasligi lozim. Agar soliqlar katta bo'lgani uchun tadbirkorlarning ishlab chiqarishni kengaytirishdan, boshqa turdagi iqtisodiy faoliyat ko'rsatishdan manfaatdorligiga putur yetkazsa, mamlakat iqtisodiyoti pastga qarab ketishi xavfi tug'iladi. Soliqlar miqdori haddan tashqari katta qilib belgilansa, ishlab chiqarish hajmlari kamayib ketadi, bu jarayon zaxiralar, banklardagi pul mablag'larining barakasi uchishiga, ilgari to'plangan mablag'larning yeyilib ketishiga olib keladi.

Bugungi kunda soliq imtiyozlarining qo'llanilishi ishlab chiqaruvchini qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshirilmogda, ya'ni soliq yukini kamayishidan orttiradigan foydasiga korxonani modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash hamda shu orqali mahsulot raqobatdoshligini oshirish eng asosiy maqsad sifatida belgilangan.

S.Jemes va K.Nobesning fikricha, katta soliq imtiyozlari mahalliy sanoatni muhofaza qilish va rivojlantirish, shuningdek, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq.¹²

Soliqqa tortish, agar u, birinchidan, ishchi kuchini ishlab chiqarish uchun talab qilinadigan darajada saqlab turishga zarur bo'lgan iste'molning minimal hajmlariga salbiy ta'sir etsa, ikkinchidan, mehnatga nisbatan iqtisodiy va moddiy rag'batlarning harakat doirasini toraytirib qo'ysa, uchinchidan, jamg'arma miqdorini kamaytirsam va mablag'ning

¹² James S. & Nobes C. The Economics of Taxation: Principles, Policy and Practice. 7th ed. Financial Times/Prentice Hall, Harlow. 2004.

to'planish jarayonini sekinlashtirsa, ishlab chiqarish imkoniyatlarini qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Soliqqa tortishning keyingi ikki salbiy omilini batafsil ko'rib chiqaylik. Moddiy rag'batlantirishlarga nisbatan soliqqa tortishning noxush ta'sir etishi ish haqi tizimida salbiy alomatlar paydo bo'lishida ko'zga tashlanadi.

Yuqori darajada tabaqalashtirilgan soliq stavkalarining qo'llanilishi natijasida xodim tomonidan ana shu moddiy rag'batni qabul qilishdagi oddiylik va maqbullik ko'lami torayib qoladi.

Soliqqa tortish bazasi va uning hajmlarini noto'g'ri belgilash xodimlarning malaka oshirishga, ratsionalizatorlik va ixtirochilik faoliyati bilan shug'ullanishga va boshqa sohalarga bo'lgan intilishiga salbiy ta'sir etadi, boisi – mehnatga to'lanadigan haq miqdori, haqiqiy mehnat xarajatlarining murakkabligi va xususiyati o'zgarishi befarq bo'lib qoladi.

Soliqqa tortishning iqtisodiy omillarga ta'siri ikki xil ko'rinishda bo'ladi hamda qiyosiy oqibat va daromad oqibati shaklida ifodalanadi. Qiyosiy oqibat mehnat natijalari, jang'arish, investitsiyalash, yangi g'oyalarni joriy etish va ishlab chiqarish faoliyatining boshqa xil ko'rinishlari bilan shug'ullanish uchun nisbatan kamroq darajada rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, progressiv (oshib boruvchi) soliqqa tortishda bunday oqibatning rag'batlantirishga zid ta'siri yaqqol ifodalanadi.

Dunyodagi bir qator mamlakatlarda kapitaldan kelgan daromad va iste'molga qarab soliqqa tortishni ko'zda tutgan soliq islohoti o'tkazilmoqda. Soliqqa tortishning salbiy ta'sirini silliqlash maqsadida ishchi kuchini taklif etish sohasida ish haqi ko'rinishidagi daromadlardan olinadigan soliqlarning eng yuqori qilib belgilangan stavkalari pasaytirilmoqda. Jang'arish va investitsiyalashga soliqlarning ta'sir etishi borasida ham muayyan yutuqlarga erishildi.

Soliqlarning ta'siri investitsiyalar tarkibida ham yaqqol seziladi. Turli ko'rinishdagi aktivlar uchun joriy etilgan har xil soliq tartiblari investitsiya imkoniyatlari va sarmoyadorlarning portfeli tarkibida sezilib qoladi. Soliq tizimidagi kamchilik va nuqsonlar iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayib

ketishiga olib kelishi mumkin, bu hol pirovard natijada davlat byudjeti daromadlarining o'zgarishiga ham ta'sir etmay qolmaydi.

Soliqqa tortishdagi og'irlikni kapitaldan shaxsiy jamg'arishga o'tkazishning umumiy ta'sirini bir xil ma'noda baholash qiyin, jamg'armaning umumiy hajmi uchun kelib chiqadigan oqibatlar soliq tushumlarining hukumat tomonidan ishlatilish xususiyatiga bog'liq bo'ladi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida soliq tizimi uy xo'jaliklaridagi jamg'armalar darajasining pasayib ketishiga olib kelgan bo'lsa, u holda bir tekis foiz stavkasi oshgan, bu esa investitsiya kapitaliga talabning kamayishi ta'sir ko'rsatgan bo'ladi. Ochiq iqtisodiyotda esa, jamg'armalardan olinadigan daromad soliqlari investitsiyalarga cheklangan darajada ta'sir qiladi, chunki bunda chet eldan kapitalning ko'proq oqib kelish imkoniyati bor, binobarin, xorijlik sarmoyador jahon bozorida ustun hisoblangan stavkani mo'ljallaydi. Biroq bunday holatda kapitalga bo'lgan mulkchilik harakatga keladi. Bunga misol tariqasida Yaponiyadan kapitalning AQShga oqib o'tganligini ko'rsatish mumkin, AQShda kapitaldan foydalanganlik uchun foiz stavkasi past bo'lgan. Ayni paytda AQShda rezidentlar jamg'armalarini soliqqa tortish stavkasi Yaponiyadagiga qaraganda yuqori edi.

Binobarin, soliq siyosati o'z-o'zidan davlatning moliya-pul siyosatini boshqa unsurlardan ayri holda amalga oshirsa, takror ishlab chiqarish jarayonlariga rag'batlantiruvchi ta'sir o'tkazmasligi ham mumkin.

3. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili. Adolat tamoyillariga muvofiq, soliqlar jamiyat tomonidan oqilona va adolatli deb tan olingan umumiy obyektiv qoidalarga binoan belgilanishi lozim. Adolatlilik tamoyili bir qancha asosiy guruhdagi soliqqa tortish tamoyillariga bo'linadi. Bularni ikki guruhga bo'lgan holda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda gorizontaal va vertikal adolatni bir-biridan farqlash lozim. Gorizontaal adolat tamoyili daromad olishning turli sharoitlarida soliq to'lovchilarga nisbatan soliqqa tortishning taxminan teng shartlarini qo'llashni ko'zda tutadi.

Vertikal adolat deganda xo'jalik yuritishning bir muncha og'ir sharoitlarida ishlayotgan subyektlar uchun soliqqa tortishning bir qadar yumshoqroq shartlarini, yengil daromad olish imkoniyatiga ega bo'lgan subyektlar uchun esa og'irroq shartlarni qo'llashi tushuniladi. Soliqlarning rag'batlantirish funksiyasini bajarish doirasida ikkinchi tamoyil buzilishi mumkin. Masalan, xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida ularni ishlab chiqarish bo'yicha soliqqa tortishda bir qadar imtiyozli shartlar yoki buning aksicha vino-arog va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni cheklash uchun ulardan olinadigan egri soliqlarning yuqori stavkalari belgilangan hollar ham bo'ladi.

Ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishga turlicha yondashuvlar bo'lishi mumkin. Agar soliqlarni to'plangan soliqlar hisobidan ro'yobga chiqariladigan davlat dasturlaridan keyinchalik foyda ko'radigan shaxslar to'lasa, u holda adolatli deb hisoblanadi. Aytaylik, transport vositalariga soliqlardan tushadigan mablag'ni davlat katta yo'llarni ta'mirlashga yoki qurishga sarflasa, bundan soliq to'lovchilarning o'zlari – ya'ni avtomobil egalari naf ko'radi. Biroq bunday yondashuvni keng miqyosda amalga oshirishning iloji yo'q. Huquq-tartibotni mustahkamlash, maorifni rivojlantirish, atrof-muhitni qo'riqlashdan aniq ravishda kim ko'proq foyda ko'rishini qanday qilib hisoblab chiqish mumkin? Hatto bepul sog'liqni saqlash dasturlaridan asosan ko'p bolali oilalar, keksa va nochor fuqarolar foydalanishlari aniqlab chiqilgan taqdirda ham ana shu maqsadlar uchun maxsus soliqlarni aynan ularning o'zidan undirishni talab qilish adolatdan bo'ladimi?

Amaliyotda boshqacha yondashuv birmuncha kengroq qo'llaniladi, unga ko'ra to'lov qobiliyati tamoyili asos qilib olinadi: soliq to'lovchining daromadi qanchalik yuqori bo'lsa, undan shuncha ko'p miqdorda soliq undiriladi. Bu gapning ma'nosi shuki, badavlat odamlar bepul maktab maorifi, milliy mudofaa, sog'liqni saqlash va boshqa sohalar uchun bir qadar yuksak iqtisodiy mas'uliyatni his etishlari lozim, chunki ular kambag'allarga nisbatan ko'proq to'lashga qodirdirlar. Boy odamlar bepul davlat dasturlaridan foydalanadilarmi, agar foydalansalar, qay darajada – buning ahamiyati yo'q. Aslini olganda, o'ziga to'q kishilar ta'lim berish va

xizmat ko'rsatish yaxshiroq yo'lga qo'yilgan maktab va shifoxonalarni tanlaydilar. Bunday to'lov qobiliyati konsepsiyasi AQSh soliq siyosatida keng tarqalgan.

Biroq amaliyotda soliqqa tortishning mazkur konsepsiyasi tez-tez jiddiy qiyinchiliklarga duch kelib turadi. Yiliga 100 ming dollar daromad oladigan kishi yiliga 10 ming dollar daromad oladigan kishiga nisbatan ko'proq soliq to'lashga qodir, degan fikrga qo'shilish mumkin. Biroq bunda birinchi kishi ikkinchisiga qaraganda aynan necha baravar ko'p soliq to'lash imkoniyatiga ega, degan masala noaniqdir. Badavlat odam o'zining daromadidan o'sha hissani va mutlaq katta summani to'laydimi yoki soliq sifatida umuman ko'proq hissa to'laydimi? Afsuski, aniq bir odamning soliq to'lash imkoniyatlarini o'lchash uchun ilmiy asoslangan qandaydir usullar yo'q. Amaliyotda bunga javob, takliflar va taxminlar empirik yo'l bilan yoki hukumatning daromadlarga bo'lgan joriy ehtiyojlari, siyosiy qarashi asosida paydo bo'ladi.

Soliqqa tortishdagi adolat tamoyili ba'zi hollarda taqsimotdagi ijtimoiy adolat tamoyili ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, bu tamoyilni daromadlarni teng ravishda taqsimlash, baravarlashtirish deb tushunmaslik kerak. Qonun oldida tenglikka rioya etilishi, ijtimoiy mumtozlikka, irq va dinga munosiblikka asoslangan imtiyozlarning bekor qilinishi, inson asosiy huquqlarga birday ega bo'lishi kabi tenglik tamoyillari bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan va bu tamoyillarga qadriyatlarining ijtimoiy tizimida qat'iy amal qilmoq lozim. Moddiy tenglik, ya'ni daromadlar, mulk, iste'mol sohasidagi tenglik haqida gap ketadigan bo'lsa, aytish kerakki, bunday tenglikka erishib bo'lmaydi. Davlat va jamiyat barcha fuqarolar yaxshi hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoit yaratib berishlari kerak, albatta, soliqqa tortish tizimi esa istiqbolga mo'ljallangan rejada aholining farovonligini umumiy tarzda amalga oshirish orqali jamiyat quyi qatlamlarining ahvoli izchil ravishda yaxshilanib borishiga ko'maklashmog'i zarur.

4. *Oddiylik va xolislik*. Bu tamoyil soliqqa tortish bazasini aniqlashda, soliqlarni hisoblab chiqishda oddiylik bo'lishini, taqdim etiladigan

hisobotlarning mazmunini soddalashtirishni, shuningdek, soliqlarning eng muhim turlari bo'yicha yagona stavkalar belgilashni, beriladigan imtiyozlarni iloji boricha kamaytirishni ko'zda tutadi. Bu o'rinda nazarda tutilayotgan narsa shuki, soliqlarning rag'batlantirish funksiyasi doirasida beriladigan imtiyozlar yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lmasdan, balki muayyan faoliyat turlarini rag'batlantirishga, soliq to'lovchilarning mulkchilik shakli va qaysi idoraga mansubligidan qat'i nazar, ma'lum turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Ba'zi sohalarda paydo bo'ladigan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ehtiyojni qondirishni byudjet-kredit siyosati orqali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shuki, soliq imtiyozlarining haddan tashqari ko'pligi qonunlarni murakkablashtirib yuboradi, tushunishni qiyinlashtiradi hamda turlicha talqin qilinishiga olib keladi, bu hol pirovard natijada soliq to'lovchilarning soliqlarga nisbatan munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga aniq qilib belgilangan imtiyozlar soliq yukini boshqa soliq to'lovchilar zimmasiga o'tkazib, ijtimoiy adolatsizlik ro'y berishiga olib keladi.

5. *Boshqarishga qulaylik.* Samarali soliq tizimiga qo'yiladigan muhim talablardan biri boshqaruvga qulay bo'lishidir. Soliqlarni undirib olishda samaradorlikka erishish ko'p hollarda soliqlarning soliq to'lovchilarga yaxshi tushunarli bo'lishiga bog'liq.

Ayrim mamlakatlarda soliqqa tortishning nihoyatda murakkab tartibi amal qiladi, aytaylik, shkala va stavkalar turi, soliqlar tarkibi, ularni to'lash qoidalari va tartiblari haddan tashqari ko'p. Buning ustiga ular soliq tushumlarining ko'payishiga hech qanday yordam bermaydi hamda soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi bajarilishida rol o'ynamaydi.

6. *Soliqlarni yig'ish jarayonini imkon qadar arzonlashtirish.* Mazkur tamoyil davlat va soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni yig'ish uchun ketadigan xarajatlarni mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutadi. Buning uchun respublikamizda soliqqa tortish tartibini takomillashtirish bilan bir qatorda soliqlarni maqbullashtirish, kompyuter texnologiyalari, soliq axborotlarining to'g'riligini bevosita nazorat qilish usullarini qo'llash orqali soliq to'lovchilarning xarajatlarini kamaytirish maqsadida davlat

hisobidan saqlanadigan servis-markazlar, soliqa tortish masalalari xususida soliq organlari tomonidan bepul maslahatxonalar tashkil etilgan.

7. *Soliq stavkalarini qiyoslash.* Soliq stavkalari boshqa davlatlardagi xuddi shunday soliqlarning stavkalari bilan qiyoslanishi, ya'ni mintaqaning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda boshqa mamlakatlar bilan teng bo'lgan xo'jalik faoliyati shart-sharoitlari vujudga keltirilishi lozim. Agar qattiq shartlar belgilab qo'yilgudek bo'lsa, bu hol respublika iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilishni mushqullashtirib yuboradi, aksincha, yengil sharoit yaratilsa, mamlakat byudjetiga salbiy ta'sir qiladi.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.

Soliqlar borasida klassik iqtisodiyot asoschisi A.Smit fikrini shu o'rinda joiz deb topdik, ya'ni "yaxshi soliq tizimini yaratish uchun asosiy tamoyillar: tenglik, ishonchlilik, qulaylik va samaradorlikdir".¹³

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida esa soliqa tortish tamoyillari o'rniga soliq qonunchiligi tamoyillari deb atalib, uning besh tamoyili (4-modda)da belgilab berilgan:

➤ Har bir shaxs kodeksda belgilangan soliq va to'lovlarni to'lashga majburdir, ya'ni soliq to'lash qonun bilan majbur qilib qo'yiladi. Aslida majburiylik soliqlarning iqtisodiy mohiyatidan kelib chiqadi;

➤ Huquqiy shaxslarni soliqa tortish mulkchilik shaklidan qat'i nazar, jismoniy shaxslar esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar qonun oldida tengdirlar;

➤ Beligilangan soliqlar va yig'imlar O'zbekiston hududida tovarlar (ishlar, xizmatlar) yoki pul mablag'larini erkin harakatini bevosita yoki bilvosita cheklamaydi yoki soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyatini cheklashga yoki to'sqinlik qilishga yo'l qo'ymaydi;

➤ Manbalaridan qat'i nazar, hamma daromadlar majburiy ravishda soliqa tortiladi.

¹³ Smith A. *The Wealth of Nations*. Edited by Campbell R. H. & Skinner A.S. The Glasgow edition of the Works and Correspondence of Adam Smith. 1776. Vol. 2.

✦ Belgilangan soliq imtiyozlari ijtimoiy adolat tamoyiliga mos kelishi shart.

Soliqqa tortish tamoyillari va soliq qonunchiligi tamoyillari muayyan o'xshashlikka ega va ularni to'liq hayotga tatbiq etish iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir.¹⁴

1.4. O'zbekiston soliq tizimida amalda bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar

Yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda ularning tuzilish tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimini tashkil etadi. Bu ta'rif soliq tizimini keng ma'noda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor ma'noda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondini tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb ataladi. Soliq tizimiga nisbatan bunday yondashuv ayrim adabiyotlarda ham keltirilganligini ta'kidlash o'rinli. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni "majburiy xarakterga ega bo'lgan munosabat" va ularning bir-biri bilan bog'liqligini hamda uning byudjetga kelib tushishini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi mazmuniga mos keladi. Shu yerda bahsli masala ham mavjud, ya'ni davlatning byudjetdan tashqari fondlariga to'lovlarni ham majburiylik nuqtayi nazaridan soliq tizimiga kiritish muammosi mavjud. Bu borada soliqlarni tartibga solish muhim ahamiyatga ega.

Soliqlarni tartibga solish – milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlariga mos ravishda soliq yukini o'zgartirish maqsadida soliq siyosati doirasida davlat tomonidan amalga oshiriladigan jarayonlarni bir me'yorga keltirish maqsad qilingan normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisidir.

Soliqlarni tartibga solishning maqsadi iqtisodiyotni rivojining barcha darajalarida barqaror iqtisodiy o'sish va ijtimoiy rivojlantirish sharoitlarini

¹⁴ Яхёев К. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Т.: Гафур Фулом, 2003.

yaratish maqsadida kompleks choralar, mexanizmlar, vositalar va harakatlarni shakllantirish hisoblanadi.

Demak, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, soliq mexanizmi, soliq nazorati kabi toifalar zahirida soliqlarni tartibga solish yotadi. Soliqlarni tartibga solish ushbu tushunchalarni bir qator vositalar orqali amalga oshiradi.

Soliqlar bo'yicha izlanishlar olib borgan ayrim mualliflarning soliq tizimiga yondashuvi boshqacha. Soliq tizimiga, xususan, soliqlar yoki ularga tenglashtirilgan to'lovlar tizimi (majmui) sifatida qarash mumkin emas. Soliq solishning muhim shart-sharoitlariga quyidagilar: soliqlarni belgilash va amalga kiritish tartibi, soliqlarning turlari, ularni byudjet darajalari o'rtasida taqsimlash tartibi, soliq nazoratini amalga oshirish shakllari va uslublari, soliq to'lovchilarning huquqlari, majburiyatlari, ular manfaatlarini himoya qilish usullari, soliq munosabatlari ishtirokchilarining javobgarligi kiradi va shu bilan birga ushbu elementlar soliq tizimining tarkibiy unsurlari ekanligini ta'kidlaydi. Soliq tizimini ana shu elementlarning majmuasidan iborat bo'lgan va ular o'rtasidagi munosabatlar majmuasidan kelib chiqqan holda ifodalash mumkin.

Umuman olganda soliq tizimini tarkiban soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliqqa tortish tizimi, soliq mexanizmi kabilarga ajratish mumkin. Ushbu elementlar bevosita mamlakatda amal qilayotgan soliqlarning tarkibini belgilab beradi.

Soliq tizimining asosi bo'lgan soliqlar o'ziga xos xususiyatlariga, bir qator belgilariga ko'ra guruhlanadi. Soliqlarning guruhlanishi ularning obyektiga, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga, undirilish usullari, paydo bo'lishiga (subyektiga), byudjetga yo'naltirilishiga va boshqa belgilariga ko'ra ularning tasniflanishidir.

Soliqlarni bunday tartibda guruhlarga ajratishdan maqsad ularni taqsimlash tamoyillarini belgilashda, ularning soliq funksiyasi va vazifalarini qay darajada bajarayotganligini baholashda, umuman olganda davlat byudjetini doimiy ravishda va muntazam daromadlar bilan ta'minlashda, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlarning tadbirkorlik

faoliyatini cheklab qo'ymasdan faoliyat ko'rsatishida soliqlarning har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilishdan iborat.

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab yoki boshqacha qilib aytganda undirib olish manbasiga qarab ikki guruhga to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga bo'linadi. Soliqlarni belgilaydigan va ulardan tushgan mablag'ni tasarruf etishiga, ya'ni byudjetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar umumdavlat va mahalliy soliqlarga bo'linadi. Shuningdek, soliqlar paydo bo'lish manbaiga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga bo'linadi. Soliqlarning qayd etilgan guruhlarga ajratib o'rganishni alohida savol sifatida kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning ayrim turlarini ko'rib chiqamiz. Soliqlarni obyekt va iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlash iqtisodiyotga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishni o'rganishning ilmiy va amaliy uslubidir.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab uch guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar. Bunda soliqlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning bevosita oborotidan undiriladi, ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari, yig'imlari va boshqalar kiradi.

2. Mol-mulk qiymatlaridan olinadigan soliqlar. Bunday soliqlar soliq to'lovchi subyektlar tasarrufida mavjud bo'lgan mol-mulkdan, yerdan va boshqalarga nisbatan belgilanadigan soliqlardan iborat.

3. Daromaddan olinadigan soliqlar. Bunga yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig'i, infratuzilmani rivojlantirish solig'i, jismoniy shaxslarning daromad solig'i va boshqalar kiradi.

Mamlakatimizda amal qilayotgan soliqlarning ayrimlari korxonalar xo'jalik faoliyatining oxirgi moliyaviy natijasidan byudjetga to'lanadigan aksariyat soliqlar va majburiy to'lovlar kelgusi davr xarajatlari orqali ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shiladi (yyer solig'i, mol-mulk solig'i va boshqalar). Shu o'rinda soliqlarni guruhlashning asosi hisoblangan, ularni xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyatiga ta'sir etishiga qarab quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

1. Tovar (ish, xizmat)lar oborotidan to'lanadigan soliqlar. Bunday soliqlarga asosan egri soliqlar kiradi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq, bojxona bojlari.

2. Ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan soliqlar: pensiya fondiga ajratmalar, kasaba uyushmalari federatsiyasiga ajratmalar, bandlik fondiga ajratmalar va boshqalar.

3. Davr xarajatlariga kiritiladigan soliqlar: mol-mulk solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va boshqalar.

4. Korxonalar foydasidan to'lanadigan soliqlar: daromad (foyda) solig'i va boshqalar.

1.5. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar: iqtisodiy mohiyatiga ko'ra guruhlanishi; byudjetga tushishiga ko'ra guruhlanishi; soliq to'lovchilar nuqtayi nazaridan guruhlanishi

Respublikamizda so'nggi yillarda soliq islohotlariga alohida e'tibor qaratilib, soliq organlari faoliyatini tubdan isloh qilish, soliq qonunchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tendensiyasi muntazam amalga oshirilib kelinmoqda. Bu aynan byudjet daromadlari nuqtayi nazaridan soliq to'lov potentsiali mohiyatini bilishni taqozo etadi.

Soliq to'lov potentsiali – bu soliq yig'im va to'lovlarining real chegaralarini aks ettiruvchi turli darajadagi byudjet daromadlarini hosil qilish bilan bog'liq bo'lgan davlat, korxonalar va fuqarolar o'rtasida qonuniy paydo bo'luvchi soliq munosabatlar yig'indisini tavsiflovchi iqtisodiy voqelikdir.

Soliq munosabatlari tarkibida turli soliq turlari va ularning guruhlanishi namoyon bo'ladi. Soliqlar iqtisodiy mohiyatiga, to'lovchi bilan davlatning o'zaro munosabatlariga bevosita yoki bilvosita bog'liqligiga ko'ra to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi. To'g'ri soliqlar to'g'ridan to'g'ri daromadga va mol-mulkka qaratiladi (soliqqa tortishning bevosita shakli). Tovarning

bahosida to‘lanadigan yoki tarifga kiritiladigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar egri soliqlarga kiradi. Tovar va xizmatlarning egasi ularni sotishda soliq summalarini olib, ularni davlatga o‘tkazadi.

1.1-jadval

Davlat byudjeti daromadlari hajmi, mlrd. so‘m

T/r	Ko‘rsatkichlar	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019-yil	2020-yil (prognoz)
	<i>Daromadlar, jami</i>	41 043,4	49 681,0	79099,1	112165,4	128460,0
1	Bevosita soliqlar	9 852,8	11 539,4	15656,2	31676,8	40719,0
2	Bilvosita soliqlar	21 130,7	26 133,2	41280,4	46428,5	58244,2
3	Resurs to‘lovlari va mulk solig‘i	5 306,2	6 867,4	12663,4	19680,8	20690,3
4	Yuqori daromaddan olinadigan soliq	1 401,9	1 415,2	1528,0	107,9	-
5	Boshqa daromadlar	3 351,8	3 725,8	7971,1	14271,4	8806,5

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma‘lumotlari.

Daromadlar oladigan (mol-mulkka va shu kabilarga egalik qiladigan) xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘ri soliqlarning pirovard to‘lovchisi hisoblanadi, narxlarga ustamalar orqali soliq yuki yuklab qo‘yiladigan tovarning iste‘molchisi esa egri soliqlarning pirovard to‘lovchisi hisoblanadi. Amaliyotda nafaqat egri soliqlar, shu bilan birga to‘g‘ri soliqlarni ham iste‘molchilar zimmasiga o‘tkazish imkoniyati mavjuddir. Masalan, korxonalar to‘laydigan soliqlar yuki inflyatsiya davrida ko‘pincha narx-navoni oshirib yuborish orqali iste‘molchilar zimmasiga yuklab boriladi.

To‘g‘ri soliqlarga tortishda mablag‘larning safarbar qilinishi yangi qiymatni taqsimlash paytida boshlanadi. Davlat daromad olingan paytdayoq uning bir qismiga o‘z huquqlarini da’vo qiladi.

Soliq to‘lovchining daromadi (ish haqi, foyda, foizlar va hokazo) va uning mol-mulkini (yer, uylar, qimmatli qog‘ozlar va hokazo) qiymati to‘g‘ri soliqlar obyektini hisoblanadi. Soliqqa tortishning bu shakli egri soliqlarga nisbatan birmuncha progressivdir, chunki u soliq to‘lovchining daromadliligini, oilaviy ahvolini hisobga oladi, soliq daromadni olish

bosqichida undiriladi. Bundan tashqari, to'g'ri soliqlarga tortishda soliq to'lovchi o'z solig'ining summasini aniq biladi.

Tarixiy jihatdan olganda to'g'ri soliqlar XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida shakllandi, ular faqat XX asrda keng ommalashdi.

To'g'ri soliqlar real va shaxsiy soliqlarga bo'linadi.

Real soliqlar soliq to'lovchi mol-mulkingning ayrim turlaridan (yer, uylardan) kadastr asosida undiriladi, to'lovchining haqiqiy daromadlilikini emas, balki o'rtacha daromadlilikini hisobga oladi. Soliqqa tortish obyektiga qarab quyidagilar real soliqlarga kiradi: yerga oid, uy-joylarga doir, kasb-hunarga tegishli, qimmatli qog'ozlardan olinadigan soliqlar. Real soliqlar tashqi belgilarga asoslanadi, soliqqa tortish mol-mulkning kadastr bo'yicha aniqlanadigan o'rtacha daromadliliği bo'yicha amalga oshiriladi. O'z mohiyatiga ko'ra bunday soliqlar regressiv tusga egadir.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, davlat faoliyatining kengayishi shaxsiy soliqlarga o'tilishini taqozo etdi, chunki real soliqlar fiskal jihatdan ham, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lmay qoldi. Real soliqqa tortishning ayrim unsurlari, odatda, mahalliy soliqlar tizimida asosan sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda saqlanib qolgan. Shaxsiy soliqlar ravnaq topmoqda, bular daromadlar manbaida yoki deklaratsiya bo'yicha undiriladigan jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlari va mol-mulkidan olinadigan soliqlardir. Real soliqdan farqli ravishda shaxsiy soliqqa tortishda obyekt (daromad, mol-mulk) har bir to'lovchi uchun yakka tartibda hisoblab chiqiladi, uning moliyaviy ahvoli (oila soni, qarzdorlik va hokazo) e'tiborga olinadi. Rivojlangan mamlakatlarda soliqqa tortish obyektiga qarab shaxsiy soliqlarning quyidagi turlari farqlanadi: daromad solig'i, pullik sarmoyalardan tushadigan daromatlardan olinadigan soliq, sarmoyaning o'sishidan olinadigan soliq, korporatsiyaning foydasidan olinadigan soliq, merosdan va sovg'a qilishdan olinadigan soliq, mol-mulkdan olinadigan soliq, jon boshiga olinadigan soliq va hokazo.

Egri soliqlar bahoga yoki tarifga ustama sifatida belgilanadigan tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlardir. Egri soliqlarga tortishda davlat

tovar yoki xizmatlarning sotilishi paytida ushbu qiymatning bir qismiga o'z huquqlarini da'vo qilish bilan aslida yangi qiymatning taqsimlanishi ishtirokchisi bo'lib qoladi. Egri soliqlar to'g'ri soliqlardan farqli ravishda to'lovchining daromadi yoki mol-mulki bilan bevosita bog'liq bo'lmaydi. Tovarlar, odatda, shaxsiy iste'mol tovarlari, shuningdek, xizmat ko'rsatish sohasining (sartaroshxonalar, hammomlar, kimyoviy tozalash xizmatlari) pullik aylanmasi, tomosha ko'rsatadigan va transport korxonalarining pattalari va shu kabilar soliqqa tortish obyekti bo'ladi. Egri soliqlarga tortiladigan tovarlar va xizmatlar soni muntazam kengayib bormoqda.

Xaridor-iste'molchi egri soliqlarning to'lovchisi bo'ladi. Tovarining sohibi yoki xizmatlar ko'rsatadigan shaxs aslida soliqni yig'uvchi hisoblanadi. Egri soliqlarning anchagina qismi mulkdor tomonidan tovarning yoki xizmatlarning narxiga qo'shiladi. Davlat korxonalari va monopoliyalar soliqning butun summasiga narxlarni oshirish bo'yicha juda katta imkoniyatlarga egadir. Tarmoq ichidagi raqobat yuksak bo'lganida va talab barqaror bo'lmagan holda soliqning muayyan hissasi tovarning ishlab chiqaruvchisi va sotuvchi tomonidan to'lanadi. Egri soliqlarning asosiy to'lovchisi pirovard oqibatda iste'molchilar bo'ladilar.

Egri soliqlar daromadlilikni, oilaviy ahvolni hisobga olmaydi. Hamma fuqarolar o'z daromadlarining miqdoridan qat'i nazar, bunday soliqlarni to'laydilar, chunki egri soliqlarga tortiladigan turmush uchun zarur bo'lgan tovarlarni iste'mol qilishadi va xizmatlardan foydalanishadi.

Egri soliqlarning stavkalari qat'iy (tovar o'lchamining birligiga) va foizli (tovarning narxiga muayyan hissada) bo'ladi. Foizli stavkalar davlat uchun ko'proq foydalidir, chunki narxlar oshganida soliq tushumlari ham ko'payadi. Soliq stavkalarining oshirilishi ularning tovarlarni narxidagi hissasini ortishiga olib keladi.

Egri soliqlar aksizlarni, davlatning fiskal monopoliyalarini va bojxona bojlarini o'z ichiga oladi. Aksizlar undirilish usuliga qarab yakka tartibdagi (vinoga, tamakiga, benzina va h.k.) va universal (qo'shilgan qiymat solig'i va boshqalar) turlarga bo'linadi. Ular asosan xo'jalik aktlaridan va aylanmalardan, moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri va egri soliqlar o'rtasidagi maqbul nisbatni ta'minlashni belgilovchi me'yorlarni aniqlash muammosi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Ayrim soliq turlarining nisbati jamiyat rivojlanishiga qarab o'zgardi. XIX asrda va XX asr boshida undirilishining soddaligi bilan ajralib turadigan egri soliqlar asosiy ahamiyat kasb etgan edi. O'tgan asrning 20-yillardan boshlab ko'pgina mamlakatlarda to'g'ri soliqlar ko'proq ahamiyat kasb eta boshladi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng rivojlangan mamlakatlarning soliq tizimida to'g'ri soliqlar alohida ahamiyatga ega bo'lib qoldi, daromad solig'i va korporatsiyalarning foydasidan olinadigan soliq ular ichida asosiy o'rin tutardi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilganimizda, to'g'ri soliqlarni to'g'ridan to'g'ri soliq to'lovchilarning o'zi to'laydi, ya'ni soliqning huquqiy va haqiqiy to'lovchisi ham bitta shaxs hisoblanadi.

Egri soliqlarning huquqiy to'lovchisi mahsulot ortuvchilar, ish, xizmatni bajaruvchilar hamda xizmat ko'rsatuvchilar, haqiqiy to'lovchisi esa iste'molchilar hisoblanadi.

Respublikamizda amal qilayotgan soliqlar hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning qariyb uchdan bir qismini taqsimlab, byudjetga jalb etadi va u orqali davlatning ijtimoiy zaruriy xarajatlari moliyalashtirishga yo'naltiriladi. So'nggi yillarda to'g'ri soliqlarning salmog'i yalpi ichki mahsulot qiymatida bir oz kamayib, egri soliqlar salmog'i oshgan. Bu yerda hozirgi sharoitda to'g'ri tendensiya mavjuddir, chunki egri soliqlar korxonaning to'g'ridan to'g'ri investitsiya faoliyatini susayishiga olib kelmaydi. To'g'ri soliqlar salmog'i YaIM qiymatida pasayishi korxonalarning moddiy-texnikaviy bazasi kengayishiga, qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishiga imkon yaratadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amal qilayotgan to'g'ri va egri soliqlar tarkibiga quyidagi soliqlar kiradi (1.2-jadval):

O'zbekistonda to'g'ri va egri soliqlar tarkibi

To'g'ri soliqlar	Egri soliqlar
1. Foyda solig'i	1. Qo'shilgan qiymat solig'i
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2. Aksiz solig'i
3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	3. Bojxona boji
4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	
5. Mol-mulk solig'i	
6. Yer solig'i	
7. Ijtimoiy soliq	

Yagona davlat byudjeti daromadlari tarkibida ularning salmog'i yuqoridagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi.

Bevosita soliqlar hajmi tendensiyasi va tarkibi¹⁵, mlrd. so'm

t/r	Ko'rsatkichlar	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil (prognoz)
	Bevosita soliqlar	9852,8	11539,4	15656,2	31676,8	40719,0
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	1215,1	1475,5	3502,2	16360,6	22051,1
2	Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini uchun yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	1515,3	1707,5	2108,5	-	-
3	Yagona soliq to'lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalardan ajratmalar	1440,8	1751,7	2597,9	1988,7	2599,9
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	4137,4	4876,4	6422,7	12668,5	16068,0
5	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq	822,3	1042,8	1024,8	658,9	-
6	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i	721,9	685,5	-	-	-

¹⁵ www.mfuz - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти маълумотлари.

Ko'pgina olimlar tadqiqotlarida to'g'ri va egri soliqlarning ijobiy va salbiy jihatlarini keltirib o'tishgan. Xususan, I.S. Illovayskiy to'g'ri soliqlar rivojlangan davlatlarda iqtisodiy jarayonlarni tartibga solishdagi asosiy moliyaviy dastagi, deya ta'kidlaydi¹⁶. G.D. Chernik egri soliqlarning yashirin xususiyatini ijobiy jihat sifatida ta'riflab, "xarajatlarga solinadigan soliqlar doimiy va sezilmasdan undirilganligi sababli eng kam malol keltiradi", deb ta'kidlaydi.¹⁷ V.Samofalov esa faqatgina qoloq va qaram davlatlar holatida egri soliqlarning yashirin xususiyatidagi ijobiy jihatni ko'rish mumkinligini aytadi.¹⁸ Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki, to'g'ri va egri soliqlarning ijobiy yoki salbiy jihatlarini tasniflash bizningcha ancha munozarali masala.

1.4-jadval

Bilvosita soliqlar hajmi tendensiyasi va tarkibi,¹⁹ (mlrd. so'm)

t/r	Ko'rsatkichlar	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil (prognoz)
	Bilvosita soliqlar	26133,2	41280,4	46428,5	58244,2
1	Qo'shilgan qiymat solig'i	14685,8	27876,5	33809,8	44193,2
2	Aksiz solig'i	7449,2	9702,2	10316,0	11339,0
3	Bojxona boji	1707,4	1826,4	2302,7	2712,0
4	Transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq	1784,5	1543,9	-	-
5	Abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun soliq	506,4	331,3	-	-

¹⁶ Иловайский С. И. Косвенное налогообложение в теории и практике. Пенза: РИО ПГСХА, 2010. С. 115.

¹⁷ Черник Д. Г. Налоги: Учебник. М.: Финансы и статистика, 2009. С. 15.

¹⁸ Самофалов В. Г. Косвенные налоги и подоходный налог: Учебник. СПб.: Питер, 2007. С. 50.

¹⁹ www.mf.uz - Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги сайти маълумотлари.

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlil qilinganda yuridik shaxslar soliqlari va boshqa to'lovlari byudjet daromadlarining asosiy qismini tashkil etishi ko'rinadi. Bu soliqlar davlat byudjeti xarajatlarini moliyalashtirishda mustahkamlikni, uzviylikni ta'minlaydi. Bu soliqlarsiz byudjetni rejali moliyalashtirishning iloji yo'qdir. Shuning uchun ularning ahamiyati byudjet daromadlarini shakllantirishda beqiyosdir.

Agar bir davlatda ayrim soliqlar harakati jarayoni: ma'lum bir respublika va mahalliy byudjetga biriktirilgan bo'lsa, ayrimlari esa, byudjetlarni tartibga solib turadigan soliqlarga bo'linadi.

Respublikamizda asosan soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantiradi. Davlat byudjeti tizimi mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hamda ma'naviy hayotini moliyaviy mablag' bilan ta'minlaydi va bu O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimida umumrespublika byudjetining yetakchi bo'g'inidir. U umumdavlat resurslarining bir qismi bevosita davlat hokimiyatining ijro etuvchi va farmoyish beruvchi oliy organi – O'zbekiston Respublikasi hukumatida markazlashuvni ta'minlaydi. Markazlashgan resurslar umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan, umuman olganda jamiyat manfaatlarini ifodalaydigan tadbirlarni (xalq xo'jaligi ahamiyatidagi qurilishlarni, eng muhim ijtimoiy tadbirlarni, mudofaa, boshqaruv, davlatning tashqi iqtisodiy aloqalari, davlatning moddiy va moliyaviy zaxiralarini) mablag' bilan ta'minlashga ishlatiladi. Umumrespublika byudjeti orqali milliy daromadni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahriga taqsimlash va qayta taqsimlash jarayoni izga solib turiladi. Davlat umumrespublika byudjetidan davlat byudjetining bu bo'g'ini ijrosi yuzasidan respublikadagi hamma ishlarni muvofiqlashtirish uchun foydalanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining byudjeti pul mablag'larini respublikaning tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari amalga oshiradigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tadbirlarini moliyalashtirish uchun markazlashtiradi.

Mahalliy byudjetlar O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi. Ular davlat hokimiyatining har bir mahalliy organi o'z faoliyatini amalga oshirishi uchun uning ixtiyorida

aniq moliyaviy baza yaratadi. Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy talab-ehhtiyojlarni to'laroq hisobga olish hamda davlat tomonidan markazlashgan tartibda amalga oshiriladigan tadbirlar bilan to'g'ri olib borish imkonini beradi, mahalliy hokimiyat organlari mahalliy byudjet daromadlarining ko'payishi va resurslarning tejamkorlik bilan sarflanishi to'g'risida tinmay g'amxo'rlik qiladi, chunki joylarda iqtisodiyot va madaniyatning yuksalish sur'atlari to'g'ridan to'g'ri mahalliy xo'jalik zaxiralarini safarbar qilish, mablag'larni tejab ishlatish borasidagi ishlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ladi, bu esa o'z navbatida umuman O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi. Mahalliy byudjetlardan uy-joy-kommunal xo'jaligi va obodonlashtirish, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari (maktablar, kasalxonalar, maktabgacha tarbiya muassasalari va boshqalar), ijtimoiy ta'minot sohasidagi tadbirlar mablag' bilan ta'minlanadi.

Respublikamizda soliqlar byudjet tizimi daromadlarini shakllantirilishiga qarab asosan ikki guruhga bo'linadi:

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 51-moddasiga muvofiq umumdavlat soliqlariga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- yagona soliq to'lovi;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

Umumdavlat soliqlari har yili qonuniy tartibda belgilanadigan normativlar bo'yicha tegishli byudjetlar o'rtasida taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 52-moddasiga muvofiq mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- mol-mulk solig'i;
- yyer solig'i;
- ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish uchun yig'im.

Umumdavlat soliqlari asosan respublika byudjeti daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lsa, mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantiradi.

Soliqlarning respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida taqsimlanishi ular daromad manbaini shakllantirishdagi bir qator muammolarni vujudga keltiradi. Bularning asosiylaridan biri byudjetlarni moliyalashtirish yuzasidan soliqlarning byudjetlararo taqsimlanish tartibi mezonlarini belgilash muammosidir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'imlar Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Soliq munosabatlari mavjud bo'lishining asosiy shartlaridan biri davlatning mavjudligi bo'lsa, ikkinchi sharti bo'lib soliqlarni to'lashga qobil bo'lgan soliq to'lovchilarning mavjudligidir. O'zbekiston soliqlar tizimi manbaiga qarab soliqlar yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishi yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida bo'linmalar ham tushuniladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlarga hamma egri soliqlar, korxonalar daromadiga soliq, yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun, suv resurslaridan foydalanganlik uchun, savdo tashkilotlarini yalpi daromad solig'i, yer solig'i, mol-mulk solig'i, kichik biznes uchun yagona soliq va boshqalar kiradi. Ba'zi soliqlarni (QQS, aksiz) yuridik shaxslar ham jismoniy shaxslar ham to'laydilar. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarga daromad solig'i, yer va mol-mulk soliqlari kiradi. Huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining hal qiluvchi qismini tashkil etadi. Bu soliqlarning muhim xususiyati naqd pulsiz shaklda korxonalar hisob (joriy) schyotlaridan byudjet schyotlariga ko'chirib qo'yiladi. Uni undirish oson va arzoniga tushadi. Jismoniy shaxslardan

olinadigan ba'zi soliqlar naqd pulda undirilganligi uchun uni to'lash qiyin kechadi. Bunday soliqlarga yer, mol-mulk soliqlari va qator yig'imlar kiradi. Soliq yig'ish xarajati ko'payib ketadi. Chunki bu ish bilan maxsus tajribaga ega bo'lgan inspektorlar shug'ullanadi, hujjatlar (deklaratsiya, xabarnomalar, chaqiriqlar va boshqalar) ko'p yoziladi.

Jismoniy shaxslar soliqlari ichida eng yirigi fuqarolarning jami daromadiga solinadigan soliqdir. Bu soliq orqali fuqarolarning guruhlari daromadlarini boshqarib borish imkoniyati yaratiladi.

Ilgari aytganimizdek, yuridik shaxslarning byudjetlarga to'laydigan soliqlari to'g'ri va egri soliqlarga bo'linadi.

To'g'ri soliqlar daromad (foyda) soliqlari va resurslar soliqlaridan tashkil topadi. Egri soliqlar esa qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, bojxona bojidan iboratdir. Yuridik shaxslarning bu soliqlari byudjet daromadlarini asosiy qismini tashkil etishi quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rinadi.

Yuridik shaxslar soliqlari pul muomalasini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega. To'g'ri soliqlar yuridik shaxslarning xarajatlarga mo'ljallangan mablag'larini qisqartirib muomalaga oz pullarni chiqarishga olib keladi. Egri soliqlar esa tovarlar (ishlar, xizmatlar) tarkibida bo'lib, baho hisobiga muomaladagi ortiqcha pullarni muomaladan oladi. Shunday qilib soliqlar pul muomalasini mustahkamlashda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning oshishi tovar (xizmat, ish) taklifini oshiradi, talabni kamaytiradi. Bu esa pul emissiyasini kamaytiradi. Ammo taklifda real qiymati past bo'lganligi bois inflyatsiyani paydo qilishi mumkin.

Yuridik shaxslar o'zlariga yuklatilgan soliqlarni hisoblash va byudjetga o'z vaqtida, to'liq to'lash javobgarligini olganlar. Ularning to'laydigan soliqlari asosan naqd pulsiz, ya'ni korxonalar, tashkilot, birlashmaning bankdagi hisob schyotlaridan mablag'ni ko'chirib, respublika yoki mahalliy byudjet schyotlariga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Qoida bo'yicha har qanday yuridik shaxs o'zi to'laydigan solig'i va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan vaqtda byudjetga to'liq o'tkazishga majburdir. Buning uchun ular soliq va boshqa to'lovlarning

muddati kelgan kungacha pullarni o'tkazish hujjatlari bo'lmish to'lov topshirig'i, cheklarni yozib banklarga topshirgan bo'lishlari kerak.

Agar to'lov topshiriqlari o'z muddatida yozilib banklarga topshirilmagan bo'lsa soliq idoralari o'zlarining inkasso-to'lov talabnomalari orqali undirib oladilar. Har bir o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan kun uchun o'tkazilishi kerak bo'lgan soliq summasi hisobidan 0,05% penya hisoblanib soliqqa qo'shimcha ravishda byudjetga majburiy undiriladi. Albatta penya summasining ko'payishi korxonaning moliyaviy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun har qanday xo'jalik subyektlari hisobchilari soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni ularda belgilangan to'lov muddatigacha o'z vaqtida to'lab borishlari shart. Bunda ayniqsa bo'nak (avans) to'lovlarga ko'proq e'tibor qaratilishi lozim, chunki QQS, daromadga (foydaga) soliq va boshqalarda bo'nak to'lovlar soni ko'p bo'lganligidan boqimandaning ko'payishiga olib keladi. Hozirgi kunda bu boqimanda bilan kurash iqtisodiyotni barqarorlashtirishda muhim davlat tadbirlariga aylanmoqda.

Yuridik shaxslarning hamma soliqlari naqd pulsiz to'lanadi. Biroq, ayrim yig'imlar (davlat va bojxona bojlari) naqd pulli bo'lishi mumkin. Yuridik shaxslar soliqlarini naqd pulsiz to'lanishi juda katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Pul o'tkazishlar tezlashadi, ijtimoiy xarajatlar tejaladi.

Jismoniy shaxslar deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Moliya yilida soliq solinadigan daromad, mol-mulk, yer, maydoni, transport vositalari va shu kabi boshqa predmetlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar ularga belgilangan soliqlarni to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasining rezidenti deb qaraladi. O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek, undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinsa, O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lmagan jismoniy shaxslarga

O'zbekiston Respublikasi hududidagi faoliyatdan olingan daromadlar bo'yicha soliq solinadi.

Umuman olganda mamlakatimiz soliq qonunchiligidan kelib chiqib soliqqa tortish nuqtayi nazaridan yuridik shaxslarni shartli ravishda quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

- ✓ umumiy tartibda soliq to'lovchi yuridik shaxslar;
- ✓ mikrofirmalar va kichik korxonalar;
- ✓ qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari;
- ✓ savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
- ✓ lotoreyalar, totalizatorlar va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar o'tkazishga ixtisoslashgan yuridik shaxslar;
- ✓ tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar.

Umuman soliq to'lovchi yuridik shaxslar quyidagi soliqlarni to'laydi:

- ❖ Foyda solig'i;
- ❖ Qo'shilgan qiymat solig'i;
- ❖ Aksiz solig'i;
- ❖ Mol-mulk solig'i;
- ❖ Yyer solig'i;
- ❖ Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- ❖ Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- ❖ Ijtimoiy soliq.

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi maxsus soliq rejimlari belgilanadi:

- 1) aylanmadan olinadigan soliq;
- 2) mahsulot taqsimotiga oid bitimlar ishtirokchilariga soliq solishning alohida tartibi;
- 3) maxsus iqtisodiy zonalar ishtirokchilariga va ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga soliq solishning alohida tartibi. Shuningdek, yuqoridagi barcha yuridik shaxslar quyidagi yig'implar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlarni ham to'laydilar:

✦ Bojxona to'lovlari (bojxona bojlari va yig'implari, aksiz solig'i va tovarlarni import qilishda qo'shilgan qiymat solig'i);

• Davlat bojlari;

• Tovarlarining ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig'imgilar;

• Ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar va yig'imgilar tarkibi quyidagilardan iborat:

• Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq;

• Mol-mulk solig'i;

• Yyer solig'i;

• Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

• Yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;

• Yagona bojxona to'lovi (import boji, qo'shilgan qiymat solig'i va yig'im o'miga joriy etilgan);

• Import uchun aksiz solig'i;

• Davlat boji;

• Tovarlarining ayrim turlari bilan savdo qilish huquqi uchun yig'imgilar;

• Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im.

Yuqorida qayd etilganlardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, mamlakatimiz soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchilar ikki katta guruhga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslar guruhiga bo'linadi va ularning faoliyat ko'rsatish xususiyatidan kelib chiqib yana tarkibiy qismlarga ajratish mumkin. Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar katta ahamiyatga egaligini yuqoridagi ma'lumotlardan bevosita ko'rishimiz mumkin.

1.6. Soliq elementlari

Soliq elementlari haqida gap borganda ko'pincha adabiyotlarda soliqqa tortish tizimi haqida so'z yuritiladi. Soliq tizimi qonun doirasida undiriladigan soliqlarning nazariy jihatdan tuzilish shakllari yig'indisini

anglatadi. U soliq tizimidan amaliy qo'llanish usullari bilan farq qiladi. Chunki ularni undirish usullari davlatning qonunchilik hujjatlari orqali belgilanadigan tamoyillari yig'indisining ijtimoiy mohiyatini aks ettiradi va u davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi hamda bozor iqtisodiy munosabatlarining taraqqiyot bosqichlari bilan aniqlanadi.

Shu o'rinda soliqqa tortish tizimi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, soliqqa tortish tizimi soliq tizimiga nisbatan tor tushuncha bo'lib, aslida soliq tizimiga kiradi. Soliq tizimi soliqqa oid barcha munosabatlarni qamrab olsa, soliqqa tortish tizimi esa, ushbu munosabatlarni soliqlarni undirish bo'yicha iqtisodiy-huquqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shu jihatdan soliqqa tortish tizimi qonun chiqaruvchi hokimiyat tomonidan qonun yo'li bilan belgilangan hamda ijro hokimiyati tomonidan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuasidan iborat. Soliqqa tortish tizimining mohiyati garchan o'zgaras bo'lib ko'rinsada, uning shakl-shamoyili va yo'nalishi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatiga, qolaversa soliq siyosatining mazmuniga bog'liq bo'ladi. Chunki, soliqqa tortish tizimi o'z ichiga tarkiban soliq elementlari, soliqlarni tashkil etish tamoyillari va usullarini oladi, bu elementlarning qay darajada talqin etilishi esa, bevosita davlat siyosatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, soliq elementlariga kiruvchi soliq stavkasining qaysi turlari ko'proq amal qilishi, soliq imtiyozlarining qay darajada belgilanishi, soliqlarni undirishni qaysi usullaridan ustuvorlik bilan foydalanish asosan ijro hokimiyati faoliyatining mazmuniga bog'liq. Binobarin, shu ma'noda xuddi soliqlarni vazifalari kabi soliqqa tortish tizimi ham har bir davlatda o'ziga xos tarzda amal qilishi va tashkil etilishi mumkin.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, davlat qonunchiligi bilan belgilangan va uning maxsus idoralari tomonidan undiriladigan soliqlarni tashkil etish usullari, elementlari va tamoyillari majmuiga soliqqa tortish tizimi deb ataladi.

Soliqqa tortish tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan soliq elementlari soliqqa tortishda ifodalanadigan tushunchalar bo'lib, ular soliq to'lovchilar va soliqni undiruvchi o'rtasidagi iqtisodiy-huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Soliq solish tizimi o'ziga xos funksional elementlarni o'z tarkibida ifoda qilishi bilan ham ajralib turadi. Soliq elementlari: soliq subyekti, soliq obyekti, soliq predmeti, soliq manbai, soliqqa tortish birligi, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari, soliq normasi, soliqlikni to'lash muddatlari, soliq yuki, soliq bazasini hisoblash usullari, soliqqa tortish usullari va shu kabi tushunchalarni qamrab oladi. Quyida soliq elementlarining har biriga qisqacha izoh beramiz.

Soliq subyekti – soliq to'lash majburiyati yuklangan yuridik va jismoniy shaxslar yoki boshqacha qilib aytganda soliq subyekti – bu soliqqa oid munosabatlarni tashkil etuvchi tomonlarning o'zaro majmuasi bo'lib, unda bir tomondan soliq to'lovchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) boshqa tomondan soliqlikni undirish vakolati yuklangan soliq xizmati organlari – Davlat soliq qo'mitasi, soliq boshqarmalari, tuman va shahar davlat soliq inspeksiyalari qatnashadi. O'z faoliyatida barcha yuridik va jismoniy shaxslar soliq subyekti sifatida namoyon bo'lmaydi. Chunki, bu yerda soliqlardan batamom ozod etiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar mavjudki, ular soliq subyekti sifatida soliq munosabatlarida ishtirok eta olmaydi. Ammo, barcha soliq xizmati organlari soliq subyekti sifatida maydonga chiqadi.

Ular doimiy real soliq to'lovchisi bo'lavermaydi. Soliq yukini bir soliqda tortish subyektidan ikkinchi shaxs zimmasiga yuklatish mumkinligi soliqning sohibi degan tushunchani keltirib chiqaradi, qolaversa bu tushuncha soliqqa tortishning butun yukni o'z zimmasiga olgan, ya'ni amalda soliqlikni to'lovchi shaxsni anglatadi. Masalan, aniq soliqqa tortiladigan tovarlarning iste'molchilari soliqlikni to'lovchilar bo'lib hisoblanadilar.

Soliq agenti – yuridik va jismoniy shaxslardan soliqlikni ushlab qolish va davlat byudjetiga o'tkazib beruvchi yuridik shaxslar. Bunda yuridik shaxslar, ular o'z faoliyatida bevosita yoki bilvosita ishga yollaganligi natijasida to'lanadigan ish haqidagi, dividendlardan, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatmaydigan norezident yuridik va jismoniy shaxslardan ushlanishi lozim bo'lgan soliq summalarini ushlab qoladi va byudjetga o'tkazib beradi, ushlab qolinmagan, kam ushlab qolingani va o'z

vaqtida o'tkazib berilmagan soliq summasi uchun javobgar bo'lib qolaveradi, ya'ni ushbu keltirilgan dalillardan aytishimiz mumkinki, har bir yuridik shaxs soliq munosabatlarida soliq subyekti bo'lishi bilan birgalikda soliq agenti sifatida ham ishtirok etadi. Soliq agenti adabiyotlarda asosan fiskal agent sifatida e'tirof etiladi.

Soliq obyektini deganda soliq to'lovchining soliq solinadigan daromadi, mol-mulk qiymati, tovar, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar tushuniladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, boshqa tushunchalar, ya'ni soliqqa tortish predmeti soliq bazasi va shu kabilarning ahamiyati turli bo'lsa ham, ular soliq obyektini tushunchasi bilan o'zaro bog'liqdir. Soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovlari majburiy xususiyatga ega bo'lganligi tufayli soliq obyektlarini turli ko'rinishlarda qonunlar asosida yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Shuni hisobga olgan holda, soliqqa tortish obyektini bevosita soliq to'lovchilarning majburiyatini yuzaga keltiradigan huquqiy omillar (xatti-harakatlar hodisalar holatlar)da kuniga o'z ifodasini topmoqda.

Amaldagi qonun va nizomlarga ko'ra jismoniy shaxslarning mulki bo'lgan turar-joylar, kvartiralar, bozorchiлик va uzumchilik shirkatlari a'zolarining bog'-hovlisidagi uychalari, garajlar, imoratlar, binolar va inshootlar mol-mulk ko'rinishida soliq obyektini yuzaga keltirib chiqaradi, ammo amal qiluvchi qonun binolar, imoratlar va inshootlar deganda nima tushunilishini belgilab bermaydi, oxir-oqibat bu soliq to'lovchi subyektlarning huquqlarini cheklanishiga sabab bo'lmoqda. Chunki mol-mulk shakllarini qaysi muddatlarda yuzaga keltirilishidan qat'i nazar nazorat yagona mol-mulk ko'rinishida soliq obyektini yuzaga keltirilmoqda va undan soliq belgilangan foizlarda undirilib kelinmoqda.

Soliqqa tortish predmeti – soliq solinadigan daromad, oborot, mol-mulk va boshqalarga bo'lgan huquq emas, balki ularning o'zidir, ya'ni soliq solish obyektini bo'lib biror-bir soliq predmetiga bo'lgan huquq tushunilsa, predmet bo'lib ana shu egalik qilinadigan daromad, yer uchastkasi, imorat va boshqalarning o'zi tushuniladi. Soliq obyektini yoki soliqqa tortish predmeti, unga kim egalik qilish huquqiga ega bo'lsa, unda soliqni to'lash majburiyati, ya'ni soliq subyekti namoyon qiladi. Demak, aytishimiz

mumkinki, soliqqa tortish predmetiga egalik qilish huquqi soliq obyektini vujudga keltirsa, o'z navbatida ushbu predmetga kimning egalik qilishi soliq subyektini yoki soliq to'lovchisini namoyon etadi.

Soliq solish tizimi tarkibida o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ega bo'lgan elementlardan biri bo'lib soliqlarni tashkil etish manbai bo'lib hisoblanadi.

Soliq manbai bo'lib soliq to'lovchining daromadi hisoblanadi. Ayrim hollarda soliq to'lovchining mol-mulki shunday manbani urshnni egallashi mumkinki, agar soliq to'lovchi pul mablag'lari ko'rinishidagi soliq manbasiga ayrim sabablarga ko'ra ega bo'lmagan taqdirda. Shuni ta'kidlash kerakki, soliq to'lovchilar tomonidan soliq manbasini mustaqil tanlash imkoniyatlari cheklangandir. Ular faqat faoliyat yo'nalishlarini o'zgartirish orqali soliq manbasini u yoki bu ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin, ya'ni: daromad yoki foydaga. Ayrim hollarda ushbu manbalar o'rmini sarmoya yoki amortizatsiya ajratmalari ham tashkil etishi mumkindek tuyuladi, lekin bular manba sifatida ishtirok etganda edi, unda doimiy soliqlar to'lovini ta'minlashda o'zlikka erishgan bo'lar edik. Soliq obyektining o'lchov birligi (daromadning puldagi birligi, yer solig'iga gektar yoki kvadrat metr, transport solig'ida ot kuchi va boshqalar bo'lib hisoblanadilar. Shuni ham ta'kidlash kerakki, soliq va soliq elementlarining harakati doirasi asosan soliq solish bazasiga bog'liq bo'ladi. Soliqning hajmi bir tomondan soliq stavkalarining miqdoriga, ikkinchi tomondan shu bilan birga soliq stavkasi va qo'llaniladigan obyektning chegarasiga bog'liqdir. Soliq bazasi soliq stavkasini daromad (foyda) chegarasi doirasida qayd etiladigan daromad summasining miqdoridir. Soliq bazasining miqdori, ya'ni soliqqa tortilishi lozim bo'lgan daromad (foyda) chegarasi qonunda ko'rsatilgan chegaralarga bog'liq ravishda o'zgarib turadi. Misol uchun, soliq to'lovchilariga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirilishi mumkin.

Soliq bazasi – soliq obyektining soliq stavkasi qo'llaniladigan miqdori. Hisoblanadigan soliq miqdori nafaqat soliq stavkalarining miqdoriga, shu bilan birgalikda soliq stavkasi qo'llaniladigan obyektning miqdoriga ham bog'liq bo'ladi. Soliq bazasining miqdori qonunchilikda soliqqa tortilishi

lozim bo'lgan soliq obyektidan ruxsat etiladigan chegirmalarga bog'liq ravishda o'zgarib turishi mumkin. Soliq bazasini soliq to'lovchilarning mazkur toifasiga taqdim etiladigan soliq imtiyozlariga muvofiq ravishda kamaytirishga ruxsat etiladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, soliq bazasi soliq obyektidan katta yoki kichik bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida qayd etganimizdek, soliq to'lovchiga soliqdan imtiyozlar ko'zda tutilgan bo'lsa, bunday sharoitda soliq bazasi soliq obyektidan kichik, soliq obyektiga qonunchilik bilan kengaytiriladigan bo'lsa undan katta bo'lishi mumkin.

Soliqqa tortish birligi – bu obyektning o'lchov birligidir. Masalan, daromad yoki mol-mulk solig'ida obyektning o'lchov birligi bo'lib uning so'mdagi bahosi ifodalansa, yer solig'ida o'lchov birligi bo'lib kv.m. yoki gektar hisoblanadi.

Soliq stavkasi – obyektning har bir birligi uchun davlat tomonidan belgilab qo'yilgan me'yordir. Soliq stavkasi soliq elementlari ichida eng ko'p amaliy ahamiyatga ega bo'lgan unsurdir. Chunki, soliq stavkalarini o'zgartirish orqali davlat xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga sezilarli ta'sir etadi, ayrim faoliyat, sohaga ustuvorlik berilishi, kapital zarur sohalarga yo'naltirilishi, rag'batlantirilishi mumkin.

Soliq stavkalari ikki xil ko'rinishda: qat'iy stavkalarda va nisbiy (foiz) stavkalarda ifodalanadi. Soliq stavkasi qat'iy stavkada belgilangan holda soliq obyektga nisbatan qat'iy so'mda belgilanadi. Masalan, yer solig'ining har bir gektari uchun qat'iy so'mda soliq miqdori o'rnatilgan. Yuridik va jismoniy shaxslarning daromadlariga, mol-mulklariga esa nisbiy stavkada yoki foizda soliq miqdori belgilangan.

Soliq stavkasi bu soliq solishning foizlardagi yoki so'mlardagi ulushi bo'lib hisoblanadi. Bunday ulush soliq to'lovlarini amalda qat'iy so'mlarda byudjetga undirilib borilishini ifodalaydi yoki soliq stavkasi bu soliqqa tortiladigan birlikka nisbatan undiriladigan soliq miqdorini ifodalovchi ko'rsatkichlardir.

Soliq stavkalarini doimiy chegaralarini belgilash soliq to'lov to'liqligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Shu bois soliq stavkalarini belgilash huquqiga ega bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi soliq stavkalarini soliq obyektlariga nisbatan uzoq

muddatga mustahkamlab qo'yishi chora-tadbirlarni ishlab chiqarishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Agarda undiriladigan soliqlarning miqdori byudjet tanqischiligini oshirishga sabab bo'lsa, unda soliq stavkalarining miqdori qonunchilik doirasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Ammo har qanday sharoitda soliq stavkasini pasaytirilishi iqtisodiyotni rivojlantirishi aholining pul to'lov qobiliyatini oshirishga asos solishi muqarrardir.

Soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha turli xil yengilliklar bo'lib, ular vaqtinchalik va doimiy, to'liq yoki qisman va boshqa ko'rinishlarda berilishi mumkin.

Investitsion soliq krediti – bu soliqning to'lov muddatini shunday o'zgartirishki, bunda tashkilotning muayyan asoslari mavjud bo'lgan taqdirda, ma'lum bir muddat va me'yorlarda o'zlarining soliq bo'yicha to'lovlarini keyinchalik bosqichma-bosqich kredit va hisoblangan foiz summalarini to'lab berish sharti bilan kamaytirishdir.

Investitsion soliq krediti byudjetga o'tkazilishi kerak bo'lgan daromad qismidan tegishli soliq turi bo'yicha to'lov summasini, har bir hisobot davrida hisoblangan soliq bo'yicha to'lov summasining 50 foizi miqdoridan oshmagan holda kamaytirish hisobiga taqdim etiladi. Bunda soliq davri mobaynida jamg'arilgan kredit summasi tashkilotning ushbu soliq davrida to'lanadigan soliq summasining 50 foizidan oshmasligi kerak. Investitsion soliq kreditining foiz stavkasi Rossiya federatsiyasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasining $\frac{1}{2}$ foiz stavkasidan kam bo'lmagan va $\frac{3}{4}$ foiz stavkasidan ko'p bo'lmagan miqdorda belgilanadi.²⁰

Soliq bazasini hisoblash usullari. Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud bo'lib, ular kassa usuli va hisobga olish usullaridir. Kassa usulida soliq to'lovchida soliqlarni to'lash majburiyatlari daromad olganidan keyin vujudga kelsa, hisobga olish usulida esa daromad olingan yoki sotishdan tushum qachon kelib tushushidan qat'i nazar tovarlarni

²⁰ Griffiths A.L. Global markets gyrate on fears of Europe's spreading financial crisis / A.L.Griffiths, K.Nerenberg, D. Wals. 2010. URL: <http://www.wsws.org>

jo'natilishi o'z navbatida soliqlarni to'lash majburiyatlarini vujudga keltiradi.

Soliqqa tortish usullari uch xil ko'rinishda amalga oshirilib, ular quyidagilarga: soliqlar tortishning kadastrli, deklaratsiya va manba oldidan soliqlar tortish usullariga ajratiladi. Ularning keng bayoni keyingi savollarda ochib beriladi.

Soliqlarni to'lash muddatlari va tartiblari. Soliqlar qonunchiligida har bir soliq turining byudjetga to'lash muddatlari belgilangan. Soliqlar to'lash muddatlari deganda soliq to'lovchilarning davlat byudjeti oldida soliq majburiyatlarining bajarish muddati ifodalanadi. Soliqlar to'lash muddatlari o'z mohiyatiga ko'ra ikki xil ko'rinishga ega: avans (bo'nak) to'lovlari va haqiqiy daromad olinganidan keyingi to'lovlar.

Soliqlar to'lash tartibida esa, soliqni yo'naltirilganligi (byudjetga yoki byudjetdan tashqari fondlarga), soliqni to'lash vositasi (milliy valyuta, so'mda yoki boshqa mamlakatlar milliy valyutasida. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq soliqlar faqat milliy valyuta, so'mda to'lanishi mumkin) hamda soliqni to'lash shakllari (naqd pul yoki naqd pulsiz) ifodalanadi.

Soliqlar yuki – soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi. Bunda soliq to'lovchilarning to'laydigan barcha soliqlar va soliqsiz majburiy to'lovlarining yig'indisi ifodalanadi. Soliqlar yukining aniq soliq to'lovchilar zimmasiga qancha to'g'ri kelganligini aniqlash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Biroq to'g'ri soliqlarda soliq og'irligi aynan soliqni byudjetga hisoblab o'tkazuvchi soliq to'lovchilar zimmasiga tushsa, egri soliqlarda soliq yuki soliqni to'lovchilar emas, balki tovar (ish, xizmat)larni iste'mol qiluvchilar zimmasiga tushadi. Muayyan turdagi yuridik va jismoniy shaxslar bo'yicha soliq yukini bir yilda byudjetga to'langan barcha majburiy to'lovlar yig'indisi orqali aniqlash mumkin. Soliqlar yukining darajasi o'z navbatida mamlakatning iqtisodiy qudratiga, inflyatsiya darajasiga, davlatning vakolatli funksiyalarni qo'llashiga, qolaversa bozor munosabatlarining rivojlanishini va ijtimoiy harakat doirasiga bevosita bog'liqlig' bo'ladi.

Soliq yukini ifodalashning bir qancha ko‘rinishlari mavjud: makrodarajadagi soliq yuki, mezodarajadagi soliq yuki va mikrodarajadagi soliq yuki. Soliq yuki makrodarajada ifodalanganda butun mamlakat miqyosida ifodalanib, asosiy ko‘rsatkich sifatida muayyan vaqt oralig‘ida davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar yig‘indisini ana shu vaqt oralig‘ida yaratilgan YaIM yoki MD ga nisbati olinadi. Mezodarajada alohida olingan soha, tarmoq yoki sektorga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalansa, mikrodarajada esa, aniq bir olingan subyektga to‘g‘ri keladigan soliq yuki ifodalanadi.

1.7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ustidan soliq organlarining nazorati

O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarini shakllanishida Davlat soliq xizmati organlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalaridan biri soliq to‘lovchilar va soliq obyektlarini nazorat qilish bo‘lsa, yana bir vazifasi – bu davlat byudjetiga hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida va to‘liq hajmda tushushini ta‘minlashdir.

Hozirgi kunda mamlakatimizda soliq to‘lovchilarning byudjet oldidagi majburiyatlarini to‘liq bajarilishini nazorat qilish hamda ular faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Soliq nazorati yildan-yilga takomillashib, tartibga solinib borilmoqda.

Soliq kodeksiga muvofiq, soliq nazorati – vakolatli organlarning soliq to‘lovchilar va soliq agentlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishga doir faoliyatidir.

Soliq, bojxona organlari va boshqa vakolatli organlar, prokuratura organlari hamda tergov organlari soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari buzilishlari, o‘zlari olib borayotgan soliq tekshiruvlari haqidagi o‘zida mavjud materiallar to‘g‘risida bir-birini xabardor qiladi. Shuningdek, mazkur organlar o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa zarur axborot bilan almashishni amalga oshiradi. Bunday xabardor qilish tartibi mazkur organlar o‘rtasidagi kelishuvlar bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, auditorlik tashkilotlari, soliq maslahatchilari tashkilotlari, moliyaviy xizmat ko'rsatuvchi konsalting firmalari ham soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va to'liq hisoblanishi bo'yicha yuridik shaxslarga xulosa, maslahat, ko'rsatma berib boradilar.

Soliq tizimining asosiy va ajralmas qismlaridan biri bu – soliq nazorati bo'lgani uchun so'nggi yillarda respublikamizda soliq nazoratiga jiddiy e'tibor berilmoqda.

Soliq kodeksining 136-moddasiga muvofiq, soliq organlari soliq nazoratini:

- 1) soliq tekshiruvlari;
- 2) soliq monitoringi shaklida amalga oshiradi.

Soliq organlari soliq tekshiruvlarining quyidagi turlarini o'tkazadi:

- 1) kameral soliq tekshiruvi;
- 2) sayyor soliq tekshiruvi;
- 3) soliq auditi.

Tekshirishlar sonining qisqartirilishi natijasida soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga to'liq rioya qilishda soliq nazoratining saralash shakllaridan biri – kameral nazoratning ahamiyati yanada oshib boradi.

Kameral soliq tekshiruvi soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan o'tkaziladi.

Soliq to'lovchilarning soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lash sohasidagi ayrim majburiyatlarini, shuningdek, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan boshqa majburiyatlarini bajarilishini tekshirish sayyor soliq tekshiruvidir.

Sayyor soliq tekshiruvi chog'ida hisobga olish hujjatlarining, tovar-moddiy qimmatliklar va pul mablag'lari harakatining, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa axborotning tahlili o'tkaziladi. Sayyor soliq tekshiruvi o'n kundan ko'p bo'lmagan muddatda o'tkaziladi.

Muayyan davr uchun soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish soliq auditidir.

Soliq auditi soliq to'lovchilarning (soliq agentlarining) yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to'lovchiga (soliq agentiga) nisbatan o'tkaziladi.

Soliq organlari soliq auditi o'tkazilishi boshlanishidan kamida o'ttiz kalendar kun oldin soliq to'lovchiga soliq auditi o'tkazilishi to'g'risida xabarnoma yuboradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, tegishli organlar soliq to'lovchilarni kameral nazorat orqali yoki soliq auditi orqali nazorat qilib boradilar, jiddiy qoidabuzarliklar yoki tafovutlar aniqlangan holatlardagina soliq hujjatli tekshiruvlari o'tkaziladi. Bu esa soliq to'lovchilarning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlar va turli to'sqinliklarni oldini oladi.

Samarali soliq tekshiruvlarini amalga oshirishda kameral nazorat katta o'rin tutadi. Birinchidan, soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisoboti, shuningdek, soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlar o'rganiladi hamda tahlil qilinadi, ma'lumotlarning ishonchililigiga baho beriladi, ikkinchidan, kameral tekshiruv natijasida soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligiga rioya etmasliklari hamda taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchsizligi aniqlangan holatlardagina hujjatli tekshiruv o'tkaziladigan soliq to'lovchilar aniqlanadi. Bu esa xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga ortiqcha aralashmaslikka zamin yaratadi.

Quyidagilar soliq monitoringining predmetidir: soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish, o'ziga nisbatan soliq monitoringi o'tkazilayotgan yuridik shaxs tomonidan soliqlar va yig'implarni hisoblashning to'g'riligi, to'liq va o'z vaqtida to'langanligi (o'tkazib berilganligi).

Soliq to'lovchilar uchun soliq monitoringi ixtiyoriydir.

Yuridik shaxs, agar uning oldingi yil uchun daromadlari yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlariga ko'ra kamida o'n milliard so'mni

tashkil etgan bo'lsa, soliq monitoringini o'tkazish to'g'risidagi ariza bilan soliq organiga murojaat qilishga haqli.

Soliq monitoringini o'tkazish soliq monitoringi o'tkaziladigan yilning 1 yanvaridan boshlanadi va soliq monitoringi o'tkazilgan davrdan keyingi yilning 1 iyulida tugallanadi.

Hozirgi kunda soliq to'lovchi tomonidan internet tarmog'i orqali taqdim etilayotgan hisobotlar kameral tekshiruv o'tkazish uchun birmuncha qulayliklarni keltirib chiqaradi, birinchidan, soliq to'lovchi ma'lum rekvizitlarni to'ldirmasa, hisobot yuborilmaydi, ikkinchidan, ma'lumotlar kiritilsa, arifmetik hisob mustaqil bajariladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kameral nazoratning ahamiyati shundaki, u soliq to'lovchilarning faoliyatiga asossiz aralashish holatlarini oldini oladi, byudjet va davlat maqsadli jamg'armalariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qo'shimcha tushirishga hamda samarali soliq tekshiruvlarini tashkil etishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda kameral tekshiruv o'tkazish metodologiyasi takomillashtirilib, yangilanib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. "Soliqlar va soliqqa tortish" fanini o'qitishdan maqsad nima?
2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati deganda nimani tushunasiz?
3. Soliqlarning obyektiv zarurligi nimalarda ko'rinadi?
4. Adam Smit o'zining qaysi asarida ilk bor soliqlarning tamoyillarini asoslab bergan?
5. Soliqlarning xususiyatlarini tushuntirib bering.
6. Soliqlarga oid bilimlarni olimlar tomonidan turlicha talqin etilishi sabablari nimada?
7. Soliqlarning qanday funksiyalari mavjud?
8. Soliqlarning funksiyalari va vazifalarini farqlab bering?
9. Soliqlarning fiskal funksiyasini tushuntirib bering?

Topshiriqlar

1. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanini o‘qitishning ahamiyatini o‘rganish.
2. Fanning maqsadi, vazifalari va predmetini o‘rganish.
3. Iqtisodchi olimlar tomonidan soliqqa berilgan tariflarni o‘ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
4. Soliqlar belgilarining mohiyatini to‘liq o‘rganish.
5. Soliqning ekvivalentsizlik belgisini mohiyatini o‘rganib chiqish.
6. Iqtisodchi olimlar tomonidan soliq funksiyalariga berilgan tariflarni o‘ziga xos jihatlarini tushuntirib bering.
7. Soliqlar funksiyalarining mohiyatini to‘liq o‘rganish.
8. Soliqning ekvivalentsizlik belgisini mohiyatini o‘rganib chiqish.

2- bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG'I

Reja

2.1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati

2.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining byudjet daromadlarida tutgan o'rni

2.3. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi

2.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining soliq solish obyekti. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi

2.5. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlash

2.6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, foyda, foyda solig'i, moliyaviy natija, tijorat tashkiloti, notijorat tashkilot, ta'sis shartnomasi, ustav, ta'sischi (muassis), soliq davri.

2.1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati

O'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

Foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi bo'lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxs xo'jalik shirkati va jamiyati, ishlab chiqarish kooperativi, unitar korxonalar va qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tuzilishi mumkin.

Tijorat tashkiloti bo'lmagan yuridik shaxs jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa shaklida, shuningdek, qonunlarda nazarda tutilgan boshqacha shaklda tashkil etilishi mumkin.

Soliq kodeksining 58-moddasiga muvofiq, qonun hujjatlarida notijorat tashkilot uchun belgilangan shaklda ro'yxatdan o'tkazilgan, quyidagi shartlarga muvofiq bo'lgan yuridik shaxs notijorat tashkilot deb e'tirof etiladi, agar:

➤ daromad olish maqsadiga ega bo'lmasa;

➤ daromatlarni yoki mol-mulkni ishtirokchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamasa.

Yer kurrasidagi barcha mamlakatlarda yuridik shaxslarning moliyaviy natijalaridan undiriladigan soliqlar mavjud. Ammo shuni alohida qayd etish joizki, har bir mamlakat soliqlarni undirishda o'zining ichki siyosatiga amal qilgan holda yoxud tarmoqlar iqtisodiyotidagi sohalarning davlat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'rnidan kelib chiqqan holda ish yuritadi. Shunday qilib korxonalarini moliyaviy natijasini soliqqa tortishda yagona yondashuv to'liqligicha amal qilmaydi.

Foyda solig'ining mohiyati foydaning bir qismini majburiy to'lov sifatida davlat byudjetiga markazlashtirilishida yuzaga keladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, foyda solig'i deganda korxonalar, tashkilot va birlashmalarda yaratilgan qo'shimcha qiymatning bir qismi foydani qonun doirasida belgilangan chegaralarda majburiy to'lov sifatida davlat byudjeti ixtiyoriga o'tkazilishi bilan bog'liq pul munosabatlari tushuniladi.

Amaliyotda soliq qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda foyda solig'i deganda korxonalar, tashkilot va birlashmalarning ishlab chiqarish faoliyatidan qo'lga kiritilgan foydasidan tashqari qimmatli qog'ozlar operatsiyalarida (aksiya, obligatsiyalarini chiqarish va joylashtirishdan olgan dividendlar yoki foizlar ko'rinishidagi daromadlar) daromadlar, shuningdek, boshqa korxonalar faoliyatiga qatnashishdan qo'lga kiritilgan daromadlar ham e'tiborga olinadi. Umuman foyda solig'i tushunchasi korxonalar, tashkilot va birlashmalar foydasining markazlashgan foyda (daromad)lar yig'indisining bir qismini markazlashtirilishi bilan bog'liq munosabatlarida ham o'z aksini topmoqda. Bu esa foyda soliq munosabatlarini amal qiluvchi qonunlardan kelib chiqqan holda mazmunan takomillashtirilib turilishini taqozo etadi.

Foyda solig'i munosabatlarining ayrim amaliy xususiyatlari qatoriga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

1. Soliqni hisoblashda korxonaning moliyaviy ahvoli va ishlab chiqarish faoliyatining har tamonlama inobatga olinishi mintaqadagi ish haqi koeffitsiyentlari, ya'ni saholalarda, suvsiz joylarda, tog'li tumanlarda faoliyat ko'rsatib olingan foyda va uni soliq obyektini doirasida e'tiborga olishda qo'llaniladigan chegirmalar;

2. Respublikamizda amal qiluvchi regressiv, progressiv va proporsional soliq stavkalarining o'zida turli faoliyat darajasidan kelib chiqqan holda e'tiborga olinishi;

3. Foyda solig'ini hisoblashda aksiya, obligatsiyalardan tashqari olingan daromadlar hamda boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishdan ko'rilgan daromadlarni ham foyda soliq obyektini shakllantirishda e'tiborga olinishi;

4. Yaxshi ishlaydigan yoki ishlab chiqarilgan mahsulot (tovarlar)ni eksport qilish, kichik biznes korxonalariga nisbatan joriy etilgan imtiyozlar, chegirmalar va shu kabilarni.

Foyda solig'ini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati ham benihoya kattadir.

Birinchiidan, foyda soliq obyektining imtiyozlar orqali tartibga keltirish soliq to'lovining o'ziga bog'liq qilib qo'yilganligi, korxonalarni mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan oshirishga sifatli mahsulot (tovar) ishlab chiqishga undaydi. Qo'lga kiritilgan va korxonada balansidagi foyda noo'rin sarflashni qisqartiradi va to'g'ridan to'g'ri qaytim bermaydigan xo'jalik tarmoqlariga investitsiyani kengaytiradi, uni tez ishga solishga sharoit yaratmoqda.

Ikkinchiidan, foyda solig'i korxonalarining mablag'larini uy-joy qurilishiga sarflashga va ularni eksport hajmini oshirishdan foyda olishga qiziqtiradi. Chunki bunday foydalarning soliqdan ozod etish korxonaning moliyaviy ahvolini mustahkamlaydigan to'lov qobiliyatini kuchaytiradi.

Uchinchiidan, foyda soliq imtiyozlariga amal qilishda ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, sifatli ko'plab mahsulot ishlab chiqarishga va byudjet daromadlarini oshirishga qulay shart-sharoit yaratmoqda.

To'rtinchiidan, foyda solig'ini kelajakda korxonada daromadidan olinadigan soliq bilan birlashtirish imkoniyatlari ular tamonidan qo'lga kiritilishi mumkin bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sishiga bog'liq, chunki bunday soliq munosabatlarini yuzaga keltirish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida sifat o'zgarishlarining ijobiy tomonga siljirilishiga erishish mumkin bo'ladi.

Foyda solig'i korxonalar to'laydigan bevosita (to'g'ri) soliqlarning eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soliqning xarakterli xususiyatlari quyidagilardan iborat:

✓ ushbu soliq faqatgina korxonada soliqqa tortiladigan daromadga (foydaga) ega bo'lsagina hisoblanadi, korxonaning zarari soliqqa tortiladigan bazadan kichik bo'lganda ushbu soliq mavjud bo'lmaydi. Demak, daromad (foydada) solig'ini to'lashning muhim sharti bo'lib korxonalarining rentabelli ishlab o'z faoliyatlaridan foyda olishlari hisoblanadi;

✓ daromad solig'ining miqdori bevosita korxonaning sof foydasiga, ya'ni uning mulkdoriga qoladigan foydani kamaytiradi. Demak, soliq to'lovchilarda ushbu soliq ko'pincha norozichilikka olib keladi. Shuning

uchun davlat soliq siyosatida ushbu soliq yukini doimo kamaytirib borish muhim o'rin tutadi. Buning yorqin guvohi bo'lib, masalan daromad (foйда) solig'i stavkasini yil sayin kamaytirib borilishi hisoblanadi. Agar bu soliq stavkasi bundan yetti yil oldin 38% bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib u 15%ni tashkil etadi;

✓ daromad (foйда) solig'i xo'jalik yurituvchi subyektlarni rentabelli ishlashga, inqirozga uchramaslikka intiltiradigan soliq turi hisoblanadi. Korxonalarining zarar bilan ishlashi nafaqat davlatga, balkim ularning o'zlariga ham manfaatli hisoblanmaydi. Daromadga (foydaga) erishmagan korxonalar o'z ishlab chiqarishini rivojlantira olmaydi, shuningdek, jamiyatni rivojiga ham hissa qo'sha olmaydi;

✓ daromadni (foydani) davlat tomonidan belgilab qo'ygan ishlab chiqarish turlari va shartlari evaziga olgan korxonalar ushbu soliq bo'yicha juda katta imtiyozlarga ega bo'ladi, jumladan ishlab chiqarishni fizik hajmini oshirishdan olingan foйда umuman soliqqa tortilmaydi, xalq iste'mol tovarlarini bolalar uchun tovarlarni, tovarlarni eksport qilganligi uchun ishlab chiqarish korxonalariga soliq qonunchiligiga ko'ra juda katta imtiyozlar belgilangan.


Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxs rekvizitlariga STIR (INN) kiritiladi. STIR (soliq to'lovchining identifikatsion raqami) har bir yuridik shaxs uchun tuziladi va yuridik shaxs ushbu raqamini ko'rsatgan holda soliq va moliyaviy hisobotlarini soliq inspeksiyasiga taqdim etadi.

2.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslardan undiriladigan foйда solig'ining byudjet daromadlarida tutgan o'rni

Foйда yalpi ichki mahsulotlarning bir qismini taqsimlash va qayta taqsimlashni yuzaga keltirishda muhim rol o'ynaydi. Ishlab chiqarishning uzluksizligi, uning kengaytirilishi markazlashtiriladigan va nomarkazlashtiriladigan jamg'armalarni tashkil etishda foйда nafaqat sifat ko'rsatkichi sifatida, balki shu bilan birga u shu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy va soliq munosabatlarini tashkil etuvchisi va

manbasi hamdir. Yalpi ichki maqsulotning bir qismini hosil qilish, taqsimlash va undan foydalanish jarayonida foyda maxsus va umumxo'jalik jamg'armalarini tashkil etish bilan birgalikda davlat byudjetini pul mablag'lari bilan ta'minlashda faol ishtirok etadi va shu xususiyatlari bilan bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishda u yanada faolroq o'z mohiyatini namoyish etadi. Foyda qo'shimcha qiymatining bir qismi sifatida turli soha faoliyati iqtisodiy tarmoqlarining o'zaro pul mablag'larini taqsimlash funksiyasini bajarib, ishlab chiqarishning eng progressiv ko'pmulkchilikka moslashgan tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishga yordam beradi. Fan-texnika taraqqiyotini ta'minlovchi tarmoqlar bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllantirilishi davrida endigina tiklanish bosqichida turgan bo'lsa ham, foyda takror ishlab chiqarishni jadal sur'atlar bilan o'sib borishi uchun zarur miqdorda pul mablag'larini ajratib berish imkoniyatlarini yaratish orqali o'z mohiyatini namoyish etadi. Chunki uning mohiyati pul mablag'larini davlat byudjeti orqali xalq xo'jaliklar tarmoqlari o'rtasida qayta taqsimlash, uni yuzaga keltiruvchi xo'jalik subyektlarida turli maxsus va umumxo'jalik jamg'armalarini tashkil etishda hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan xalq ist'emoi tovarlarini, texnikaviy mahsulotlarni tinimsiz ishlab chiqarayotgan korxonalarni takomillashtirishda turli ish va xizmatlarining sifatli amalga oshiruvchi xo'jalik subyektlarini ham zarur moliyaviy manbalarni vujudga keltirish orqali ularni ta'minlashida namoyon bo'ladi.

Davlatimiz soliq tizimida mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab barqaror amal qilib kelayotgan soliq turlaridan biri bu yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i hisoblanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bevosita soliqlar tarkibiga kiradi ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Davlat byudjetiga tushishiga qarab esa umumbelgilangan soliqlar tarkibiga kiradi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbai bo'lib, shuningdek, korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning muhim omili hisoblanadi.



2.1-diagramma. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini miqdori va byudjet daromadlari tarkibidagi ulushi dinamikasi²¹

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari asosida foyda solig'ini miqdori va byudjet daromadlari tarkibidagi ulushini tahlil qiladigan bo'lsak, 2013–2017-yillar davrida foyda solig'ini o'sish tendensiyasiga ega, ammo byudjet daromadlari tarkibidagi ulushi kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Jumladan, foyda solig'ini miqdori 2017-yilda 1475,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2013-yilga nisbatan 436,7 mlrd. so'mga ya'ni 1,42 barobarga ko'paygan. Buni soliq solinadigan bazaning kengayishi bilan izohlashimiz mumkin. Byudjet daromadlari tarkibida foyda solig'ining ulushi 2017-yilda 2,9 foizni tashkil etib 2013-yilga nisbatan 1,1 foizga kamaygan. Buni soliq stavkasining yildan yilga kamaytirilishi bilan izohlashimiz mumkin.

Yuridik shaxslar daromad (foyda) solig'ini bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarining birlashmalari byudjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.

²¹ www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti ma'lumotlari.

2.3. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'i to'lovchilari tarkibi

Soliq to'lovchi o'z foydasining bir qismini foyda solig'i sifatida davlat byudjetiga to'lar ekan, buning evaziga u davlatdan shunga teng biron-bir tovar yoki xizmat olmaydi. Umuman to'langan foyda solig'i soliq to'lovchining davlatdan oladigan mablag'lari o'rtasidagi bevosita bog'liqliqda yuzaga kelmaydi. Xuddi ana shu xususiyatga ko'ra foyda solig'i narxdan ruxsatnoma (litsenziya)lar va vositachilik yig'implaridan farq qiladi, chunki bular o'ziga xos majburiy yoki ixtiyoriy to'lov hisoblanadi, biroq hamma vaqt davlat tashkilotlarining foydasini davlat to'g'ridan to'g'ri soliqsiz majburiy to'lov qilib olmaydi. Qolaversa davlat xilma-xil mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning foydasidan byudjetga daromad olish uchun Oliy Majlis tasdiqlab bergan foyda solig'idan foydalanadi. Demak, foyda solig'i soliq munosabatlarining o'ziga xos mustaqil tarkibiy qismidir. Uning amal qilishi demokratik asosda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy munosabatlar bilan bog'liqdir.

Shunday qilib, foyda solig'i pul munosabatini ifoda etib, bu munosabatlarda bir tomonda davlat va ikkinchi tomonda soliq to'lovchilar, ya'ni korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar turadi. Shu munosabatlarni tashkil qilishni davlat o'z qo'liga olgan, chunki foyda solig'i uning uchun byudjetga daromad bo'lib tushadi, soliq to'lovchilar uchun xarajat bo'ladi. Davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatni Oliy Majlis qonun asosida belgilab beradi. Bunday munosabatning belgilab berilishi foyda solig'ini to'lovchilarning roziligini anglatadi. Shuning uchun ham barcha soliq to'lovchilarning Oliy Majlis tomonidan belgilanishi ikki tomonning, ya'ni soliq undiruvchi davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi rozilikning yuksak demokratik darajasining amal etishidan dalolat beradi. Ammo tomonlarning kelishishi yoki rozilik darajasi shu Oliy Majlisda mutasaddi tashkilot va mutaxassislarining takliflari bilan turli omillarni e'tiborga olgan holda tartiblashtirilib turilishi mumkin.

Foyda soliq munosabatlarining ayrim amaliy xususiyatlari qatoriga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

1. Soliqni hisoblashda korxonaning moliyaviy ahvoli va ishlab chiqarish faoliyati har tomonlama inobatga olinishi mintaqadagi ish haqi koeffitsiyentlari, ya'ni sahrolarda, suvsiz joylarda, tog'li tumanlarda faoliyat ko'rsatib olingan foyda va uni soliq obyektini doirasida e'tiborga olishda qo'llaniladigan chegirmalar.

2. Respublikamizda amal qiluvchi regressiv, progressiv va proporsional soliq stavkalarining o'zida turli faoliyat darajasidan kelib chiqqan holda e'tiborga olinishi.

3. Foyda solig'ini qisoblashda aksiya, obligatsiyalardan va ulardan tashqari olingan daromadlar hamda boshqa korxonalar faoliyatida qatnashishdan ko'rilgan daromadlarning ham foyda soliq obyektini shakllantirishda e'tiborga olinishi.

4. Yaxshi ishlaydigan yoki ishlab chiqariladigan mahsulot (tovarlar)ni eksport qilish, kichik biznes korxonalariga nisbatan joriy etilgan imtiyozlar, chegirmalar va shu kabilarni.

Foyda solig'ini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotdagi o'rni va ahamiyati ham benihoyat kattadir.

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga (foydaga) ega bo'lgan yuridik shaxslar daromad (foydaga) solig'i to'lovchilar hisoblanadi.

2.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ining soliq solish obyekti. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi

Yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ayrim tarmoqlar yuridik shaxslarining birlashmalari byudjet bilan hisob-kitoblarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishlari mumkin.

Soliq to'lovchi tomonidan olingan foyda foyda solig'i bo'yicha soliq solish obyekti.

Jami daromad bilan soliq qonunchiligiga muvofiq belgilanadigan chegirmalar o'rtasidagi farq sifatida hisoblangan foyda soliq solish obyekti hisoblanadi.

O'zi ishlab chiqargan tovarlarni (bajargan ishlarni, ko'rsatgan xizmatlarni) erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada eksport qiluvchi korxonalar eksportni ichki bozor narxlaridan past narxlarda amalga oshirsalar, ular uchun soliq solinadigan baza eksport mahsuloti realizatsiya qilingan haqiqiy narxdan kelib chiqqan holda hisoblab chiqiladi. Ushbu tartib savdo-vositachilik tashkilotlariga, shuningdek, tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq xomashyo tovarlarini eksport qiluvchi ishlab chiqarish korxonalariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Ustav fondiga qo'shilgan, umumiy vazifalarni hal etish uchun birlashtirilgan badallar, paylar va aniq maqsadga qaratilgan boshqa moliyaviy mablag'lar (kapital) ana shu vazifalarni hal etish uchun maxsus tuzilgan yuridik shaxsning daromadlari hisoblanmaydi va soliq solish obyekti bo'lmaydi.

Jami daromadga jo'natilgan tovar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar va boshqa operatsiyalar uchun yuridik shaxs olishi lozim bo'lgan (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar kiradi.

Bunday daromadlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad;
- 2) asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad;
- 3) dividendlar va foizlar;
- 4) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o'rnini qoplash tarzidagi daromad;
- 5) tekin olingan mol-mulk (olingan xizmatlar).

Olingan grantlar daromad sifatida qaralmaydi. Grant deganda korxonaga davlat (hukumat), shuningdek, nohukumat, xorijiy, xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar tomonidan ijtimoiy ahamiyatdagi maqsadlarda, iqtisodiyotni rivojlantirishni rag'batlantirish, ilmiy-texnik va innovatsiya dasturlarini bajarish uchun bepul, gumanitar pul ko'rinishidagi

yoki moddiy-texnik yordam tushuniladi. Grant mablag‘laridan qat‘iyan maqsadga muvofiq foydalaniladi.

6) mol-mulkni ijaraga (lizingga) berishdan keladigan daromad;

7) royalti;

8) mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno;

9) qarzdor tomonidan e‘tirof etilgan yoxud qarzdor tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hujjati asosida shartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan jarimalar, penyalar va boshqa sanksiyalar, shuningdek, zararlarning (ziyonning) o‘rnini qoplash summalari;

10) ilgari chegirib tashlangan xarajatlar yoki zararlarning o‘rnini qoplash tarzidagi daromad;

11) valyuta hisobvaraqlaridagi kurs bo‘yicha musbat farq;

12) favqulodda daromadlar va boshqa daromadlar.

Soliq solinadigan daromadlarni (foydalarni) belgilashda jami daromaddan quyidagi chegirmalar amalga oshiriladi:

❖ qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, mol-mulk solig‘i, yer solig‘i, yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, shuningdek, bojxona bojlari summalari;

❖ banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining kreditlari uchun foiz to‘lovlari summalari, bundan banklarning va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining investitsiya davrida kapital qo‘yilmalar tarkibiga kiradigan investitsiya uchun olgan kreditlari bo‘yicha foizlar hamda to‘lov muddati o‘tgan va uzaytirilgan ssudalar bo‘yicha foizlar mustasno;

❖ chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining kafolatisiz jalb etiladigan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foiz to‘lovlari summalari;

❖ xodimlarga ish haqi to‘lash bo‘yicha xarajatlar (banklarning, kredit uyushmalari, sug‘urta tashkilotlari, videosalonlarning, videoko‘rsatuv, video va audio yozuv punktlarining, auktsionlar, kazinolarning, ommaviy kontsert-tomosha tadbirlarini o‘tkazuvchi tashkilotlarning xarajatlari bundan mustasno);

- ❖ belgilangan tartibda kiritiladigan renta to'lovlarining summasi;
- ❖ ijara haqi;
- ❖ asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- ❖ chet yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy xarajatlari va ko'rsatgan xizmatlarining qiymati;
- ❖ majburiy sug'urta to'lovlari bo'yicha o'tkaziladigan, qonun hujjatlariga muvofiq ish haqiga hisoblangan summalar;
- ❖ mahsulotni (xizmatlarni) sertifikatlash ishlariga xaq to'lash xarajatlari summolari;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq normalar bo'yicha xizmat safari xarajatlari summolari;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq normalar bo'yicha vakillik maqsadlaridagi xarajatlar summolari;
- ❖ qonun hujjatlariga muvofiq normalar bo'yicha reklama xarajatlari summolari;
- ❖ soliq to'lovchi faoliyati ixtisosligi bo'yicha kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash uchun xarajatlar summolari;
- ❖ soliq to'lovchi balansidagi sog'liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari, bolalarning dam olish lagerlari, madaniyat va sport obyektlari, xalq ta'limi muassasalari, uy-joy fondini saqlashga mahalliy davlat hokimiyati organlari tasdiqlagan normativlarga muvofiq qilinadigan xarajatlar summolari, shuningdek soliq to'lovchilar sanab o'tilgan muassasalarni saqlashda ulush qo'shib qatnashib, ana shu maqsadlar uchun qiladigan xarajatlarning summolari;
- ❖ lizing obyektini sotib olish uchun olingan kreditlar foizlari va boshqa belgilangan to'lovlar summolari;
- ❖ lizing beruvchining lizing shartnomasi bo'yicha lizing to'lovi tarkibida to'lanadigan daromadi;
- ❖ qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasidagi ixtiyoriy sug'urta turlari bo'yicha xarajatlar summolari;
- ❖ qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan boshqa majburiy to'lovlar.

Shuningdek, quyidagi xarajatlar va ajratmalar ham jami daromaddan chegirib tashlanishi lozim:

1) banklar bo'yicha:

– kredit resurslari uchun to'lovlar, operatsiya xarajatlari, pul mablag'lari va boyliklarni tashish hamda saqlash xarajatlari;

– mijozlarning hisobvaraqlari, shu jumladan, jismoniy shaxslarning omonatlari bo'yicha hisoblangan va to'langan foizlar;

– tavakkalchilik operatsiyalari bo'yicha zaxira hisobidan o'chirilgan umidsiz ssuda summolari;

2) sug'urta tashkilotlari bo'yicha:

– qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha berilgan to'lov summolari;

– amal qilishi hisobot yili oxirigacha tugamagan sug'urta va qayta sug'urta shartnomalari bo'yicha to'lov summolari;

– sug'urta va qayta sug'urta majburiyatlari bo'yicha amalga oshirilgan va hisoblangan to'lov summolari;

– o'tgan yillardagi sug'urta hodisalari bo'yicha tugallanmagan to'lov summolari, shu jumladan, da'vo muddati doirasidagi majburiyatlar summolari;

– sug'urta holatining ro'y berganligi haqida ma'lum qilingan, lekin zarar miqdori taqdim etilmagan shartnomalar bo'yicha sug'urta summolari;

– sug'urta tashkiloti sug'urta hodisalari ro'y berishini bartaraf etish va uning oldini olishga doir tadbirlarni (preventiv tadbirlarni) moliyalashga sarflaydigan mablag'lar summolari;

– sug'urta tashkilotlarining zaxira fondlari bu tashkilotlar ustav fondining yigirma besh foiziga yetguniga qadar sug'urta tashkilotlari o'z daromadlarining yigirma foizi miqdorida zaxira fondlariga qiladigan ajratmalar.

Jami daromaddan chegirib tashlanadigan xarajatlar, majburiy to'lovlar, chiqimlar va ajratmalarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Agar amalga oshirilgan xarajat xarajatlarning bir necha toifasiga kiritilgan bo'lsa, u faqat bir marta jami daromaddan chegirilishi mumkin.

Asosiy vositalar sotib olish va ularni montaj qilishga, nomoddiy aktivlar sotib olishga qilingan xarajatlar, shuningdek, boshqa kapital xarajatlar amortizatsiya tariqasida keyingi davrlarda jami daromaddan chegirib tashlanishi lozim.

2.5. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlash

Soliq kodeksiga muvofiq, soliq solinishi lozim bo'lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq bazasini belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to'lovchi daromadlarining va (yoki) xarajatlarning (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo'yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Ushbu foyda summasi Soliq kodeksi (14-43- moddalar) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 5-fevraldagi 54-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda oxirgi moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq topiladi.

Ushbu me'yoriy hujjatlarga muvofiq korxonalar faoliyatining oxirgi moliyaviy natijalarini ifodalovchi foyda (zarar)lar quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

1. Sotishdan olingan foyda (YaF)

$$YaF = St - Ts.$$

Buy erda: St – sof tushum, Ts – sotish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan olingan foyda (AFF) yoki zarar (AFZ)

$$AFF(AFZ) = YaF - DX + BD.$$

Bu yerda: DX – davr xarajatlari, BD – asosiy faoliyatdan olingan boshqa operatsion daromadlar.

3. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda (UFF) yoki zarar (UFZ)

$$UFF(UFZ) = AFF(AFZ) + MD - MX.$$

MD – moliyaviy faoliyat daromadi, MX – moliyaviy faoliyat xarajatlari.

5. Soliqqacha foyda(sF) yoki Zararlar(sZ)

$$sF (sZ)= Uff (Ufz)+Ff-Fz.$$

Bu yerda: Ff – favqulotdagi foyda Zf – favqulotdagi zarar.

5. Soliqqa tortiladigan daromad (Stf)

$$Stf=sF(sZ)+Stx+Sbx-Schx-D-F.$$

Bu yerda: Stx – soliq solish bazasiga qayta qo‘shiladigan xarajatlar; Sbx – Hisobot davrida soliq bazasidan chegirilmaydigan, ammo kelgusida chegirilib boriladigan xarajatlar; Schx – soliq bazasidan hisobot davrida chegiriladigan xarajatlar, D – olingan dividendlar, F – olingan foizlar.

6. Soliqqa tortiladigan foyda (Stf) – bu soliqqa tortiladigan daromaddan foyda (daromad) solig‘ini hisoblash uchun imtiyoz sifatida chegirib tashlanadigan xarajatlarni ayirgandan keyin qoladigan foyda summasi, ya’ni:

$$Stf=Std-I.$$

Bu yerda: I – imtiyoz sifatida soliqqa tortiladigan daromaddan chegiriladigan xarajatlar.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 2017-yilda – 7,5 foiz miqdorida, tijorat banklari uchun soliq stavkasi – 15 foiz miqdorida edi²².

Mamlakatimizda 2018-yilda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i bo‘yicha ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2018-yil 1-yanvardan boshlab, foyda solig‘i va obodonlashtirish hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig‘i birlashtirildi. Mazkur soliq turlarining birlashtirilishi munosabati bilan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining yagona stavkalari belgilandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda PQ–3454-sonli qaroriga muvofiq tasdiqlandi. Bunda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining bazaviy stavkasi 2017-yilda amalda bo‘lgan 15,5 foiz ya’ni foyda solig‘i –

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699 sonli qarori. www.lex.uz

7,5% hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i – 8% o'rniga 14 foiz miqdorida belgilandi. Shuningdek, tijorat banklari uchun soliq stavkasi 2017-yilda amalda bo'lgan 23 foiz ya'ni foyda solig'i – 15% hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i – 8% o'rniga 22 foiz miqdorida belgilandi. Bunda yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i yoki obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'ini to'lashdan to'liq ozod qilish tarzidagi vaqtinchalik imtiyozlarga ega bo'lgan korxonalar yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini imtiyoz muddati tugagunga qadar ikki barobar pasaytirilgan stavka bo'yicha to'laydilar. 2019-yildan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i korxonalar uchun 12 foiz, tijorat banklari uchun 20 foiz etib belgilangan edi²³.

2020-yilda soliq stavkalari Soliq kodeksi 337-moddasida keltirilib, quyidagi 2.1-jadvalda aks ettirildi.

2.1-jadval

Foyda solig'i stavkalari²⁴, foizda

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Banklar	20
2	Quyidagi soliq to'lovchilar: sement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; polietilen granularlar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatishdan iborat bo'lgan	20
3	O'zi ishlab chiqargan o'z qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo'yicha qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo'jaligi korxonalari	0
4	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to'lovchilar	0

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086 sonli qarori. www.lex.uz

²⁴ Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. 31.12.2019. <https://lex.uz/docs/4674902>

5	Qo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi byudjet tashkilotlari	0
6	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingan foyda	0
7	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingan foyda	20
8	Tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	7,5
9	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jang'armasi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar	0
10	O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jang'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12	Qolgan soliq to'lovchilar, bundan 1-11-bandlarda ko'rsatilganlar mustasno	15

2.6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari

Uzoq muddatli kontraktlarga taalluqli daromadlar va chegirmalar ularning amalda bajarilgan qismi bo'yicha moliya yili davomida hisobga olinadi. Uzoq muddatli kontraktning amalda bajarilganligi moliya yili oxirigacha qilingan xarajatlarni ushbu kontrakt bo'yicha jami xarajatlar bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Soliq solish maqsadida tovar-moddiy zaxiralarni baholash va hisobga olish buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni qo'shimcha baholash summasi tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) realizatsiya qilinishiga qarab, soliq solinadigan daromad (foйда) tarkibiga kiritiladi.

Aktivlar realizatsiya qilinganida ularni realizatsiya qilishdan olingan tushum bilan bu aktivlarning qiymati o'rtasidagi musbat farq aktivlar qiymatining o'sishidan olingan daromad hisoblanadi. Aktivlarni realizatsiya qilishdan olingan tushum bilan bu aktivlarning qiymati o'rtasidagi manfiy farq aktivlarni realizatsiya qilishdan ko'rilgan zarar hisoblanadi.

Aktivlar qiymatiga ularni olish, ishlab chiqarish, qurish, montaj qilish va o'rnatish xarajatlari, shuningdek, ularning qiymatini orttiradigan boshqa xarajatlar qo'shiladi, soliq to'lovchi chegirish huquqiga ega bo'lgan xarajatlar bundan mustasno. Agar aktivlarning faqat bir qismi realizatsiya qilinsa, unda aktivlarning realizatsiya qilish paytidagi qiymati qolgan va realizatsiya qilingan qismlari o'rtasida taqsimlanadi.

Aktivlar bepulga yoki kamaytirilgan qiymat bo'yicha topshirilganida topshiruvchi shaxsga qarashli aktivlarning qiymati vujudga kelgan xarajatlar asosida, oluvchi shaxsning daromadlari esa-kirim qilingan baholash qiymati bo'yicha, lekin topshirilayotgan aktivlarning tannarxidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan daromad (foйда) solig'i bo'yicha hisob-kitoblarni, agar qonun hujjatlarida boshqa tartib belgilanmagan bo'lsa, soliq ro'yxatidan o'tgan joydagi soliq organlariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

Yuridik shaxs tugatilgan taqdirda soliq organi soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'li bilan talab qilishi mumkin bo'lib, xabarnomada buning sababi va hisobotlar, soliq bo'yicha hisob-kitoblar qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimligi ko'rsatiladi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Jami daromadi joriy soliq davridan oldingi soliq davri uchun kiritilgan tuzatishlar hisobga olingan holda besh milliard so'mdan oshadigan soliq to'lovchilar hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovlarini hisobot davri har bir oyining yigirma uchinchi kundan kechiktirmay to'laydi.

Joriy soliq davrining birinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi o'tgan soliq davrining oxirgi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovi summasiga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining ikkinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi joriy yilning birinchi hisobot davri uchun soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'i summasining uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining uchinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi yarim yillik yakunlariga ko'ra soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi va birinchi chorak yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi o'rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Joriy soliq davrining to'rtinchi choragida to'lanishi lozim bo'lgan har oylik bo'nak to'lovining summasi to'qqiz oylik yakunlariga ko'ra soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi va yarim yillik yakunlari bo'yicha hisoblab chiqarilgan foyda solig'ining summasi o'rtasidagi farqning uchdan biriga teng etib qabul qilinadi.

Hisoblab chiqarilgan har oylik bo'nak to'lovining summasi manfiy yoki nolga teng bo'lsa, ko'rsatilgan to'lovlar tegishli chorakda amalga oshirilmaydi.

Soliq to'lovchilar, shu jumladan, yangidan tashkil etilgan, jami daromadi joriy hisobot davri mobaynida besh milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini bunday oshib ketish sodir bo'lgan to'liq chorak o'tganidan keyin to'laydi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha hisobot (soliq) davri mobaynida to'langan har oylik bo'nak to'lovlari summasi hisobot (soliq) davri uchun soliq hisoboti bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliqni to'lash chog'ida hisobga olinadi.

Har oylik bo'nak to'lovini hisoblab chiqarish soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Jami yillik daromadning miqdoridan qat'i nazar, soliq hisobotini soliq bo'yicha faqat soliq davri yakunlari yuzasidan taqdim etuvchi soliq to'lovchilar har oylik bo'nak to'lovlarini to'lamaydi.

Soliq to'lovchi tugatilganda soliq tugatish yakunlanguniga qadar to'lanishi lozim.

Yuridik shaxsni tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda, davlat soliq xizmati organi har oylik bo'nak to'lovlarini hisoblashni ro'yxatdan o'tkazuvchi organdan bunday axborot olingan oydan e'tiboran to'xtatib turadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida olingan daromad qilingan xarajatlar hamda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i chegirib tashlanguniga qadar to'liq miqdorda soliq to'lovchining jami daromadiga qo'shiladi. Soliq solinadigan bazani aniqlashda O'zbekiston Respublikasidan tashqarida foyda olish munosabati bilan qilingan hamda hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar belgilangan tartibda va miqdorlarda chegiriladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lash paytida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqarida to'langan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining summasini hisobga olish uchun chet davlat vakolatli organining to'lov xabarnomasi, ma'lumotnomasi yoki

O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i to‘langanligini tasdiqlovchi boshqa hujjat asos bo‘ladi.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Foyda solig‘i O‘zbekistonda qachon joriy qilingan?
2. Yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lovchilari kimlar?
3. Rezident va nerezidentlar kimlar va ular qanday tartibda soliqqa tortiladi?
4. Soliq obyeksi va soliqqa tortish bazasi qanday aniqlanadi?
5. Korxonaning moliyaviy faoliyat natijalari fanday aniqlanadi?
6. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari qaysi mezonlar asosida tabaqalashtirilgan?
7. Mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qanday stavkalar belgilangan?
8. Qanday yuridik shaxslar foyda solig‘idan to‘liq ozod etiladi?
9. Yuridik shaxslarning qanday foydasi yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lashdan ozod etiladi?
10. Yuridik shaxslarning qanday xarajatlari soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladi?
11. Soliq hisobotlarini topshirish va soliqni to‘lash tartibi qanday belgilangan?
12. Yuridik shaxslar qanday tartibda va shaklda taxmin qilinayotgan foydasi haqida ma‘lumotnoma taqdim etadilar?

Topshiriqlar

1. Korxonalar foyda solig‘ini hisobotini o‘rganib chiqish.
2. Korxonalar foyda solig‘i hisoboti va moliyaviy natijalarni shakllantirish to‘g‘risida moliyaviy hisobot o‘zaro bog‘liqligini to‘liq o‘rganish.
3. Soliq kodeksida foyda solig‘i aks ettirilishini o‘rganish.
4. Moliyaviy natijalarni shakllantirish yo‘llarini tadqiq qilish.
5. Foyda solig‘ini huquqiy asoslarini to‘liq o‘rganish.
6. Foyda solig‘ini korxonalar moliyaviy faoliyatiga ta‘sirini tadqiq qilish.

3-bob. AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ

Reja

3.1. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotida tatbiq etilishi (tarixiy aspekt)

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati

3.3. Aylanmadan olinadigan soliq va uning amal qilish jarayoni

3.4. Aylanmadan olinadigan soliqning soliq obyekti

3.5. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari

3.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar va preferensiyalar. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish muddatlari

Tayanch so'z va iboralar

Mikrofirma, kichik korxonalar, soddalashtirilgan soliq tizimi, aylanmadan olinadigan soliq, yagona soliq to'lovi, yalpi tushum, boshqa daromadlar, soliq bazasi, soliq yuki.

3.1. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotida tatbiq etilishi (tarixiy aspekt)

Iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish va chuqurlashtirish jarayonida kichik biznesni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirish, mulkdorlar sinfini shakllantirish, bozorlarni tovarlar bilan to'ldirish, raqobat muhitini yaratish, ishsizlikka barham berish mamlakat oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Soliqqa tortish tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi 159-son "Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish

tizimiga o'tishni qo'llash to'g'risida"gi qaroriga asosan mikrofirma va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya'ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o'tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat'iy belgilandi. Kichik korxonalar uchun yagona soliqning o'rnatilishi soliq hisob-kitobini tuzishni osonlashtiradi hamda ular bir nechta soliq turi o'rniga faqatgina bitta yagona soliq bo'yicha soliq idoralariga soliq hisob-kitobini topshirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Natijada korxonalar hisobchilarining ishi birmuncha osonlashdi.

"Mikrofirma va kichik korxonalarini rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmoniga asosan 2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi.

Bugungi kunda mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan yagona soliq, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar 15,2 foiz miqdorda to'layotgan bo'lsa, mazkur farmon bo'yicha 13 foiz miqdorda birgina yagona soliq to'lovi joriy etildi. Bu bilan umumiy to'lanayotgan soliq va majburiy to'lovlar hajmi 2,2 foizga kamaydi. Bu iqtisod qilingan mablag'ni korxonalar o'z rivoji yo'lida sarflashi uchun imkoniyat yaratildi. Bunday qulay imkoniyatlardan oqilona foydalangan korxonalar iqtisod qilayotgan mablag'lar hisobiga yangi texnika sotib olishga, mahsulot ishlab chiqarish hajmi va sifatini oshirishga, moddiy bazasini yaxshilashga, ishchilar maoshini oshirishga, yangi ish o'rinlari tashkil etish hamda faoliyatini yanada kengaytirishga erishadi.

Ushbu farmonning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, yangi tashkil qilingan mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lash muddatini bir yilga kechiktirish, kechiktirilgan summani esa imtiyozli davr tugagandan keyin teng ulushlarda 12 oy davomida to'lash huquqi berildi. Bu esa endigina ish boshlayotgan korxonaning rivoji uchun ahamiyatlidir,

chunki mikrofirma va kichik korxonalar ilk daromadlarini o'z faoliyatini to'liq yo'lga solishga qaratsa, keyinchalik byudjet oldidagi hisob-kitoblarini o'z vaqtida amalga oshirishi hamda o'zining moddiy ta'minotini shakllantirishga erishadi.

Mamlakatimizda mikrofirma va kichik korxonalar soni kundan kunga ortib bormoqda. Ularning iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ulushi salmoqli. Shu bois ham kichik biznes subyektlarini jadal sur'atlarda rivojlantirishni yanada rag'batlantirish hamda ularning yurtimiz iqtisodiyotidagi ulushini tubdan oshirish maqsadida davlatimiz rahbarining "Mikrofirma va kichik korxonalar rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-3620-sonli Farmoniga asosan 2005-yilning 1-iyulidan boshlab mikrofirma va kichik korxonalar uchun byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lash o'rniga yagona soliq to'lovi joriy etildi.

2020-yil 1-yanvardan boshlab, soliq tizimida aylanmadan olinadigan soliq joriy etildi va uni undirish va byudjetga o'tkazish mexanizmlari yangi Soliq kodeksi orqali joriy etilib, amalga oshirilib kelinmoqda. Aylanmadan olinadigan soliq ham yagona soliq to'lovining bir qator xususiyatlarini o'zida saqlab qolgan.

3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirishda davlat kafolatlari va yordami tufayli iqtisodiyotda katta imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Ularga davlat yordamini berish, kafolatlardan tashqari soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tishga ruxsat berishlik ularni tashkil qilish va moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Soddalashtirilgan soliq tizimining ahamiyati kattadir. Bular birinchidan, bozorni tezda tovarlar va xizmatlar bilan boyitishga imkon beradi, ikkinchidan, ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlari yaratishga yordam beradi, uchinchidan, ular faoliyatini tashkil qilishni

ixchamlashtiradi, to'rtinchidan, soliq hisoblari va hisobotlari sonini kamaytiradi, soliq hisoblash xodimlari ishini osonlashtiradi, chunki ilgari ko'p soliq hisoblari va dalolatnomalari o'rniga yagona soliq to'lovini to'laydi.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi quyidagilarni to'lashni nazarda tutar edi:

1. Yagona soliq to'lovini;
2. Yagona yer solig'ini;
3. Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliqni.

Qat'iy belgilangan soliqni to'lash belgilangan faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yagona soliq to'lovchilar va ni to'lovchilar ushbu faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishlari hamda Soliq kodeksining 58-bobida nazarda tutilgan tartibda qat'iy belgilangan soliq to'lashlari shart.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan soliqlar Soliq kodeksida nazarda tutilgan jami umumbelgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning o'rniga to'lanadi, Soliq kodeksining 349-moddasida sanab o'tilganlar bundan mustasno.

Soliq solishning soddalashtirilgan tizimi nazarda tutilgan soliq to'lovchilarga nisbatan quyidagilar saqlab qolingani edi:

1. To'lov manbaida undiriladigan foyda solig'i;
2. O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i;
3. Aksiz to'lanadigan mahsulot ishlab chiqarishda solinadigan aksiz solig'i;
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
6. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;
7. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;
5. Bojxona to'lovlari;
6. Yagona ijtimoiy to'lov;

7. Davlat bojlari;
8. Tovarlarining ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
9. Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im.

3.3. Aylanmadan olinadigan soliq va uning amal qilish jarayoni

Yagona soliq to'lovini to'lovchilar quyidagilarni to'lar edilar:

- 1) mikrofirmalar va kichik korxonalar, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida ko'rsatilganlar mustasno;
- 2) xodimlarning sonidan qat'i nazar:
savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari;
xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notariuslar;
- 3) lotereyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslar.

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar (bundan buyon ushbu bo'limda soliq to'lovchilar deb yuritiladi), deb quyidagilar e'tirof etiladi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari (bundan buyon ushbu bo'limda yuridik shaxslar, deb yuritiladi);

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

1) O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

2) aksiz solig'i to'lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

3) yuridik shaxslar – qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, bosharti ularda ellik gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekin maydoni mavjud bo‘lsa;

4) benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

5) lotoreyalarni tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

6) oddiy shirkat ishlarini yuritish o‘z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga – oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo‘yicha;

7) bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo‘lgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo‘yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

8) markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan obyektlarni (joriy va kapital ta‘mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga.

Soliq to‘lovchilar qo‘shilgan qiymat solig‘i va foyda solig‘ini to‘lash o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq (bundan buyon ushbu bo‘limda soliq deb yuritiladi) to‘lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqlidir.

Soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to‘lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o‘tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tish uchun soliq to‘lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tishi to‘g‘risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to‘lashga o‘tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o‘n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e‘tiboran tadbirkorlik faoliyati subyektini davlat ro‘yxatidan

o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga ixtiyoriy ravishda o'tgan soliq to'lovchilar, basharti joriy soliq davri yakunlari bo'yicha tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadlari bir milliard so'mdan oshmagan bo'lsa, aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga kamida o'n ikki oydan keyin qayta o'tishga haqli.

Soliq davri davomida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan jami daromadi bir milliard so'mdan oshgan soliq to'lovchilar, shu jumladan, yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar va yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar bunday oshish ro'y bergan oydan keyingi oyning birinchi sanasidan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo'lingan va ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo'lgan kunlar soniga ko'paytirilganda bir milliard so'mga teng summadan ohsa, u holda bunday shaxslar ro'yxatdan o'tilgan yildan keyingi yildan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan aylanmadan olinadigan soliq summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa byudjetga to'lanishi lozim.

Hisoblangan aylanmadan olinadigan soliq summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketgan taqdirda, byudjet bilan qayta hisob-kitoblar amalga oshirilmaydi.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotib oluvchilar bilan tegishli qayta hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar tomonidan qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashni rad etish keyingi soliq davri boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq

xizmati organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda taqdim etiladigan yozma bildirish asosida faqat navbatdagi soliq davrining boshidan amalga oshirilishi mumkin.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Soliqni to'lash soliq to'lovchini quyidagilardan ozod etmaydi:

– Soliq kodeksi bilan uning zimmasiga yuklatilgan soliq agentining majburiyatlarini bajarishdan;

– hisobvaraƣ-faktura taqdim etish, xaridlarni hisobga olish kitobini va sotishlarni hisobga olish kitobini yuritish majburiyatidan.

3.4. Aylanmadan olinadigan soliqning obyeksi

Aniqlanadigan jami daromad soliq obyeksi hisoblanadi

Soliq solish maqsadida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad deganda quyidagilar tushuniladi:

✚ qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari uchun – o'z kuchlari bilan bajarilgan, tegishincha qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Bunda, agar yuqorida qayd etilgan xizmatlarni materiallar bilan ta'minlash majburiyati shartnomaga binoan buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib qolgan taqdirda, o'z kuchlari bilan bajarilgan xizmatlarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar bajarilgan hamda tasdiqlangan xizmatlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan holdagi daromadi sifatida belgilanadi;

✚ mol-mulkni moliyaviy ijaraga (lizingga) beruvchi yuridik shaxslar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi;

✚ vositachilik va topshiriq shartnomalari hamda vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik

xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq summasi;

✚ tovarlarni (xizmatlarni) tekin beruvchi yuridik shaxslar uchun – agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, tovarlarning (xizmatlarning) tannarxi yoki ularni olish bahosi (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlarni hisobga olgan holda). Mazkur norma ekologiya, sog'lomlashtirish hamda xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqni saqlash, mehnat, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim muassasalariga bepul beriladigan tovarlarga (xizmatlarga) nisbatan tatbiq etilmaydi;

✚ notijorat tashkilotlarining ushbu kodeks 318-moddasining birinchi qismida ko'rsatilmagan daromadlari.

Soliq solish obyektini bo'lib quyidagilar ham hisoblanadi:

1) tovarlarni (xizmatlarni) quyidagilarga:

a) ishtirokchilar tarkibidan ishtirokchi chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoxud uning yuridik shaxsdagi ulushi kamaytirilganda yoki yuridik shaxs tomonidan ishtirokchidan uning ushbu yuridik shaxsda ishtirok etish ulushi (ulushning qismi) qaytarib sotib olinganda ushbu ishtirokchiga berish;

b) yuridik shaxs bo'lgan emitent tomonidan aksiyadordan ushbu emitent chiqargan aksiyalar qaytarib sotib olinganda aksiyadorga berish;

d) yuridik shaxs tugatilganda aksiyadorga yoki ishtirokchiga berish;

2) tovarlarni (xizmatlarni) jismoniy shaxs mehnatiga haq to'lash hisobidan yoki dividend to'lash hisobidan berish;

3) tovarlarni yoki boshqa mol-mulkni qayta ishlab berish uchun berish, agar tovarlar va (yoki) mulk qayta ishlash mahsuloti sifatida shartnomada belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa;

4) ko'p marta aylanadigan, sotuvchiga qaytarilishi shart bo'lgan idishlarni, agar idish mahsulotni shunday idishda yetkazib berish shartnomasida belgilangan muddatda qaytarilmagan bo'lsa, berish. Uzoq muddatli kontraktlarni bajarishda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushadigan tushum hisobot davri mobaynida uzoq muddatli kontraktlarni haqiqatda bosqichma-bosqich ijro etishga oid qismida hisobga olinadi.

Tovarlarni (xizmatlarni) olish huquqini taqdim etuvchi vaucherlarni realizatsiya qilish yoki bepul berish mazkur tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish deb e'tirof etiladi.

Quyidagilarga soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

1) ustav fondiga (ustav kapitaliga) olingan hissalar, shu jumladan, aksiyalarni (ulushlarni) joylashtirish bahosini ularning nominal qiymatidan (dastlabki miqdoridan) ortiq summasi, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun birlashtiriladigan mablag'lar;

2) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqilayotganda (chiqarilayotganda), shuningdek, tugatilayotgan yuridik shaxsning mol-mulki uning muassislari (ishtirokchilari) o'rtasida taqsimlanayotganda ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissalar doirasida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

3) shartnoma muassislari (ishtirokchilari) umumiy mulkidagi hissasi qaytarib berilgan yoki bunday mol-mulk bo'lingan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasi sherigi (ishtirokchisi) tomonidan hissasi miqdorida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

4) realizatsiya qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun oldindan haq to'lash (bo'nak) tariqasida boshqa shaxslardan olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

5) mulk huquqi ularga o'tgan paytga qadar majburiyatlarni qonun hujjatlariga muvofiq ta'minlash sifatida garov yoki zakalat tarzida olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar);

6) byudjetdan berilgan subsidiyalar;

7) agar mablag'larni (mol-mulki yoki mulkiy huquqlarni) o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida amalga oshirilsa, tekin olingan mablag'lar (mol-mulk yoki mulkiy huquqlar), ishlar va xizmatlar;

8) olingan grantlar va insonparvarlik yordami;

9) sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta to'voni (sug'urta summasi) tariqasida olingan mablag'lar;

10) vositachiga yoki boshqa ishonchli vakilga vositachilik, topshiriq shartnomasi yoki vositachilik xizmatlarini ko'rsatishga oid boshqa shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish munosabati bilan, shuningdek, komitent yoxud boshqa topshiriq beruvchi uchun vositachi yoki boshqa ishonchli vakil tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash hisobiga kelib tushgan mol-mulk (haq to'lovi bundan mustasno);

11) obyekt qiymatining ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) tomonidan olingan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplanishi;

12) telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining tekin olingan texnik vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

13) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektining muassislaridan (ishtirokchilaridan) uning majburiyatlarini bajarish uchun olingan mablag'lar. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili tugatilgan va faoliyati qayta tiklangan taqdirda ushbu mablag'lar soliq solish obyektiga kiritiladi va ularga soliq solinishi lozim;

14) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida kiritilayotgan mol-mulk.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyektiga hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa aylanmadan olinadigan soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Balansning valyuta moddalarini qayta baholash chog'ida kursdagi ijobiy va salbiy farqlar o'rtasidagi saldo soliq solish obyektiga hisoblanadi. Salbiy kurs farqi summasi ijobiy kurs farqi summasidan ortiq bo'lgan taqdirda oshib ketgan summa yagona soliq to'lovini hisoblab chiqarishda soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Hisoblab chiqarilgan jami daromad soliq bazasi deb e'tirof etiladi, bundan quyidagilar mustasno:

1) O‘zbekiston Respublikasining davlat obligatsiyalari va boshqa davlat qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha daromadlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslarning xalqaro obligatsiyalari bo‘yicha daromadlar;

2) soliq agentida soliq solinishi lozim bo‘lgan dividendlar;

3) qaytariladigan ko‘p marta aylanadigan tara qiymati, agar uning qiymati ilgari tovarlarni (xizmatlarni) sotishdan olinadigan daromadga kiritilgan bo‘lsa;

4) amortizatsiya qilinadigan aktivlarni tugatishda ularni qo‘shimcha baholashda olingan, oldingi narxni tushirishlardagi summadan ortiqcha summa hisobidan olingan daromadlar;

5) hisobot yilida aniqlangan o‘tgan yillardagi daromadlar. Mazkur daromadlarga ular shakllangan davrdagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar bo‘yicha qayta hisob-kitob o‘tkazilganligi inobatga olingan holda soliq solinadi;

6) tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar, agar tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olingan daromadlar umumiy daromadning 15 foizidan ko‘prog‘ini tashkil etsa.

Soliq solinadigan baza ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan chegirmalardan tashqari quyidagilar uchun kamaytiriladi:

1) brokerlik tashkilotlari uchun – bitim summasidan birjaga o‘tkaziladigan vositachilik yig‘imi summasiga;

2) komissiya shartnomasi bo‘yicha vositachilik xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar uchun – tovarlarni import qilishda to‘langan bojxona to‘lovlari summasiga realizatsiya qilingan tovar ulushida;

3) turizm faoliyati subyektlari uchun – turistik xizmatlarni onlayn bronlashtirish va sotish uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni hamda axborot tizimlarini joriy etishga yo‘naltirilgan mablag‘lar summasiga.

3.5. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari

Aylanmadan olinadigan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari²⁵

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi soliq to'lovchilar, bundan 2–14-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	4
2	Bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha xizmatlar ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	5
3	Lombardlar	25
4	Konsert-tomosha ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromadlar oladigan yuridik shaxslar	5
5	Brokerlik idoralari (6-bandda ko'rsatilganlar bundan mustasno), shuningdek, vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga doir boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan yuridik shaxslar, shu jumladan, telekommunikatsiya operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar	25
6	Sug'urta agentlari, shuningdek, sug'urta, qimmatli qog'ozlar bozori va tovar-xom ashyo birjalarida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan yuridik shaxslar	13
7	Asosiy faoliyati mol-mulkni ijaraga berish hisoblangan yuridik shaxslar (lizing kompaniyalari bundan mustasno)	8
8	Umumiy ovqatlanish korxonalari	
	joylashgan joyiga qarab:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	8
	boshqa aholi punktlarida	6

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 467-modda. 2020 yil 30 dekabrda qabul qilingan www.lex.uz

	borishi qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	4
	shundan	
	umumta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalarini	Joylashgan joyiga qarab belgilangan soliq stavkasining 75%i
9	Chakana savdo sohasidagi soliq to'lovchilar	
	<i>joylashgan joyiga qarab:</i>	
1	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
9.2	joylashgan joyidan qat'i nazar:	
	alkogolli mahsulotlar, tamaki mahsulotlari, benzin, dizel yoqilg'isi va suyultirilgan gazni realizatsiya qilishdan tovar aylanmasi bo'yicha	4
10	Ulgurji, shuningdek, ulgurji-chakana savdoni amalga oshiradigan savdo korxonalarini (11-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	4
11	Quyidagi joylarda joylashgan ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari:	
	aholisi soni yuz ming nafar va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li tumanlarda	1
12	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib oluvchi, saralovchi, saqlovchi va qadoqlovchi tayyorlov tashkilotlari	tovar aylanmasining 4%i yoki yalpi daromadning 25%i
13	Elektron tijorat subyektlarining Milliy reestriga kiritilgan	2

	solliq to'lovchilar	
14	Yagona ishtirokchisi nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari, "Nuroniyy" jang'armasi va "O'zbekiston Chernobilchilari" assotsiatsiyasi bo'lgan va umumiy sonida nogironlar, urush va 1941–1945- yillar mehnat fronti veteranlari 50 foizdan kam bo'lmagan va nogironlar, urush va 1941–1945-yillar mehnat fronti veteranlarining mehnatiga haq to'lash fondi umumiy mehnatga haq to'lash fondining 50 foizdan kam bo'lmagan solliq to'lovchilar	0

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalariga, solliq solish maqsadlarida, o'tgan hisobot yili yakuni bo'yicha asosiy faoliyat turi savdo faoliyati, umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat hisoblanadigan yuridik shaxslar kiradi.

Savdo faoliyati deganda – qayta sotish maqsadida xarid qilingan tovarlarni sotish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Quyidagilar savdo faoliyati sifatida qaralmaydi:

- o'zi ishlab chiqargan mahsulot hisoblanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan, ularni mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan firma do'konlari orqali realizatsiya qilish;

- komissioner (ishonchli vakil) tomonidan vositachilik (topshiriq) shartnomalari bo'yicha tovarlarni realizatsiya qilish, jumladan, davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulknii realizatsiya qilish;

- tayyorlov va ta'minot – sotish faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar tomonidan tovarlarni realizatsiya qilish;

Umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat deganda kulinariya, shuningdek, boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash, realizatsiya qilish va tashkil etish bo'yicha faoliyat tushuniladi.

Umumiy ovqatlanish asosiy (soha) faoliyat turi savdo faoliyati (umumiy ovqatlanish sohasidagi faoliyat) hisoblangan yuridik shaxslar Kodeksda belgilangan tartibda hisobot yili boshidan boshlab yagona solliq to'lovchilari hisoblanadilar.

3.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar va preferensiyalar. **Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish muddatlari**

Yagona soliq to'lovini to'lashdan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniylar" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil etadigan yuridik shaxslar ozod qilinar edi, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati hamda lotereyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Ushbu imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritilar edi.

Kalendar yil soliq davridir.

Yil choragi hisobot davridir.

Aylanmadan olinadigan soliq soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar uchun aylanmadan olinadigan soliq summasi byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga, lekin aylanmadan olinadigan soliq summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorga kamaytiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini ixtiyoriy ravishda to'lashga kalendar yil boshidan e'tiboran o'tmagan to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq summasini qo'shilgan qiymat solig'i hisoblab chiqarilgan hisobot davriga to'g'ri keladigan summaga kamaytiradi.

Aylanmadan olinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil aniqlanadi.

Agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, hisobot davri yakunlari bo'yicha soliq summasi soliq davri boshidan ortib boruvchi yakun bilan soliq bazasining mos soliq stavkasiga foiz ulushi sifatida hisoblab chiqariladi.

Soliq hisoboti soliq to'lovchi tomonidan soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

1) hisobot davri yakunlari bo'yicha – hisobot davridan keyingi oyning o'n beshinchi kunidan kechiktirmay;

2) soliq davri yakunlari bo'yicha – soliq davridan keyingi davrning 15 fevralidan kechiktirmay;

Hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha soliqni to'lash tegishli hisobot (soliq) davri uchun soliq hisobotini taqdim etish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Agar yuridik shaxslar hisobot yili yakunlari bo'yicha Soliq kodeksi 463-moddasining to'rtinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermasalar, ular kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishlari kerak, soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolinadigan mikrofirmalar va kichik korxonalar bundan mustasno. Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar Soliq kodeksi 350-moddasining to'rtinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermay qolingan hisobot yili tugaganidan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlaganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda yozma bildirish taqdim etishlari shart.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Soliq amaliyotida ilk bor qachon soddalashtirilgan soliq rejimi joriy qilingan va qaysi me'yoriy hujjat asosida?

2. Kichik biznes subyektlari tarkibi qaysi mezonlar asosida belgilanadi?

3. Yagona soliq to'lovi qachon joriy etildi?

4. Aylanmadan olinadigan soliq bilan yagona soliq to'lovining farqi nimada?

5. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilari kimlar?
6. Aylanmadan olinadigan soliqqa soliq stavkalari qaysi mezon asosida belgilanadi?
7. Aylanmadan olinadigan soliq byudjetga qaysi muddatlarda to'lanadi?
8. Aylanmadan olinadigan soliqni byudjetga kechiktirib to'lash tartibi qanday?
9. Qanday holatlarda aylanmadan olinadigan soliqni byudjetga kechiktirib to'lashni soliq organlari rad etish mumkin?
10. 2007-yil 1-yanvarga qadar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini qanday soliq rejimida ishlagan?
11. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar tarkibiga o'tishning ahamiyati va zarurligi nimada?
12. Umumiy ovqatlanish faoliyati deganda nimani tushunasiz?
13. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchi savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarining soliqqa tortish obyekti qanday aniqlanadi?

Topshiriqlar

1. Soliq solishning soddalashtirilgan tartibini soliq amaliyotida tadbiq etishning zarurligini o'rganib chiqish.
2. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha imtiyozlarni o'rganish.
3. Soliq kodeksida aylanmadan olinadigan soliqni aks ettirilishini o'rganish.
4. Aylanmadan olinadigan soliqni o'z vaqtida to'lamaganligi uchun belgilangan moliyaviy jarimalarni o'rganish.

4-bob. JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I

Reja

4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning o'ziga xosligi

4.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish obyekti

4.3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari

4.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi va soliq bo'yicha imtiyozlar

4.5. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati

4.6. Deklaratsiya tushunchasi va uni joriy qilish sabablari. Jismoniy shaxslarning deklaratsiyaga kiritiladigan daromadlari tarkibi

Tayanch so'z va iboralar

Jismoniy shaxs, daromad, daromad solig'i, deklaratsiya, soliq imtiyozlari.

4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning o'ziga xosligi

Jismoniy shaxslar mehnatiga haq to'lashni tashkil qilishi va foydalanilishi bozor iqtisodiy sharoitida rag'batlantirish tizimida markaziy o'rin tutadi. Hozirgi sharoitda bozor iqtisodiyoti mexanizmining ta'sirchanligi, inson omilining kuchayishi ushbu masalalar qanday hal etilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Mazkur muammoni hal etish borasidagi izlanishlarning asosiy yo'nalishi ish haqini soliq obyekti sifatida soliq tizimiga qo'shib olishdan iboratdir. Mehnatga haq to'lash jamg'armasini tashkil etish tartibi korxonalarining daromadini yaratishning turli xildagi variantlari uchun, ya'ni "foydali" va "pudrat" variantlari uchun bir xil emas. Bu o'rinda shuni qayd qilamizki, mehnatga haq to'lashni qanday

tamoyilga ko'ra shakllantirish masalasini korxonaning mehnat kollektivi hal qiladi (faqat davlat tashkilotlaridan tashqari).

Bunda mehnatga haq to'lashni miqdori ikkita qismdan asosiy va qo'shimcha ish haqidan hosil bo'ladi. Asosiy ish haqi mahsulot tannarxiga qo'shiladi. Qo'shimcha ish haqi esa foyda hisobiga shakllanadi. Shuni aytish kerakki, har bir ish haqi turini tashkil etishda alohida normativlardan ham foydalanish mumkin.

Ko'p mulkchilik tizimiga o'tilishi iqtisodiy poliformizmni yuzaga chiqarib, xilma-xil daromadlarni shakllantiradi. Ularni shartli ravishda ikki bo'g'inga ajratish mumkin: bu – bozor va nobozor. Nobozor munosabatlarning o'zida ham ikki jihat bor. Biri – ma'muriy tizim belgilari bo'lsa, ikkinchisi umumiy iqtisodiy, insonparvarlik munosabatlaridir.

Daromad bozor qonunlariga binoan ishlab topilgan daromad bo'lib, uning miqdori iqtisodiy resurslarning naqadar samarali ishlatilishiga, aniqrog'i yaxshi iqtisodiy natijaga erishishga bog'liq bo'ladi. Daromad miqdorlari cheklangan emas, chunki uni ishlab topish uchun yetarli shart-sharoit mavjud. Daromad tarkiban tadbirkorlik daromadi, mulkdan kelgan daromadi va bozor talabiga qarab ishlovchi korxonalar va tashkilotlardan tegadigan ish haqidan iborat.

Faoliyat yurgizish orqali daromadlar asosiy qilib olingan bo'lsa, notijorat daromadi ularning hosilasi ikkilamchi daromaddir. Shu sababli bozor daromadi qanchalik ko'p bo'lsa, o'z hisobidan shakllangan, notijorat daromadlar ham ortib boradi.

Iqtisodda resurslarining ishtirokiga ko'ra, notijorat daromadlari mazmunan turlicha bo'lsada, uning asosiy turi tadbirkorlik daromadlari bo'ladi. Uni tadbirkorlar sinfi o'zlashtiradi. Iqtisodiy islohotlar jarayonida ishchi, dehqon va xizmatchilar orasidan tadbirkorlar bu turli katta-kichik firma sohiblari va ularning sheriklaridan iborat bo'lsa, keng ma'noda fermer va yakka tartibda ishlovchilardan tashkil topadi. Tadbirkorlarning o'z qobiliyatlarini ishga solib, kapital sarflab, tavakkalchilikka borgani uchun topadigan pul va daromadlar ular boyligining manbai bo'lib xizmat qiladi. Tadbirkorlikdan bozor daromadi kelsa, yollanib ishlash mehnat

daromadini beradi, u ham bo'lsa ish haqidir. Uning miqdori mehnat samaradorligiga bog'liq, chunki bozor iqtisodiyotida har qanday daromad resurslarini naqadar unumli ishlatishning natijasi bo'ladi. Ular unumli ishlatilsa, daromad ortadi va aksincha. Shu sababli ish haqi miqdori mehnat unumdorlik darajasidan kelib chiqadi. Bu qoida moddiy ishlab chiqarish sohalari (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish va hokazo)dagi ish haqi ishlab chiqarishda yaratilgan daromadlarning byudjet orqali taqsimlanishiga bog'liq bo'ladi. Shu sababli byudjetdan moliyalashtiriluvchi tashkilot va muassasalardagi ish haqi byudjet imkoniyatlaridan kelib chiqadi va davlat tomonidan qayta ko'rib turiladi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig'ini zamonaviy darajaga ko'tarish quyidagi vazifalarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi, ya'ni:

➤ ishchi va xizmatchilar daromadini tinimsiz oshib borishiga va uni davlat tomonidan tartiblashtirib turilishiga;

➤ jismoniy shaxslarga qonunlar doirasida turli o'rindoshlik ish joylarini yuzaga keltirish orqali ularning daromadlarini oshirib borishiga;

➤ jismoniy shaxslarga turli faoliyatlar bilan shug'ullanish orqali ko'proq daromadlarni qo'lga kiritilishiga;

➤ jismoniy shaxslarga chegaralanmagan darajada daromad olish imkoniyatini yaratilishi yo'lida yangi infrastrukturallarni yuzada keltirish va ularda ishlash uchun jismoniy shaxslarni jalb etishga va hokazo.

4.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish obyekti

Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lovchilar hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi daromadlari soliq solish obyektidir:

O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasidagi va undan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlari;

O‘zbekiston Respublikasi norezidentlarining O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingan daromadlari.

Soliq kodeksi 58-bobiga muvofiq, qat’iy yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingan, belgilangan soliq solinadigan daromadlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq solish obyekti bo‘lmaydi.

Soliq solinadigan baza jami daromaddan kelib chiqib, soliq solishdan ozod qilingan daromadlar chegirilgan holda aniqlanadi.

Agar soliq to‘lovchining daromadidan uning ixtiyoriga ko‘ra, sud yoki boshqa organlarning qaroriga binoan biron-bir ushlab qolishlar amalga oshirilsa, bunday ushlab qolishlar soliq solinadigan bazani kamaytirmaydi.

Jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari daromadlar amalda olingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo‘yicha milliy valyutada qayta hisoblab chiqiladi.

4.3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslarning jami daromadiga quyidagilar kiradi:

- 1) mehnatga haq to‘lash shaklidagi daromadlar;
- 2) mulkiy daromadlar;
- 3) moddiy naf shaklidagi daromadlar;
- 4) boshqa daromadlar.

Yuridik shaxslar amalga oshiradigan quyidagi xarajatlar jismoniy shaxslarning daromadi, deb hisoblanmaydi, ya’ni:

1) xodimlarni qonun hujjatlarida belgilangan normalarga muvofiq sut va boshqa davolash-profilaktika oziq-ovqati, shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan ta’minlash;

2) kasaba uyushmalari qo‘mitalari amalga oshiradigan to‘lovlar, shu jumladan, a’zolik badallari hisobidan kasaba uyushmalari a’zolariga beriladigan moddiy yordamlar, kasaba uyushmalari qo‘mitalarining

xodimlariga mehnat vazifalarini bajarganlik uchun beriladigan pul mukofotlari va boshqa to'lovlar bundan mustasno;

3) ishchilarni ish joyiga kelish va qaytish bilan bog'liq xizmat transportini saqlash xarajatlari;

4) diniy rasm-rusum va marosimlarni, bayram tantanalarini o'tkazish xarajatlari, shuningdek, yuridik shaxsning xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini ta'minlash bilan bog'liq hamda muayyan jismoniy shaxslarning daromadi hisoblanmaydigan boshqa xarajatlari;

5) xodimga ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, formal kiyim-bosh berish bo'yicha xarajatlari;

6) xodim boshqa joyga ishga o'tkazilganda yohud ko'chib borganda ko'chish, mol-mulkini ko'chirib borish, turar-joy ijarasi bilan bog'liq xarajatlar;

7) xizmat safarlari chog'idagi kompensatsiya to'lovlari:

8) amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan normalar doirasida kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar):

– doimiy ishi yo'lda kechadigan yoki sayyor va (yoki) ko'chib yurish bilan bog'liq xodimga;

– xizmat ishlari uchun shaxsiy avtomobildan foydalanganlik uchun, xizmat safarlaridan tashqari;

– dala ta'minoti;

– amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa kompensatsiya to'lovlari (kompensatsiyalar);

9) mayib bo'lish yoki sog'lig'ining boshqacha tarzda shikastlanishi bilan bog'liq zararni qoplash bo'yicha quyidagi to'lovlar:

– jabrlanuvchi mehnatda mayib bo'lishiga qadar olgan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan foiz hisobidagi, uning kasbga oid mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga muvofiq belgilanadigan har oylik to'lovlar (voyaga yetmagan shaxs mehnatda mayib bo'lib qolgan taqdirda, zarar uning ish haqi (daromadi) miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin qonun

hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining besh baravaridan kam bo'lmagan miqdorda qoplanadi);

– maxsus tibbiy parvarishga muhtoj jabrlanuvchilarga qo'shimcha xarajatlar uchun oyiga eng kam ish haqining ikki baravari miqdorida;

– jabrlanuvchilarning maishiy parvarishi uchun qo'shimcha xarajatlar tariqasidagi har oyda eng kam ish haqining ellik foizi miqdorida;

– xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilgani munosabati bilan ish beruvchi tomonidan bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasidagi jabrlanuvchining yillik o'rtacha ish haqi miqdoridagi to'lovlar;

10) boquvchisining vafot etganligi munosabati bilan quyidagi miqdordagi to'lovlar:

– marhumning o'rtacha ish haqining vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan va uning vafoti munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz shaxslarga to'g'ri keladigan ulushi miqdoridagi to'lovlar; boquvchisining vafot etganligi munosabati bilan zararni undirishga haqli bo'lgan shaxslarga bir yo'la to'lanadigan nafaqa tariqasidagi marhumning o'rtacha yillik ish haqining olti baravari miqdoridagi to'lovlar;

11) o'quv yurti bilan to'g'ridan to'g'ri tuzilgan shartnomalar bo'yicha pulli-kontrakt asosda talabani ta'lim olishi uchun o'tkaziladigan to'lovlar.

12) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi hisobvarag'iga muqobil xizmat shartnomasi bo'yicha o'tkaziladigan mablag'lar;

13) jismoniy shaxslarni majburiy va ixtiyoriy sug'urtalash turlari bo'yicha sug'urta mukofotlari. Bunda jamg'arib boriladigan sug'urtalash turlari bo'yicha mazkur mukofotlar muddati bir yildan kam bo'lmagan sug'urtalashda jismoniy shaxslarning daromadi bo'lib hisoblanmaydi;

14) yuridik shaxsdan – ish beruvchidan:

– yosh oilalar a'zolari tomonidan uy-joy olish uchun olingan mablag'lar;

– qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurish uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga

yuklatilgan banklar tomonidan ushbu maqsadlar uchun beriladigan ipoteka krediti bo'yicha boshlang'ich badal sifatida quruvchi shaxs tomonidan olingan mablag'lar.

Uy-joy olingan (mulkka bo'lgan huquqlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, ushbu bandda ko'rsatilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi;

15) xodimlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash xarajatlari.

Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan mehnat shartnomalariga yoki fuqaroviy-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlar, deb e'tirof etiladi.

Mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, ishlanmagan vaqti uchun haq to'lash, kompensatsiya qilish xususiyatiga ega to'lovlar kiradi.

Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish predmeti bo'lgan mehnat shartnomalariga yoki fuqaroviy-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lanadigan barcha to'lovlar mehnatga haq to'lash shaklidagi daromadlar, deb e'tirof etiladi.

Rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1) yillik ish natijalari bo'yicha taqdirlashlar, bir yo'la beriladigan mukofotlar;

2) yuridik shaxsning mukofotlash to'g'risidagi qoidasida nazarda tutilgan rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

3) kasbiy mahorat, murabbiylik uchun tarif stavkalari va maoshlarga qo'shimchalar;

4) ta'tiliga har yilgi qo'shimcha haqlar;

5) ko'p yil ishlaganlik uchun taqdirlashlar va to'lovlar;

6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to'lov;

7) mehnat natijalari bilan bog'liq bo'lmagan bir yo'la beriladigan mukofotlar.

Kompensatsiya qilish xususiyatidagi to'lovlarga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo'lgan joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar (ish staji uchun ustamalar, baland tog'li, cho'l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsiyentlar bo'yicha to'lovlar);

2) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan, shunday sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek, bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lmagan xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek, doimiy ishi ishlarni vaxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) yuridik shaxs joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishlash joyigacha va orqaga qaytish uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan taqdirda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek, xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi, maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yerosti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stvoldan ishlash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqti uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtidagi qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil qilinganda, ish vaqti umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganliklari munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat ishlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash uchun ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lashga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariga muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'tilga haq to'lash, shuningdek, ushbu ta'tildan foydalanilmaganda, shu jumladan, xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lash;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek, og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

d) o'qish bilan bog'liq ta'tilga va ijodiy ta'tillarga haq to'lash;

e) o'n ikki yoshga to'lmagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'lmagan nogiron bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'tilga haq to'lash;

2) asosiy ish haqi qisman saqlanib qolgan holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlar;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash;

4) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga haq to‘lash;

5) qishloq xo‘jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo‘yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) boshqa yuridik shaxslardan avvalgi ish joyida lavozim bo‘yicha maoshi miqdorlari ma‘lum bir muddat davomida saqlab qolinganda holda ishga olingan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turganda xodimlarga maoshdagi farqni to‘lash;

7) yuridik shaxslarning xodimlariga kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o‘qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo‘yicha ularga to‘lanadigan ish haqi;

8) xodimning aybisiz bekor turib qolinganda vaqt uchun haq to‘lash;

9) mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘shimcha haq to‘lash;

10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqti yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun haq to‘lash;

11) o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarning imtiyozli soatlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek, tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun haq to‘lash;

12) yuridik shaxslarning asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga haq to‘lash;

15) yuridik shaxsning mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqalarga qo‘shimchalar, stipendiyalar;

16) oliy o‘quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislariga ta‘til vaqti uchun yuridik shaxs hisobidan to‘lanadigan nafaqalar.

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) foizlar;

2) dividendlar;

3) mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlar;

4) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar. Mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan daromadlar mazkur mol-mulkni realizatsiya qilish summasining hujjatlar bilan tasdiqlangan uni olish qiymatidan oshgan qismi sifatida aniqlanadi. Mol-mulkni olish qiymatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda, mol-mulkni realizatsiya qilish qiymati, ko'chmas mulk bo'yicha esa, inventarizatsiya qiymati hamda realizatsiya qilish narxi o'rtasidagi farq daromad, deb e'tirof etiladi;

5) sanoat mulki obyektlariga, seleksiya yutug'iga berilgan patent (litsenziya) egasi bo'lgan jismoniy shaxsning patentdan boshqa shaxs foydasiga voz kechganda yoki litsenziya shartnomasi tuzganda olgan daromadi;

6) royalti;

8) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori, oilaviy korxonalar ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi.

Moddiy naf shaklida olinadigan daromadlar hisoblanadi:

1) yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, shu jumladan:

- jismoniy shaxslarning bolalarini maktabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash;

- kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari haqini, yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rni qoplash qiymatini to'lash;

- sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rni qoplash qiymatini to'lash;

- yuridik shaxsning jismoniy shaxs daromadi bo'lgan boshqa xarajatlari;

2) soliq to'lovchining manfaatlarini ko'zlab tekinga, shu jumladan, hadya shartnomasi asosida berilgan mol-mulk, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati;

3) tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xodimlarga realizatsiya qilinadigan narxi va shu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) hisoblab chiqarilgan qiymati o'rtasidagi salbiy tafovut;

4) qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarga temir yo'l, aviatsiya, daryo, avtomobil transporti va shahar elektr transportida yurish bo'yicha beriladigan imtiyozlar summasi;

5) jismoniy shaxsning yuridik shaxs oldidagi qarzining yuridik shaxs qarori bilan hisobdan chiqarilgan summalari;

6) ish beruvchi tomonidan to'lovlar hisobiga to'lanib, xodimdan ushlab qolinishi lozim bo'lgan, lekin ushlab qolinmagan summalar.

Soliq to'lovchi yuridik shaxsdan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olgan taqdirda, ushbu tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati ularni olish narxidan yoki tannarxidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Jismoniy shaxs yuridik shaxsdan aksiz to'lanadigan tovarlar yoki qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olsa, bunday tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymatida aksiz solig'ining va qo'shilgan qiymat solig'ining tegishli summasi hisobga olinadi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) pensiyalar va qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar;

2) stipendiyalar;

3) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalari tomonidan jismoniy shaxslarga beriladigan nafaqalar hamda boshqa turlardagi yordam;

4) donorlik uchun pul mukofotlari;

5) alimlar;

6) hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, ipak qurti, chorvachilik, asalarichilik va

dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotishdan olingan daromadlar;

7) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan, hadya shartnomalari bo'yicha) olingan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar qiymati;

8) musobaqalarda, ko'riklarda, tanlovlarda sovrinli o'rinlar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari;

9) yutuqlar;

10) grant beruvchidan olingan grantlar, shu jumladan, chet davlatlar grantlari bo'yicha olingan summalar;

11) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foiz tarzidagi va boshqa daromadlar, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

12) yaratilgan fan, adabiyot va san'at asarlari (predmetlari) uchun jismoniy shaxslar tomonidan olingan daromadlar;

13) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

14) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

15) xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan ishdan bo'shatish nafaqasi va boshqa to'lovlar;

16) moddiy yordam tariqasida:

- vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan to'lovlar;

- xodimga mehnatda mayib bo'lganligi, kasb kasalligi yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq to'lovlar;

- favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan to'lovlar;

- maqsadli xususiyatga ega bo'lgan hamda xodimlar bilan yuz bergan shaxsiy tusdagi voqealar, hodisalar va tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan hamda bajariladigan ish natijalariga bog'liq bo'lmagan to'lovlar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini berish yoki ularni sotib olish uchun mablag'lar berish tarzidagi to'lovlar;

17) qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlari haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

18) ishlamaydigan pensionerlarga yuridik shaxs tomonidan to'lanadigan to'lovlar;

19) sug'urta to'voni summalari;

20) ma'naviy zararni kompensatsiya qilish bo'yicha pul to'lovlari.

4.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlarning stavkasi va soliq bo'yicha imtiyozlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ–4086-sonli Qarori hamda Soliq kodeksining 181-moddasiga binoan, 2019-yil 1-yanvardan boshlab jismoniy shaxsning daromadlariga, bundan dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlar mustasno, 12 foizli stavka bo'yicha soliq solinadi.

2019-yildan O'zbekiston Respublikasining rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to'lanadigan daromadlarga 5 foizli stavka bo'yicha soliq solinadi.

2018-yilda undirilgan daromad solig'i stavkalari 4.1-jadvalda aks ettirildi.

2018-yilda jismoniy shaxslar daromad solig'i stavkalari²⁶

(tarixiy qarash)

Jami daromad miqdori	Soliq summasi
Eng kam ish haqining 1 baravar miqdorigacha	0 foizi
Eng kam ish haqining 1 baravaridan (+1 so'm) 5 baravar miqdorigacha	Daromad summasining 7,5 foizi
Eng kam ish haqining 5 baravari miqdoridan (+1 so'm)dan 10 baravar miqdorigacha	Eng kam ish haqining 5 baravar miqdoridan olinadigan soliq +4 baravaridan oshadigan summaning 16,5 foizi
Eng kam ish haqining 10 baravari miqdoridan (+1 so'm)dan va undan yuqori miqdorigacha	Eng kam ish haqining 10 baravar miqdoridan olinadigan soliq +10 baravaridan oshadigan summaning 22,5 foizi

Soliq solinadigan daromadlarga quyidagi daromadlar kiritilmaydi:

1) moddiy yordam summalari:

– favqulodda holatlar munosabati bilan beriladigan moddiy yordam summalari – to'raligicha;

– vafot etgan xodimning oila a'zolariga yoki oila a'zosi vafot etganligi munosabati bilan xodimga beriladigan moddiy yordam summalari – eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

– boshqa hollarda – soliq davri uchun eng kam ish haqining o'n ikki baravarigacha miqdorda;

2) yo'llanmalar qiymatini yuridik shaxslar tomonidan to'liq yoki qisman qoplash summalari, turistik yo'llanmalar bundan mustasno:

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454 sonli qarori. www.lex.uz

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga yo'llanmalar qiymatini nogironlarga, shu jumladan, mazkur korxonada ishlamaydigan nogironlarga to'liq yoki qisman qoplash summolari;

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan bolalar oromgohlari va boshqa sog'lomlashtirish oromgohlari, shuningdek, ota-onalarning bolalari bilan dam olishiga maxsus mo'ljallangan sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish muassasalariga o'z xodimlarining o'n olti yoshga to'imgan (o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan o'quvchilar) bolalari uchun yo'llanmalar qiymatini to'liq yoki qisman qoplash summolari;

3) o'z xodimlariga va ularning bolalariga ambulatoriya va (yoki) statsionar tibbiy xizmat ko'rsatilganligi uchun ish beruvchi tomonidan to'langan summalar, shuningdek, yuridik shaxsning davolash va tibbiy xizmat ko'rsatganlik, nogironlik profilaktikasi va nogironlarning salomatligini tiklashga doir texnik vositalarni olish uchun qilingan xarajatlari. Xodimlarni davolaganlik, ularga tibbiy xizmat ko'rsatganlik uchun yuridik shaxslar tomonidan sog'liqni saqlash muassasalariga naqd pulsiz haq to'langan taqdirda, shuningdek, sog'liqni saqlash tashkilotlari tomonidan yozib berilgan hujjatlar asosida ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan naqd pul mablag'lari bevosita xodimga, xodim yo'qligida, uning oila a'zolariga, ota-onalariga berilgan yoki mazkur maqsadlar uchun mo'ljallangan mablag'lar xodimning bankdagi hisobvarag'iga kiritilgan taqdirda, ushbu daromadlar soliq solishdan ozod qilinadi;

4) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ishlash uchun yuborilishi munosabati bilan byudjet tashkilotlaridan chet el valyutasida olingan ish haqi summolari va boshqa summalar, qonun hujjatlarida belgilangan summalar doirasida;

5) vaqtinchalik bir martalik ishlarni bajarishdan olingan daromadlar, agar bunday ishlarga yollash vaqtinchalik bir martalik ish bilan ta'minlash markazlari ko'magida amalga oshirilayotgan bo'lsa;

6) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin xususiy korxonalar mulkdori, oilaviy korxonalar ishtirokchisi hamda fermer xo'jaligi boshlig'i ixtiyorida qoladigan foyda summasi;

7) O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan jismoniy shaxslar olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

8) xalqaro sport musobaqalarida sovrinli o'rinlarni egallaganligi uchun sportchilar olgan bir yo'la beriladigan pul mukofoti;

10) donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek, qon yiqqanlik uchun tibbiyot muassasalari xodimlari oladigan summalar;

11) jismoniy shaxslarga xususiy mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulkni sotishdan olinadigan daromadlar, bundan:

- qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini (paylarini);

- yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni;

- ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida bir martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar mustasno.

12) uy xo'jaligida, shu jumladan, dehqon xo'jaligida yetishtirilgan hayvonlarni (qoramol, parranda, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliq va boshqalarni) tirik holda hamda ularni so'yib, mahsulotlarini xom yoki qayta ishlangan holda, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, tabiiy va qayta ishlangan chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromadlar, bundan manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlari mustasno. Mazkur daromadlar soliq to'lovchi tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining boshqaruvlari tomonidan berilgan, realizatsiya qilingan mahsulot soliq to'lovchi tomonidan unga yoki uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etgan taqdirda, soliq solishdan ozod qilinadi;

13) xalqaro hamda respublika tanlovlari va musobaqalarida olingan buyum tarzidagi sovrinlarning qiymati;

14) yuridik shaxsdan soliq davri mobaynida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha bo'lgan qiymatdagi:

– xodimlar natura shaklida olgan sovg'alar;

– ilgari mazkur yuridik shaxsning xodimlari bo'lgan ishlamayotgan pensionerlar va mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslar, vafot etgan xodimning oila a'zolari tomonidan olingan sovg'alar va boshqa turlardagi yordam.

15) jismoniy shaxslardan meros yoki hadya tartibida, shuningdek, tekin olingan pul va natura shaklidagi daromadlar, bundan fan, adabiyot va san'at asarlarining, adabiyot va san'at asarlari ijrochilarining, shuningdek, kashfiyotlar, ixtirolar va sanoat namunalari mualliflarining merosxo'rlariga (huquqiy vorislariga) to'lanadigan pul mukofotlari mustasno;

16) davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar;

17) jamg'arma sertifikatlari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlar, shuningdek, banklardagi omonatlar bo'yicha foizlar hamda yutuqlar;

18) xalqaro hamda chet el tashkilotlari va fondlaridan, shuningdek,

ilmiy-texnika hamkorligi sohasidagi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari doirasida bevosita jismoniy shaxs grant beruvchidan yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakil qilingan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning xulosasi bo'lgan taqdirda, yuridik shaxsdan – grant oluvchidan olgan grant summasi;

19) mehnat shartnomasi bekor qilinganida eng kam ish haqining o'n ikki baravari miqdori doirasida to'lanadigan ishdan bo'shatish nafaqasi, qonun hujjatlarida belgilangan boshqa nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari (shu jumladan, oilaning bemor a'zosini parvarishlash nafaqasi) mustasno, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xayriya va ekologiya jamg'armalaridan jismoniy shaxslarga beriladigan yordam tusidagi to'lovlar;

20) olingan alimentlar;

21) fuqarolarning sug'urta tovonni sifatida oladigan summalari;

22) qonun hujjatlarida davlat stipendiyalari uchun belgilangan miqdorlarda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan to'lanadigan stipendiyalar;

23) uy-joy-kommunal xizmatlariga haq to'lash bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq har oylik kompensatsiya pul to'lovlari;

24) davlat pensiyalari;

25) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha foiz daromadlari, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari;

26) fuqarolarning soliq solinadigan va O'zbekiston Respublikasida sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslarga mol-mulkni sug'urta qilish hamda hayotni uzoq muddatli sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari to'lovi uchun yo'naltiriladigan ish haqi va boshqa daromadlarining summalari;

27) yuridik shaxslar muassislarining (ishtirokchilarining) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektiga – yuridik shaxsga uning majburiyatlarini bajarish uchun yo'naltiriladigan daromadlari summalari. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qayta tiklangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi va soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi;

28) quyidagi jismoniy shaxslarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlari summalari:

– yosh oila a'zolari tomonidan yakka tartibda uy-joyni qurish, rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun yoki ko'p kvartirali uydagi kvartirani rekonstruksiya qilish va sotib olish uchun olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda;

– qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joy qurishni ushbu maqsadlar uchun kreditlar berish qonun hujjatlariga muvofiq zimmasiga yuklatilgan banklarning kreditlari hisobidan amalga

oshirayotgan quruvchi shaxslar tomonidan olingan ipoteka kreditlarini hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni qoplash uchun yo'naltirilganda.

Ushbu bandda ko'rsatilgan mol-mulk olingan (mol-mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) sanadan e'tiboran besh yil ichida sotilsa, mazkur bandda nazarda tutilgan daromadlarga belgilangan tartibda soliq solinadi.

29) fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining:

O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun (o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'lmagan farzandlarining o'qishi uchun) yo'naltiriladigan summalari;

O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga ixtiyoriy ravishda yo'naltiriladigan summalari.

30) jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan, hadya shartnomasi bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aksiyalar tarzidagi daromadlar, agar mazkur ulushlar, paylar va aksiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilsa.

31) paxta yig'im-terimi bo'yicha qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilinadigan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganlik uchun olgan daromadlari.

32) aksiyadorlik jamiyatlari chet ellik xodimlarining boshqaruv xodimi sifatida o'z faoliyatidan olgan daromadlari.

Quyidagilar jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lashdan to'liq ozod qilinadi:

1) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari, konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'lmasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

2) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalarining ma'muriy-texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan

birga yashaydigan oila a'zolari, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – O'zbekiston Respublikasidagi manbalardan olinadigan, diplomatlik va konsullik xizmati bilan bog'liq bo'lmagan daromadlaridan tashqari barcha daromadlari bo'yicha;

3) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga xizmat ko'rsatadigan xodimlar tarkibiga kirgan shaxslar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

4) xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari xodimlarining uylarida ishlovchilar, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasa, – o'z xizmati yuzasidan oladigan barcha daromadlari bo'yicha;

5) xalqaro nohukumat tashkilotlarning mansabdor shaxslari – agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, ularning ushbu tashkilotlarda olgan daromadlari bo'yicha;

6) konsert-tomosha faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasi bo'lgan shaxslar – ushbu faoliyatdan olingan daromadlari bo'yicha;

7) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan shaxslar – yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasiga ko'ra bajargan ishlari uchun olgan daromadlari bo'yicha.

Shuningdek, quyidagi soliq to'lovchilarning har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdoridagi daromadlari jismoniy shaxslar daromadidan soliq to'lashdan ozod qilinadi:

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar. Mazkur imtiyoz tegishincha "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'yicha bo'limning yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) bolalikdan nogiron bo'lib qolganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari. Imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yaralanganligi, kontuziya bo'lganligi yoki shikastlanganligi oqibatida yoxud frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalari va beva xotinlari (beva erlari). Imtiyoz "Halok bo'lgan askarning beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" yoki "Ichki ishlar organlari halok bo'lgan xodimining beva xotini (beva eri, onasi, otasi)" shtampi qo'yilgan yoxud pensiya guvohnomasini bergan muassasa rahbarining imzosi va ushbu muassasa muhri bilan tasdiqlangan tegishli yozuvli pensiya guvohnomasi asosida beriladi. Agar mazkur shaxslar pensioner bo'lmasa, imtiyoz ularga sobiq SSSR Mudofaa vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi yoki Ichki ishlar vazirligining, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati yoxud Ichki ishlar vazirligining tegishli organlari tomonidan berilgan harbiy xizmatchining yoki ichki ishlar organi xodimining halok bo'lganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma asosida beriladi. Sobiq SSSRni, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish yoki harbiy xizmatning yoxud ichki ishlar organlaridagi xizmatning boshqa majburiyatlarini bajarish chog'ida yoki frontda bo'lish bilan bog'liq kasallik tufayli halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yoxud ichki ishlar organlari xodimlarining beva xotinlariga (beva erlariga) imtiyoz faqat ular yangi nikohdan o'tmagan taqdirda beriladi;

5) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar. Imtiyoz har bir bola uchun Fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish (FH DY o) organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotnoma asosida beriladi;

6) ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor va boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olmaydigan beva ayol va beva erkaklar. Imtiyoz erning (xotinning) vafot etganligi to'g'risidagi guvoohnoma, bolalar tug'ilganligi to'g'risidagi guvoohnoma, yangi nikohdan o'tmaganlik hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining boquvchisini yo'qotganlik uchun pensiya olinmasligi haqidagi ma'lumotnomasi taqdim etilgan taqdirda beriladi;

7) bolaligidan nogiron bo'lgan, doimiy parvarishni talab qiladigan farzandi bilan birga yashab, uni tarbiyalayotgan ota-onadan biri. Imtiyoz pensiya guvoohnomasi yoki sog'liqni saqlash muassasasining doimiy parvarish zarurligini tasdiqlovchi tibbiy ma'lumotnomasi, birgalikda yashashga taalluqli qismida – fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining ma'lumotnomasi asosida beriladi.

Fuqarolar soliq imtiyozidan mahrum bo'lganda 15 kun ichida bu haqda korxonaga, muassasa, tashkilotni, shuningdek, o'zidan soliqni ushlab qoladigan jismoniy shaxsni yoxud soliq organini (agar soliq miqdorini shu organ hisoblaydigan bo'lsa) xabardor qilishlari kerak.

Daromad solig'ini hisoblashda chet ellik jismoniy shaxslarga nisbatan ma'lum darajada farqlar yoki ajralib turuvchi xususiyatlari ham bo'lishi mumkin. Misol uchun, chet ellik jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida shu yo'riqnomaga muvofiq ravishda, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan xususiyatlarni hisobga olgan holda soliqqa tortiladi.

• rezident O'zbekiston Respublikasining fuqarosi kabi jismoniy shaxslar daromadidan soliq to'laydi. Uning manbai O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadi bo'lib hisoblanadi.

4.5. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish uchun soliq stavkasini qo'llash maqsadida eng kam ish haqi miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi) hisobga olinadi. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini, shuningdek, eng kam ish haqining karrali miqdorlarida nazarda tutilgan imtiyozlarni hisoblab chiqarish uchun eng kam ish haqi miqdorining joriy yilning 1-yanvaridagi holati inobatga olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish va ushlab qolish belgilangan soliq solinadigan baza hamda stavkalardan kelib chiqqan holda daromad hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha har oyda jismoniy shaxsning asosiy ish joyi bo'yicha soliq agenti tomonidan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jismoniy shaxslarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.

Jismoniy shaxsning asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan sovg'a, moddiy yordam va boshqa turlardagi yordam olgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini qayta hisob-kitob qilish jismoniy shaxs daromadlari to'g'risida deklaratsiya topshirganda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyi o'zgartirilgan taqdirda, jismoniy shaxs joriy yilda o'ziga to'langan daromadlar va ushlab qolingan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summalari to'g'risidagi ma'lumotnomani yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi hisoblanguniga qadar taqdim etishi shart. Ilgarigi ish (xizmat, o'qish) joyidan ma'lumotnoma taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikatsiya raqami taqdim etilmagan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i belgilangan eng yuqori stavka

bo'yicha ushlab qolinadi. Ma'lumotnoma yoki identifikatsiya raqami keyinchalik taqdim etilgan taqdirda, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi ilgarigi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida olingan daromadlar inobatga olingan holda qayta hisob-kitob qilinadi.

Yangi asosiy ish (xizmat, o'qish) joyida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish kalendar yil boshidan buyon ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joylaridan olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Mehnat shartnomasi bekor qilingandan so'ng xodimga ilgarigi asosiy ish joyida to'lovlar amalga oshirilgan taqdirda, mazkur to'lovlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozlar qo'llanilmagan holda solinadi. Yuridik shaxs bu xodimga to'lagan daromadning jami summasi va undan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani umumiy summasi haqida bu yuridik shaxs hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga o'ttiz kun ichida yozma shaklda ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan olingan daromadlarga to'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblab chiqarish jami daromad summasidan imtiyozlar qo'llanilmagan holda, belgilangan stavkalar bo'yicha hisoblanishiga qarab, yil boshidan ortib boruvchi yakun bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'lmagan ish joyidan yoki boshqa yuridik shaxslardan daromadlar olayotgan jismoniy shaxs buxgalteriyaga o'z daromadidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng yuqori stavkasi bo'yicha ushlab qolish to'g'risida ariza bersa, daromadlar to'layotgan yuridik shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini ushbu bo'limda nazarda tutilgan imtiyozlarni qo'llamagan holda eng yuqori stavka bo'yicha ushlab qoladilar.

Soliq agentlari jismoniy shaxsning talabiga binoan unga daromadlarining summalari va turlari haqida, shuningdek jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ushlab qolingani summasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma’lumotnoma berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning asosiy bo‘lmagan ish joyidan olgan daromadlaridan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining yakuniy summasi jismoniy shaxsning jami yillik daromadi to‘g‘risida taqdim etilgan deklaratsiyaning ma’lumotlari bo‘yicha davlat soliq xizmati organi tomonidan hisoblab chiqariladi.

Soliq agentlari:

1) soliq davri tugaganidan so‘ng o‘ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to‘g‘risida, asosiy ish joyi bo‘yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslar bundan mustasno, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan shaklda ma’lumotnoma taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- soliq to‘lovchining – jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;
- soliq to‘lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;
- o‘tgan soliq davri yakunlari bo‘yicha daromadlarning umumiy summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingani umumiy summasi;
- soliq agentining identifikatsiya raqami;
- soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo‘yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to‘langan daromadlar summalari hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining ushlab qolingani summalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

To'lov manbaida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining hisoblab chiqarilgan summasi byudjetga soliq agenti tomonidan quyidagi muddatlarda to'lanadi:

➤ pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda, ish haqi bo'yicha oyning birinchi yarmi uchun bo'nak (avans) olish uchun hujjatlar taqdim etilganda soliqni to'lash amalga oshirilmaydi;

➤ to'lov natura hoida amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida, agar bunday to'lovga qonun hujjatlarida ruxsat berilgan bo'lsa.

Agar yuridik shaxsning bank hisobvarag'ida ish haqini to'lash va bir vaqtning o'zida xodimlarning ish haqidan ushlab qolingani soliqni byudjetga o'tkazish uchun mablag'lar etarli bo'lmasa, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bank hisobvarag'idagi qoldiq mablag'larga mutanosib summada byudjetga o'tkaziladi.

4.6. Deklaratsiya tushunchasi va uni joriy qilish sabablari. Jismoniy shaxslarning deklaratsiyaga kiritiladigan daromadlari tarkibi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan turli faoliyatlarni to'g'ri hisobga olish faqat ular tomonidan qo'lga kiritiladigan daromadlar doirasida nazoratga olinishi mumkin. Shu bois jismoniy shaxslarni jami yillik daromadini hisobga olish orqali deklaratsiya tuzish muximdir.

Deklaratsiya asosida soliq solinadigan daromadlarga O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining quyidagi daromadlari kiradi:

✓ mulkiy daromadlar, agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa;

✓ fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida olingan daromadlar;

✓ asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar;

✓ O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlar;

✓ soliq agentlari bo'lmagan manbalardan olingan daromadlar.

Soliq to'lovchilar daromadlar bo'yicha jami yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyani, agar ushbu muddada boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreldan kechiktirmay taqdim etadi.

Deklaratsiya qilinishi shart bo'lmagan daromadlarni olgan soliq to'lovchilar doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga jami yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiyani ixtiyoriy ravishda taqdim etishi mumkin;

O'zbekiston Respublikasi rezidenti bo'lgan chet ellik jismoniy shaxs o'tgan soliq davri uchun daromadlar to'g'risida joriy yilning 1-aprelegacha deklaratsiya taqdim etadi.

Chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti ushbu bobda belgilangan tartibga muvofiq soliq solinishi lozim bo'lgan daromad keltirayotgan faoliyatini kalendar yili ichida tugatgan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketayotgan bo'lsa, uning O'zbekiston Respublikasi hududida turgan vaqtda joriy soliq davrida haqiqatda olgan daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya mazkur jismoniy shaxs O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketishidan bir oy avval taqdim etilishi lozim. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasining rezidenti joriy yilning 1-fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo'lsa, joriy yil uchun daromadlar bo'yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Taqdim etish tartibi belgilangan daromadlar to'g'risidagi deklaratsiya bo'yicha hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni to'lash deklaratsiya topshirilgan paytdan e'tiboran o'n besh kun ichida amalga oshiriladi.

Grant olgan jismoniy shaxs daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani topshirayotganda grant bo'yicha olingan daromad summasini, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i miqdorini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan vakolat berilgan fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish bo'yicha organning tegishli xulosasini ko'rsatadi.

Mol-mulkini ijaraga berishdan daromad olayotgan jismoniy shaxs, agar ushbu daromadlarga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lov manbaida soliq solinmasa, belgilangan muddatlarda jami yillik daromad to'g'risida deklaratsiya taqdim etish bilan bir qatorda ijaradan daromadlar paydo bo'lgan kundan e'tiboran birinchi oy tugaganidan keyin besh kunlik muddatda dastlabki tarzdagi deklaratsiya ham taqdim etadi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar olish tugagan taqdirda jismoniy shaxs doimiy yashash joyidagi davlat soliq xizmati organini bu haqda yozma shaklda xabardor etadi.

Agar soliq to'lovchi daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etmagan bo'lsa, davlat soliq xizmati organi o'zidagi mavjud ma'lumotlar asosida soliq summasini eng yuqori stavka bo'yicha hisoblashga va soliq to'lovchiga to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan soliq summasi to'g'risida bildirishnoma topshirishga haqli. Soliq to'lovchi tomonidan jami yillik daromadi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilgan taqdirda, soliqning yakuniy summasi ushbu deklaratsiya hisobga olingan holda aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini o'tgan soliq davridan keyingi yilning 1-iyunidan kechiktirmay to'laydilar.

Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag'idan chet el valyutasida to'lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo'yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulkni ijaraga berishdan daromadlar oladigan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugagach, jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning yillik summasi

haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summalar o'rtasidagi farq kelgusi yilning 1-iyunidan kechiktirmay soliq to'lovchidan undirilishi yoki unga qaytarilishi kerak.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq to'langan sana quyidagilardir:

❖ yuridik shaxslar yoki jismoniy shaxslar tomonidan bankdagi hisobvarag'idan to'langani taqdirda – ularning bankdagi hisobvarag'idan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun;

❖ jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul mablag'lari kiritilgan taqdirda – bank kassasiga mablag'lar to'langan sana.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak.

Deklaratsiya bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq summasini byudjetga to'lash muddati quyidagicha:

1. Jismoniy shaxslar – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini tugagan soliq davridan keyingi yilning **1-iyunidan kechiktirmay to'laydilar.**

2. Jismoniy shaxs – O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblangan daromad solig'ini xorijiy davlatda joylashgan bankdan chet el valyutasini to'lashi mumkin. Bunda, jismoniy shaxsning chet el valyutasida ifodalangan daromadlari, daromadlar amalda olingan sanadagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining belgilagan kursi asosida O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasiga qayta hisob-kitob qilinadi.

3. Mol-mulkni ijaraga berishdan daromad oladigan jismoniy shaxslar taqdim etilgan dastlabki deklaratsiya asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini har oyda daromad olingan oydan keyingi oyning beshinchi kunigacha to'laydilar. Yil tugashi bilan soliqning yillik summasi haqiqatda olingan daromad bo'yicha hisoblab chiqariladi. Bu summa bilan yil mobaynida to'langan summa o'rtasidagi tafovut soliq

to'lovchidan undirilishi yoki kelgusi yilning 15 martigacha unga qaytarilishi kerak.

4. Soliq to'lovchining hisobvarag'idan mablag'lar ko'chirilgan kun yuridik shaxslar tomonidan, shuningdek, bankda hisobvarag'iga ega jismoniy shaxslar tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash sanasi hisoblanadi, boshqa hollarda esa, shu jumladan jismoniy shaxslar uchun – kredit muassasalarining kassasiga mablag'lar kiritilgan sana hisoblanadi.

5. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi lozim.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Qanday shaxslarni jismoniy shaxslar deb atashadi?
2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining o'ziga xos xususiyatlari nimada?
3. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i byudjet daromadlari tarkibida qanday ahamiyatga ega?
4. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining to'lovchilari kimlar?
5. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlariga qaysi daromad turlari kiradi?
6. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari qaysi mezonlar asosida belgilanadi?
7. Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlar tarkibiga qanday daromadlar kiradi?
8. Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga soliq stavkalari qanday belgilanadi?
9. Norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida qanday tartibda soliq stavkalari qo'llaniladi?
10. Qaysi jismoniy shaxslarning daromadlari har bir to'liq oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida soliqdan ozod etiladi?
11. O'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band

bo'lgan xodimlarning daromadlariga qanday stavkada soliq belgilanadi?

Topshiriqlar

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining mohiyatini o'rganish.
2. Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiya usulida soliqqa tortish tartibini o'rganib chiqish.
3. Soliq imtiyozlarini o'rganish.

II QISM. BILVOSITA SOLIQ TURLARI

5-bob. QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

Reja

- 5.1. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati
- 5.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti
- 5.3. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari
- 5.4. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari
- 5.5. Hisobvaraqa-fakturani to'ldirish tartibi

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, qo'shilgan qiymat solig'i, eksport, hisobvaraqa-faktura, soliq solinadigan oborot, soliq solinadigan import, oxirgi iste'molchi.

5.1. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati

Har qanday buyum, narsa, voqelikni chuqur bilish uchun uning mohiyatini chuqur tushunib yetmoq zarur. Qo'shilgan qiymat solig'ini ham boshqa soliqlar kabi mohiyati, ya'ni soliq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni ifodalashda o'z aksini topadi. Shunday ekan, qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyatini shakllantirishda uni qat'iy doimiy takrorlanib turadigan munosabat deb tushunishimiz lozim. Qo'shilgan qiymat solig'ining doimiy takrorlanib turishi uni iqtisodiy toifa sifatida namoyon bo'lishi bilan bog'liq, shu bois qo'shilgan qiymat solig'ining faqat qiymat toifasi orqali maqsadga muvofiqdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, har qanday iqtisodiy toifa avvalo qiymat toifasi sifatida shakllanadi, so'ng bunday voqelik harakati iqtisodiy munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i esa bundan istisno emas. Shunday qilib qo'shilgan qiymat solig'i iqtisodiy toifa sifatida yaratilgan jami ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib hisoblanadi. U mehnat mahsulidir. Qo'shilgan qiymat solig'ining yuzaga kelishi yaratilgan qiymatning taqsimotiga asoslanadi. Bu o'z vaqtida moliyaviy munosabatlarda va uni harakatga keltiruvchi jarayonlarda to'liq o'z ifodasini topadi. Shu bois qo'shilgan qiymat solig'ining yuzaga kelishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etishi bevosita qiymatning yaratilishi bilan bog'liqdir. Qo'shilgan qiymat solig'ining (QQS) yaratilishi bir vaqtning o'zida o'ziga xos unga mos soliq munosabatlarini yuzaga keltiradi va uning takomillashtirilib borilishini ta'minlaydi. Shunday ekan, qo'shilgan qiymat solig'ining mohiyati boshqa soliqlarga mansub munosabatlar doirasida shakllantiriladi va rivojlantiriladi.

Amaliyotda QQS deganda bevosita byudjetga tushadigan majburiy pul to'lovi tushuniladi. Bu esa QQSni boshqa soliq turlariga tenglashtirilayotganligidan dalolat berishi, qolaversa QQSni mohiyati boshqa soliq turlariga bog'liq holda befarq deb ta'riflanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bunda soliqlarni guruhlash orqali ularning mohiyati va ahamiyatini asoslashga ehtiyoj qolmagan bo'lar edi. Shuni e'tiborga olish joizki, QQS bilvosita soliqlarning funksional elementidir. Uning to'lovchilari iste'molchilar bo'lib hisoblanadi. QQSni ana shunday tabiatidan kelib chiqqan holda, uning mohiyatini ifodalovchi darajada ta'rif berish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, QQS – bu tovarlar, ishlar xizmatlarni realizatsiya qilish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari doirasida yangi hosil qilingan qiymatning bir qismini byudjet daromadiga iste'molchilar hisobidan majburiy to'lov sifatida undirilishidir. Bir qismini davlat QQS davlat ixtiyoriga iste'molchilar tomonidan yaratilgan yangi qiymatni bir qismini sof daromad sifatida undirilishi aniqdandi. QQS majburiy tartibda Oliy Majlis tomonidan tasdiqdangan va huquqiy qonunlar bilan ta'minlangandir.

Shunday ekan, QQSni to'lamaslikka, soliq obyektini kamaytirib ko'rsatishga huquqiy shaxslarning haqqi yo'q. QQSni to'lash xo'jalik

subyekti bilan davlat o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarni bozor iqtisodiyoti davridagi asosiy shakli, daromadlarni bir qismini xo'jalik subyektlari bilan davlat o'rtasida taqsimlashning asosiy vositasi hisoblanadi.

QQSning mohiyatini ifodalashda uning eng avvalo majburiy to'lov sifatida izohlashga harakat qiluvchi iqtisodchilar yo'q emas. To'g'ri, QQSni to'lashda majburiylik bor, lekin bu majburiylik demokratiyaning oliy timsoli bo'lmish Oliy Majlis qarori, ya'ni qonun bilan kiritiladi va QQSni to'lovchilari bilan davlatning eng asosiy talablari e'tiborga olinadi. Demak QQSdagi majburiylik huquqiy demokratik me'yorlar asosida Oliy Majlis tomonidan kiritiladi. Vaholanki, majburiylik boshqa soliq turlariga ham xos xususiyatdir. Qolaversa byudjetga boshqa maxsus jamg'armalarga to'lovlar va ajratmalar ham majburiylik xarakteriga ega. Shunday qilib QQC o'z mohiyatiga ko'ra, uzoq yillarga mo'ljallangan majburiylik munosabatlarini ifodalaydi.

Masalan, sobiq sovetlar davrida oborot solig'i 62 yil o'zgarmasdan iqtisodiyotga xizmat qildi. Bizning mustaqil Respublikamizda QQS ham ana shunday uzoq yillarga xizmat qiladigan oddiy, hammaga tushunarli bilvosita soliq bo'lishi kerak. Buning uchun ular Respublika iqtisodiyotiga xos xususiyatlarni to'liq ifoda eta oladigan va ilmiy asoslangan bo'lishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotning rivojlanishi erkin bozor munosabatlari bilan ifodalanadigan bo'lsa, davlat bilan bozor munosabatlari sharoitida ishlaydigan korxonalar, birlashma va tashkilotlar o'rtasidagi munosabat faqat huquqiy munosabat asosida bo'lishi taqozo etiladi. Bunday munosabatlar qisman QQS bilan amalga oshiriladi.

Shunday qilib xulosa qilib aytadigan bo'lsak, QQC – bu iqtisodiy qiymat toifasi bo'lib, ma'lum bir iqtisodiy munosabatni o'zida shakllantiradi. Bunday iqtisodiy munosabat qiymat harakati bilan o'z ifodasini topadi, Avvalo QQC – bu jami ijtimoiy mahsulotning bir qismi bo'lib hisoblanadi. QQSning iqtisodiy-ijtimoiy mohiyati, uning ta'sir doirasi bilan belgilanadi. Uning hosil bo'lishi va ishlatilishining o'ziga xos mexanizmi (to'lashning shartligi, to'lov muddatlari va mulkdorlarning

qayd qilinishi) unga mablag'larni jamlashning soliq usuliga oid boshqa belgilarni kasb etadi.

QQS bizning Respublikamizda soliq turlarining tarkibida yetakchi o'rin egallab barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni harakatga keltirishi bilan ham ajralib turadi. QQS bir taraqqiyot bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tishning mahsuli bo'lib hisoblanmaydi. U kishilik jamiyatining, ishlab chiqarish jarayonlarining shakllantirilib borishi bilan bog'liqdir.


QQS o'zining nomini o'zgartirishi mumkin, lekin o'z tabiatini o'zgartira olmaydi. QQS o'z mohiyati jihatidan ilgari amal qilib kelgan oborot solig'iga o'xshab ketadi. Oborot solig'i markazlashgan sof daromad deb hisoblanib, qat'iy ravishda byudjetga o'tkaziladi va xo'jalikda ortiqcha fond bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi hamda xo'jalik hisobi tamoyillarini mustahkamlash manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati benihoya katta bo'lib, byudjetni mustahkamlash manbai sifatida xizmat qiladi. Oborot solig'i asosan davlat belgilagan baholar sifatida hisoblanar edi. Korxonalar va tashkilotlarga o'z tovar va xizmatlariga baholarni o'zlari belgilashi huquqi berilganligi davlat qo'lidan bu huquqni olib qo'ydi. Natijada oborot solig'i tubdan o'zgartirilib, qo'shilgan qiymat solig'i yosh, mustaqil respublikamizning soliq tizimiga kirib keldi.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan soliqlar orasida QQS muhim o'rin tutmoqda. Bilvosita tushadigan bu soliq byudjet tushumlari orasida juda katta qiyosiy salmoqqa ham ega.

QQS ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini rivojlantirishda katta rol o'ynamoqda. Uni savdoda soliqqa tortishning muvaffaqiyatli chorasi deb tan olinib ham kelinmoqda. Shu soliq sharofati bilan eksport solig'ini aniq belgilash va qaytarish sharafiga ega bo'linmoqda. QQS tashqi savdoga va texnik usullarga nisbatan neytral o'rin tutadi. Bundan tashqari, biznes yuritishning shakl va usullari QQSga ta'sir o'tkazmaydi. QQSni shu tariqa ijobiy baholash mumkin, zero resurslarni taqsimlash chog'ida bozor vositalari uchun tanlash erkinligini beruvchi iqtisodiyot sharoitida yuqorida aytilgan shartlar QQSning muhim jihatlari hisoblanadi.

Yuqorida aytilgan ijobiy tomonlardan tashqari QQS nihoyatda barqarordir, chunki stavka o'zgarishi daromadlar ko'payishi yoki kamayishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Buning ustiga, operatsiyalar o'tkazish chog'ida undiriladigan oddiy soliq bo'lgan QQS soliqa tortishning ishonchli va nisbatan oson tushuniladigan vositasi sifatida soliq munosabatlari tarkibida alohida ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida nafaqat soliq munosabatlari doirasiga qo'shilgan qiymat solig'ini undirish, balki shu undirishda muhim rol o'ynashi mumkin bo'lgan nisbiy ko'rsatkichni, ya'ni uni stavkasini ma'lum bir miqdorda belgilanishi taqozo qilinmoqda. Qolaversa soliq to'lovlari bevosita soliq stavkasiga, uni belgilanish tartibiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Umuman soliq stavkasining o'tgan davrning birinchi bosqichida shartli qilib belgilanishi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotga salbiy ta'siri bilan alohida ajralib turadi. Avvalo uning 30 foiz qilib belgilanishi soliq munosabatlari doirasida QQC bo'yicha umumdavlat byudjet tushumlarini anchagina oshirgan bo'lsa ham, bunday nisbiy ko'rsatkich boshqa to'g'ri soliq to'lovlari harakatlarini sekinlashtirilishiga sabab bo'ldi. Chunki QQS byudjet tushumlari orasida eng katta salmoqqa ega edi. Shuningdek, 1992-yilda (yanvar) qabul qilingan "Korxonalar, birlashma va tashkilotlardan undiriladigan soliqlar to'g'risida"gi Qonunga muvofiq uning undirilishida turli miqdoriy ko'rsatkichlar ishtirok etgan (5.1-chizmaga qaralsin).



5.1-chizma. QQS stavkasini yuzaga keltirishda ishtirok etuvchi ko'rsatkichlar

Qo'shilgan qiymat o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati bilan ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan tovarlar, xomashyolar va xizmatlarning qiymati o'rtasidagi farqdan iboratdir. Tabiiyki, ishlab-chiqarish jarayonida va keyinchalik mehnat taqsimoti natijasida ma'lum bir tovar bozorga olib chiqilgunga qadar ishlab chiqarish va muomala jarayonidagi bir nechta bosqichlardan o'tadi, bu bosqichlarning har birida qo'shilgan qiymat yaratiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini davlat byudjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab XX asrning boshlarida yuzaga keldi. Bu taklifni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyotida joriy etishni 1919-yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi M.Lore tomonidan ishlab chiqildi. Ammo qo'shilgan qiymat solig'i M.Lorening taklifidan so'ng o'tgan 10 yildan ortiq vaqt mobaynida tajriba uchun taklif etilgan shaklda qo'llanildi. Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i haqiqatda 1968-yildan boshlab joriy etildi.

XX asrning 70-yillarida qo'shilgan qiymat solig'i G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi. Buning asosiy sababi va huquqiy asosi bo'lib, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati tomonidan hamjamiyatga a'zo mamlakatlarda qo'shilgan qiymat solig'ini undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktivaning qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur Direktiva 1977-yilda qabul qilindi va unda egri soliqlarning asosiy turi sifatida qo'shilgan qiymat solig'i e'tirof etildi.

Qo'shilgan qiymat solig'iga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri shundaki, soliqqa tortishning obykti bo'lib, nafaqat ichki bozordagi tovaroborot, balki mamlakat korxonalarining tashqi bozorlaridagi tovaroboroti ham hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda, ko'pchilik hollarda, qo'shilgan qiymat solig'ini "Yevropacha" soliq deb ham atashadi. Buning asosiy sabablari shundaki:

➤ *birinchidan*, qo‘shilgan qiymat solig‘i dunyoda birinchi marta Yevropa davlati bo‘lgan Fransiyada joriy etildi;

➤ *ikkinchidan*, 1977-yilda qabul qilingan Direktivaga asosan qo‘shilgan qiymat solig‘i bir vaqtning o‘zida Yevropaning bir necha davlatlarida joriy etildi;

➤ *uchinchidan*, qo‘shilgan qiymat solig‘i G‘arbiy Yevropadagi integratsion jarayonlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Hozirgi vaqtda qo‘shilgan qiymat solig‘i Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarning davlat byudjetlarining daromadlarini shakllantirishda muhim o‘rin egallaydi. Yevropa mamlakatlarida egri soliqlarning roli AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyaga qaraganda yuqoridir. Yevropa mamlakatlarida jami soliq tushumlarining hajmida egri soliqlarning salmog‘i 40 foizdan yuqori bo‘lib, ayrim mamlakatlarda 50 foizni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich 50 foizdan yuqori bo‘lgan mamlakatlar guruhiga Meksika, Turkiya va Koreya kiradi. AQSh, Yaponiya, Kanada va Avstraliyada esa ushbu ko‘rsatkich 25-30 foizni tashkil qiladi.

Yevropa Ittifoqiga a‘zo bo‘lgan mamlakatlarda soliq tushumlarining tarkibida egri soliqlarni yuqori salmoqqa ega ekanligining asosiy sabablaridan biri, bu mamlakatlarda soliq stavkalarini umumlashtirilganligi va soliqqa tortish bazasini o‘zaro uyg‘unlashtirilganligi hisoblanadi. Bu masalaning O‘zbekiston Respublikasi uchun amaliy ahamiyatga ega ekanligi shundaki, mamlakatimiz tovarborotining sezilarli qismi Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Qozog‘iston Respublikalariga to‘g‘ri keladi. Hozirga qadar mazkur mamlakatlar o‘rtasida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalarini umumlashtirish va soliqqa tortish bazasini uyg‘unlashtirish masalasi hal qilinmagan. Bu esa, ushbu mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiladi.

O‘zbekiston soliq tizimida qo‘shilgan qiymat solig‘i 1992-yildan buyon amal qilmoqda. Ushbu soliq oborotdan olinadigan soliq va sotuvdan olinadigan soliqlar o‘rniga aksiz solig‘i bilan birgalikda kiritilgan. Bu soliq

oborot solig'idan farqli ravishda faqat qo'shilgan qiymatdan undiriladi. Oborot solig'i markazlashgan sof daromad, deb hisoblanib, qat'iy ravishda byudjetga o'tkaziladi va xo'jalikda ortiqcha foyda bo'lishiga yo'l qo'ymas edi. Oborot solig'i bir marotaba umumiy oborotdan olinar edi. Oborot solig'i asosan davlat belgilagan baholar sifatida hisoblanar edi. Korxonalar va tashkilotlarga o'z tovar va xizmatlariga o'zlari belgilashi huquqi berilganlik davlat qo'lidan bu huquqni olib qo'ydi. Natijada oborot solig'i tubdan o'zgartirilib, qo'shilgan qiymat solig'i yosh, mustaqil Respublikamizni soliq tizimiga kirib keldi.

QQS o'zining nomini o'zgartirishi mumkin, lekin o'z tabiyatini o'zgartira olmaydi. Xo'jalik hisobi tamoyillarini mustahkamlash manbai bo'lib xizmat qiladi. Uning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati benihoya katta bo'lib byudjetni mustahkamlash manbai sifatida xizmat qiladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i esa ishlab chiqarish va muomala jarayonining har bir bosqichidan olinadi.

5.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti

Qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib, amaldagi qonun hujjatlariga asosan ushbu soliqni byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar tushuniladi. Jumladan:

- 1) soliq solinadigan oborotlarga ega bo'lgan yuridik shaxslar;
- 2) O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq solinadigan oborotlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lash bo'yicha majburiyat yuklatiladigan yuridik shaxslar;
- 3) tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar (o'z ehtiyojlari uchun bojsiz olib kirish normalari doirasida tovarlar olib kiruvchi jismoniy shaxslar bundan mustasno);
- 4) oddiy shirkat soliq solinadigan oborotlarni amalga oshirayotganda zimmasiga uning ishlarini yuritish yuklatilgan (ishonchli shaxs) oddiy shirkat shartnomasining sherigi (ishtirokchisi).

Notijorat tashkilotlar (tadbirkorlik faoliyati doirasida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotlari mustasno) hamda soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishmaydi.

Soliq qonunchiligida nazarda tutilgan holda yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning navbatdagi choragi boshlanguniga qadar bir oydan kechiktirmasdan, yangi tashkil etilayotgan yagona soliq to'lovini to'lovchilar bo'lgan yuridik shaxslar esa faoliyat boshlanguniga qadar taqdim etiladigan yozma bildirishga asosan ixtiyoriy asosda qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashi mumkin.

Tovarlar (ishlar, xizmatlarni) import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar import qilinayotgan ana shu tovarlar bo'yicha soliq to'lovchilari hisoblanadilar.

Soliq solish obyekti quyidagilardir:

- ✓ soliq solinadigan oborot;
- ✓ soliq solinadigan import.

Tovarlar (ish va xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasi deganda – yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) qiymati tushuniladi, ya'ni yuklab jo'natilgan tovarlar (ish va xizmatlar) uchun mablag'i kelib tushishi davridan qat'iy nazar korxonaga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet oldida hisob-kitoblarni amalga oshirishi shart.

Soliq solinadigan import deganda esa – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi (qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan import tovarlardan tashqari).

QQS ga tortiladigan aylanmaga quyidagilarni kiritilishi amaldagi qonunlardan ko'zda tutulgan, ya'ni:

1) mol-mulkka bo'lgan mulk huquqini o'tkazish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish, shu jumladan:

- tovarni va boshqa mol-mulkni jo'natish (sotish);
- ustav fondiga (ustav kapitaliga) qo'shilgan hissa;
- mol-mulkni bepul berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish), shu jumladan, yuridik shaxs xodimlariga ularning mazkur yuridik shaxs

faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan shaxsiy ehtiyojlari uchun mol-mulkni bepul berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) almashtirish uchun mol-mulkni berish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

– qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xodimga ish haqi hisobiga yoki muassisga (ishtirokchiga) dividendlar to‘lash hisobiga mol-mulk berish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish);

– garov bilan ta‘minlangan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, garovga qo‘yuvchi tomonidan garov narsasini berish;

– zayom shartnomalari asosida tovar-moddiy zaxiralarni berish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga, agar tarkibiy bo‘linmalar Soliq kodeksiga muvofiq mustaqil soliq to‘lovchilar bo‘lsa, mol-mulkni berish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

3) mol-mulkni moliya ijarasiga (shu jumladan lizingga) berish;

4) to‘lovni bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan tovarni jo‘natish;

5) mol-mulkni operativ ijaraga berish;

6) intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqni o‘tkazish yoki ulardan foydalanish huquqini berish.

Shu bilan birgalikda quyidagilar soliqqa tortiladigan oborotga kiritilmaydi:

1) soliq to‘lovchining xarajatlari sifatida qaraladigan uning o‘z ehtiyojlari uchun tovar berish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish;

2) bitta yuridik shaxsning bir tarkibiy bo‘linmasi tomonidan boshqa tarkibiy bo‘linmasiga ishlab chiqarish ehtiyojlari (zavod ichki oboroti) uchun;

3) soliq to‘lovchining o‘z ehtiyojlari uchun o‘z kuchi bilan qurilish-montaj ishlarini bajarishi;

4) garov qiymatiga ega bo‘lgan qaytariladigan tarani, shu jumladan, shisha idishni jo‘natish. Qaytariladigan tara mahsulot solib jo‘natilgan, qiymati ushbu mahsulot qiymatiga kiritilmaydigan hamda shu mahsulotni yetkazib berish uchun tuzilgan shartnomada (kontraktida) belgilangan

shartlarda va muddatlarda mahsulot yetkazib beruvchiga qaytarilishi lozim bo'lgan taradir. Agar tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, bunday tarani berish soliq solinadigan oborotga kiritiladi;

5) yuridik shaxsning ishtirokchisi (muassisi) muassislar (ishtirokchilar) tarkibidan chiqqanda (chiqib ketganda), shu jumladan, tugatilganlik (bankrotlik) yoki qayta tashkil etilganlik munosabati bilan chiqqanda (chiqib ketganda) unga dastlabki hissa doirasida mol-mulkni berish, shuningdek, oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikka (ishtirokchiga) uning mazkur shartnoma bo'yicha sheriklari (ishtirokchilari) umumiy mulkida bo'lgan ulushi qaytarilayotganda yoki bunday mol-mulk taqsimlanganda mol-mulkni berish;

6) tugallanmagan qurilishning asosiy vositalari, nomoddiy aktivlari va obyektlarini bepul asosda berish;

7) banklarning mol-mulkni o'z filiallariga berishi;

8) oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) ulushi sifatida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni), boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlarni berish;

9) tovarlarni va boshqa mol-mulkni qayta ishlash asosida berish;

10) ishonchli boshqaruv shartnomasi asosida mol-mulkni mulkdordan ishonchli boshqaruvchiga berish;

11) ishonchli boshqaruv shartnomasi tugatilgan taqdirda, mol-mulkni mulkdorga berish;

12) obyekt qiymatini ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi) oladigan ijara (lizing) to'lovining bir qismi tarzida qoplash.

Soliqqa tortiladigan obyektlar ichki imkoniyatlardan yoki davlat byudjetining daromadlarni dinamik o'chishidan kelib chiqqan holda Oliy Majlis tomonidan berilgan vakolatli ijro Davlat organlari tomonidan o'zgartirishlar kiritish mumkin. Bunday o'zgartirishlar vakolatli Davlat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda, nizomlardan yoki yo'riqnomalarda o'z aksini topgan holda soliq to'lovchilariga yetkazdiriladi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish aylanmasiga, agar ularni realizatsiya qilish joyi O'zbekiston Respublikasi hududi bo'lsa, qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Quyidagi shartlar yoxud ulardan biri mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi hududi tovarlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi:

– tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa va bitim natijasida O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqarilmaydigan bo'lsa (yuklab jo'natilmaydigan va tashilmaydigan bo'lsa);

– jo'natish yoki tashish boshlangan paytda tovar O'zbekiston Respublikasi hududida turgan bo'lsa.

Quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi hududi ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish joyi deb e'tirof etiladi, agar:

1) ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lsa. Bunday ishlar, xizmatlar jumlasiga, xususan, qurilish, montaj, qurilish-montaj, ishga tushirish-sozlash, ta'mirlash, restavratsiya qilish, ko'kalamzorlashtirish ishlari, shuningdek, ko'chmas mulkni ijaraga berish kiradi;

2) ishlar, xizmatlar O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lgan ko'char mulk (transport vositalari bundan mustasno) bilan bog'liq bo'lsa;

3) xizmatlar haqiqatda O'zbekiston Respublikasi hududida turizm, madaniyat, san'at, ta'lim, jismoniy tarbiya va sport sohasida ko'rsatilayotgan bo'lsa;

4) ishlarni, xizmatlarni sotib oluvchi faoliyatini O'zbekiston Respublikasi hududida amalga oshirayotgan bo'lsa. Ishlarni (xizmatlarni) sotib oluvchi yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi asosida, bunday asos bo'lmagan taqdirda esa, yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan joy, yuridik shaxsning doimiy faoliyat ko'rsatadigan ijro etuvchi organi joylashgan yer, agar ishlar (xizmatlar) muayyan doimiy muassasa orqali bajarilgan (ko'rsatilgan) bo'lsa, ushbu doimiy muassasa joylashgan yer asosida O'zbekiston Respublikasining hududida haqiqatda hozir bo'lib turgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining hududi sotib

oluvchining faoliyati amalga oshiriladigan joy hisoblanadi. Ushbu bandning qoidalari quyidagi hollarda qo'llaniladi:

– intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquq o'tkazilgan yoki ulardan foydalanish huquqi berilganda;

– maslahat berish, auditorlik, yuridik (advokatlik), buxgalterlik, reklama, injiniring xizmatlari, shuningdek, axborotga ishlov berish xizmatlari ko'rsatilganda. Injiniring xizmatlari jumlasiga mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish va realizatsiya qilish jarayoniga tayyorgarlik, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa obyektlar qurilishi hamda ulardan foydalanilishga tayyorgarlik bo'yicha muhandislik-maslahat berish yo'sinidagi xizmatlar, loyihalash oldi va loyihalash xizmatlari (texnik-iqtisodiy asoslarni, loyiha-konstruktorlik yechimlarini tayyorlash va boshqa shunga o'xshash xizmatlar) kiradi. Axborotga ishlov berish xizmatlari jumlasiga axborot massivlarini to'plash va umumlashtirish, tizimlashtirish hamda bu axborotga ishlov berish natijalarini foydalanuvchilar tasarrufiga taqdim etish xizmatlari kiradi;

– xodimlar berish agar xodimlar sotib oluvchi o'z faoliyatini amalga oshirayotgan joyda ishlayotgan bo'lsa;

– ko'char mulk ijaraga berilganda, transport vositalari bundan mustasno;

– tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) olish bo'yicha vositachi (ishonchli shaxs), shuningdek, ushbu qismda nazarda tutilgan xizmatlarni amalga oshirish uchun shartnomaning (kontraktning) asosiy ishtirokchisi nomidan jalb etuvchi shaxs xizmatlari ko'rsatilganda;

– chet ellik aloqa operatorlari tomonidan aloqa xizmatlari ko'rsatilganda.

Agar ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilish boshqa asosiy ishlarni, xizmatlarni realizatsiya qilishga nisbatan yordamchi xususiyatga ega bo'lsa, asosiy ishlar, xizmatlar realizatsiya qilingan joy yordamchi realizatsiya qilish joyi sifatida e'tirof etiladi.

Soliq solinadigan baza:

1. Realizatsiya qilinayotgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda belgilanadi.

2. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar ham hisobga olingan holda) past narxlarda realizatsiya qilingan taqdirda, shuningdek, tovarlar (ishlar, xizmatlar) bepul berilganda soliq solish maqsadlari uchun soliq solinadigan baza tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tannarxidan yoki tovarlar olingan narxdan (tovarni olish bilan bog'liq xarajatlar hisobga olingan holda) kelib chiqqan holda belgilanadi.

3. Tovarlar qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallardan tayyorlangan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'ini kiritmagan holda ularni qayta ishlash xizmatlarining qiymati asosida, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha esa, ularni qayta ishlash xizmatlari qiymati asosida.

4. Qurilish, qurilish-montaj va ta'mirlash-qurilish, ishga tushirish-sozlash, loyiha-qidiruv va ilmiy ishlar, xizmatlar bo'yicha, shuningdek, obyektlarni foydalanishga tayyor holda qurishda shartnomaviy narxlardan kelib chiqqan holda hisob-kitob hujjatlari haq to'lash uchun taqdim etilgan, bajarilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan ishlarning, xizmatlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

5. Pudrat yoki ikkilamchi pudrat tashkilotlari tomonidan obyektlar qurish uchun qurilish pudrati shartnomasi tuzilgan taqdirda, bajarilgan va tasdiqlangan ishlarning pudratchi (yordamchi pudratchi) va buyurtmachining soliq solish maqsadida realizatsiya qilingan deb hisoblanadigan materiallari qiymati kiritilgan, ushbu bo'limda belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'i hisoblangan qiymat soliq solinadigan bazadir.

6. Qurilish-montaj, ta'mirlash va ta'mirlash-qurilish ishlarini bajarish uchun shartnoma tuzilganda, agar shartnomaga binoan bu ishlarni materiallar bilan ta'minlash vazifasi buyurtmachining zimmasida bo'lsa, ushbu materiallarga bo'lgan mulk huquqi buyurtmachining o'zida saqlanib

qolgan taqdirda, bajarilgan hamda tasdiqlangan ishlarning buyurtmachi materiallarining qiymati kiritilmagan qiymati soliq solinadigan bazadir.

7. Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar bo'lgan savdo korxonalari import qilgan tovarlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinyotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i kiritilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganda qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

8. Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan bazaga aksiz solig'ining summasi kiritiladi.

9. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan qoldiq qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

10. Mol-mulk moliya ijarasiga, shu jumladan, lizingga berilgan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'z ichiga oladigan, chiqib ketayotgan aktiv qiymati bilan uning balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

11. Tugallanmagan qurilish obyekti realizatsiya qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, tugallanmagan qurilish obyekтини realizatsiya qilish narxi bilan balans qiymati o'rtasidagi ijobiy farq sifatida belgilanadi.

12. Transport ekspeditsiyasi shartnomasi bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, ekspeditorning soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, mukofot tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

13. Vositachilik shartnomasi, topshiriq yoki vositachilik xizmatlari ko'rsatish bo'yicha boshqa shartnoma asosida o'zga shaxsning manfaatlarini ko'zlab xizmatlar ko'rsatilgan taqdirda, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan baza qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan, ko'rsatilgan xizmat uchun pul

mukofoti (foiz) tariqasida olinishi lozim bo'lgan summadan kelib chiqqan holda belgilanadi.

14. Vositachilik shartnomasiga, topshiriqqa binoan ishonchli shaxs yoki komitent O'zbekiston Respublikasining norezidenti bo'lgan taqdirda, soliq solinadigan baza realizatsiya qilinayotgan tovarlarning qo'shilgan qiymat solig'i qo'shilmagan qiymatidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Bunda soliq solinadigan baza mazkur tovar import qilinganida qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun qabul qilingan qiymatdan past bo'lishi mumkin emas.

15. Garovga qo'yuvchi garov mol-mulkini garov bilan ta'minlangan majburiyatni bajarish hisobiga topshirgan taqdirda, garovga qo'yuvchining soliq solinadigan oboroti miqdori garovga oluvchi tomonidan realizatsiya qilingan mol-mulk qiymatidan kelib chiqqan, biroq qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda mazkur garovga qo'yilgan mol-mulkka olingan zayom mablag'lari summasidan kam bo'lmagan miqdorda belgilanadi. Garovga topshirilgan asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va qurilishi tugallanmagan obyektlar bo'yicha garovga qo'yuvchining soliq solinadigan bazasi qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'z ichiga oladigan, ularning realizatsiya qilish narxi bilan balans (qoldiq) qiymati o'rtasidagi ijobiy farqdan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Keyinchalik realizatsiya qilish uchun yuridik shaxslar tomonidan davlat rezervidan olingan, narxlari davlat tomonidan tartibga solinishi belgilangan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza realizatsiya qilish narxi va davlat rezervidan olingan narx o'rtasidagi ijobiy farq sifatida aniqlanadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq kiritilmagan holda aniqlanadi.

Qaytariladigan tara soliq solinadigan oborotga kiritilgan taqdirda, tara belgilangan muddatda qaytarilmasa, soliq solinadigan baza mazkur taraning qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham o'z ichiga oladigan garov qiymati asosida belgilanadi.

5.3. Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari

O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 1992-yilda 30 foizni tashkil qilgani holda, bugunga qadar bir-necha marta o‘zgartirildi. Jumladan, 1996-yilda 17 foizni, 1997-yilda 18 foizni, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari turlariga (un, non, go‘sht, sut va sut mahsulotlari) esa kamaytirilgan 10 foizli stavka belgilandi. 1999-yilda respublikada qo‘shilgan qiymat solig‘ining 3 xil stavkasi (20%, 15%, va 0%) amalda qo‘llanildi. Faqat 3 ta band, ya‘ni eksport, qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jalik korxonalariga beriladigan mineral o‘g‘it va yoqilg‘i moylash materiallari hamda diplomatik vakolatxonalar va unga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilinadigan tovar (ish va xizmat)lar “0” stavkasi bo‘yicha soliqqa tortildi. 15% li qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi esa un, non, go‘sht, sut va sut mahsulotlari hamda import qilinadigan tirik mol va bug‘doy kabi mahsulotlarga nisbatan belgilandi.

2000-yildan hozirgi kungacha Soliq kodeksiga ko‘ra respublikamizda 20 foizli va “0” foizli stavka qo‘llanilib kelinmoqda. Umuman olganda “0” stavka deganda korxonalar ishlab chiqarayotgan tovarlarning (bajarilgan ish, xizmatlarning) qiymatiga qo‘shilgan qiymat solig‘i qo‘llanilmaydi, ya‘ni “nol”ga teng degani.

Quyidagilarga “0” darajali stavka bo‘yicha soliq solinadi:

- Tovarlarining, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan ishlarning (ko‘rsatiladigan xizmatlarning) erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi eksportiga, (qimmatbaho metallar bundan mustasno) shu jumladan, mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlariga yetkazib berilishiga, agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa.

Ayrim MDH davlatlarida bu tartib boshqacha. Masalan: Armanistonda Tojikistonda, Turkmanistonda MDH davlatlaridan tashqariga eksport soliqqa tortilmaydi, “0” stavka ham qo‘llanilmaydi. Qozog‘istonda esa MDHdan tashqariga eksport “0” stavkada soliqqa tortiladi.

Eksport qilingan tovarlarni qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha soliqqa tortish masalasida O‘zbekiston bilan boshqa davlatlar o‘rtasida

davlatlararo bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan bo'lib, ammo ratifikatsiya qilinmagan (tasdiqlanmagan) holatlarda imtiyozni qo'llashning iloji bo'lmaydi, ya'ni imtiyoz qo'llash uchun qonuniy asos bo'lmaydi.

Hozirgi vaqtda Qirg'iziston, Ozarbayjon, Moldova, Rossiya, Qozog'iston bilan ham bilvosita soliqlarni undirish prinsiplari bo'yicha shartnomalar tuzilgan. Shartnomada kelishilgan davlatlar bojxona hududlarida tovarlar (ish va xizmatlar) eksport qilinganda "0" stavkadagi qo'shilgan qiymat solig'ini qo'llash ko'zda tutilgan.

- Chet el diplomatik vakolatxonalari hamda ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun realizatsiya qilinayotgan tovar (ish va xizmat)larga.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Diplomatik servis xizmati tomonidan keyinchalik chet el diplomatik vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarga realizatsiya qilish uchun olinayotgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishda nol darajali stavka qo'llanilishi tatbiq etiladigan O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan chet el diplomatik vakolatxonalarning va diplomatik vakolatxonalariga tenglashtirilgan xalqaro tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi;

- suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, kanalizatsiya va gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlarga;

- xorijiy davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali olib o'tiladigan tranzit yuklarini tashish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga, jumladan yo'lovchilar, bagajlar va pochmani xalqaro yo'nalishda tashish.

2006-yildan boshlab qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ehtiyojlari uchun qishloq xo'jalik korxonalariga yetkazib beriladigan mineral o'g'itlar va yonilg'i-moylash materiallariga "0" stavka bekor qilindi.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'lgan (imtiyozli) oborotlardan farqli "0" stavka qo'llanilganda qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarning tannarxiga olib borilmasdan, hisobga kiritiladi.

Agarda hisobot davrida hisobga kiritilishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan "0" stavkada hisoblanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ining summasi qiymati jihatidan ko'p bo'lsa, u holda oshiqcha summa soliq to'lovchining boshqa soliq va to'lovlar bo'yicha qarzi bo'lmagan taqdirda, unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini qoplash (ya'ni qaytarish) tartibi 2003-yil 13-maydagi hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish va byudjetga undiriladigan to'lovlar intizomini mustahkamlash bo'yicha Hukumat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan (30-sonli bayonnoma) "Xo'jalik yurituvchi subyektlarga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha yuzaga kelgan manfiy farqni qoplash to'g'risida"gi Nizom asosida olib boriladi. Ushbu Nizom Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 6-iyunda 1246-son bilan tasdiqlangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha salbiy qoldiqni paydo bo'lishi muammosi asosan mahsulotini eksport qiluvchi yirik korxonalarda kuzatiladi. Masalan: Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinatining – 1 oylik ortiqcha to'lovi 100 mln. so'm, Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinatida – 200 mln. so'm, Qabul Tekstaylz – O'zbek qo'shma korxonasida – 30 mln. so'm (bu korxonada eksport jami sotilgan tovarlarning 90 foizini tashkil qiladi). Bu muammo "0" stavkada soliqqa tortish natijasida ortilgan mahsulotga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmasligini va olingan materiallarga qo'shilgan qiymat solig'i hisobga olinishi oqibatida yuzaga keladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ining vatani hisoblangan Fransiyada qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha to'rtta stavka amal qiladi, ya'ni standart stavka, qisqartirilgan stavka, oraliq stavka va oshirilgan stavka.

Standart soliq stavkasi 19,6 foiz qilib belgilangan. Bu stavka o'zgacha stavkalar qo'llanilishi ko'zda tutilgan operatsiyalardan tashqari barcha operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. Pasaytirilgan stavka (2,2; 5,5%) oziq-ovqat mahsulotlarining ko'pchiligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun, kitoblar va dori-darmonlar uchun amal qiladi. Shunday pasaytirilgan stavka ayrim xizmat turlariga: turizm va mehmonxona xizmatlari, yuk va yo'lovchi tashish, tomosha tadbirlari, korxonalarining

xodimlariga beriladigan ovqatlarga tegishlidir. Oraliq stavka gaz, elektr, issiq suv, ko'mir, neft mahsulotlari, spirt, kofe kabi tovarlarni soliqqa tortish uchun qo'llaniladi. Oshirilgan stavka (22,0%) ayrim mahsulot turlariga, jumladan, avtomobillar, kino-foto tovarlar, tamaki mahsulotlari, parfyumeriya, qimmatbaho mo'ynalarga nisbatan qo'llaniladi.

Buyuk Britaniyada qo'shilgan qiymat solig'ining uchta stavkasi amal qiladi: 0, 8,0 va 17, 5 foiz. Nol darajasidagi soliq stavkasi tovarlarning 17 ta guruhiga, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari, suv ta'minoti va kanalizatsiya, ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan kitoblar va qo'llanmalar, yoqilg'i va isitish, transport vositalari, xalqaro xizmatlar, kiyim-kechak va poyafzal, xayr-ehsonlarga nisbatan qo'llaniladi. 8 foizli stavka ta'minotning kommunal turlari borasidagi xizmatlarga nisbatan qo'llaniladi. 17,5 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlar)ning barcha boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi.

Ispaniya Qirolligi mamlakatida qo'shilgan qiymat solig'ining standart stavkasi 16 foizni tashkil etadi. Pasaytirilgan stavkalar, ya'ni 0 foizli stavka – eksport bilan bog'liq tovar va xizmatlar uchun; 4 foizli stavka – birinchi navbatdagi zarur tovarlar uchun (non, g'alla, sut, tuxum, mevalar, sabzavotlar, kitoblar, gazetalar, dori-darmonlar, munitsipal uylar, nogironlar uchun mashinalar va h.k.); 7 foizli stavka – oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joy qurilishi, transport, turizm uchun, 28 foizli stavka esa zeb-ziynat buyumlari va avtomobillar bo'yicha belgilangan.

Rossiya Federatsiyasida qo'shilgan qiymat solig'i 20 foiz, 10 foiz va 0 foizli qilib belgilangan. 0 foizli stavka tovarlar (ish va xizmatlarning) ayrim turlariga, 10 foizli stavka – oziq-ovqat va bolalar tovarlariga, 20 foizli stavka esa tovarlar (ish va xizmatlar)ning boshqa turlariga nisbatan qo'llaniladi.²⁷

Soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi: moliyaviy xizmatlar ko'rsatishlar bilan bog'liq imtiyozlar; ijtimoiy yo'nalishdagi imtiyozlar; boj, yig'imlar va litsenziya to'lovlari undiriladigan xizmatlar bo'yicha imtiyozlar; davlat

²⁷ Абдурахмонов О. Хоржий мамлакатларда солиқ тизимлари: Ўқув қўлланмаси. Т.: ТДИУ, 2003.

tomonidan katta ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalish bo'yicha faoliyat va soha turlariga berilgan imtiyozlar.

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagi realizatsiya qilish aylanmalari ozod etiladi:

1) davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari hamda boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan, davlat boji va yig'imga undiriladigan xizmatlar (harakatlar);

2) maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tarbiyalashga doir xizmatlar;

3) bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

4) dafn etish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari, diniy ashyolarni realizatsiya qilish, diniy tashkilotlar hamda birlashmalarning udumlar va marosimlar o'tkazishga doir xizmatlari;

5) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlar, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan buyumlar va inventarlar, shuningdek, nogironlarga ko'rsatilayotgan ortopedik protezlash xizmatlari, protez-ortopediya buyumlari va nogironlar uchun mo'ljallangan inventarlarni ta'mirlash hamda ulardan foydalanishga doir ishlar bo'yicha xizmatlar;

6) davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalarining mazkur muassasalar tomonidan realizatsiya qilinadigan mahsulotlari;

7) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markali otkritkalar, konvertlar;

8) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalar to'lash bo'yicha xizmatlari;

9) byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari. Ushbu imtiyozni olish uchun tegishli moliya organining byudjetdan mablag'lar ajratish to'g'risidagi xulosasi asosdir;

10) shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari), shuningdek, temir yo'l va umumiy foydalanishdagi avtomobil transportida (taksidan, shu jumladan, yo'nalishli taksidan tashqari) shahar atrofidagi yo'nalishlarda yo'lovchilar

tashish xizmatlari. Shahar yo'lovchilar transportining xizmatlari jumlasiga yo'lovchilar tashish bo'yicha avtomobil va elektr transporti bilan shahar doirasida muayyan yo'nalishlar bo'yicha qatnov jadvaliga binoan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi. Ushbu bandning qoidalari umumiy foydalanishdagi shahar yo'lovchilar tashish transporti yoki temir yo'l va avtomobil transportida xodimlarni ishdan va (yoki) ishga tashish bo'yicha xizmatlarga, yuridik va jismoniy shaxslar buyurtmalari asosida shahar atrofida tadbirlar o'tkazish uchun tashish bo'yicha xizmatlarga nisbatan ham tatbiq etiladi;

11) oliy, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlarida, shuningdek, kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarda ta'lim berishning haq evaziga o'qitishga doir qismi bo'yicha xizmatlar;

12) tibbiy va veterinariya xizmatlari (kosmetologiya xizmatlari bundan mustasno), shuningdek, dori vositalari va tibbiy (veterinariya) buyumlari, shu jumladan, ularni ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiya qilinayotgan shunday vositalar va buyumlar. Ushbu bandning qoidalarini qo'llash maqsadlarida:

– tibbiy xizmatlar jumlasiga tibbiy yordam xizmatlari va sanitariya xizmati ko'rsatish, diagnostika, profilaktika va davolash xizmatlari, gomeopatik, stomatologik xizmatlar, tish protezlari tayyorlash bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish komissiyalari, dezinfeksiya stansiyalari, sanitariya va epidemiyaga qarshi kurash yo'nalishidagi laboratoriyalar hamda bo'linmalar, boshqa tibbiy hamda tibbiy-sanitariya yo'nalishidagi muassasalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi;

– veterinariya xizmatlari jumlasiga hayvonlarni (chorva mollar, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlarni, baliqlar, asalarilarni, hayvonot bog'laridagi, tajribaxonalardagi va boshqa shu kabilardagi jonivorlarni) kasalliklardan muhofaza qilish va ularni davolash, ishlab chiqarish va aholining yaxshi sifatlilik chorvachilik mahsulotiga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, odamlarning hayvonlarga va insonga xos kasalliklarga chalinishining oldini olish, shuningdek, atrof-muhitni

muhofaza qilishning veterinariya-sanitariya muammolarini hal etish tadbirlari kiradi;

13) havo kemalariga xizmat ko'rsatish yuzasidan bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlarida va O'zbekiston Respublikasining havo bo'shlig'ida amalga oshiriladigan xizmatlar, shu jumladan, aeronavigatsiya xizmati;

14) sanatoriy-kurort, sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari shuningdek, jismoniy tarbiya va sport muassasalarining tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan xizmatlari;

15) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlari (kreditlar) yuridik shaxslar oladigan, shuningdek, grantlar hisobiga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar);

16) Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar. Uy-joy fondini saqlash va ta'mirlash yuzasidan ko'rsatiladigan xizmatlar jumlasiga lift xo'jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o'rnatish hamda ularni tasarruf etish bo'yicha xo'jaliklar, yer resurslari va davlat kadastr, uy-joy fondidan foydalanish, uni saqlash va ta'mirlash boshqarmalari hamda bo'limlarining bevosita aholi tomonidan haq to'lanadigan xizmatlari, shu jumladan, ushbu xizmatlarga xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari orqali haq to'lash kiradi;

17) Davlat tilini va davlat tilida ish yuritishni o'rgatish xizmatlari;

18) O'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsuloti;

19) Ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov bo'linmalari xizmatlari;

20) Byudjet mablag'lari hisobidan bajariladigan yer-kadastr, yer tuzish, tuproq va geobotanika ishlari;

21) Davlat rezervining tovar-moddiy zaxiralari, ular yangilanayotganda;

22) Telekommunikatsiyalar tarmoqlarida tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnika vositalari, shuningdek, mazkur vositalardan foydalanishga va ularga xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar;

23) Investor va davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organi o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan investitsiya majburiyatlari sifatida topshirilayotgan mol-mulk;

24) Ommaviy axborot vositalari va kitob mahsulotlarini yetkazib berish xizmatlari.

25) Davlat mulkini ijaraga berish bo'yicha xizmatlar.

Soliqdan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan moliyaviy xizmatlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) kreditlar, zayomlar bo'yicha foizlarni hisoblab chiqarish va undirish, kreditlar, zayomlar berish, kafilliklar (kafolatlar), shu jumladan, bank kafolatlari berish;

2) depozitlar qabul qilish, yuridik va jismoniy shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan, vakil banklarda hisobvaraqlarini ochish va yuritish;

3) to'lovlar, o'tkazmalar, qarz majburiyatlari, cheklar va to'lov vositalari bilan bog'liq operatsiyalar, inkasso bo'yicha operatsiyalar;

4) milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar, numizmatika maqsadlarida foydalaniladiganlari bundan mustasno;

5) yuridik va jismoniy shaxslarning qimmatli qog'ozlar depo-hisobvaraqlarini, shu jumladan, vakil depozitariylarini ochish hamda yuritish;

6) qimmatli qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar) bilan bog'liq operatsiyalar. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar jumlasiga qimmatli qog'ozlarni saqlash, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqni hisobga olish, qimmatli qog'ozlarni o'tkazish hamda qimmatli qog'ozlar reestrini yuritish bo'yicha operatsiyalar, qimmatli qog'ozlar savdosini tashkil etish bo'yicha operatsiyalar kiradi, ularni tayyorlash bo'yicha xizmatlar bundan mustasno;

7) qimmatli qog'ozlarni, yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni (paylarni) realizatsiya qilish;

8) kliring operatsiyalari;

9) akkreditivlar ochish va ularga xizmat ko'rsatish;

- 10) pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;
- 11) chet el valyutasi bilan ayirboshlash operatsiyalarini tashkil etish;
- 12) kassa operatsiyalari (banknot va tangalarni qabul qilib olish, berish, qayta hisoblab chiqish, maydalab berish, almashtirish, saralash va saqlash);
- 13) moliyaviy ijara (lizing) shartnomasining ijaraga beruvchining (lizingga beruvchining) foiz tariqasidagi daromadiga tegishli qismi bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;
- 14) forfeyting va faktoring operatsiyalari;
- 15) lombard operatsiyalari (garovga qo'yilgan mol-mulkka qisqa muddatli kreditlar berish);
- 16) jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining oboroti.
- 17) mijozlarning hisob raqamlariga banklar tomonidan elektron masofali xizmat ko'rsatish bo'yicha xizmatlar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish xizmatlari bo'yicha sug'urta bozorining professional ishtirokchilari tomonidan amalga oshiriladigan sug'urta qilish bo'yicha xizmatlar va bu xizmatlar natijasida:

1) sug'urta bozorining professional ishtirokchisi quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlari;

b) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha vositachilik haqi va tantemalar;

d) sug'urta agenti, sug'urta va qayta sug'urta brokeri, surveyer hamda sug'urta bozorining boshqa professional ishtirokchilarining xizmatlari uchun vositachilik haqi;

e) qayta sug'urta qilishga topshirilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta to'lovlari ulushining qayta sug'urtalovchilar tomonidan to'lanadigan to'lovini;

f) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha uchinchi shaxslardan subrogatsiya (regress) tartibida talab qilish bo'yicha daromadlar;

g) sug'urta bozorining professional ishtirokchilari (aktuariylar, ajasterlar, surveyerlar, assistans xizmatlari va shu singarilar) ko'rsatgan xizmatlardan olinadigan daromadlar;

h) qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha depo mukofotlariga hisoblangan hamda qayta sug'urta qildiruvchi tomonidan qayta sug'urtalovchiga o'tkazilgan foizlar;

i) hayotni sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha sug'urta qildiruvchilar taqdim etgan zayomlardan olinadigan daromadlar;

j) sug'urtalovchining (qayta sug'urtalovchining) investitsiya faoliyatidan olinadigan daromatlari, shu jumladan, sug'urta rezervlari va sug'urta fondlari mablag'larini investitsiyalashdan olinadigan daromadlar;

k) sug'urta qilish, birgalikda sug'urta qilish va qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha franshizalarni qoplashdan olinadigan daromadlar;

l) qonun hujjatlariga muvofiq sug'urtalovchiga o'tgan, sug'urta qildiruvchining (naf oluvchining) yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxslardan talab qilish huquqini realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;

m) qayta sug'urta qilish shartnomalari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, ular bo'yicha sug'urta mukofotlarining qaytarib berilgan qismi summalari;

n) bevosita sug'urta faoliyatini amalga oshirishdan olinadigan boshqa daromadlar;

2) sug'urta qildiruvchi (naf oluvchi) quyidagilarni olsa, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) sug'urta to'lovi (sug'urta to'voni);

b) preventiv tadbirlar o'tkazish uchun beriladigan mablag'lar;

d) sug'urta qilish shartnomasi zararsiz amal qilishi uchun sug'urtalovchi to'laydigan mablag'lar;

e) sug'urta qilish shartnomasiga muvofiq boshqa mablag'lar.

Quyidagi tovarlarni import qilish qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

1) jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni bojsiz olib kirishning bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tasdiqlangan normalari doirasida olib kirilayotgan tovarlar;

2) chet el diplomatik vakolatxonolari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalar rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek, ushbu vakolatxonalarning diplomatik va ma'muriy-texnik xodimlari, shu jumladan, ularning o'zlari bilan birga yashayotgan oila a'zolari shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

3) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar;

4) davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida olib kirilayotgan tovarlar;

5) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarziar (kreditlar) mablag'lari, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovarlar;

6) dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar, shuningdek, dori vositalari va tibbiyot (veterinariya) uchun mo'ljallangan buyumlar ishlab chiqarish uchun qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan xomashyo. Mazkur imtiyoz olib kirilayotgan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha O'zbekiston Respublikasida ham ishlab chiqarilayotgan tayyor dori vositalariga tatbiq etilmaydi;

7) O'zbekiston Respublikasi hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek, butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish texnologik asbob-uskunalarini yetkazib berish kontrakti shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Import qilingan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning

amal qilishi qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lash bo‘yicha majburiyatlar tiklangan holda bekor qilinadi;

8) investor bilan davlat mulkini boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq investitsiya majburiyatlari sifatida olib kiriladigan mol-mulk;

9) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalari;

10) qonun hujjatlarida belgilanadigan ro‘yxat bo‘yicha yog‘och-taxta materiallari va yog‘och.

5.4. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘langan summolari hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kiritilgan bo‘lsa, keyin ular Respublika byudjetining daromadiga qayd etilishi kerak. Bunda, shu jumladan, qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha hisoblab yozilgan bo‘nak to‘lovlari summolari to‘lovchi tomonidan hududiy bojxona organlarining depozit hisobvaraqlariga kiritilgan bo‘lsa, keyin ular Respublika byudjetining daromadiga qayd etilishi kerak. Ko‘rsatilgan summalar yuk kelishiga qarab tuzatiladi, so‘ngra ular respublika byudjetining daromadida qayd etiladi.

Bojxona organlari uch kun davomida undirilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini respublika byudjetining daromadiga o‘tkazadilar. Bojxona organlari qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘g‘ri hisoblab yozilishi va o‘z hisobvaraqlaridan respublika byudjetining daromadiga o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun javobgardirlar.

Ortiqcha to‘langan yoki undirilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘ttiz kun ichida qaytarilishi yoki bo‘lg‘usi to‘lovlar hisobiga qayd etilishi kerak.

To‘lovchi ortiqcha to‘langan yoki undirilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini qaytarishni talab qilib, ular to‘langan yoki undirilgan paytdan

boshlab bir yil davomida murojaat qilishi mumkin. Ortiqcha to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlar taqdim etilganda amalga oshiriladi:

✚ to‘lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to‘lash yoki undirishning sabablari ko‘rsatiladi, shuningdek, pul mablag‘lari qaytarilishi kerak bo‘lgan to‘lovchining bank rekvizitlari beriladi;

✚ unga muvofiq qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab chiqarilgan va undirilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

✚ ijro etilishi to‘g‘risida vakolatli bank belgisi qo‘yilgan, tegishli qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini to‘lashga doir to‘lov hujjati;

✚ tovarlarning chegaradan haqiqatda olib o‘tilgani to‘g‘risida chegara bojxonasining belgisi qo‘yilgan tovarlarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi.

Ortiqcha to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini qaytarishning boshqa qoidalari O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi 2000-yil 29-iyunda 02/8–27-son bilan tasdiqlagan Ortiqcha to‘langan yoki undirilgan bojxona to‘lovlarini qaytarish to‘g‘risida yo‘riqnomaga ko‘ra (ro‘yxat raqami 947, 14-iyul 2000-yil) tartibga solinadi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘g‘ri hisoblab chiqarilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi uchun javobgarlik deklarant (to‘lovchi) zimmasiga yuklanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i belgilangan tartibga muvofiq to‘lanmagan taqdirda tegishli to‘lovlarning summalari bojxona organlari tomonidan ularni to‘lash uchun javobgar shaxslardan so‘zsiz tartibda, bojxona qonunlari tomonidan belgilangan miqdorda penyani hisoblab yozish bilan undiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘g‘ri hisoblab yozilishi va byudjetga to‘lanishi ustidan nazoratni bojxona organlari bojxona va soliq qonunlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Korxonalar qo‘shilgan qiymat solig‘ining to‘g‘ri hisoblanishi va o‘z vaqtida to‘lanishi uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

Soliqlar to‘g‘risidagi qonunlarning to‘g‘ri qo‘llanilishi ustidan nazorat O‘zbekiston Respublikasining “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi

Qonuniga, O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘g‘ri hisoblab chiqarilgani va o‘z vaqtida to‘lanishi bo‘yicha javobgarlik soliq to‘lovchining zimmasiga yuklanadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lanmagan taqdirda belgilangan tartibga muvofiq to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlar summasi soliq qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda penya hisoblangan holda soliq organlari tomonidan undiriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘g‘ri hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash ustidan nazoratni soliq organi soliqqa oid qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

5.5. Hisobvara-q-fakturani to‘ldirish tartibi

Hisobvara-q-faktura tovarlarning yuklab jo‘natilishi, ishlarning bajarilishi va xizmatlar ko‘rsatilishi sanasidan kechiktirmasdan yoziladi.

Hisobvara-q-fakturada ko‘rsatilishi lozim:

- 1) hisobvara-q-faturaning tartib raqami va yozilgan sanasi;
- 2) hisobvara-q-faktura ilova qilinadigan, yuklab jo‘natiladigan tovarlar hujjatlari (shartnomalar) raqami va sanasi;
- 3) soliq to‘lovchi va xaridorning nomi, manzili va STIRi, xalq xo‘jaligi tarmoqlari umumdavlat tasnifnomasi (XXTUT) bo‘yicha tarmoq kodi;
- 4) komissiya shartnomasi asosida yoziladigan hisobvara-q-fakturalar bo‘yicha, hisobvara-q-faktura yuk jo‘natuvchining qo‘shimcha rekvizitlari bilan to‘ldiriladi, bunda ham nomi, manzili va STIRi, xalq xo‘jaligi tarmoqlari umumdavlat tasnifnomasi (XXTUT) bo‘yicha tarmoq kodi ko‘rsatiladi.

Jadvalli shaklni to‘ldirishda quyidagilarni qayd etish kerak:

1-ustunda – tovarlar nomi (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar bayoni);

2-ustunda – mazkur tovar bo‘yicha qabul qilingan o‘lchov birligi (dona, kilogramm, metr va shu kabilar) va ishlar, xizmatlar bo‘yicha o‘lchov birligi;

3-ustunda – hisobvaraқ bo‘yicha yuklab jo‘natiladigan tovarning miqdori (bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi), u yuzasidan qabul qilingan o‘lchov birliklaridan kelib chiqib;

4-ustunda – tovarning shartnoma (kontrakt) bo‘yicha o‘lchov birligida QQSsiz narxi;

5-ustunda – ushbu nomdagi tovar jami sonining QQSsiz qiymati (3-ustun x 4-ustun); agar hisobvaraқ-faktura bajarilgan ishlar (ko‘rsatilgan xizmatlar)ga yozib beriladigan bo‘lsa, unda bu ishlar (xizmatlar)ning qiymati QQSsiz ko‘rsatiladi va 3 hamda 4-ustunlar to‘ldirilmaydi; agar korxonaga aksizlanadigan mahsulot ishlab chiqarsa, hisobvaraқ-fakturaga qo‘shimcha ustun kiritiladi, unda aksiz stavkasi va summasi aks ettiriladi;

6-ustunda – qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi (20 yoki 0 foiz); agar tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha QQSdan ozod qilish mavjud bo‘lsa, oddiy chiziq tortib qo‘yiladi;

7-ustunda ushbu tovar (ish, xizmat) bo‘yicha tegishli stavkalarga ko‘ra hisoblangan QQS summasi; agar tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo‘yicha QQSdan ozod qilish mavjud bo‘lsa, oddiy chiziq tortib qo‘yiladi.

Amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortishning alohida tartibi ko‘zda tutilgan yuridik shaxslar 6- va 7-ustunlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini ko‘rsatmaydilar va “Qo‘shilgan qiymat solig‘i summasisiz” shtampini qo‘yadilar (yoki yozib qo‘yadilar) va 8-ustunni to‘ldirmaydilar.

8-ustunda – tovar (ish, xizmat) har bir turining QQS qo‘shilgan qiymati (yoki soliqdan ozod qilinadigan yoki nol darajali stavka bo‘yicha soliq solinadiganlari bo‘yicha – QQSsiz) ko‘rsatiladi, amaldagi soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko‘zda tutilgan yuridik shaxslar 8-ustunni to‘ldirmaydilar.

Hisobvaraқ-fakturaning yakunlovchi satrida 5, 7 va 8-ustunlar bo‘yicha summalar jamlanadi. Hisobvaraқ-faktura rahbar va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi va korxonaga muhri bilan tasdiqlanadi.

Agar xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovarlar olib chiqishda yukxatlarni hisobvaraқ-fakturaga almashtirsa, “ishonchnoma bo‘yicha tovar olish” to‘g‘risida belgi to‘ldiriladi.

Bunda, agar xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tovarlarni yetkazib berishga hisobvaraƒ-fakturalarni yozishdan tashqari, “ishonchnoma bo‘yicha olingani” to‘g‘risida belgi qo‘yilgan yukxatlarni to‘ldirsalar, hisobvaraƒ-fakturada mazkur belgilar to‘ldirilmaydi. Ularning haqiqatda olinganligi dalolatnomalar, ma‘lumotnomalar yoki boshqa shunday hujjatlar bilan tasdiqlanadigan bajariladigan ishlar, ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha ham mazkur belgilar to‘ldirilmaydi.

Agar bitim shartlariga ko‘ra majburiyat xorijiy valyutada ko‘rsatilsa, hisobvaraƒ-fakturada ko‘rsatiladigan summalar xorijiy valyutada ko‘rsatilib, O‘zbekiston Respublikasi pul birligi – hisobvaraƒ-faktura yozilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha qayta hisoblangan so‘mlarda aks ettirilishi mumkin.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan qurilish obyektlarini (tugallanmagan qurilishni hisobga oluvchi hisobvaraƒlarda hisobga olinadigan) sotish chog‘ida hisobvaraƒ-fakturaning jadval shaklini to‘ldirishning xususiyatlari:

1-ustun “Tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi”da – asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar yoki tugallanmagan qurilish obyektlarining nomi ko‘rsatiladi;

2-ustun “O‘lchov birligi”da – o‘lchov birligi ko‘rsatiladi;

3-ustun “Miqdori” – to‘ldirilmaydi;

4-ustun “Narxi”da – asosiy vositalar yoki nomoddiy aktivlarning qoldiq qiymati ko‘rsatiladi. Tugallanmagan qurilish obyektlari uchun ularning haqiqiy tannarxi ko‘rsatiladi;

5-ustun “Yetkazib berish qiymati”da – soliq qonunchiligiga binoan belgilangan soliq solinadigan aylanma miqdoridan hisoblab chiqilgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini unga kiritgan holda sotish narxi ko‘rsatiladi;

6- va 7-ustunlar “QQS”da – soliq stavkasi va soliq qonunchiligiga binoan belgilanganini hisobga olgan holda soliq solinadigan aylanma miqdoridan hisoblab chiqarilgan summa ko‘rsatiladi.

Bunda 7-ustun, agar soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solinadigan aylanma mavjud bo‘lsa, to‘ldiriladi. Agar soliq solinadigan aylanma

mavjud bo'lmasa, ya'ni 4-ustun summasi 5-ustunda ko'rsatilgan summadan katta yoki unga teng bo'lsa, 7-ustun to'ldirilmaydi;

8-ustun "Yetkazib berishning QQSni hisobga olgan holda qiymati"da - soliq qonunchiligiga binoan belgilangan soliq solinadigan aylanma miqdoridan hisoblab chiqarilgan qo'shilgan qiymat summasini unga kiritgan holda sotish narxi ko'rsatiladi. Bunda 8-ustun, agar 5-ustunda ko'rsatilgan narx 4-ustunda ko'rsatilgan summadan katta bo'lgan taqdirda to'ldiriladi.

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va tugallanmagan ishlab chiqarish obyektlari tekinga berilganida hisobvaraqa-fakturalarni to'ldirish yuqorida bayon etilgan tartibga aynan o'xshash tarzda amalga oshiriladi.

Ishlar (qurilish, ta'mirlash-qurilish, loyiha-qidiruv, ilmiy-tadqiqot va boshqa ishlar) bajarish yoki xizmatlar (transportga doir, mol-mulkni ijaraga berish, aloqa xizmatlari va boshqalar) ko'rsatish bilan shug'ullanadigan korxonalar hisobvaraqa-faktura yozish chog'ida belgilangan shaklga muvofiq, ishlar (xizmatlar) ijrochisi hamda buyurtmachi sifatida barcha rekvizitlarni to'ldirishlari kerak.

Yuqorida aytilgan korxonalar tomonidan jadval shakli to'ldirilganida quyidagilar aks ettirilishi kerak:

1-ustunda: tovarlar (ishlar, xizmatlar) nomi – bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) tavsiflanadi;

2-ustunda – pul ifodasida o'lchov birligi ko'rsatiladi;

3-"Miqdori" va 4-"Narxi" ustunlari to'ldirilmaydi;

5-"Yetkazib berish qiymati" ustunida bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi qo'shilgan qiymat solig'isiz ko'rsatiladi;

6-ustunda QQS stavkasi ko'rsatiladi;

7-ustunda QQS summasi ko'rsatiladi;

8-ustunda bajarilgan ishlar (ko'rsatilgan xizmatlar) hajmi qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda ko'rsatiladi.

Agar ishlar bajarayotgan, xizmatlar ko'rsatayotgan korxonalar kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lashni nazarda tutadigan soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tsa, 6- va 7-ustunlarda qo'shilgan qiymat

solig'i summasini ko'rsatmaydi hamda "QQSsiz" shtampini qo'yadi (yoki yozib qo'yadi) va 8-ustunni to'ldirmaydi.

Agar ishlar bajarayotgan korxonalarda buyurtmachiga imzo chekish uchun taqdim etilgan, bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-hisobvaraqa-fakturada hisobvaraqa-fakturaning belgilangan shaklida aks ettirilgan barcha majburiy rekvizitlar (ushbu hujjatni yozishga asos bo'lgan shartnomaning ro'yxat raqami va sanasi, nomlanishlar, manzillar, STIR, XXTUT bo'yicha tarmoq kodi) mavjud bo'lsa, QQS stavkasi va summasi alohida ajratilgan, QQS to'lamaydiganlar bo'yicha "QQSsiz" belgisi qayd etilgan bo'lsa, bunday korxonalar qo'shimcha ravishda hisobvaraqa-faktura yozmasligi kerak. Bunda "bajarilgan ishlar (qilingan xarajatlar) qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma -- hisobvaraqa-faktura" hisobvaraqa-faktura bo'lib hisoblanadi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Qo'shilgan qiymat qanday tarkib topadi?
2. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qaysi davlatda kim tomonidan joriy etilgan?
3. Qo'shilgan qiymat solig'ining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
4. Qo'shilgan qiymat solig'ini qanday shaxslar to'laydi?
5. Qo'shilgan qiymat solig'i obyekti qanday aniqlanadi?
6. Soliqqa tortiladigan oborot deganda nimani tushunasiz?
7. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari va ularni qo'llash tartibi qanday?
8. Nollik stavka qaysi tovarlar (ish va xizmatlar)ga nisbatan qo'llaniladi?
9. Qanday tovarlar va mahsulotlar (ishlar xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'idan ozod bo'ladi?
10. Nollik stavka bilan imtiyoz o'rtasida qanday tafovutlar mavjud?
11. Hisobvaraqa-fakturalar qanday to'ldiriladi va unda qo'shilgan qiymat solig'i qaysi punktlarda ko'rsatiladi?

12. Import tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'i qaysi formula orqali aniqlanadi?

Topshiriqlar

1. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha chet davlatlar tajribasini o'rganib chiqish.
2. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisobotni taqdim etish tartibini o'rganish.
3. Import qilinadigan ish va xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash formulasini aniqlang.

6-bob. AKSIZ SOLIG'I

Reja

- 6.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni
- 6.2. Aksiz solig'i to'lovchilari tarkibi
- 6.3. Aksiz solig'ining soliqqa tortish obyekti
- 6.4. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aksiz solig'i stavkalari
- 6.5. Aksiz solig'ini hisoblash tartibi va muddatlari

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, aksiz solig'i, eksport, hisobvaraq-faktura, davlat byudjeti, byudjet daromadlari, aksizosti tovarlar, soliq bazasi.

6.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimi doirasida yuzaga kelgan yangi iqtisodiy munosabatlar yangicha iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda aktiv ishtirok etadigan soliq turlarini ilmiy va amaliy jihatdan asoslanish zaruriyatini tug'dirmoqda. Ana shunday soliq turlaridan biri aksiz solig'i bo'lib hisoblanadi. Aksiz solig'i mamlakatimiz olimlari tomonidan nazariy jihatdan ishlab chiqilmagan, shuning natijasida uni amaliyotda shakllantirishda turlicha yondashuvlar asos qilib olinmoqda. Bunday yondashuvlar o'zining ikki xususiyati bilan ko'zga tashlanib kelmoqda, ya'ni:

➤ aksizli tovarlarni aholi iste'mol darajasidan kelib chiqqan holda belgilanishi;

➤ aksizli tovarlarga nisbatan o'rnatiladigan soliq stavkalari miqdorining o'zgaruvchanligi;

➤ aksizli oborotning aniqlanishining tartibi va boshqalar.

Bunday xususiyatlar o'z navbatida aksiz solig'i doirasida yechilmagan

anchagina muammolar mavjudligidan dalolat bermoqda. Shunday muammolardan biri aksiz solig'ining mohiyatini ochish orqali uni soliq munosabatlari doirasida va davlat byudjetining to'liqligini ta'minlashdagi o'rini belgilash bilan bog'liq bo'lmoqda.

Aksiz solig'i turli iqtisodiy rivojlanish bosqichlarida bo'lgan qator davlatlarda bilvosita soliqa tortishning samarali shakli sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga aksiz solig'i hozirgi kunda jahon soliqa tortish amaliyotida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Aksiz solig'ining qadim davrlardan hozirgi kunga qadar bunday keng tarqalishining asosiy sababi, uning fiskallik ahamiyati va yig'uvchanlik darajasining yuqoriligidadir. Bu haqida, hatto 1666-yilda fransuz iqtisodchisi F.Demezson ta'kidlab o'tgan edi: "aksizning birgina o'zi boshqa barcha soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir"²⁸.

Aksiz solig'ining mohiyati avvalo soliq undiruvchi va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham uni mohiyatini shu ikki subyekt: to'lovchi va undiruvchi o'rtasida yuzaga keladigan doimiy munosabatlar doirasida ifodalash zarur. Ammo aksiz soliq mohiyati avvalo shu soliq voqeligi tabiatini ifodalash zaruriyatini taqozo etadi.

Aksiz soliq voqeligining tabiati har qanday iqtisodiy voqelik tabiatiga o'xshashdir. Chunki iqtisodiy voqeliklar tabiati ularni tashkil etish manbalarida to'liq o'z aksini topadi. Shunday ekan, mavjud turli iqtisodiy toifalarning asl manbai qo'shimcha qiymat bo'lganligi kabi aksiz solig'ining asl manbai ham qo'shilgan qiymatdir. Lekin, boshqa iqtisodiy toifalar manbai o'z qadamini birlamchi taqsimot doirasida topsa, aksiz solig'i shu qo'shimcha qiymatni iste'mol doirasiga chiqarilgan qismining bir bo'lagi shaklida topmoqda. Aksiz solig'i birlamchi taqsimotda emas, balki ikkilamchi taqsimotda namoyon bo'ladi va o'z mohiyatining ana shu doirada ifodalanishini taqozo etadi.

Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish kerakki, aksiz solig'i tovar va xizmat narxiga ustama ko'rinishida undirilsada, u iste'molchi tomonidan

²⁸ Малов В.Н., Кольбер Ж.Б. Абсолютистская бюрократия и французское общество. М., 1991. С. 90.

yuzaga keltirilgan pul mablag‘lari hisobidan to‘lanadi. Ana shu pul mablag‘larining ham asl manbai qo‘shilgan qiymat bo‘lib hisoblanadi. Bu esa aksiz solig‘ining doimiy takrorlanib turadigan iqtisodiy voqelik deb tushunmog‘imizni taqozo etadi. U o‘z majmuasiga ko‘ra boshqa soliq turlari kabi moliya iqtisodiy toifasining tarkibiy komponentidir. Chunki aksiz solig‘iga boshqa iqtisodiy qiymat toifalari kabi doimiy qaytarilib turadigan pul munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Qolaversa, pul munosabatlari mazmunining o‘ziga xos jihatlarini ochish orqali aksiz solig‘ining mohiyatini shakllantirish mumkin. Shuni ham alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, boshqa soliq turlari kabi aksiz solig‘ining mohiyatini davlat byudjetini to‘ldirib turuvchi vosita yoki qurol sifatida ko‘rishlik ushbu soliqni pul munosabatlari doirasida namoyon bo‘lishligini inkor etish bilan tengdir. Chunki har qanday iqtisodiy voqeiklar harakatiga turli vosita va qurollar orqali ta‘sir etish mumkin. Soliq to‘lovlarini vosita va qurollar orqali tartibga solish mumkin, ammo ularga tayangan holda voqelik mohiyatini ochish mumkin emas. Qurol va vosita (yoki ayrim xollarda richag va mexanizm deb ishlatiladigan so‘zlar majmuasi) iqtisodiy voqealiklardan pul munosabatlari doirasida samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi yoki ularni tartiblashtirishni taqozo ettiradi, xolos.

Bu borada shuni aytish joizki, aksiz solig‘ining mohiyati doimo egri soliqlar doirasida o‘rganib chiqiladi. Shu sababli, uning ham iqtisodiy mohiyati qo‘shilgan qiymat solig‘ining mohiyatiga yaqindir. Bu yaqinlik davlat bilan yuridik shaxslar o‘rtasida vujudga keluvchi obyektiv majburiy to‘lovlarga asoslangan moliyaviy munosabatlar orqali namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro bog‘liqligi ham maxsus ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lishi milliy daromadning bir qismi bo‘lishi pul mablag‘larini davlat byudjetiga safarbar qilishda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bunday soliqlarga o‘ziga xos fiskal iqtisodiy toifa sifatida ham qaraladi.

Ular orqali davlat byudjeti daromadlarining salmoqdi qismi tashkil etilmoqda, ular o‘zlariga mansub funksiyalar orqali ishlab chiqarishga, uning o‘shishini rag‘batlantirishga, sarmoyaning jamg‘arish jarayonini kuchaytirishga hamda aholining to‘lov qobiliyatini yaxshilanishiga va shu kabi tadbirlarni ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

Aksiz solig‘i o‘z mohiyatiga ko‘ra, tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste‘molchi tomonidan to‘lanadigan egri soliqlardir. Uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati faqat taqsimot darajasiga qarab ifodalanadi va takomillashtiriladi.

Byudjet tushumini ta‘minlash orqali aksiz solig‘ining iqtisodiy mohiyati xalq xo‘jalik manfaatlarini qondirishga ko‘proq mablag‘lar jalb ettirilishida namoyon bo‘lsa, uning ijtimoiy mohiyati aholining, ya‘ni asosiy iste‘molchilarning to‘lov qobiliyatlarining oshishida o‘z ifodasini topadi. Bu esa aksiz solig‘i obyektlari (aksizosti tovarlari)ni qisqartirilishida, soliq stavkalarini pasaytirilishida, aholi to‘lov qobiliyatining o‘shishida o‘z aksini topadi. Shuni ham ta‘kidlab o‘tish kerakki, subyektlar aksiz solig‘i iste‘molchilari sifatida ham yuzaga kelishi mumkin.

Ushbu soliq bo‘yicha yengilliklarning berilishi tovarlar xarid qilish uchun olinadigan kredit resurslarining qisqartirilishiga, bu esa o‘z vaqtida, moliyaviy natijalarning oshishiga olib keladi.

Shunday qilib, aksiz solig‘i ijtimoiy muhitni ham yaxshilash imkoniyatlarini moliyaviy natijalarning o‘shishi orqali ta‘minlanishi mumkin. Aksiz solig‘ining takomillashtirilishi ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaxshilanishiga va iste‘mol darajasini oqilona tashkil etishga olib keladi.

Shunday qilib, aksiz solig‘ining mohiyati obyektiv pul mablag‘lar taqsimot doirasida yuzaga keladigan ayrim ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltirishda o‘z aksini topadi. Lekin shu bilan birga ta‘kidlash lozimki, aksiz solig‘i faqat qiymat taqsimotida yuzaga keladigan pul munosabatlarida o‘z ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini shakllantiradi.

Aksiz solig‘i ham barcha soliq xillari kabi majburiy to‘lov bo‘lsada, bunday majburiylik Oliy Majlis tomonidan demokratik tamoyillarga amal qilgan holda qabul qilingan qonunlarda o‘z ifodasini topgandir. Avvalo aksiz solig‘i majburiy to‘lov sifatida davlatning manfaatini ko‘zda tutgan holda demokratik me‘yorlar asosida Oliy Majlis tomonidan tartiblashtirilib turiladi. Shuning uchun ham aksiz solig‘i o‘z mohiyatidan kelib chiqib uzoq yillarga mo‘ljallangan majburiylik munosabatlarini ifodalaydigan

boshqa soliq xillaridan hisoblanish obyekti va byudjetga undirilish tartibi bilan farq qilsa ham, tashkil etishlarining asl manbalari jihatidan farq qilmaydi. Aksiz solig'ining mohiyatini ochishda uning asl manbasiga e'tiborni qaratish zarur. Chunki aksiz solig'ini mohiyatini ochishda uning asl manbasi munosabatlarning real majmuasini ifodalaydi. Shuningdek, aksiz solig'ini tashkil etuvchi asl manba obyektiv pul munosabatlarining bazis tushunchasiga kiradi va huquqiy me'yorlar bilan mustahkamlangandir. Bu borada shuni aytish kerakki, aksiz solig'ini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar, uni aniqlash obyektining o'zgartirilib turilishi, aksizli tovarlar sonining oshirilishi yoki kamaytirilishi uning mohiyatini ifoda eta olmaydi. Aksiz solig'ining bunday xususiyatlari qonunlar va soliq siyosati orqali belgilanib davlat oldida turgan vazifalarning hal etilishida omil sifatida namoyon bo'lishligini ifodalaydi, xolos.

Shunday qilib, aksiz solig'i pul munosabatlarini ifoda etib, bu munosabatlar doirasida uni to'lovchi sifatida iste'molchilar va davlat turadi. Uni to'lovchi iste'molchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlar va ularni tashkil etish demokratiya timsoli bo'lmish Oliy Majlis tomonidan tartiblashtirilib turiladi. Chunki aksiz solig'i byudjet daromadini tashkil etuvchi eng asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Byudjet daromadini manbai sifatida tashkil etishda yuzaga keladigan munosabatlar aksiz solig'iga xos va boshqa iqtisodiy voqeliklarga mansub bo'lmish funksiyalar orqali o'z mohiyatini to'liq yechib kelmoqda. Unga ham taqsimot va nazorat funksiyasi mansubdir. Faqat shu funksiyalar uning mavjud iqtisodiy voqeliklar doirasida harakat chegarasini va mohiyatini ochib beradi.

Aksiz solig'ining taqsimot funksiyasi va uning harakat chegarasi soliqlarning (ya'ni, keng ma'nodagi) mohiyatidan kelib chiqadi, ya'ni ijtimoiy mahsulotni, uni tarkibiy qismi bo'lmish milliy daromadni taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan va ta'minlab beruvchi munosabatlardan.

Aksiz solig'iga xos bo'lmish taqsimot funksiyasi ijtimoiy mahsulotni mustaqil elementlarining taqsimotida va qayta taqsimotida yuzaga keladi. Shu doirada yuzaga keladigan taqsimot aksiz solig'ini boshqa soliqlardan

o'laroq, farqlash imkoniyatini yaratib beradi. Chunki har qanday iqtisodiy voqelikni ijtimoiy mahsulot doirasida o'ziga xos mustaqil taqsimot funksiyasi markazlashtiradigan pul fondlarini tashkil etish orqali o'z mohiyatini mazmunli keng ma'noli doirada ifodalaydi. Bunday element soliqlarni barcha belgilariga javob beradi va ular bilan o'zaro bog'liqlikda soliqlar mohiyatini kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari orqali mazmunan boyitib boradi.

Aksiz solig'ining pul munosabatlari doirasida normativ xususiyati bilan ajralib turganligi uni nazorat funksiyasi namoyon bo'lganligini ifodalaydi. Nazorat funksiyasining realizatsiya shakli aksiz solig'ining miqdoriy jihatlarini axborotlar orqali moliyaviy ko'rsatkichlarning tashkil etilishida o'z aksini topadi.

Iqtisodiy jarayonlarni qiymat ko'rsatkichlari orqali baxrlash va o'lchash aksiz solig'ining nazorat funksiyasining o'ziga xos xususiyatida aks etdi. Chunki aksizli oborot aksiz soliq obyektini ifodalasa, iste'mol fondlari va kredit resurslari esa uni harakatga keltiruvchi asosiy manbalari bo'lib hisoblanadi. Uning yana bir o'ziga xos xususiyati kengaytirilgan ishlab chiqarishning turli bosqichlarida ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'lishligidir. Bu esa aksiz solig'idan kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayoni turli bosqichlarida nazorat vositasi sifatida foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Aksiz solig'i funksiyasining eng asosiy vazifasi soliq qonuniyatlariga tuliq va o'z vaqtida itoat etishni, soliq to'lov to'liqligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Aksiz solig'ining nazorat funksiyasi amalda Davlat soliq xizmati organi xodimlari tomonidan amalga oshirilib kelinayotgan faoliyatning nazariy asosini tashkil etadi.

Shunday qilib, aksiz solig'ining nazorat funksiyasi, uning taqsimot funksiyasi bilan yonma-yon olib borilishi orqali ushbu soliqning amalda namoyon bo'lish vazifalari majmuasini ifodalaydi.

Aksiz egri soliqlarini eng asosiy tarkibiy qismi bo'lib, u tovar (xizmat) narxiga, qo'shimcha ustama ko'rinishida undiriladigan va bevosita iste'molchilar tomonidan to'lanadigan iqtisodiy toifadidir. Aksiz solig'ini ustama shaklida qo'llashda uni boshqa iqtisodiy toifalar bilan o'xshash

narsa deb tushunmaslik lozim. Misol uchun “savdo ustamasi”, “ustama haqi” kabi tushunchalardan mazmunan farq qiladi. Xatto uni belgilash tartibi nafaqat ulardan xatto boshqa egri va to‘g‘ri soliq turlaridan ham bevosita farq qiladi.

Aksiz solig‘i soliq tizimining tarkibiy qismi bo‘lib, soliq siyosatining shakllantirilishida alohida o‘rin egallaydi. Chunki aksiz solig‘i bozor iqtisodiyotini shakllantirishi sharoitlarida turli miqdorlarda undirilib davlat byudjetining daromad qismining eng katta hissasini tashkil qilmoqda.

Aksiz solig‘ini aniqlash tartibi boshqa soliq xillaridan o‘laroq farq qilishi avvalo tezkorlik bilan qisqa vaqt ichida byudjetga ko‘chirilishi va byudjet to‘liqligini ta‘minlash uning rolini iqtisodiy voqealar ichida oshirib kelmoqda. Shunday qilib aksiz solig‘i, ba‘zi tovarlarning iste‘mol qilinishini cheklashda, kengaytirilgan ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlar o‘rnini qoplashda, yangi-yangi magistral yo‘llarni qurish va shunga doir xarajatlarni qoplashda o‘ta muhim ekanligidan kelib chiqqan holda unga bo‘lgan zaruriyatni bozor iqtisodiyoti sharoitida tobora oshirib kelmoqda. Xatto aksiz solig‘ini ayrim munosabatlar doirasida qo‘llash (ya‘ni avtomobil sotib olish, tovarlarni eksport va import qilishda) orqali byudjet defitsitini bartaraf etish, davlat valyuta tushumini oshirish imkoniyatlari yaratib berilmoqda.

Aksiz solig‘ining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u qo‘shilgan qiymat solig‘i kabi tovar (xizmat) narxiga ustama ko‘rinishida namoyon bo‘lsada, undan aniqlanish usullari orqali farq qiladi, chunki aksiz soliq summasi o‘z tarkibida nafaqat tovar (xizmat) narxini, balki o‘zining birlamchi hajmini ham ifodalaydi (ushbu tartib O‘zbekiston Respublikasida qonunlashtirilgan). Aksiz solig‘ining bunday tartibi davlatning soliq siyosati bilan belgilangan. Aksiz soliq, hajmining ushbu tartibi boshqa taraqqiy etgan mamlakatlarda nisbatan amal qilayotgan tartibdan o‘laroq, farq qiladi. Misol uchun ayrim bir davlatlarda iste‘mol solig‘i, ya‘ni har bir xarid uchun soliq xizmat ko‘rsatishda oborot solig‘ini aniqlanish tartib va usullari bizda amal qilayotgan aksiz solig‘ini aniqlash tartibidan farq qiladi. Ammo iqtisodiyotning barqarorlashtirilishi, davlat byudjeti

defitsitining bartaraf etilishi bevosita ushbu soliqni aniqlash yoki belgilanish tartibiga qonuniy ravishda o'zgartirish kiritishi mumkin. Bu borada shuni aytib o'tish joizki, aksiz solig'iga 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashma va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonun hamda bozor munosabatlariga o'tish bilan 1992-yil 14-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi qonuniga kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarga asosan, 1992-yildan boshlab joriy etilgan bo'lsa ham, u o'ziga xos xususiyatlarga egadir.

Avvalo u ommaviy xaridorgir tovar va xizmatlar hamda zeb-ziynat, buyumlarining muayyan doirasiga nisbatan qo'llaniladi. Ammo rivojlangan mamlakatlarda esa aksiz solig'i umumiy soliq siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, byudjet daromadlarini to'ldirish maqsadida joriy etilgan bo'lsa, unda bizda amal qilinayotgan aksiz solig'i umumiy tamoyillari jihatidan boshqa davlatlardagidan deyarli farq qilmaydi. Chunki mulkchilik shaklidan qat'iy nazar aksiz solig'iga tortilishi belgilangan tovar va mahsulotlar ishlab chiqaruvchi barcha yuridik shaxslar aksiz solig'i to'lovchilari hisoblanadi.

1992-yilda inflyatsiya yuqori bo'lganligi sababli ikkinchi darajali ehtiyoj mollariga qat'iy stavkalarda (absolyut qiymatlarda) aksiz solig'i belgilanadi. Chunki, bu davrda narxning farqi evaziga olinayotgan daromadning bir qismi soliqqa tortilmay qolmoqda edi. Shu sababli, 1993-yil yanvar oyidan boshlab, qat'iy stavkalar o'rniga foizli stavkalar qo'llanila boshladi. Natijada soliq obyektining hajmi o'zgarishga mos ravishda soliq summasining o'zgarishi, soliq summasining aniq hisoblanishi va byudjetga undirilishini ta'minlanadi. Shu tariqa aksiz soliq miqdori tovarning ishlab chiqarish xarajatlarini, foydani, aksiz solig'i miqdorini o'z ichiga olgan, sotish narxidan kelib chiqish holda aniqlanishiga asos solindi. 1993-yil yanvar oyidan boshlab ushbu tartib aksiz solig'iga tortiluvchi barcha mahsulotlarga nisbatan qo'llanilib kelinmoqda.

Aksiz solig'i bilvosita soliq hisoblanib, mamlakat ichki bozorini himoyalashda va zeb-ziynat buyumlari, hayotiy ehtiyoj bo'lmagan

tovarlarga nisbatan narxni tartibga solishda keng qo'llaniladi. 2003-yildan boshlab aksiz solig'ini hisoblash tartibida tub o'zgarishlar yuz berdi va alkogolli mahsulotlarga nisbatan respublikamizda birinchi marta qat'iy aksiz solig'i stavkalari belgilash amaliyoti joriy etildi.

Shunday qilib, yuqorida nomi tilga olgan qonun aksiz solig'ini qo'llash uchun asos soldi va sof daromadning bir qismi sifatida u byudjetga markazlashtirilib kelinmoqda.

Aksiz solig'ini undirish uchun ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlarga quyidagilar kiradi:

✓ Soliq kodeksi;

✓ "Alkogolli mahsulotlarga va tamaki mahsulotlariga yangi namunadagi aksiz markalari joriy etish to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining 33-sonli qarori. 16.02.2011;

✓ "Aksizli tovarlarning ayrim turlarini sotish hajmlari to'g'risidagi ma'lumot shaklini tasdiqlash haqida" Davlat soliq qo'mitasining 2074-sonli qarori. 27.01.2010 va boshqalar.

6.2. Aksiz solig'i to'lovchilari tarkibi

Aksiz solig'idagi tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va aksiz solig'i solinadigan tovarlarni muomala sohasida sotuvchi yoki iste'molchi ishlab chiqarish xizmat ko'rsatish subyektlari tomonidan sotib oluvchilar mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar aksiz solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Bu esa aksiz solig'ining to'lovchilarini soliq munosabatlari doirasida va iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashdagi mas'uliyatlarini tobora oshirib kelmoqda. Chunki aksiz solig'i solinadigan tovarlar xalq xo'jaligining eng nufuzli tarmoqlarida ishlab chiqarilmoqda.

Ular tomonidan ishlab chiqarilgan aksizli tovarlar bevosita muomala sohasiga tushadi. Bu esa aksizli tovarlarning iste'molchilar tomonidan sotib olinishini va pul tushumlarining bank tizimlariga bir tartibda tushishini tartiblaydi.

Aksiz solig'i bozor iqtisodiyoti taraqqiyotini ta'minlashda soliq munosabatlarning aktivligini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

Iste'molchiga yetib borayotgan qanday aksizli tovar bahosi tarkibidagi iqtisodiy ko'rsatkichlarning harakatini pul munosabatlari orqali amalga oshirishda muhim va murakkab muammolarni bajarib kelmoqda. Aksiz solig'ining boshqa soliqlar bilan o'zaro bog'liqlikdagi va rivojlanish jarayoni birmuncha murakkab vaziyatda amalga oshayotgan bo'lsada, iqtisodiy taraqqiyotni xalq xo'jaligining nufuzli tarmoqlari orqali ta'minlashga imkoniyat tug'dirmoqda.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning ilk bosqichi ishlab chiqarishning qisqarishi, aholi turmush darajasining pasayishi, pulning qadrsizlanishi va boshqa bir qator ziddiyatli xususiyatlarga ega bo'lgan chuqur iqtisodiy torlik aksiz solig'i orqali tartibga solinadi. Chunki ana shunday vaziyat yuzaga kelganda butun og'irlik markazi asosan davlat byudjeti zimmasiga tushganligi soliq og'irligining aksiz solig'iga yuklatilishini taqozo etgan edi. Davlat byudjeti xarajatlarining avvalgi (bozor iqtisodiyotiga o'tish bosqichiga qadar) tarkibiga xos bo'lmagan yoki favquloddagi holatga xos bo'lmagan ba'zi bir to'lovlar ortig'i bilan amalga oshirilishida (ya'ni ayrim tovar va xizmatlar bahosining qimmatlashuvi munosabati bilan ular bahosining ma'lum miqdorini kompensatsiya qilish, kam ta'minlangan aholi guruhlarini iqtisodiy jihatdan himoyalash, byudjetdan ta'minlanadigan haq to'lash miqdorini muntazam ravishda qayta ko'rib chiqish obyektiv zaruriyatiga aylanganda) aksiz solig'i byudjet daromadini tartibga soluvchi vosita sifatida soliq munosabatlari doirasida muhim o'rin egallaydi.

Bunday sharoitlarda aksiz solig'idan keng foydalanish, soliq stavkasining miqdorini nisbatan aksizli tovarlar bo'yicha oshirish, soliq imtiyozlarining to'g'ri soliqlar bo'yicha ma'lum darajada qisqartirilishini obyektiv tarzda vujudga keltirdi. Ushbu holat o'z navbatida ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkoniyat tug'dirib berdi.

Respublika oldida turgan iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni yechish va takomillashtirishda asosiy maqsad soliqlar bo'yicha og'irlik markazini aksiz solig'iga yuklatish va shu orqali korxonalar ixtiyorida qoladigan daromad (foyda)ni oshirish (shu ko'rsatkichlarga nisbatan soliq stavkasini

pasaytirish va shu stavkalarini pasaytiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llash yo'li bilan) imkoniyatlari yaratib berildi.

Bunday chora-tadbirlar asosan aksiz solig'i yordamida korxonalarining moddiy va pul resurslaridan foydalanishdagi huquqlarini kengaytirish, soliq og'irligini kamaytirish va byudjet daromadlariga muvofiq ravishda korxonalar daromad (foyda)larining oshirilishini nazarda tutadi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda aksiz solig'i faqat ijobiy omil sifatida soliq munosabatlarida maydonga chiqadi. Ammo boshqa soliq xillari ham o'z vaqtida aksiz solig'idan kam bo'lmagan ijobiy ta'sirchanlik bilan iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlab kelishi sir emas, albatta. Shuningdek, iqtisodiyotni takomillashtirishda boshqa iqtisodiy toifalarning o'rni juda kattadir. Lekin aksiz solig'i bozor konyunkturasiga tez moslashuvi bilan ajralib turganligi bois ayrim iqtisodiy o'sishlari yuz berganda unga tayanish orqali soliq og'irligini maqbullashtirish va iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishini amalga oshirish mumkin.

Aksizlanadigan tovarlar ishlab chiqaradigan, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, yuridik shaxslar aksiz solig'i to'lovchilari hisoblanadi. Soliq solish maqsadida yuridik shaxslar deganda mulkida, xo'jalik yuritishida yoki tezkor boshqaruvida mol-mulki bo'lgan va o'z majburiyatlari bo'yicha ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balans va hisob-kitob varag'iga ega bo'lgan alohida korxonalar ham tushuniladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar olib kiruvchi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslar, shuningdek, jismoniy shaxslar aksiz solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Bunda, agar qonun hujjatlarida boshqa narsa ko'zda tutilmagan bo'lsa, istalgan manfaatdor shaxs to'lovchi uchun bojxona to'lovlari to'lashga haqlidir.

6.3. Aksiz solig'ining soliqqa tortish obyekti

Aksiz solig'i bilvosita soliq ko'rinishida byudjetga kiritiladigan (olinadigan), narxda va qo'shilgan qiymat solig'i solish bazasida hisobga

olinadigan sof daromadning bir qismidir. Aksiz solig'i stavkalari va ~~aknizlanadigan~~ tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi hamda belgilangan tartibda soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga ko'ra ro'yxatlar va stavkalar bo'yicha aksiz solig'i solinadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i bojxona xizmatlari tomonidan so'mlarda undiriladi va har 5 kunda respublika byudjetiga kiritiladi. Olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'ining hisobi va uning byudjetga kelib tushishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmatining hududiy boshqarmalari amalga oshiradi.

Soliq obyektini tarkibi: qat'iy soliq stavkalari belgilangan mahsulotlar bo'yicha-sotilgan mahsulot hajmiga nisbatan naturadagi ifodasi; o'z ichiga aksiz va qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda yuklab jo'natilgan tovar qiymati.

Soliq solish obyektini vujudga keladigan korxonalar va jismoniy shaxslariga aksiz solig'i to'lovchilari hisoblanadilar.

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlarini ishlab chiqarmaydigan shaxs (Masalan Jeneral motors AJ dillerlari) to'lovchi qilib belgilanishi mumkin.

Quyidagi operatsiyalar aksiz solig'i solinadigan obyektidir:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan: tovarni sotish (jo'natish);

Soliq solinadigan baza har bir tovar bo'yicha alohida belgilanadi.

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan ‘bojxona hududida qayta ishlash’ bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo‘lgan aksiz to‘lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar, baxtsiz hodisalar yoki avariya yuz berganda yordam ko‘rsatish uchun, insonparvarlik yordami va beg‘araz texnik ko‘mak sifatida, shuningdek, xayriya maqsadlari uchun aksiz to‘lanadigan tovarlarni davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilishga;

4) aksiz to‘lanadigan tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig‘i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig‘i mavjud bo‘lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo‘yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, O‘zbekistonda boshqa rivojlangan mamlakatlarga qaraganda aksiz solinadigan tovarlar ro‘yxati kengdir. Bularga paxta yog‘i, guruch, sovun va boshqalar. Shunday qilib, aksiz solig‘ining asosiy xususiyati buzilmoqda. Aksiz solig‘i shunday tovarlarga solinishi kerakki, ularga talab ularning narxiga bog‘liq bo‘lmasligi kerak. Bu zeb-ziyat mahsulotlari va odam hamda xalq salomatligiga zarar yetkazuvchi tovarlar. Aytish mumkinki, O‘zbekistonda aksiz solig‘i oborotdan soliq rolini o‘tamoqda, ayniqsa, tovarlar import qilinayotganda.

Aksiz solig‘ining stavkalari mutlaq summada (qat’iy) belgilangan aksiz to‘lanadigan tovarlar bo‘yicha soliq solinadigan baza aksiz to‘lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

6.4. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aksiz solig'i stavkalari

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

a) aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

b) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

d) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

– davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan xayriya yordami maqsadida, shu jumladan, texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

– O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek, grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga;

e) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga;

f) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga.

2019-yilda O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlarga nisbatan aksiz solig'i stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilangan (6.1-jadval):

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan aksizli tovarlarga nisbatan aksiz solig‘i stavkalari²⁹

Tovarlar nomi	Soliq stavkasi	
	foiz-larda	bir o‘lchov birligiga, so‘mda
1. Etil spirti (1 dal. uchun)		9800
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun) - tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (etil spirti qo‘shilmagan holda) - boshqa vinolar		7700 13200
3. Konyak (1 dal tayyor mahsulot uchun)		92500 (40%dan yuqori 152400)
4. Aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)		84500 (40%dan yuqori 140300)
5. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)		9200
6. Filtrli, filtrsiz sigaretalar, papirosalar (1 ming dona uchun)		117900
7. Zargarlik buyumlari	25	
8. “Jeneral Motors O‘zbekiston” AJ ishlab chiqargan avtomobillar	3	
9. Mobil aloqa xizmati	15	
10. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
11. Neft mahsulotlari (1 tonna uchun):		
Ai-80 benzini		32143
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini		35343
Ai-95 benzini		40898
dizel yoqilg‘isi		27340
EKO dizel yoqilg‘isi		28425

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo‘ljallari to‘g‘risida”gi PQ-4086 sonli qarori. www.lex.uz

Aviakerosin		5058
Dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi		20700
12. Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport	15	
13. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz (“O‘ztransgaz” AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan, eksport	26	
14. Polietilen granulalar	25	
15. Oxirgi iste’molga sotish bo’yicha		
Benzin, 1 l uchun		285
Dizel yoqilg’isi, 1 l uchun		285
Suyultirilgan gaz, 1 l uchun		285
Siqilgan gaz, 1 kub uchun		360
Benzin, 1 t uchun		378480
Dizel yoqilg’isi, 1 t uchun		346275
Suyultirilgan gaz, 1 t uchun		540645

Qat’iy miqdorlarda belgilangan aksiz solig’i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarning dinamikasi hamda mahsulotning sotilishi hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

“Jeneral Motors O‘zbekiston” AJ avtomobillari, tabiiy va suyultirilgan gazga aksiz solig’ini to‘lovchilar va uni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Qimmatbaho metallarga doir aksiz solig’ini to‘lovchilar, uning stavkalari va to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

6.5. Aksiz solig'ini hisoblash tartibi va muddatlari

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan, aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash boshqa bojxona to'lovlarini to'lashdan oldin yoki u bilan bir vaqtda amalga oshiriladi. To'ldirilgan hujjat bilan birga taqdim etilgan, to'lashga qabul qilinganligi to'g'risida bank belgisi bo'lgan to'lov topshiriqnomasi to'lovchi tomonidan aksiz solig'i to'langanini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kiriladigan tovarlarga aksiz solig'ining summasi respublika byudjetiga kiritiladi.

Davlat bojxona qo'mitasi hududiy bojxona boshqarmalarining qaroriga ko'ra to'lovchiga, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan 1999-yil 16-martda 03/8-78-son bilan tasdiqlangan Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lashni taqdim etish to'g'risidagi yo'riqnomaga (ro'yxat raqami 697, 1999-yil 8-aprel) muvofiq tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini sanasidan boshlab 2 oydan oshmaydigan muddatga aksiz solig'ini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilishi mumkin.

To'lovchilar tomonidan O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq sotishning haqiqiy hajmidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi byudjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

1. Joriy oyning 13-kunidan kechiktirmay – joriy oyning birinchi o'n kunligi uchun;
2. Joriy oyning 23-kunidan kechiktirmay – joriy oyning ikkinchi o'n kunligi uchun;
3. Keyingi oyning 3-kunidan kechiktirmay – hisobot oyining qolgan kunlari uchun.

Tovarga ilova qilinadigan hujjatlarda ko'rsatilgan mahsulot yuklab jo'natilgan kun sotish kuni bo'lib hisoblanadi.

O'n kunlik to'lovlar bo'yicha aksiz solig'ining kelib tushgan summasi Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning shaxsiy hisobvaraqlarida bir vaqtda soliqni "Hisoblab yozish" va "To'lash" ustunlarida aks ettiriladi.

Aksiz solig'i bo'yicha hisob-kitob ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organlariga taqdim etiladi: korxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) – hisobot oyidan keyingi oying 20-kunidan kechiktirmasdan har oyda; mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – birinchi chorak, yarim yillik va 9 oy yakunlari bo'yicha, o'n kunliklarga taqsimlagan holda, hisobot choragidan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmasdan, yil yakunlari bo'yicha esa – yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida.

Dam olish (ishlanmaydigan) yoki bayram kuniga to'g'ri keladigan aksiz solig'ini to'lash muddatlari, tegishincha, hisob-kitobni taqdim etish muddatlari ham dam olish yoki bayram kunidan keyingi birinchi ish kuniga ko'chiriladi.

Hisobot davri mobaynida o'n kunlik to'lovlar bilan kiritilgan aksiz solig'i summalari tegishli hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha hisoblab chiqarilgan soliq summasida hisobga olinishi kerak.

Ortiqcha kiritilgan aksiz solig'i summalari bo'lg'usi to'lovlar hisobiga kiritiladi yoki uning yozma arizasi olingan kundan boshlab Davlat soliq xizmati organi tomonidan 30 kun ichida to'lovchiga qaytariladi (agar byudjetga to'lovlar bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa). Ortiqcha kelib tushgan aksiz solig'i summasi o'ttiz kun ichida qaytarilishi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga kiritilishi kerak.

Ular to'langan yoki undirilgan paytdan boshlab bir yil davomida to'lovchi ortiqcha to'langan yoki undirilgan aksiz solig'i summalari qaytarilishini talab qilib, murojaat etishi mumkin.

Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarish bojxona organlariga quyidagi hujjatlarni taqdim etish bilan amalga oshiriladi:

1. To'lovchining yozma arizasi, unda ortiqcha to'lash yoki undirish sabablari ko'rsatiladi, shuningdek, pul mablag'lari qaytarilishi kerak bo'lgan to'lovchining bank rekvizitlari beriladi;

2. Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish va undirish uchun asos bo'lgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

3. Ijrosi to'g'risida bank belgisi qo'yilgan, aksiz solig'ining tegishli summalarini to'lashga oid to'lov hujjati;

4. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) chegaradan haqiqatda olib o'tilgani to'g'risida chegara bojxonasi belgisi qo'yilgan (zarur hollarda) tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarish umumiy tushumlar hisobiga amalga oshiriladi. Ortiqcha to'langan aksiz solig'i summalarini qaytarishning boshqa qoidalari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan 2000-yil 29-iyunda 02/8-27-son bilan tasdiqlangan Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarini qaytarish to'g'risida yo'riqnoma (ro'yxat raqami 947, 2000-yil, 14-iyul, Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi, 2000-yil, 13-son)ga binoan tartibga solinadi.

Aksiz solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblar hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvaraqlarida yuritiladi. Aksiz solig'ining byudjetga kiritiladigan hisoblab chiqarilgan summasi xaridorlar va buyurtmachilardan olinadiganlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti hamda byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti bo'yicha aks ettiriladi. Byudjetga aksiz solig'i summasini to'lash byudjetga to'lovlarga doir qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti bo'yicha pul mablag'larini hisobga olish hisobvaraqlari bilan korrespondensiyada aks ettiriladi.

Aksiz markalarini xarid qilish chog'ida boshqa joriy aktivlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti va pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti bo'yicha buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi.

Mahsulotni markalash uchun aksiz markalaridan foydalanishga qarab buxgalteriya yozuvi amalga oshiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti va boshqa joriy aktivlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Soliq to'lovchilar aksiz solig'ining to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Aksiz solig'ining to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida to'lanishi uchun javobgarlik to'lovchilar va deklarantlar zimmasiga yuklanadi.

To'lovchi tomonidan aksiz solig'i bo'yicha byudjet oldidagi majburiyatlar bajarilmagan taqdirda bojxona xizmatlari tegishli summalarni, shuningdek, muddati kechiktirilgan har bir kun uchun, qonun hujjatlariga muvofiq undirish kuni ham qo'shiladi, 0,5 foiz miqdorida penyalarni undiradilar.

Olib kiriladigan tovarlar bo'yicha undiriladigan aksiz soliqlarining byudjetga kiritilishi ustidan nazoratni bojxona organlari amalga oshiradi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Aksiz solig'i qachon joriy etildi?
2. Aksiz solig'i to'lovchilari qanday guruhlanadi?
3. Aksizosti tovarlarini aniqlash mezonlari qanday?
4. Aksiz solig'i obyekt nimalardan iborat?
5. Aksiz solig'ining bazasi qanday aniqlanadi?
6. Aksiz solig'ini to'lashdan kimlar ozod etilgan?
7. Aksiz solig'i stavkalari va aksizosti tovarlar ro'yxati kim tomonidan belgilanadi?
8. Aksiz solig'ini hisobga olish tartibi qanday?
9. Alohida tovarlar bo'yicha byudjetga to'lanadigan aksiz solig'ini hisoblab chiqishning xususiyatlari nimada?
10. Aksiz solig'i hisobini taqdim etish va soliqni to'lash muddatlari qanday?
11. Aksiz markalari nima va u qachon joriy etilgan?
12. Qanday holatda aksizga tortiladigan tovarlar markalanmaydi?

Topshiriqlar

1. Aksiz solig'i bo'yicha chet davlatlar tajribasini o'rganib chiqish.
2. Aksiz solig'ini to'lash va hisobotni taqdim etish tartibini o'rganish.
3. Byudjet daromadlarini to'ldirishda aksiz solig'i bo'yicha vujudga kelayotgan muammolarni tadqiq qilish.

III QISM. MOL-MULK SOLIG'I VA RESURS TO'LOVLARI

7-bob. YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ

Reja

7.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati

7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi

7.3. Mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt

7.4. Me'yordagi muddatlarda o'rnatilmagan asbob-uskunalar uchun mol-mulk solig'ini hisoblash. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlariga mol-mulk solig'ini hisoblash

7.5. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari va imtiyozlari

7.6. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari

7.7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i va uning ahamiyati

7.8. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi

7.9. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, jismoniy shaxs, mol-mulk, mol-mulk solig'i, mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymati, belgilangan muddatlarda ishlatilmagan obyektlarga soliq, ko'p qavatli kvartira, soliq imtiyozlari.

7.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O‘zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig‘ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati

Xo‘jalik subyektlari o‘z faoliyatlarini yurgizishda mehnat mahsuli bo‘lmish mulkdan keng foydalanadi. Umuman iqtisodiy formatsiyalardan qat’iy nazar jamiyat o‘ziga zarur bo‘lgan mahsulotni ishlab chiqarish uchun mehnat vositalari va mehnat buyumlaridan keng foydalanadi. Avvalo mehnat vositalari deb mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashadigan mehnat qurollari hamda shu ishlab chikdrishda bevosita qatnashmaydigan lekin uning uchun ma’lum sharoitlar yaratib uni tashkil qilishga uzoq muddat xizmat qiladigan mulklarga aytiladi. Ularga imoratlar, jihozlar, transport vositalari, uy-joy ishnootlari va boshqalar kiradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulklarini asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat xizmat qiladi va shu bilan birga o‘zining dastlabki jismoniy ko‘rinishini saqlab qoladi. Ular mahsulot ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratib berishda uzoq muddat qatnashsa ham asta-sekin eskirib boradi va eskirgan qismini ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga amortizatsiya ajratmasi ko‘rinishida qisman-qisman o‘tkazib boradi. Shuning uchun ham korxonalar ushbu mol-mulklardan foydalanish jarayonida, ularni to‘g‘ri va unumli ishlatib, imkoni boricha ko‘p va sifatli mahsulot ishlab chiqarishni, har ishlab chiqarishga sarflangan har bir so‘mning rentabellik darajasini oshirilishini ta‘minlashga harakat qilishadi. Shuningdek, mavjud qonunchilikka ko‘ra barcha korxonalar mol-mulklari uchun byudjetga soliq to‘lash majburiyatiga ham egadir. Bu soliqlar summasi mol-mulklarning miqdoriga qarab mutanosib ravishda o‘zgarishi mumkin, ya’ni mol-mulklarning qiymati oshgan sari soliqlar summasi ham oshib boradi. Bunday soliq siyosati korxonalar diqqatini ortiqcha asosiy va aylanma mablag‘lardan voz kechishiga va eng zarur bo‘lgan mol-mulklarnigina olib qolib, ulardan unumli foydalanishga qaratadi.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish bosqichida mol-mulk solig‘ini

rag'batlantiruvchi va korxonalarni tejamkorlikka undovchi xususiyatlari inobatga olinib, O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevraldagi "Korxonalar, tashkilotlar va birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, u joriy etildi va so'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar orqali uning ayrim jihatlari takomillashtirilib turildi.

Mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib xo'jalik yuritishda, mulkchilikda yoki operativ tarzda boshqaruvda mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlariga ana shu mol-mulk bilan javob beradigan, shuningdek, mustaqil balansga va hisob-kitob raqamiga ega bo'lgan hamma turdagi korxonalar hisoblanadi.

Mol-mulk solig'ini to'lovchi bo'lgan korxonalar soliqni o'zlarining yuqorida sanab o'tilgan asosiy vositalaridan to'lashadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i lizing shartnomasiga ko'ra sotib olingan vositalar nomoddiy aktivlardan ham to'lanadi. Albatta, barcha asosiy vositalarning lizing buzilishi uchun uning ijara muddati asosiy xizmat muddatining 80 foizidan ortiq bo'lishi; ijarachi asosiy vositalarni ijara tugaganidan so'ng belgilanadigan narx bo'yicha xarid qilish huquqiga ega bo'lishi; ijaraga olingan asosiy vositalarning ijara tugallanganidagi qoldiq qiymati ularning ijara boshlanishidagi qiymatining 20 foizidan kamini tashkil etishi; ijaraga olingan butun davr uchun joriy to'lovlarning summasi ijaraga olingan vositalar qiymatining 90 foizidan ortiq bo'lishi zarur.

O'zbekistonda korxonalar faoliyatini soliqqa tortish yo'lidagi muhim qadamlardan biri korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliqning joriy qilinishi bo'ldi. Mol-mulk solig'i dastlab, O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi Qonuniga asosan joriy etildi va shu bilan birga korxonalarining ishlab chiqarish fondlariga to'lov hamda transport vositalariga solinadigan soliq bekor qilindi.

Hozirgi vaqtda ushbu soliqning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari hamda boshqa soliq qonunchiligi bilan bog'liq bo'lgan me'yoriy hujjatlar hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'g'ri soliqlar tarkibiga kiradi va mohiyatiga ko'ra bu soliq asosiy fondlar shaklidagi resurslarga nisbatan belgilangan soliq hisoblanadi. Mazkur soliq bo'yicha tushumlar summasi to'liq mahalliy byudjetlarga tushadi va u byudjetning barqaror daromad manbalaridan biri hisoblanadi.

Mahalliy iqtisodchi olim B.Umarov mol-mulk solig'iga ta'rif bera turib "mol-mulklarni soliqqa tortish korxonani soliq bilan tartibga solish bo'lib, maxsus huquqiy tartibga ega" deya e'tirof etib o'tgan³⁰.

Yana bir yosh iqtisodchi olimlardan A.X. Islamkulov mol-mulk solig'i birinchi navbatda cheklangan resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlovchi, ikkinchi tomondan korxonalar faoliyatini tartibga solishga xizmat qiluvchi moliyaviy dastag hisoblanadi, deb e'tirof etgan³¹.

Mamlakat soliq tizimida mol-mulk solig'ini joriy qilishdan ko'zlangan maqsad *birinchidan*, korxonalar o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanilmayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish bo'lsa, *ikkinchidan*, korxonalar balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantirishdan iborat. Chunki, korxonalarning ma'naviy va jismoniy tomondan eskirgan asosiy vositalarini yangi, ilg'or texnologiya-uskunalar bilan yangilashi ishlab chiqarilayotgan tovarlarning bahosini arzonlashtiradi va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarishga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning balansidagi barcha mulklardan soliq to'lashga majbur qilish uni ortiqcha bino, inshootlar, mashina va uskunalaridan qutilishiga undaydi. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarish vositalari bozorini shakllantirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, mol-mulk solig'i daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni bartaraf etishning muhim vositasi hisoblanadi. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining davlat byudjeti daromadlari

³⁰ Umarov B. Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari (O'zbekiston Respublikasi materiallari asosida): Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2002. 14 b.

³¹ Islamkulov A. Byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta'minlash yo'llari: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T., 2012. 15 b.

tarkibidagi ulushi yuqori salmoqqa ega emas. Hozirgi vaqtda ushbu soliqning tushumi O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetining solikli daromadlarida 2,3 – 4,5 foiz oralig‘ini tashkil etmoqda (7.1-jadvalga qarang).

7.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlari tarkibida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi, (foizda)³²

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2013	2014	2015	2016	2017
Davlat byudjeti daromadlarida jami soliqlar tushumi	100	100	100	100	100
Jami Davlat byudjeti daromadlarida mol-mulk solig‘ining ulushi	2,6	4,4	5,1	4,2	4,5
shu jumladan, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi	2,3	3,9	4,7	3,9	4,5
Jami mulkiy soliqlar tushumida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi	86,0	90,1	92,6	92,3	92,8
Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining mahalliy byudjetlar daromadlaridagi ulushi	7,1	7,7	7,9	7,8	7,8

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra jami mulkiy soliqlar tushumida yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ining ulushi 2015-yilda 2011-yilga nisbatan 6,8 punktga oshganligini ko‘rish mumkin. Bu holatni soliqqa tortish tartiblarini yanada takomillashib borayotganligi bilan izohlamoq kerak. Bunga bir xil ahamiyatli va samarasiz bo‘lgan imtiyozlarni bekor qilinyotganligini misol keltirish mumkin.

³² O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining ma’lumotlari asosida tuzilgan.

7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va "Yuridik shaxslarning mol-mulk solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida"gi yo'riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi (MYu №1107-modda. 11.03.2002), unda:

O'zbekiston Respublikasi hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;

agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududida o'z mulkida ko'chmas mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar – O'zbekiston Respublikasining norezidentlaridir. Agar ko'chmas mulk mulkdorining joylashgan yerini aniqlash imkoni bo'lmasa, bu mol-mulk qaysi shaxsning egaligida va (yoki) foydalanishida bo'lsa, shu shaxs soliq to'lovchidir. O'zbekiston Respublikasi norezidentining faoliyati Soliq kodeksining 20-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasa orqali amalga oshiriladigan faoliyat, deb e'tirof etiladi.

Quyidagilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar bo'lmaydi:

➤ notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilardir;

➤ soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.

Shu bilan birga agar soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar asosiy faoliyat ko'rinishi bilan bir qatorda boshqa faoliyat ko'rinishlari bilan shug'ullansa, u holda ular bo'lim hisobini yuritishlari va qonunchilikka muvofiq mol-mulk solig'ini to'lashlari shart.

7.3. Mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt

Quyidagi mol-mulk soliq solish obyektidir:

1) asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara (lizing) shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;

2) tugallanmagan qurilish obyektlari. Tugallanmagan qurilish obyektlari jumlasiga muayyan qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, qurilish boshlanganidan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar. Belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar jumlasiga montaj qilinishi talab etiladigan hamda rekonstruksiya va (yoki) modernizatsiya qilinayotgan obyektlarda loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan muddatlarga muvofiq kapital qo'yilmalar hisobiga ishga tushiriladigan asbob-uskunalar kiradi. Loyiha-smeta hujjatlarida asbob-uskunalarini ishga tushirish muddatlari bo'lmagan taqdirda, buyurtmachi sifatida ish ko'rayotgan yuridik shaxsning rahbari tomonidan tasdiqlangan muddatlar soliq solish obyektini belgilash uchun qabul qilinadi, lekin bu muddatlar asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran bir yildan ko'p bo'lmasligi kerak.

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

✓ asosiy vositalar bo'yicha – asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati. Asosiy vositalarning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya hajmi o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi;

✓ normativ (belgilangan) muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari va ishga tushirilmagan asbob-uskunalar bo'yicha – tugallanmagan qurilishning va o'rnatilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining *norezidentlari* uchun quyidagilar soliq solish obyektidir:

❖ O'zbekiston Respublikasining norezidentlari buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq qaysi vositalar bo'yicha hisob yuritayotgan bo'lsa, o'sha asosiy vositalar;

❖ ushbu doimiy muassasa faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, mazkur norezidentlarga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirmaydigan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari uchun O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, ularga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk soliq solish obyektidir.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ O'zbekiston Respublikasining norezidenti tomonidan mulk qilib olingan (realizatsiya qilingan) ko'chmas mulk obyektini to'g'risidagi ma'lumotlarni ushbu obyektlar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga ro'yxatdan o'tkazilganidan keyin o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari soliq solish obyektini sifatida qaralmaydi.

Mol-mulk solig'i summasi asosiy vositalarning qoldiq qiymatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq ekan, uni to'g'ri aniqlash juda muhimdir. Shuningdek, qoldiq qiymat jamg'arilgan amortizatsiya summasiga ham bog'liq, shu bilan bog'liq holatda muhim bo'lgan amortizatsiya me'yorlarini to'g'ri belgilash masalasi turadi. Bu yerda ham shuni hisobga olish kerakki, agar korxonada Soliq kodeksida o'rnatilgan uslub (teng to'g'ri chiziq)dan farqlanuvchi amortizatsiya usulini o'z hisob siyosatiga binoan tanlasa, u holda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 23-moddasiga muvofiq soliqqa tortish maqsadlarida faqat teng to'g'ri chiziq usul bilan amortizatsiyani hisoblashga to'g'ri keladi.

Boshqacha qilib aytganda, agar korxonada teng to'g'ri chiziq usuldan farqli amortizatsiya usulini o'z hisob siyosatiga muvofiq tanlasa, unga amortizatsiyani ikki marta hisoblashga to'g'ri keladi: 1-marotaba – hisob siyosatida tasdiqlangan usul bilan buxgalteriya hisobi uchun, 2-marotaba teng to'g'ri chiziq usul bilan soliq hisobi uchun.

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan ushbu **mol-mulkning o'rtacha yillik qiymati soliq solinadigan bazadir**. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqli to'lovchi tomonidan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqli to'lash nazarda tutilmagan faoliyat turlari amalga oshirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza soliq solinadigan va soliq solinmaydigan mol-mulk hisobini alohida-alohida yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, soliq solinadigan baza faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiy hajmida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqli to'lash nazarda tutilgan sof tushumning solishtirma salmog'idan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha yillik qiymat) soliq davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini (o'rtacha yillik qiymatlarini) qo'shishdan olingan summaning o'n ikkidan bir qismi sifatida ortib boruvchi yakun bilan aniqlanadi.

Har hisobot davri so'nggida to'lovchilar hisobot davri uchun mulkning haqiqiy o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan kelib chiqqan holda yil boshidan boshlab o'suvchi natija bilan mol-mulk solig'ini hisoblaydilar va moliyaviy hisobotlar taqdim qilinadigan muddatlarda soliq xizmati organlariga hisob-kitobni taqdim qiladilar. Ko'rsatilgan hisob-kitoblardan kelib chiqib hisoblangan mol-mulk solig'i summasi choraklik va yillik moliyaviy hisobotni taqdim qilish uchun o'rnatilgan kungacha besh kunlik muddatga to'lanadi.

Soliqqa tortish obyekti bu qurilish pudratchilar yoki xo'jalik uslubida amalga oshirilayotganligidan qat'iy nazar, qurilish obyektining o'rnatilgan muddatlarda tugallanmagan qiymati (kapital qurilishga smetalar, smeta - moliyaviy hisob-kitoblar va bosh kitobga ko'rib chiqilgan bino va inshootlarni foydalanishga olish, jihozlar, asbob-uskunalar, inventarlar va boshqa buyumlarni qurish bo'yicha xarajatlar), shuningdek tugallanmagan hisobi schyotida (o'rnatilgan muddatlarda tugatilmagan obyektlari qismida) hisobga olinuvchi 3-shakl (bajarilgan ish hajmi va xarajatlar to'g'risida ma'lumotnoma) bo'yicha shakllantirilgan, buyurtmachi

tomonidan kiritilgan statistik hisobotdagi obyekt bo'yicha hajmi hisoblanadi. Qurilishning o'rnatilgan muddati amaldagi SNIP 1.04. 03-85 "Korxonalar bino va inshootlar qurilishi davomiyligining me'yorlariga muvofiq tashkilotlardan qurilish loyihasini (KKL) tarkibidagi loyihaviy tashkilot tomonidan aniqlanadigan obyekt qurilishning me'yoriy muddati hisoblanadi. Loyihaviy tashkilotlar loyiha-smeta hujjatida tayyorgarlik ishlarining davri belgilangan holda qurilish davomiyligining me'yorlarini ko'rsatishga majburlar.

Loyiha-smeta hujjatida qurilish davomiyligidan me'yorlari mavjud bo'lmasa, buyurtmachi loyiha tashkilotidan aniq obyekt bo'yicha qurilish davomiyligining me'yori to'g'risida ma'lumotnoma olishga majbur.

7.4. Me'yordagi muddatlarda o'rnatilmagan asbob-uskunalar uchun mol-mulk solig'ini hisoblash. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlariga mol-mulk solig'ini hisoblash

Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyekti uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib qurilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, ya'ni buyurtmachilar hisoblanadi.

Soliqqa tortish obyekti bo'lib, belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektining qiymati, ya'ni buyurtmachi tomonidan F-3 shaklida (bajarilgan ishlar va xarajatlar hajmi to'g'risida ma'lumotnoma) rasmiylashtirilgan statistika hisobiga obyekt bo'yicha kiritilgan va tugallanmagan qurilish hisobvarag'ida hisoblanadigan barcha ishlar va xarajatlar hajmi hisoblanadi.

Qurilishning belgilangan muddati deb qurilishni tashkil qilish loyihasi (QTQL) tarkibida 1.04.03-85-son QMQ "Korxonalar, binolar va inshootlarni qurish muddati me'yorlari"ga muvofiq loyihalash tashkiloti tomonidan aniqlanadigan obyekt qurilishining me'yoriy muddati hisoblanadi.

Loyihalash tashkilotlari loyiha-smeta hujjatlarida tayyorlash muddatlarini ajratgan holda qurilish muddati me'yorini ko'rsatishlari shart. Loyiha-smeta hujjatlarida qurilish muddati me'yori ko'rsatilmagan

taqdirda, buyurtmachi loyihalash tashkilotidan muayyan obyekt bo'yicha qurilish muddatining me'yori to'g'risida xulosa olishga majbur.

Me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'ini to'lovchilar bo'lib kapital mablag'lar hisobiga qayta jihozlanadigan obyektlarda montaj qilish talab qilinadigan va o'rnatishga belgilangan texnologik, energetik va ishlab chiqarish uskunalari bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalar uchun soliq solish obyekti bo'lib o'rnatishga belgilangan uskunalar qiymati hisoblanadi, ular qatoriga montaj qilishni talab qiladigan, faqat qismlarini yig'ish va poydevorga yoki ustunlarga, polga, qavatlararo to'siqlarga va boshqa bino va inshootlarni ko'tarib turuvchi konstruksiyalarga o'rnatiladigan uskunalar hamda uskunalarni hisobga olish hisobvarag'ida hisoblanadigan shunday uskunalarning ehtiyot qismlar to'plami (me'yordagi muddatda o'rnatilmagan uskunalar qismida) hisoblanadi. Ushbu uskunalar tarkibiga o'rnatiladigan uskunalar qatorida montaj qilish uchun belgilangan nazorat-o'lchov apparaturasi yoki boshqa asboblardan ham kiradi.

Korxonalar, binolar va inshootlar qurilishida tasdiqlangan qurilish muddati va tayyorlab qo'yilgan zaxiralar me'yoriga muvofiq har bir obyekt bo'yicha texnologik yoki boshqa uskunalarni yetkazib berish va montaj qilish jadvali belgilangan bo'lishi lozim.

Belgilangan muddatlarda o'rnatilmagan va foydalanilmayotgan jihozlarni uchun korxonalar mol-mulk solig'ini ikkilangan stavka bo'yicha to'laydi.

Korxonalar, bino va inshootlarni ko'rish davomiyligining tasdiqlangan me'yoriga muvofiq har bir obyekt bo'yicha texnologik va boshqa jihozlarni o'rnatish va montaj qilish grafigi o'rnatilgan bo'lishi kerak.

Mamlakatda ishlab chiqarilgan va import qilingan jihozni o'rnatish va montaj qilish grafigida quyidagi topshirish muddatlari hisobga olinadi:

• yirik texnologik va energetik jihozlarni nomlari ro'yxati va ularni o'rnatish grafiglari bo'yicha montajga topshirishning rejadagi muddatigacha;

✚ texnologik liniyalarning texnologik jihozlari va boshqa umumzavod jihozlari – jihozni montajga topshirishning o‘rnatilgan rejaviy muddatiga, lekin olti oydan oshmagan muddatigacha;

✚ import qilingan jihoz majmuasi – montajga topshirishning rejaviy muddatigacha, lekin bir yildan oshmagan muddatigacha; agar texnik jihatlar bo‘yicha jihozni qismlar bo‘yicha montaj qilish mumkin bo‘lmasa, ularning montajga topshirish muddati jihozning to‘liq majmuasi kelib tushgandan keyingina hisobga olinib boshlanadi.

Alohida import jihozlari, shuningdek, kabel mahsulotlari, o‘tkazgich va troslar – montajga topshirishning rejalashtirilgan muddatigacha, lekin olti oydan oshmagan muddatigacha.

Jihozni montaj qilish va o‘rnatish me‘yorlari hamda jadvallari mavjud bo‘lmagan holatda quyidagi muddatlar qo‘llaniladi:

- mamlakatda ishlab chiqarilgan va import qilingan jihozlar bo‘yicha, ishlab chiqarishga belgilangan, mo‘ljallangan obyektlar bo‘yicha – qurilishning yillik muddati bajarilgandan keyingi oydan;

- noishlab chiqarishga mo‘ljallangan obyektlar bo‘yicha – qurilish kunidan boshlab olti oy o‘tgach;

- montaj qilinmaydigan xo‘jalik inventarlari va jihozlari bo‘yicha – qurilish kunidan boshlab.

Yuqorida ko‘rsatilgan qurish va montaj qilish muddatlari buzilgan holatda, shuningdek, jihozdan foydalanmaslik oqibatida korxonada mol-mulk solig‘iga tortish obyektiga taalluqli bo‘lgan holatda mol-mulk solig‘i ikkilangan stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektlari, bo‘sh turgan binolar, yashash uchun mo‘ljallanmagan inshootlar bo‘yicha, shuningdek, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari bo‘yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq ushbu maydonlardan samarasiz foydalanilayotganligi yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda chiqarilgan xulosa asosida, oshirilgan stavkalar bo‘yicha to‘lanadi.

Qurilish obyekti o‘rnatilgan muddatlarda tugatilmasa ham mol-mulk solig‘i to‘lanadi; soliq to‘lovchilari qurilishni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar – buyurtmachilar hisoblanadi.

7.5. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari va imtiyozlari

Korxonalar mol-mulki 2019-yildan boshlab 2% stavka bo'yicha soliqqa tortiladi. Stavka mol-mulkni qayta baholash hisobi bilan uning qoldiq qiymatiga nisbatan belgilanadi.

Qayta baholash tashkilot asosiy fondlarining qiymati amaldagi baholarga muvofiq kelishi uchun o'tkaziladi.

Bunda "1-yanvar holatiga asosiy fondlarni yillik qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq qayta baholash maqsadlarida tashkilotlarning asosiy fondlari deganda:

- xususiy asosiy fondlar;
- o'rnatish uchun jihozlar;
- tugatilmagan qurilish obyektlari;
- uzoq muddatga arendalangan asosiy vositalar, shu jumladan, uzoq muddatli lizing bo'yicha olingan asosiy vositalar.

Asosiy fondlar qiymatini qayta baholash qayta baholashni amalga oshirish davridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda 1-yanvar holati bo'yicha har yilda (joriy yilning 1- fevraligacha) o'tkaziladi.

Qayta baholashda asosiy vositalarni to'liq tiklash qiymati, ya'ni obyektlarni yaratish (qurish), tashish, o'rnatish (montaj) xarajatlari, shuningdek, import qilinadigan obyektlar uchun bojxona to'lovlari va h.k.larni hisobga olgan holda mavjud bozor narxlari (tariflari) bo'yicha ularni namunaviy yangi obyektlarga to'liq almashtirish vaziyatida korxonada tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan xarajatlarning to'liq qiymati aniqlanadi.

Asosiy vositalarni to'liq tiklash qiymati tashkilot qarashlari bo'yicha yoki qayta baholashni o'tkazish davrida 1-yanvardan murakkablashuvchi namunaviy baholangan yangi obyektlarning hujjat bilan tasdiqlangan bozor narxlari bo'yicha alohida obyektlarning qiymatini to'g'ridan to'g'ri qayta hisoblash yo'li bilan (to'g'ridan to'g'ri qayta baholash metodi) yoki asosiy fondlarning ko'rinishi bo'yicha differensiallashtirish orqali va ularni yaratish davrlariga bog'liq holda asosiy fondlar qiymatini

o'zgartirish bo'yicha indeksni qo'llash orqali alohida obyektlarni boshlang'ich (tiklanuvchi) qiymatini indeksatsiyalash yo'li bilan (indeks metodi) aniqlanadi.

Bunda asosiy fondlarning bir turdagi obyektlari bo'yicha (markalari xususiyatlari va h.k. bo'yicha) yagona metod qo'llanadi.

Qayta baholash tashkilotlar tomonidan mustaqil yoki mutaxassislar qonunchilikka muvofiq baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan ekspertlarni jalb qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Yer uchastkalari va tabiatdan foydalanish obyektlari qiymati qayta baholashga taalluqli emas.

Ko'rsatilgan imtiyozlar savdo-vositachilik korxonalari, shuningdek, erkin konvertirlangan valyutaga paxta tolasi, paxta qog'ozi, neft, neft mahsulotlari, gaz kondensatlari, tabiiy gaz, elektr energiya, qimmatbaho rangli va qora metallarni eksport qiluvchi ishlab chiqarish korxonalari uchun qo'llanilmaydi.

7.6. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda soliq to'lovchi – O'zbekiston Respublikasining rezidenti tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga yilda bir marta, yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Soliq davri mobaynida soliq to'lovchilar yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar to'laydilar.

Joriy to'lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchilar joriy soliq davrining 10-yanvarigacha, yangi tashkil qilinganlari esa – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay, soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati

organlariga mo'ljallanayotgan soliq solinadigan bazadan (tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan (o'rtacha yillik qiymatidan) va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismiga muvofiq hisoblab chiqarilgan joriy to'lovlar quyidagicha to'lanadi:

mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining to'rtidan bir qismi miqdorida yilning har choragi uchinchi oyining 25-kunidan kechiktirmay;

mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan – yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yillik summasining o'n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kunidan kechiktirmay.

Soliq davri mobaynida mo'ljallanayotgan soliq solinadigan baza o'zgargan taqdirda, soliq to'lovchi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotnoma taqdim etishga haqli. Bunda soliq davrining qolgan qismi uchun joriy to'lovlarga yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning o'zgarish summasiga teng ulushlarda tuzatish kiritiladi.

Soliq davrida to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi joriy to'lovlar hisobga olingan holda, hisob-kitobni taqdim etish muddatidan kechiktirmay byudjetga o'tkaziladi.

Soliq davrida yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha joriy to'lovlar summasi hisob-kitobga ko'ra byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga nisbatan 10 foizdan ortiq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi joriy to'lovlarni yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblangan holda qaytadan hisoblab chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda davlat soliq xizmati organlari tomonidan quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidenti doimiy muassasaning soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solinadigan mavjud mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotnomani hisobot yilidan keyingi yilning 25-yanvaridan kechiktirmay taqdim etishi shart. Taqdim etilgan ma'lumotnoma asosida davlat soliq xizmati organi yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq summasi hisob-kitobini o'n kun ichida amalga oshiradi va to'lov xabarnomasini yozib beradi;

O'zbekiston Respublikasining ko'chmas mulkka ega bo'lgan norezidentlariga ko'chmas mulk joylashgan yerdagi O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari soliq to'lovchining yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organing ma'lumotlari asosida to'lov xabarnomasini yozib beradi.

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan yilda bir marta, soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay to'lanishi kerak.

7.7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i va uning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq, jismoniy shaxslar byudjet bilan uzviy soliq munosabatlaridan biri – bu ularning mol-mulkiga solinadigan soliq orqali amalga oshiriladi. Soliq kodeksining 272–277-moddalarida ushbu turdagi soliq to'lovchilar, soliq solish obyekti, soliq solinadigan baza, imtiyozlar, soliq stavkasini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari, soliq hisoblab chiqarish va to'lash tartiblari belgilangan.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mahalliy soliqlar tarkibiga kiradi. U ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, ikki vazifani bajarishga xizmat qiladi:

✓ byudjet daromadlarini shakllantirish. Ushbu jarayon ko'p hollarda fiskal tartibda soliq tushumlari deb e'tirof etiladi;

✓ jismoniy shaxslar tasarrufidagi mol-mulkidan samarali foydalanishga xizmat ko'rsatish. Ushbu vazifa ham aksariyat holatlarda ushbu soliq turi soliq to'lovchilarni rag'batlantirish mumkinligi ilgari suriladi.

Ushbu vazifalar soliq funksiyalariga tenglashtirilmaydi, ammo soliq funksiyalarini jozibadorligini mustahkamlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois qayd etilgan birinchi vazifa barcha soliq to'lovchilar uchun tushunarli bo'lib, u hech kimda shubha tug'dirmaydi. Soliq kodeksiga binoan jismoniy shaxslar daromadidan bir qismi bu jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq shaklida byudjet daromadlariga undiriladi. Byudjetga undiriladigan mazkur soliq byudjet daromadlarini shakllantirishda taqsimot funksiyasini bajaradi. Bu soliqning jismoniy shaxslar tasarrufidagi mol-mulkidan samarali foydalanishga ta'sir ko'rsatish holatini nazorat ostiga olish bevosita soliqlarni nazorat funksiyasini amal qilishidan darak beradi. Bunda ham soliq to'lovlarini mol-mulkka nisbatan shakllantirilishi, uning xususiyatidan kelib undirilish tartibi, soliq to'lovchilarga imtiyozlarni yaratilishi soliq to'lovchilarini rag'batlantirish mumkinligini anglatadi. Rag'batlantirish mol-mulkni inventarizatsiya qiymatini inobatga olinishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarining tahlili ularning bir-biriga va tilga olingan qoidaga muvofiq kelmasligini ko'rsatdi, shuningdek, ta'riflarning noaniq ekanligini aniqladi, ularga xorijiy investorlar O'zbekiston iqtisodiyotiga kapital qo'yish uchun to'siqlar sifatida qarashi mumkin.

Chunonchi, Konstitutsiya 53-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilishicha, xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan xollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

Shu bois ham bunday tartibni "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonunning 32-moddasini 1-bandi mol-mulkni ko'paytirishni cheklashga va uni qo'ymaslikni nazarda tutadi.

Fuqarolik kodeksi 166-moddasining uchinchi qismiga ko'ra, mulkdorning mol-mulkini olib qo'yishga, shuningdek, uning huquqlarini

cheklashga faqat qonunlarda nazarda tutilgan xollardagina yo‘l qo‘yiladi. Mazkur holda qonun chiqaruvchi “qonunlar” atamasi qo‘yiladi. “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga ko‘ra, Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis palatalarining qarorlari ular sirasiga kiradi. Shu tariqa, Fuqarolik kodeksining mazmunidan kelib chiqilsa, Senat ma’qullashi va Prezident imzosi bo‘lmasa ham, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi qarorini qabul qilish yo‘li bilan mol-mulkni musodara qilish mumkin.

Rivojlangan demokratik mamlakatlarda har qanday shakldagi mulkni majburan olib qo‘yish faqat sudning qaroriga ko‘ra yuz beradi. Mazkur tamoyil har bir shaxsning o‘z mulkini chetdan qilinadigan o‘zboshimchalikdan sudda himoyalash huquqini ta’minlaydi. U o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish, shuningdek, mutanosib kompensatsiyani talab etish imkoniyatini beradi.

Iqtisodiyot asoslarini erkinlashtirish va mulkchilik turli shakllarining, shu jumladan, xususiy mulkning davlat tomonidan huquqiy ta’minoti bozor iqtisodiyotiga o‘tishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Ana shu maqsadlarda O‘zbekistonda mulk huquqini ta’minlashni kafolatlaydigan bir qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinadi. Ular sirasiga Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, “O‘zbekiston Respublikasidagi mulkchilik to‘g‘risida”gi qonunlarni va boshqa hujjatlarni kiritish mumkin.

Mol-mulk soliq to‘lovlari bo‘yicha imtiyozga ega jismoniy shaxslar, shubhasiz, kam soliq to‘laydilar. Inventarizatsiya qiymati nisbatan past mol-mulkka ega bo‘lgan soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar bu soliqni kam to‘lashlari tabiiy holdir va aksincha ham bo‘lishi mumkin.

Rivojlangan demokratik davlatning tajribasi shuni isbotlaydiki, davlat barcha shakllarga mansub mulkning har qanday tashqi xurujlardan daxlsizligini ta’minlaydigan, uni olib qo‘yish usullari esa faqat qonunlar bilan cheklanadigan va faqat sud qaroriga ko‘ra yuz beradigan xollardagina jamiyatning gullab-yashnashiga erishiladi. Mazkur holat mulk huquqining isbot talab qilmaydigan qoidasi hisoblanadi va xususiy kapital manfaatlarini qoriqlashga xizmat qiladi.

Bozor munosabatlarining rivojlanishi sharoitida to'g'ri, real soliqlar – mol-mulk soliqlarining roli sezilarli darajada oshdi. O'zbekistonda bu soliqlar guruhiga quyidagilar tegishlidir: mol-mulk solig'i va yer solig'i.

Bir tomondan bu soliqlar soliqqa tortiladigan obyektning tashqi belgilari olinadi va maqsadga muvofiq subyektning daromadligiga bog'liq bo'lmaydi. Boshqa tomondan so'nggi yillarda mol-mulk soliqlari ko'pchilik hollarda daromad solig'iga qo'shimcha sifatida qaralmoqda va to'g'ridan to'g'ri bo'lmasa-da, to'lovchining daromadligi hisobga olinmoqda.

Mol-mulk soliqlarining o'ziga xos xususiyati bozor munosabatlari rivojlanishi miqyosida namoyon bo'ladi. Mantiqan kelib chiqqan holda, oldin to'lov manbasiga kiritilmagan ixtiyoriy daromad oxir-oqibat aniq mulk (hashamatli uy, katta yer uchastkasi va hokozolar) shaklida shakllantiriladi, davlat esa, rivojlangan iqtisodiyot orqali yuqori daromadga ega bo'lgan shaxslar soliq yukini kuchaytiradi.

Mol-mulk soliqlari, shu bilan birga "sanitar" soliqlar deb ham yuritiladi, ya'ni ular ko'char va ko'chmas mulkdan qanchalik samarali foydalanishidan qat'iy nazar undiriladi.


Davlat tomonidan mol-mulk soliqlariga nisbatan yuqori stavkalarining qo'llanilishi mulkdorlar tomonidan xususiy obyektlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabatlarda bo'lishga olib keladi va samarasiz foydalanilayotgan jihoz, transport va yer uchastkalaridan qutulish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shu asnoda, O'zbekistonda mol-mulk solig'i soliq to'lovchi tomonidan mazkur mulk foydalanilmayotganligidan qat'iy nazar undiriladi. Mol-mulk soliqlari mintaqaviy byudjetlarning asosiy daromad manbasi hisoblanadi va bu aynan mahalliy hokimliklar tomonidan ularga nisbatan e'tibor kuchli ekanligidan dalolat beradi.

7.8. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi

Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq xususida to'xtalib o'tar ekanmiz, bunda ularning to'lovchilari kimlar bo'la olishini ham

ko'rsatib o'tish muhimdir. Ushbu savolga javobni Soliq kodeksidan qidirish muhimdir (7.1-chizma).

Aytish joizki, respublikamizda soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan chet el fuqarolari, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, bu soliqni to'lovchisi bo'lib hisoblanishi mumkin bo'ladi.



7.1-chizma. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilar

Amaliyotda ayrim holatlarda ko'chmas mulki bor mulkdorlarning joylashgan yerini aniqlashning imkoni bo'lmaydi.


Bunday vaziyatda mazkur mol-mulk qaysi shaxs egaligida yoki foydalanishida bo'lsa, o'sha shaxs bu soliqning to'lovchisi hisoblanadi.

Yuqorida zikr etilganlarni umumlashtirish orqali aytish mumkinki, soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadi.

Mol-mulk egasi kim bo'lishidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi fuqarosimi, boshqa davlat fuqarosimi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsmi, O'zbekistonning rezidentimi yoxud norezidentimi, mol-mulkning egasi sifatida mazkur soliqning to'lovchisi hisoblanadi.

Jismoniy shaxslar uchun ularning mulki bo'lgan uy-joylar, kvartiralar, chorbog' va bog' uylari, binolar va inshootlar qiymati soliq solish obyekti hisoblanadi. Ushbudan kelib chiqib, uni yangi modulini yaratilishi mol-mulk soliq obyektiga yangicha mazmun beradi.

Mol-mulkka solinadigan soliq obyektini aniqlash ham alohida ahamiyatga ega. Soliq kodeksiga ko'ra, bunday obyektlarni 7.2-chizmadagi tarzda ko'rsatish mumkin.



7.2-chizma. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq obyektlari

Amaliyotda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqning solinishi bazasini tushunmay turib, uni hisoblab bo'lmaydi.

Aytish joizki, jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati soliq to'lovchilar uchun soliq solinadigan baza hisoblanadi. Bu soliq obyektlari ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ tomonidan belgilanadi. Amalda jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha vakolatli organ tomonidan aniqlangan soliq solish obyektining bahosi mavjud bo'lmay qolgan taqdirda, mol-mulkini qonun hujjatlari bilan belgilanadigan shartli qiymati soliq solinadigan baza sifatida qabul qilinishi mumkin. Shuni ham aytish joizki, bitta jismoniy shaxs bir necha soliq solish objekti bo'yicha soliq to'lovchi bo'lishi ham mumkin. Bunda soliq solinadigan baza har bir obyekt bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqilishi zarur bo'ladi.

Rossiya Federatsiyasi amaliyotida bu masala qanday e'tirof etilishini bilish uchun soliq sohasidagi yetuk olimlardan biri Ljova fikri e'tiborga loyiq. Shu o'rinda, deb ta'kidlaydi, olima: "... jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, soliqqa tortish objekti sifatida tan olinadigan mol-mulk mulkdorlari bo'lgan jismoniy shaxslar hisoblanadi". Olima

fikrini davom ettirib, 1992–2001-yillar davomida Rossiyada soliqqa tortish predmeti bo‘lib, ikki guruh – imoratlar hamda avtomobillardan tashqari transport vositalari hisoblanganligini, Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining “Transport solig‘i” nomli 25-bobi qabul qilinishi munosabati bilan barcha transport vositalari jismoniy shaxslar mol-mulki solig‘iga emas, transport solig‘iga tortilayotganligini ma‘lum qiladi. “Bugungi kunda jismoniy shaxslar mulkdorligida bo‘lgan qurilishlarning quyidagi ko‘rinishlari soliqqa tortish obyektiga tegishlidir: turar joy uylari; kvartiralar; dachalar; garajlar; boshqa qurilishlar, inshootlar va imoratlar.

...Jismoniy shaxslar mol-mulkiga soliq bazasi har yilning 1-yanvariga bo‘lgan holat bo‘yicha inventarizatsiya qiymatidan kelib chiqib hisoblanadi”³³.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan transport solig‘i bo‘yicha quyidagi ma‘lumotlarni soliq sohasidagi taniqli olim A.I.Kosolapov yozadi: “Soliq to‘lovchilar bo‘lib, soliqqa tortish obyekti sifatida e’tirof etiladigan transport vositalari Rossiya qonunchiligiga muvofiq qayd qilingan jismoniy shaxslar tan olinadi.

...Soliqqa tortish obyekti sifatida Rossiya Federatsiyasi qonunchiligiga muvofiq o‘rnatilgan tartibda qayd qilingan avtomobillar, motosikllar, motorollerlar, avtobuslar va boshqa pnevmatik va gusenitsali holda yuruvchi mashina va mexanizmlar, samolyotlar, vertolyotlar, teploxodlar, yaxtalar, parusli kemalar, katerlar, motochanalar, motorli kemalar, gidrosikllar, o‘zi yurmaydigan (shatakka olinadigan kemalar) va boshqa suv hamda havo transport vositalari e’tirof etiladi”³⁴.

Rossiya Federatsiyasining “Jismoniy shaxslar mol-mulki solig‘i to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, soliqqa tortilishga jismoniy shaxslar mulkdorligida turgan qurilishlar, inshootlar va imoratlar tegishlidir. “Biroq Qonun qurilish, inshoot yoki imoratlar turlariga aynan nimalar qaysi predmetlar kirishini aniqlamagan. Bu turlicha talqin etishlarga hamda oxir-oqibat soliq to‘lovchi huquqlarini poymol qilishlarni yuzaga keltiradi”³⁵.

³³ Лъжова Н.Л. Налоги и налогообложение в России: Учебник. М.: Дело, 2006. 281-282 с.

³⁴ Косолапов А.И. Налоги и налогообложение: Учеб. пос. М.: Дашков и К°, 2005. 597-598 с.

³⁵ Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. М.: Инфра-М, 2006. С. 185.

Soliq sohasidagi yetuk olimlardan biri V.G. Panskov jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari kimlar bo'lishi mumkinligini batafsilroq yoritgan: "Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari bo'lib, federal qonunchilikka muvofiq Rossiya Federatsiyasi hududida mulkida turar joy uylari, kvartiralar, dala hovlilar, garajlar va qurilish, inshoot, imoratlarga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, ya'ni Rossiya Federatsiyasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hisoblanadi"³⁶.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ining yuqorida keltirilgan ro'yxatdagi soliq solish obyektlari ro'yxati yillar davomida takomillashtirilib kelindi. Bu tadrijiy jarayonni ko'z oldimizga keltirish uchun o'tgan davr ma'lumotlariga e'tibor qaratish yetarli.

Avvalgi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 89-moddasiga muvofiq, soliq solinadigan mulkka, jumladan: 1) uy-joylar; 2) kvartiralar; 3) bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari a'zolarining chorbog' va bog' uylari; 4) garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar, shuningdek, avtomobillar, motorli qayiqalar, vertolyotlar, satovaretlar va boshqa transport vositalariga (pnevmatik yurishga asoslangan avtomobillar, motosikllar hamda boshqa o'zi yurar mashinalar va mexanizmlar bundan mustasno) ega bo'lgan jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i to'lovchilari hisoblanar edi. Ko'rinib turibdiki, sivilistika nuqtayi nazaridan sanab o'tilgan mol-mulk "fuqarolik huquqlarining obyekti" sifatida ko'rib chiqilar edi, bunda, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 83-moddasi bo'yicha yondashadigan bo'lsak, dastlabki to'rtta bandeda ko'rsatilgan mol-mulk ko'chmas mulkka, boshqalari esa - ko'char mulkka kirishi aniq. Ushbu barcha "fuqarolik huquqlarining obyektlari" O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 89-moddasiga muvofiq, iste'mol qilinmaydigan ashyolar hisoblanadi. Mazkur moddada aytiladiki: "Qayta-qayta foydalanishga mo'ljallangan, bunda o'zining dastlabki holatini uzoq vaqt davomida saqlab qoladigan hamda asta-sekin yemirilib boradigan ashyolar (binolar, uskunalar, transport vositalari va h.k.) iste'mol

³⁶ Пансков В.Г. Налоги и налоговая система Российской Федерации. М.: Финансы и статистика, 2006. 394 с.

qillinmaydigan ashyolar hisoblanadi”³⁷. Buni bilish muhim, qonun chiqaruvchi belgilaganidek, (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 83–84-moddalari), ko‘chmas mulk davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim; ko‘char mulkka nisbatan huquqni ro‘yxatga olish esa, bu qonunda bevosita ko‘rsatilgan vaqtda talab etiladi. Hozir ham amalda bo‘lgan bu kabi qoidalar barobarida kuchini yo‘qotgan moddalarni ham eslatishimiz kerak. Masalan, ilgari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 90-moddasida sanab o‘tilgan transport vositalari ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim edi.

Shu bilan birga ta‘kidlash kerakki, avvalgi me‘yoriy hujjatlarda hozirgilariga qaraganda mukammalroq ifodalangan ta‘riflar ham uchraydi. Xususan, avvalgi 1994-yil 20-aprelda tasdiqlangan 42/32-sonli “Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomada bunday soliq solinadigan mol-mulk ro‘yxatini batafsil bergan edi. Jumladan, “imoratlar” tushunchasi “saroylar, yordamchi binolar, ayvonlar” sifatida ta‘riflangan edi.

“Soliq huquqi nuqtayi nazaridan “soliq solish obyekti” va “soliq solish predmeti” tushunchalarini farqlash zarur. Bu farq ayni jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqqa nisbatan yanada yaqqol namoyon bo‘ladi, u soliqning obyektini aniqlaydi va u bilan ma‘lum huquqiy aloqada, jumladan, mulk huquqiy munosabatlarida bo‘ladi”³⁸. Bu masalada shunga e‘tibor qaratishimiz kerakki, 1998-yil 13-yanvardagi 392-sonli Yo‘riqnomaning 2-bandida O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (89- moddasi)dan farqli ravishda shunday belgilangan ediki, soliq “o‘z ixtiyoridaga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadi” (nuqtalar o‘rnida soliq solish predmetlari sanab o‘tiladi). Bu undan ham ilgariroq, 1993-yildagi qonunda mustahkamlangan edi. Yuqoridagi Yo‘riqnomaning 5.3-bandi shuni belgilagan ediki, soliq bo‘yicha imtiyozlar faqat tovar - mulk imtiyoz oluvchining o‘z mulki bo‘lgan hollardagina beriladi. Ushbu qoida hozirda ham o‘z kuchini saqlab qolgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 29-dekabrda 478-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy shaxslarga mulk

³⁷ Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. 1996. 29 август.

³⁸ Хван Л.Б. Солиқ ҳуқуқи. Т.: Консаудитинформ, 2001. 222 б.

huquqida tegishli bo‘lgan bino va inshootlarni qayta baholash to‘g‘risida”gi Nizomning 4-bandida shunday deyilgan: “Foydalanish uchun qabul qilingan va mahalliy texnik ro‘yxatdan o‘tkazish idorasida ro‘yxatga olingan, jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo‘lgan uy-joylar, kvartiralar, bog‘dorchilik va uzumchilik shirkatlari a‘zolarining chorbog‘ va bog‘ uylari, garajlar va boshqa imoratlar, binolar va inshootlar soliq solish uchun baholash obyekti hisoblanadi”.

Soliq solish obyekti va predmeti tushunchalarini soliq huquqi nuqtayi nazaridan L.B.Xvan shunday ta’riflaydi:

“Soliq solish obyekti – bu subyektning soliq to‘lash majburiyatini shart qilib qo‘yuvchi yuridik dalillardir (mazkur holatda mulkchilik huquqida mol-mulkka egalik qilish bunday yuridik dalil hisoblanadi).

Soliq solish predmeti (atama mazmuniga ko‘ra soliq solish obyektiga yaqin) – bu tegishli soliqning undirilishini asoslab beruvchi daliliy xususiyatdagi belgilardir. Masalan, uy, kvartira kabi mol-mulk uchun mulkchilik huquqi obyekt bo‘ladi, uy yoki kvartiraning o‘zi esa soliq solish predmeti hisoblanadi”³⁹.

Qo‘shni mamlakat bo‘lmish Qozog‘iston Respublikasining 1995-yil 24-apreldagi 2235-sonli “Soliqlar va byudjetga to‘lanadigan boshqa majburiy to‘lovlar to‘g‘risida”gi Qonunining 131-moddasida mol-mulk solig‘ini to‘lovchilarga mulkchilik, mulkni ishonchli boshqarish, xo‘jalik yuritish yoki tezkor boshqarish huquqidagi soliq solish obyektiga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar kiritilgan.

“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 31-dekabrda 490-sonli qaroriga muvofiq “Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaning avvalgi nashriga quyidagi o‘zgartirishlar kiritildi: jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘ining transport vositalari qismi bo‘yicha to‘lanadigan soliqning o‘rniga transport vositalari

³⁹ Хван Л.Б. Солиқ ҳуқуқи. Т.: Консаудитинформ, 2001. 223 б.

uchun ishlatiladigan benzin, dizel yoqilg'isi va gazdan undiriladigan soliq kiritildi"⁴⁰.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslar mol-mulkini soliqqa tortish obyekti bo'lib, faqat ko'chmas mulklargina hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 29-dekabrda 478-sonli qaroriga muvofiq jismoniy shaxslarga mulk huquqida tegishli bo'lgan uy-joylar, kvartiralar (jumladan, xususiy lashtirilgan kvartiralar), garajlar, boshqa imoratlar, binolarni baholash va qayta baholash uchun yagona funksional ko'rsatkich – imorat, bino umumiy maydonining kvadrat metri belgilanadi. "Soliq solish birligi deganda, soliq solish bazasini miqdoriy jihatdan baholash uchun foydalaniladigan soliq solish ko'lamining birligi tushuniladi"⁴¹.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi, ularni soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi umumbelgilangan tartibda yetkazadi.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq yukining ham, byudjetga soliq tushumlarining ham asosiy qismi asta-sekinlik bilan daromad (foйда)ga solinadigan soliqlaridan resurs va mol-mulk soliqlariga o'tkazib borilishi kerak. Shu maqsadda resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar hamda yer solig'ining stavkalari yilma yil aniq oshirib borilishi tushunarli holdir. Sirtidan qaraganda, stavkalari o'z o'rnida saqlanayotgan mol-mulk solig'i ham, soliq bazasi bo'lmish mol-mulk qiymatining qayta baholanishi (asosan, oshirilishi) evaziga yuqoridagi vazifani bajarishda qatnashadi.

2017-yil uchun jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ–2699-sonli Qaroriga muvofiq belgilab qo'yildi (7.2-jadval).

⁴⁰ Завалищина И.А. Солиқлар: назария ва амалиёт. Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2005. 306 б.

⁴¹ С.Г. Пепеляев и др. Основы налогового права. М.: Финансы и статистика, 2000.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari⁴²

Soliq solinadigan obyektlarning nomi	Mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan soliq stavkasi (%da)
1. Turar-joylar, kvartiralar (bundan umumiy maydoni 200 kv.metrдан oshiq bo'lganlari mustasno), dala hovli qurilmalari va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,2
2. Shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar-joylar va kvartiralar: - 200 kv.m.dan oshiq va 500 kv.m.gacha bo'lgan - 500 kv.m.dan oshiq bo'lgan	0,25 0,35
3. Boshqa aholi punktlarida joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m.dan oshiq bo'lgan turar-joylar va kvartiralar	0,25

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish maqsadida mol-mulkning kadastr qiymati kadastr hujjatlaridan kelib chiqib belgilanadi, biroq 42 000,0 ming so'mdan kam bo'lmisligi kerak.

Izoh:

1. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilangan kadastr qiymati bo'lmasa, soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 210 000,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda – 90000,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatga olinmagan yangi qurilgan turar-

⁴² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454 sonli qarori. www.lex.uz

joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravari miqdoridan kelib chiqib undiriladi.

2. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ayrim toifadagi jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlarni qo'llash maqsadida soliq solinmaydigan maydon umumiy maydonning 60 kv.m. hajmida belgilanadi.

Demak, ko'rinib turibdiki, har bir narsaning mustahkamligi va samarali ishlashi uning poydevoriga, unga qo'yilgan tamal toshiga bog'liq ekan, o'ziga xos xususiyatlariga ega jismoniy shaxslar mol-mulk solig'ini hisoblashda, uni takomillashtirilib borishda, shu jumladan, soliq to'lovchilar manfaatlarini inobatga olishda avvalo ushbu soliq to'lovchilari, obyekt, bazasi, stavkalari masalalariga doimiy oydinlik kiritib borishi zarur.

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar tarkibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 93-moddasi bilan tartibga solinadi. Undan kelib chiqib, imtiyozlar mulkdorlarning tanlanishiga binoan, faqat bir mol-mulk obyektiga taalluqlidir.

Quyidagilarning mulkida bo'lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:

❖ "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning;

❖ 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilari va partizanlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar, Leningrad shahri qamalida bo'lganlarning va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlarning;

❖ qahramon onalar, shuningdek, o‘n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;

❖ Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan, u yerga vaqtincha yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolarning);

❖ I va II guruh nogironlarining;

❖ muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a‘zolarining xizmatni o‘tash davrida;

❖ harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo‘lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo‘lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining);

❖ O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati harbiy xizmatchilari jumlasidan bo‘lgan nogironlarning, ichki ishlar organlarining xizmat vazifalarini ado etayotganda yarador, kontuziya bo‘lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida nogiron bo‘lib qolgan boshliqlar va oddiy xizmatchilar jumlasidan bo‘lgan shaxslarning.

Bir vaqtning o‘zida amaliyotda jismoniy shaxslarning yuqoridagi toifalariga tegishli bo‘lgan mol-mulkidan ular tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanishlari yoxud bu mulkni yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berishlari mumkin. Bunday holda bu mol-mulklarga nisbatan tegishli soliq imtiyozlari qo‘llanilmaydi.

Mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq solish obyektlari jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanilgan yoxud ular yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarga ijaraga berilsa, u holda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda to‘lashlari lozim bo‘ladi (7.3-chizma).


Ko‘rsatib o‘tilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar taqdim etilganda mol-mulkning faqat bir obyektiga taalluqli bo‘ladi. Bunda imtiyozlar mol-mulk

solig'i bo'yicha imtiyoz oluvchining mulki bo'lgan hollardagina taqdim etiladi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo'lgan pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonning 60 kv. metri hajmida belgilanadi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.



7.3-chizma. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha imtiyozlar

7.9. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 95-moddasida aks ettirilgan.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1-yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan, qayta baholanganidan keyin qayta hisob-kitob qilingan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiy mulki bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardagi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi taqvimiy yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, yangi mulkdor esa – mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Taqvimiy yil davomida imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi. Bu soliqni soliq davri uchun to'lash teng ulushlarda har hisobot yilida ikki marta, birinchi marta 15-iyunga qadar, ikkinchi marta esa 15-dekabrga qadar amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lash usuli – kadastrli usul hisoblanib, soliqni bunday usul bilan to'lashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, mol-mulkka uning tashqi belgilari, mo'ljallanayotgan daromad asosida soliq solinishi bois, soliqni to'lash vaqti daromadni olish vaqti bilan hech qanaqa bog'liq emas va shu munosabat bilan mol-mulk solig'ini to'lash uchun yuqorida ko'rsatib o'tilgan qat'iy muddat belgilanadi (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 95-moddasi).

Aytish joizki, soliq solish obyekti yo'q qilingan, vayron qilingan, buzib tashlangan holatlarda, bu soliqni undirish mol-mulk yo'q qilingan, vayron bo'lgan yoki buzib tashlangan oydan boshlab to'xtatiladi. Nihoyat kalendar yil mobaynida imtiyoz huquqi vujudga kelganda, jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqni qayta hisob-kitob qilishda ushbu huquq vujudga kelgan oy inobatga olinadi.

Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq miqdoriga (summasiga) mol-mulkning inventarizatsiya qiymati va ushbu soliqqa nisbatan o'rnatilgan soliq stavkasi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq mexanizmida yuqoridagi real vaziyat, xususan, mamlakatimiz aholisining turmush tarzi, mentaliteti, daromadlari darajasi, mol-mulkka nisbatan asrlar davomida shakllangan milliy munosabatlar hisobga olingan. Shunday bo'lsada, ushbu soliq turini rivojlantirish orqali byudjet daromadlarini yanada to'ldirib borish uchun keng imkoniyatlar yaratilishi mumkin bo'ladi.

Shu o'rinda yana shuni ta'kidlash joizki, agar jismoniy shaxs, ya'ni soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'img'lar bo'yicha qarzlilar mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga qayd etilishi mumkin bo'ladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1-

yanvaridagi holat bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud bo'lgan imoratlar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan o'tkaziladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'g'ri hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash ustidan nazoratni davlat soliq xizmati organlari, xususan "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga asosan uchastka davlat soliq inspektorlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

Uchastka inspektori ishining boshqalardan farq qiladigan xususiyati uning soliq to'lovchilarga juda ham yaqinligidir. Soliq organlarining yuridik shaxslar bilan ishlaydigan xodimlari asosan buxgalterlar bilan muloqotda bo'ladilar, ular esa ozmi-ko'pmi savodli mutaxassislar, katta jamoalarning vakillaridir. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish va nazorat qilish xodimlarining esa shaxsan har bir kishi bilan ishlashiga to'g'ri keladi. Bo'lim xodimlari amalda tez-tez oddiy haqiqatni tushuntirishlariga to'g'ri keladi, holbuki ularni hamma bilishi kerak. Ishning xususiyati ayni shunday. Uchastka inspektorlari faoliyatining samarasini, birinchidan, unga biriktirilgan uchastkadagi soliq to'lovchilarning soliq qonunlarini buzish hollari kamayishiga, ikkinchidan, ularning qonunlarni qanchalik bilishlariga va aholining soliq madaniyatiga qarab baholash mumkin.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Mol-mulk solig'i qachon joriy etilgan va uni joriy etishdan ko'zlangan maqsad nima?
2. Mol-mulk solig'ini davlat byudjeti daromadlari tarkibidagi ahamiyati qanday?
3. Mol-mulk solig'ini to'lovchilari kimlar?
4. Soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan korxonalar asosiy faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat bilan shug'ullanganlarida mol-mulk solig'ini to'lashadimi?
5. Mol-mulk solig'ining obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?
6. Korxonalar mol-mulkining o'rtacha yillik qoldiq qiymati qanday tartibda topiladi?
7. Mol-mulk solig'i stavkalari qanday belgilangan?

8. Mahsulotini eksport qilayotgan korxonalariga mol-mulk solig'ini hisoblanishi qanday tartibda amalga oshiriladi, agarda eksport hajmi mahsulotni sotishda 40 foizni tashkil etgan bo'lsa?

9. Mol-mulk solig'idan kimlar imtiyozga ega?

10. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ining to'lovchilari kimlar?

11. Jismoniy shaxslarning qanday mol-mulkleri soliq solish obyekti va bazasi hisoblanadi?

12. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari kimning qarori bilan belgilanadi?

13. Jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish qanday tartibda amalga oshiriladi?

14. Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i summasi qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?

15. To'lov xabarnomasi qaysi muddatgacha uchastka soliq inspektorlari tomonidan soliq to'lovchilarga yetkaziladi?

16. Pensionerlarning necha kvadrat metr mol-mulki qiymati soliqqa tortilmaydi?

17. Yillik hisoblangan mol-mulk solig'i qaysi muddatda byudjetga to'lanadi?

Topshiriqlar

1. Soliq idoralariga mol-mulk solig'i bo'yicha hisob-kitob topshirish muddatlarini o'rganish.

2. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyekti uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibini o'rganish.

3. Me'yoriy muddatlarda o'rnatilmagan uskunalar uchun mol-mulk solig'ini to'lash tartibini o'rganish.

4. Soliq kodeksida keltirilgan moddalar bo'yicha jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'ini o'rganish.

5. Soliq imtiyozlarini o'rganish.

8-bob. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I

Reja

- 8.1. Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari
- 8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar tarkibi
- 8.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq obyekti
- 8.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari
- 8.5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartibi
- 8.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i va uning iqtisodiy ahamiyati
- 8.7. Yer uchastkalarini ijaraga olish va mulk huquqi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari, soliq obyekti va uni aniqlash tartibi
- 8.8. Yer solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar
- 8.9. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, uni hisoblash, byudjetga undirish tartibi va uni to'lash muddatlari

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yer, yer solig'i, yer uchastkasi, jamoa, qishloq xo'jalik sug'oriladigan yeri, ball boniteti, soliq imtiyozlari.

8.1. Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari

O'zbekiston Respublikasida yerdan foydalanish va yerga egalik qilish pullidir.

Yer solig'i davlat byudjeti va soliq to'lovlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham u iqtisodiy toifalar turkumiga kiradi.

Yer solig'ining iqtisodiy mohiyati mazmunini ochishda davlat byudjeti mol-mulk soliq to'lovchilari o'rtasidagi yuzaga keladigan ko'p qirrali

munosabatlarning xarakterini o'rganishi lozim. U ayrim to'g'ri soliqlardan farqli o'laroq mahalliy soliqlar guruhiga kiradi.

Yer solig'i mahalliy soliqlar guruhida bo'lsa ham, uning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar esa viloyat hokimliklari tomonidan joriy etiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yer solig'i davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini yurgizishda ham muhim o'rin egallamoqda. Respublika Oliy Kengashi 1993-yil 6-mayda "Yer solig'i to'g'risida" qonun qabul qilinishi orqali yerga bo'lgan egalik munosabatlarini tubdan o'zgartirdi. Aholining keng qatlamining yerdan foydalanishdagi eng asosiy maqsadi yerning unumdorligini oshirish, yerga to'g'ri ishlov berish va yerdan olingan mahsulotlarni xalq manfaatlarining qondirilishiga jalb etish bo'lib hisoblanmoqda.

Yerdan unumli foydalanish, uni hosildorlikdagi mavqeini oshirish asosan soliq munosabatlari orqali amalga oshirilishi bu borada oqilona soliq siyosatining yurgizilishini taqozo etadi. Lekin yer solig'ini joriy etish yer qonunchiligi bilan belgilanadi. Chunki yer qonuniga muvofiq yerlarni toifalarga bo'lishi va unda asosan yer unumdorligining e'tiborga olinishi yerga nisbatan o'ziga xos soliq munosabatlarini yurgizishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda "Yer to'g'risida"gi qonunga asosan yer soliq munosabatlar yangi pog'onaga ko'tarildi va yer solig'ini soliq tizimidagi ahamiyati ancha oshirildi. Yerga egalik qilish ham endigi kunda soliq munosabatlari orqali tartibga keltirilib turilmoqda. Bu esa yer solig'ini byudjet ixtiyoriga to'liq va belgilangan muddatlarda undirilishi uchun ham zamin yaratib berdi. Shuningdek, ushbu qonunga muvofiq, yerlarning o'nta sinfga bo'linishi asoslandi va uning negizida soliq stavkalarining belgilanishi ta'minlandi.

Yer solig'ining amal qilishini huquqiy jihatdan asoslanganligi bozor iqtisodiyoti sharoitida yer solig'ining mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Yer solig'ining yer sinflariga qarab differensiallashtirilgan tizimining joriy etilishi har bir jamoa va shirkat xo'jaliklari hamda fermerlar tomonidan yerdan unumli foydalanishga imkon yaratadi. Natijada byudjet daromadida

nafaqat yer solig'i to'lovlarini dinamik oshishi kuzatildi, balki bir vaqtning o'zida yerning hosildorligi oshdi. Jamoa va shirkat xo'jaliklari tomonidan ham xarajat qilish orqali katta daromadlarni qo'lga kiritila boshladi. Agar 1993–1998-yillarda jamoa xo'jaliklarining 50 foizidan ortig'i yerdan hosil olish maqsadida katta xarajatlarni amalga oshirib ko'zda tutilgan daromadlarni qo'lga kiritishga to'liq erishmaganliklari tufayli jamoa xo'jaliklariga nisbatan o'zgacharoq soliq munosabatlarining qo'llanishiga sabab bo'ldi (ya'ni foyda solig'ini rentabellik darajalariga nisbatan undirish, yerga nisbatan amal qiluvchi soliqlarni hisoblashda va byudjetga undirishda haddan tashqari imtiyozlarning joriy etilishi va hokazolar shular jumlasidandir).

Bu borada shuni ham ta'kidlash joizki, yerga nisbatan sayoz soliq munosabatlarini 1998-yilga qadar amal qilishi yer maydonlaridan foydalanishda uning sifat darajasiga salbiy ta'sir etdi. Oxir oqibat er maydonlaridan uzoq muddatlarda foydalanib kelinganligi, uning egalariga ko'zda tutilgan natijalarni qo'lga kiritilishiga imkon beradi. Tuproqda erroziya sodir bo'lishi yoki yerning turlanishi bir vaqtning o'zida katta-katta moliyaviy resurslarni jalb etilishini talab etdi. Bunday sharoitlarda yerga nisbatan oqilona soliq tizimini joriy etish muhim holga aylanib qoldi.

Tuproq erroziyasini bartaraf etish, yer unumdorligini oshirish uchun ma'lum moliyaviy mablag'lar talab qilindi. Qaysiki, ular yerning meliorativ holatini aniqlashda, sug'orish inshootlarini qurishda, zovurlarni o'tkazishda va ta'mirlashda ishlatilishini taqozo etadi.

Yangi xo'jaliklarning tashkil qilinishi qurilish ishlarining kengayishi yer zaxiralarining kamayishiga ham olib keldi. Sug'oriladigan yer maydonlari ham yildan yilga qisqartirib boriladi.

Tabiiyki, bunday yuzaga kelgan sharoitda yer maydonlaridan ijara shartlari asosida samarali foydalanish muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shuningdek, yerdan pul to'lab foydalanish, ijara haqi, yerning normativ bahosi yer to'lovining shakllarini yuzaga keltiradi. Yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga ijaradorlikdan tashqari, har yili yer solig'ini to'lovchisi

bo'ladi. Ijaraga berilgan yerlar uchun ijara haqi undirila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan hollarda yer uchastkalarini xarid qilish va o'z egaligiga sotib olish uchun, shuningdek, bank kreditini, yerni garovga qo'yib olish uchun, yerning normativ bahosi o'rnatilishi yerga bo'lgan munosabatda tub o'zgarish yasadi.

Natijada Respublikamiz hududida yerni mulk qilib, egalik qilish, foydalanish uchun yoki ijara berilgan yuridik shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet ellik fuqarolar va fuqarolikka ega bo'lmagan shaxslar yer solig'i va ijara haqi to'lovchilari sifatida soliq munosabatlarini aktivlashtiradilar.

Amalda yer solig'ini va ijara haqini undirish obyektlari bo'lib yuridik shaxslar va fuqarolarga berilgan yer uchastkalari (qishloq xo'jalik yerlari, fuqarolarga shaxsiy yordamchi xo'jaligini yuritish, individual uy-joy qurilishini olib borish, bog'dorchilik polizchilik va chorvachilik uy-joy, dala hovlisi, tadbirkorlik faoliyati va o'zga maqsadlar uchun berilgan yer uchastkalari; sanoat, transport, aloqa, boshqa moddiy ishlab chiqarish sohalari va noishlab chiqarish sohasi korxonolari uchun yerlar) hisoblanadi.

Umuman yer solig'i, belgilangan tartibda yuridik shaxs va fuqarolarga mulk sifatida tasarruflik qilishi, egalik qilish va foydalanish uchun berilgan soliq solinadigan yer maydoni, shu jumladan, bino va inshootlar bilan band bo'lgan maydondan, shuningdek, bino va inshootlarga qarash uchun zarur bo'lgan yer uchastkalaridan bir yilga mo'ljallab undirilishi shakllantirildi. Shuningdek, qancha yuridik shaxslar yoki fuqarolar alohida foydalansa, unda yer solig'i bunday uchastkaning har bir qismi bo'yicha alohida qilib hisoblab chiqiladigan bo'ldi. Bu shaxslar va fuqarolar birgalikda foydalanadigan yer maydoni ularning alohida tasarrufida bo'lgan binolar maydoniga proporsional ravishda soliqlarni hisoblab chiqarish uchun ular o'rtasida taqsimlanishi ta'minlandi.

Yuridik shaxslar va fuqarolarning umumiy egaligida bo'lgan binolarga, xizmat ko'rsatuvchi yer uchastkalariga yer solig'i, ularning bu binolardagi ulushiga teng ravishda hisoblab chiqariladi.

Bu borada shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari qaroriga muvofiq yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig'i o'rniga byudjetga ijara haqi to'lashlari mumkin. Ammo ijara haqi ta'riflarining kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkadan ko'p bo'lmasligi, yerlardan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa bir stavka miqdorida bo'lishi kerak. Shunday qilib, yer solig'ini shakllantirish bevosita uning to'lovchilari tomonidan yurgiziladigan faoliyatiga ham bog'liqdir. O'z mulkida, egaligida yoki foydalanishda yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yer solig'i to'lovchilari bo'lib hisoblanadilar. Shuningdek, belgilangan tartibda yagona soliq to'lanadigan soliq to'lashni soddalashtirish tizimiga o'tgan kichik korxonalar, ham yer solig'i bo'lib hisoblanadilar. Ammo yuzaga keltirishda soliq obyektlarini to'g'ri izohlash muhim ahamiyatga egadir.

Yuridik shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan obyekt bo'lib hisoblanadi:

➤ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

➤ qishloq yoki o'rmon xo'jaligi yuritish uchun egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

➤ korxonalar, binolar va inshootlar qurish uchun yoki qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun berilgan yer uchastkalari;

➤ korxonalar binolar yoki inshootlarga bo'lgan mulk huquqi o'tishi bilan birga egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari.

Jismoniy shaxslar uchun soliq solinadigan yer uchastkalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

✓ turar joylar etagida va jamoat yerlarida shaxsiy yordamchi xo'jalikni yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalarini;

✓ yakka tartibda uy-joy qurish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalarini;

✓ jamoa bog‘dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan yer uchastkalarini;

✓ xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlarni;

✓ meros bo‘yicha xadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, va hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o‘tgan yer uchastkalarini;

✓ qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalarini;

✓ tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalarini. Bularning hammasi soliq obyektini yuzaga keltiruvchi aktiv ko‘rsatkichlar bo‘lib hisoblanadi.

8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini to‘lovchilar tarkibi

Soliq qonunchiligiga ko‘ra o‘z mulkida, egaligida yoki foydalanishida yer uchastkalariga ega bo‘lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig‘ini to‘lovchilari bo‘lib hisoblanishadi. Agarda soliqqa tortishning alohida tartibi o‘rnatilgan yuridik shaxslar (mikrofirma va kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, yagona yer solig‘ini to‘lovchi qishloq ho‘jalik korxonalari, tadbirkorlik faoliyatining qat’iy soliq to‘lanishi belgilangan yuridik shaxslar, audio va video kassetalar, lazer disklerini ishlab chiqish, yozish, ko‘paytirish va sotish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar) hamda notijorat tashkilotlar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullansalar, unda ular shu faoliyatda foydalaniladigan yerlari uchun yer solig‘ini to‘lovchilari hisoblanishadi.

Ko‘chmas mulk ijaraga berilganda ijaraga beruvchi yer solig‘ini to‘lovchisi hisoblanadi. Qonun hujjatlariga muvofiq yer uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslar (savdo korxonalari bundan mustasno) yer solig‘i o‘rniga budjetga ijara haqi to‘laydilar. Ijara haqi taraflarning

kelishuviga binoan belgilanadi, lekin bu haq qonun hujjatlarida belgilangan yer solig'ining bir stavkasidan kam va uch stavkasidan ko'p bo'lmashligi, yerlardan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanilgan taqdirda esa - bir stavkasi miqdorida bo'lishi lozim.

Yer ijarachilarining hisobi, ijaraga olingan yer uchun ijara haqi hisob-kitoblarini taqdim etish, ijara haqini hisoblab chiqarish va to'lash yer solig'i uchun belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari yer solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi yer solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Yer uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs yer uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun yer solig'ini to'lovchidir.

Quyidagilar yer solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

- notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan taqdirda, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan yer uchastkalari

8.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq obykti

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq obykti bo'lib, mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari soliq solish obyktidir.

Quyidagilarga soliq solish obykti sifatida qaralmaydi:

- aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi yerlari va boshqa shu kabi yerlar;

✦ aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek, ariq tarmoqlari egallagan erlar);

✦ kommunal-maishiy yerlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);

✦ zaxira yerlar.

Yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha yer uchastkalari uchun soliq solinadigan baza yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Yer solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Mavjud yer uchastkalaridan qonun hujjatlariga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlarini chegirib tashlash orqali soliq solinadigan baza aniqlanadi.

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi va ularning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Yer solig'ining stavkalari yer maydonining joylashgan joyiga qarab aniqlanadi. Yer solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi qarori bilan tasdiqlanadi.

Barcha toifadagi qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, bo'sh turgan binolar, noturar inshootlar va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari egallagan yer uchastkalari bo'yicha yer solig'i stavkasi xulosa berilganidan keyingi oydan boshlab:

- ikki karra miqdorda;
- 6 oy o'tgandan so'ng – besh karra miqdorda;
- 12 oy o'tgandan so'ng va keyinchalik – o'n karra miqdorda tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasida yerning bozor qiymati shakllanmaganligi sababli, 1 gektar sug'oriladigan yerdan olinadigan dehqonchilik yalpi mahsulotining o'rtacha qiymatidan kelib chiqib, uni shartli baholash amalga oshiriladi.

Jahon soliq amaliyotida yer solig'i stavkalari turli mamlakatlarda turlicha belgilanadi, lekin o'rtacha olganda yer qiymatining 5 foizidan oshmaydi. Soliq stavkalarini belgilashda tuproq boniteti (sifati) hisobga olinadi. Bonitetni aniqlashda tuproqning genetik kelib chiqishi, mexanik tarkibi, sho'rlanganlik darajasi, tuproq qatlamining suv o'tkazaolishi, zichligi kabi boshqa tabiiy xossalari hisobga olinadi. Tuproq boniteti 100 balli tizim bo'yicha aniqlanadi. 100 ball 10 ta klassga bo'linadi, ya'ni 1 klass yerlar nol balldan 10 ballgacha, 2 klass yerlar 11 balldan 20 ballgacha, 3 klass yerlar 21 balldan 30 ballgacha va h.k. 10 klass yerlar 91 balldan 100 ballgacha baholanadi. Bunda yerning ball boniteti qancha yuqori bo'lsa soliq stavkasi ham shuncha yuqori belgilanadi.

Qishloq xo'jalik yerlarining sifati yer uchastkasi mulkdori, yer egasi yoki yerdan foydalanuvchining aybi bilan yomonlashgan (boniteti pasayib ketgan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashuviga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Shaharlar va shahar qo'rg'onlarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jalik ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jalik yerlariga belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida undiriladi.

Yuridik shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan

maydonlardan ortiqcha yer uchastkalari uchun yer solig'i yuridik shaxslar uchun 2,0 koeffitsiyentini qo'llagan holda to'lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan yerlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsiyentni qo'llagan holda yer solig'i to'lanmagan taqdirda soliq to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi.

Ma'muriy va sanoat markazlariga nisbatan olganda yer uchastkalarining joylashish joyiga bog'liq holda qishloq joylari uchun belgilangan yer solig'i stavkalariga quyidagi koeffitsiyentlar qo'llanadi:

– Toshkent shahri atrofida 20 km lik aylanada – 1.30;

– Qoraqalpog'iston Respublikasi poytaxti va viloyat markazlari atrofida 15 km lik aylanada – 1.20;

– tuman markazlari atrofida 10 km lik aylanada – 1,15;

– boshqa shaharlar atrofida 5 km lik aylanada – 1,10.

Yer uchastkalarigacha masofa shaharlar va tuman markazlarining ma'muriy chegaralaridan boshlab avtomobil yo'llari bo'ylab belgilanadi. Yer uchastkasi ikki shahar yaqinida joylashgan taqdirda shaharning yuqoriroq funksional vazifasiga muvofiq keladigan koeffitsiyent qabul qilinadi.

Bir qishloq aholi punkti doirasida yagona stavkalarni belgilash maqsadida soliq to'lovchilarga berilgan yerlar, yerlarning qanday qismi ushbu zonaga kirishiga bog'liq holda, butunlay shahar atrofi zonasiga kiritiladi yoki ushbu zonadan butunlay chiqariladi.

Dehqon xo'jaliklaridan undiriladigan yer solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida yer solig'i stavkalariga, yer sifatiga bog'liq holda quyidagi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

– tuproq boniteti 40 ballgacha bo'lsa – 0,75;

– tuproq boniteti 41 dan 70 ballgacha bo'lsa – 1,0;

– tuproq boniteti 70 balldan ortiq bo'lsa – 1,25.

Shahar va qo'rg'onlarning ma'muriy chegaralarida joylashgan kon va karerlar band etgan yerlar uchun soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun belgilangan stavkalarga 0,1 koeffitsiyentini qo'llagan holda to'lanadi.

O'rmon xo'jaliklarida mollarni o'tlatish uchun foydalanilmaydigan yaylov yerlar uchun yer solig'i boshqa yerlar uchun stavkalar bo'yicha to'lanadi.

8.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari

Yer soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Yerning asosiy foydalanish maqsadiga va soliq to'lovchilarning toifasiga qarab yer soliq stavkalari bir necha turlarga bo'linadi:

➤ jamoa qishloq xo'jalik sug'oriladigan yerlardan foydalanganlik uchun;

➤ Ialmikor ekinzorlar, bo'z yerlar va ko'p yillik ko'chatzorlardan foydalanganlik uchun;

➤ sug'orilmaydigan hashakzorlar va yaylovlardan foydalanganlik uchun;

➤ qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan foydalanganlik uchun;

➤ Toshkent shahar yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun;

➤ shahar va qo'rg'onlarda yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun;

➤ korxonalar, muassasa va tashkilotlardan qishloq joylarda joylashgan yer uchastkalaridan foydalanganlik uchun.

Korxonalar va fuqarolar uchun yer soliq stavkalari alohida-alohida belgilanadi. Shaharlar va shahar qo'rg'onlarining ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jalik ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jalik yerlariga belgilangan stavkalarining ikki barobar miqdorida undiriladi.

Sug'orilmaydigan pichanzor va yaylovlar uchun olinadigan yer solig'i stavkalari eng past qilib belgilangan soliq stavkalaridir.

Yer soliq stavkalari ma'muriy va sanoat markazlariga nisbatan yer uchastkalarining joylashgan joyiga qarab qishloq xo'jalik yerlari uchun belgilangan stavkaga o'sib boruvchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi:

1. Toshkent shahri atrofida 20 kmgacha joylashgan bo'lsa –1,3 koef-ntda.

2. Viloyat markazlari atrofida 15 kmgacha joylashgan bo'lsa – 1,2 koef-ntda.

3. Tuman markazlari atrofida 10 kmgacha joylashgan bo'lsa – 1,15 koef-ntda.

4. Shahar atrofida radiusi 5 kmgacha joylashgan bo'lsa – 1,1 koef-ntda.

Yer uchastkasi mulkdorining, yer egasi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yer solig'i yerning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan stavkalarning ikki baravari miqdorida to'lanadi.

8.5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliqli hisoblash hamda byudjetga to'lash tartibi

Yer solig'i to'lashdan quyidagilar ozod qilinadi:

1) madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari – o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda foydalanadigan yer uchastkalari uchun;

2) nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroni" jamg'armasi va "O'zbekiston Chernobilchilari" assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan, ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar, bundan savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar mustasno. Mazkur imtiyozni olish huquqi belgilanayotganda xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan xodimlar kiritiladi;

3) yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari – davlat ro'yxatidan o'tkazilgan oydan e'tiboran ikki yilga;

4) ixtiyoriy tugatilayotgan tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Soliq solinmaydigan yer uchastkalari jumlasiga quyidagi yerlar kiradi:

1) bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiy foydalanishdagi (kirish yo'llari, sug'orish ariqlari, kollektorlar va umumiy foydalanishdagi boshqa yerlar), jamoa garajlarining yerlari;

2) muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari, bundan xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar mustasno. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari jumlasiga davlat qo'riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo'riqxonalarining, tabiat bog'larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo'riqxonalarining (ovchilik xo'jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo'riqxonalari bundan mustasno), tabiiy pitomniklarning yer uchastkalari kiradi;

3) sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga belgilangan tartibda doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika va davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo'lgan yer uchastkalari;

4) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yerlar;

5) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar (xo'jalik faoliyati yuritilayotgan yerlar bundan mustasno) – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan tarixiy-madaniy

qo'riqxonalar, xotira bog'lari, sag'analar, arxeologiya yodgorliklari, tarix va madaniyat yodgorliklari egallagan yerlar;

6) suv fondi yerlari. Suv fondi yerlari jumlasiga suv havzalari (daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa shu kabilar), gidrotexnika va boshqa suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar, shuningdek, suv xo'jaligi ehtiyojlari uchun yuridik shaxslarga belgilangan tartibda berilgan suv havzalari hamda boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab ajratilgan mintaqa yerlari kiradi;

7) elektr uzatish liniyalari, ularning podstansiyalari va inshootlari egallagan yerlar;

8) umumdavlat aloqa liniyalari (havo va kabelli aloqa liniyalari, tirgakli liniyalar va radiofikatsiyalar, yerosti kabelli liniyalari, ularni bildiruvchi signalli va harakatsiz belgilar, radiorele aloqa liniyalari, kabelli telefon kanalizatsiyalari, yer ustidagi va yer ostidagi xizmat ko'rsatilmaydigan kuchaytirgich punktlari, taqsimlagich shkaflar, yerga ulash konturi qutilari hamda boshqa aloqa inshootlari) egallagan yerlar;

9) madaniyat, ta'lim va sog'liqni saqlash obyektlari egallagan yerlar;

10) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari egallagan yerlar;

11) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, shu jumladan, tuproq ko'tarmasi, sun'iy inshootlar, liniya-yo'l binolari, temir yo'l aloqasi hamda elektr ta'minoti qurilmalari, inshootlar va yo'l qurilmalaridan iborat temir yo'llar stansiyalari hamda saralash joylari, shuningdek, belgilangan tartibda temir yo'l transporti korxonalarini, muassasalari va tashkilotlariga doimiy yoki vaqtinchalik foydalanishga berilgan ihota daraxtzorlari egallagan yerlar;

12) shahar elektr transporti yo'llari va metropoliten liniyalari, shu jumladan, jamoat transporti bekatlari va metropoliten stansiyalari hamda ularning inshootlari egallagan yerlar;

13) sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish majmualari, onalar va bolalarning dam olish hamda sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari hamda o'quv-mashq bazalari egallagan yerlar;

14) aholi punktlarining suv ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari: magistral suv quvurlari, vodoprovod tarmoqlari, kanalizatsiya kollektorlari

va ularning inshootlari, nasos stansiyalari, suv olish va tozalash inshootlari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlaridagi kuzatish quduqlari va dyukerlari, suv bosimi hosil qiladigan minoralar hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

15) magistral neft va gaz quvurlari, shu jumladan, kompressor, nasos stansiyalari, yong'inga qarshi va avariyaqa qarshi stansiyalar, truboprovodlarni katodli himoyalash stansiyalari ularni tarmoqqa ulash uzellari bilan, truboprovodlarni tozalash qurilmalari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

16) magistral issiqlik trassalari, shu jumladan, nasos (ko'paytiruvchi, kamaytiruvchi, aralash tiruvchi, drenaj) stansiyalari, issiq suv ta'minotining issiqlikni hisobga olish va nazorat qilish asboblari, isitkichlari, sirkulyatsiya nasoslari hamda shunga o'xshash inshootlar egallagan yerlar;

17) samolyotlarning uchish-qo'nish maydonlari, yerda boshqarish yo'lkalari va to'xtash joylari, fuqaro aviatsiyasi aeroportlarining radionavigatsiya va elektr-yoritish uskunalari egallagan yerlar;

18) O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturiga kiritilgan obyektlar qurilishi uchun ajratilgan yerlar, normativ qurilish muddati davrida;

19) konservatsiyaga qo'yilishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari qabul qilingan obyektlar egallagan yerlar, ularning konservatsiyasi davrida;

20) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stansiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

21) yuridik shaxs balansida bo'lgan va xo'jalik faoliyatida foydalanilmaydigan fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

22) ihota o'rmon daraxtzorlari egallagan yerlar. Ihota o'rmon daraxtzorlari jumlasiga quyidagilar kiradi: o'rmonlarning daryolar, ko'llar, suv omborlari va boshqa suv obyektlari sohillari bo'ylab o'tgan taqiqlangan mintaqalari; o'rmonlarning ovlanadigan qimmatli baliqlar uvildiriq sohadigan joylarni muhofaza qiluvchi taqiqlangan mintaqalari; eroziyadan saqlaydigan o'rmonlar; o'rmonlarning temir yo'llar va

avtomobil yo'llari yoqalab o'tgan ihota mintaqalari; cho'l va chala cho'l zonalaridagi o'rmonlar; shahar o'rmonlari va o'rmon-bog'lari; shaharlar, boshqa aholi punktlari va sanoat markazlarining ko'kalamzorlashtirilgan zonalar atrofidagi o'rmonlar; suv ta'minoti manbalarini sanitariya jihatidan muhofaza qilish zonalaridagi o'rmonlar; kurort tabiiy hududlarni sanitariya jihatidan muhofaza qilish tegrasidagi o'rmonlar; alohida qimmatga ega bo'lgan o'rmonlar; ilmiy yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan o'rmonlar;

23) qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yangi o'zlashtirilayotgan yerlar, ularni o'zlashtirish ishlari bajariladigan davrda va ular o'zlashtirilgan vaqtdan e'tiboran besh yil mobaynida;

24) melioratsiya ishlari amalga oshirilayotgan mavjud sug'oriladigan yerlar, ishlar boshlanganidan e'tiboran besh yil muddatga;

25) yangi barpo etilayotgan bog'lar, tokzorlar va tutzorlar egallagan yerlar, daraxtlarning qator oralaridan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish uchun foydalanilishidan qat'iy nazar, uch yil muddatga. Kuzda o'tkazilgan yangi ko'chatlar uchun beriladigan imtiyoz muddatini hisoblab chiqarish keyingi yilning 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi, bahorda o'tkazilgan ko'chatlar uchun esa joriy soliq davrining 1-yanvaridan e'tiboran boshlanadi;

26) ilmiy tashkilotlarning qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik va o'rmon fondidagi yerlari, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi sohasidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda o'quv yurtlariga qarashli tajriba, eksperimental va o'quv-tajriba xo'jaliklarining bevosita ilmiy hamda o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan yerlari. Ushbu bandga muvofiq ilmiy tajribalar, eksperimental ishlar, yangi navlarning seleksiyasi o'tkazilishi uchun hamda mavzulari tasdiqlangan boshqa ilmiy va o'quv maqsadlari uchun foydalaniladigan ekinlar hamda daraxtzorlar egallagan yer uchastkalari soliq to'lashdan ozod qilinadi.

Kalendar yil soliq davridir.

Yer solig'i har bir soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va yer solig'ining hisob-kitobi yer uchastkasi

joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15-fevraliga qadar taqdim etiladi.

Yer solig'ini hisoblab chiqarish hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1-dekabriga qadar taqdim etadi.

Yer solig'ini to'lash, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Soliq davri mobaynida yer solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona yer solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- ❖ hisobot yilining 1-sentyabriga qadar – yillik soliq summasining 30 foizi;

- ❖ hisobot yilining 1-dekabriga qadar – soliqning qolgan summasi.

8.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i va uning iqtisodiy ahamiyati

Bugungi kunda bozor munosabatlarini yanada tiklanib rivojlanib borayotgan bir sharoitda soliqqa tortish tizimining samarali modeli uzluksiz qidirilmoqda. Zamonaviy soliq munosabatlarini takomillashtirish hozirda o'ta muhim va murakkab muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Shunga bog‘liq holda, mamlakatimiz rivojlanishining muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida soliq siyosatini erkinlashtirishning belgilanishi bejiz emas. Mamlakatimizda amaldagi oshirilayotgan soliq tizimidagi o‘zgarishlar jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yer uchastkalarini ijaraga olish hamda mulk huquqi ham o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu bir tomondan, soliq tizimidagi o‘zgarishlarni obyektiv jarayon sifatida barcha soha korxonalarini bilan birga jismoniy shaxslar faoliyati sohalariga ham ta‘sirini xolisona o‘zgarishini taqozo etadi. Ikkinchidan, soliq tizimidagi o‘zgarishlar jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘ini tashkil etish jarayonlariga ham o‘zining o‘zini ta‘sirini ko‘rsatayotganligi sababli uning bilan bog‘liq bo‘lgan yutuq va muammolardan bilish va tegishli xulosalar chiqarish amaliy ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga alohida e‘tibor berilganligini e‘tirof etish joizdir. Bu soliq tizimida va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘iga qo‘yiladigan yangicha talablarga o‘ziga xos yondashuvlarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish muhimdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, jismoniy shaxslardan olinadigan soliq, shu jumladan, yer solig‘i muhim ahamiyatga ega. O‘tish davrining ilk yillarida (1990) “Yer to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Unga binoan yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning pullik bo‘lishi belgilandi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach 1993-yil 6-mayda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan “Yer solig‘i to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi, unda soliq solishning obyektlari va subyektlarining imtiyozli soliq to‘lash tartibi va hokazolar ancha batafsil belgilab berildi. Qonun 1994-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Qonunda yerlardan noqishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining undirish tartiblari belgilab berildi. Shu bilan birga qishloq xo‘jaligini ustuvor rivojlantirish zarurligini e‘tiborga olib qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi korxonalar (tashkilotlar) uchun qonunni joriy etish 1995-yil 1-yanvargacha kechiktirildi. Shunday qilib, yer solig‘ining joriy etilishi

bilan mamlakatda yer munosabatlarini tartibga solishning chinakam iqtisodiy vositalari paydo bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilinishi (1997-yil 24-aprel) va 1998-yil 1-yanvardan kuchga kiritilishi bilan yer solig'ining zamonaviy huquqiy asoslari yaratildi. Hozirgi kunda esa yer solig'i 2008-yil 1-yanvardan kuchga kirgan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan undiriladi va huquqiy tartibga solinadi. Bu qonun o'z tuzilishi, vazifasi, maqsadi va tamoyili hamda uslubiy asoslariga egadir. Shu qonun asosida yer solig'i ham o'z ifodasini topdi. Yer solig'i ushbu qonun asosida mahalliy soliqlar tarkibiga kiritilib, mahalliy byudjetga tushrilishi e'tirof etilgan. Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra yer solig'i to'g'ri soliq hisoblanib, bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarga xos soliq turi hisoblanadi. O'tgan davrlarda yer solig'i soliq tizimi ichida daromad bilan ta'minlaydigan bir manba bo'lgan. Buning asosiy sababi o'sha davrlarda jamiyat strukturasi bilan yer orasida yaqin bir aloqaning mavjud bo'lishi hisoblanadi.

O'tgan asrlarda, sanoat rivojlanishi davridan oldingi jamiyatlarda ham mulkning yer va bino shaklida saqlanib qolishi hamda soliqqa tortiladigan manbalarning cheklanganligi natijasi yer solig'ining davlat daromadlari tarkibidagi darajasini ortishiga yo'l ochgan. Faqat ma'lum bir davrlardan so'ng ijtimoiy iqtisodiy strukturada yuzaga kelgan o'zgarishlar, xususan sanoatning rivojlanishi, ilm-fan taraqqiyotida yangi soliq manbalarini yuzaga keltirdi. Hozirgi kunda yer soliqlaridan ta'minlangan daromadning past bo'lishiga qaramasdan ushbu soliqlar soliq tizimlarida o'z o'rniga egadir.

Yer solig'i davlatda daromadni ta'minlash funksiyasi bilan birga daromad va mulk taqsimotidagi nomutanosiblikni yo'qotishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish sharoitida davlat qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortar ekan, bundan fiskal manfaatdorlikni emas, balki soliqlar orqali qishloq xo'jaligini boshqarish, ishlab chiqarishni rivojlantirishni, shuningdek, ularni ijtimoiy himoya

qilishni ko'zlaydi. Buni qishloq xo'jaligini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlaridan ham ko'rishimiz mumkin.

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

8.7. Yer uchastkalarini ijaraga olish va mulk huquqi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari, soliq obyeksi va uni aniqlash tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida ko'rsatib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yerdan foydalanish va yerga egalik qilish pullidir.

Ushbu soliqdan byudjetdan undiriladigan soliq turi byudjet daromadlarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Chunki yer solig'i davlat byudjeti va soliq to'lovlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Shuning uchun ham u iqtisodiy toifalar turkumiga kiradi.

Yer solig'i mahalliy soliqlar guruhida kiritilsada, uning stavkalari O'zbekiston Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar esa viloyat hokimliklari tomonidan joriy etiladi.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar,

shuningdek, yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan yer uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi yer solig'iga tenglashtiriladi. Yer uchastkalarini ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yer solig'i to'lovchilarini soliq idoralari har yili yil boshida hisobini olib boradi.

Jismoniy shaxslar uchun yer solig'i obykti yer uchastkalaridir. Jismoniy shaxslar uchun quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyektidir:

1) dehqon xo'jaligi yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

2) yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan, umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;

3) jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalari;

4) xizmat yuzasidan berilgan chek yerlar;

5) meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki olinishi natijasida uy-joy va imoratlar bilan birgalikda mulk huquqi, egalik qilish va foydalanish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;

6) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;

7) tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun foydalanishga yoki ijaraga berilgan yer uchastkalari.

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obykti bo'lmaydi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlari soliq solinadigan bazadir.

Jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiligini yuritish uchun fuqarolarga berilgan, shuningdek, yakka tartibdagi garajlar egallagan yer uchastkalarining maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza ushbu yer uchastkalarini bergan tashkilotlar boshqaruv organlarining ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Xizmat yuzasidan berilgan chek yerlarning maydonlari bo'yicha soliq solinadigan baza o'z xodimlariga yer uchastkalari bergan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

8.8. Yer solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar

2008-yildan amal qilib kelayotgan Soliq kodeksiga asosan, yer solig'idan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolar. Mazkur imtiyoz "O'zbekiston Qahramoni" unvoni berilganligi to'g'risidagi guvohnoma, Sovet Ittifoqi Qahramoni va Mehnat Qahramoni daftarchalari, orden daftarchasi yoki mudofaa ishlari bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

2) urush nogironlari va qatnashchilari, shuningdek, doirasi qonun hujjatlari bilan belgilanuvchi ularga tenglashtirilgan shaxslar. Mazkur imtiyoz urush nogironining (qatnashchisining) tegishli guvohnomasi yoki mudofaa ishlari bo'limining yoxud boshqa vakolatli organning ma'lumotnomasi asosida, boshqa nogironlarga (qatnashchilarga) esa nogironning (qatnashchining) imtiyozlarga bo'lgan huquqi to'g'risidagi guvohnoma asosida beriladi;

3) I va II guruh nogironlari. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

4) yolg'iz pensionerlar. Yolg'iz yoki voyaga yetmagan bolalari bilan yoxud nogiron bolasi bilan alohida uyda birga yashovchi pensionerlar yolg'iz pensionerlar deb tushuniladi. Mazkur imtiyoz pensiya guvohnomasi yoki O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi

byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

5) boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Ota-onasidan biri yoki ota-onasi vafot etgan hamda oilada o'n olti yoshga to'lmagan beshta va undan ortiq bolalari bo'lgan oilalar soliq solish maqsadida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalardir. Mazkur imtiyoz O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limining ma'lumotnomasi asosida beriladi;

6) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar oladigan fuqarolar (shu jumladan, vaqtincha yuborilgan yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolar. Mazkur imtiyoz tibbiy-mehnat ekspert komissiyasining ma'lumotnomasi, nogironning maxsus guvohnomasi, Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatish ishtirokchisining guvohnomasi, shuningdek, vakolatli organlar tomonidan berilgan va imtiyozlar berish uchun asos bo'ladigan boshqa hujjatlar asosida beriladi;

7) ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkalari berilgan paytdan e'tiboran besh yilgacha;

8) shaxslar – ularga yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va dehqon xo'jaligi yuritish uchun qonun hujjatlarida belgilangan normalar doirasida berilgan yer uchastkalari bo'yicha – yer uchastkasi berilgan oydan keyingi oydan e'tiboran ikki yil muddatga.

Tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan yoxud uylar, dala hovli imoratlari, yakka tartibdagi garajlar va boshqa imoratlar, inshootlar, joylar yuridik shaxsga yoki yakka tartibdagi tadbirkorga ijaraga berilganda yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslardan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lash uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi hamda ularga Soliq kodeksining 290-moddasida nazarda tutilgan imtiyozlar tatbiq etilmaydi.

8.9. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, uni hisoblash, byudjetga undirish tartibi va uni to‘lash muddatlari

Jismoniy shaxslarning yer solig‘i soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi.

Jismoniy shaxslarning yer solig‘ini hisoblash uchun soliq idoralari shahar, tuman yer fondi ma‘lumotlari hokimliklarning qarorlari asosida hamda uyma uy yurib o‘tkazilgan tekshirishlar asosida yer uchastkalari maydonini aniqlab chiqadilar.

Jismoniy shaxslarning yer solig‘i har yilning boshida soliq organlari tomonidan hisoblab chiqiladi va to‘lov xabarnomasi yoziladi.

Kalendar yil soliq davridir

Yer solig‘ini hisoblab chiqarish davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari yer solig‘ini to‘lovchilar bo‘lgan jismoniy shaxslarning hisobini muntazam yuritadi.

Imtiyozlarni olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ushbu imtiyozlarga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni mustaqil ravishda taqdim etadi.

Yer solig‘i summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan to‘lov xabarnomasi jismoniy shaxslarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1-maydan kechiktirmay topshiriladi.

Yil mobaynida yer uchastkasi maydoni o‘zgarganda va imtiyozlarga bo‘lgan huquqlar vujudga kelganida (bekor qilinganda) davlat soliq xizmati organlari mazkur o‘zgarishlardan keyin bir oy ichida yer solig‘ini qayta hisob-kitob qilishlari hamda soliq to‘lovchiga yer solig‘i summasi va uni to‘lash muddatlari ko‘rsatilgan yangi yoki qo‘shimcha to‘lov xabarnomasini taqdim etishlari kerak.

Yer solig‘i yer uchastkasining mulkdori, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi yoki ijarachining yashash joyidan qat‘iy nazar, yer uchastkasi joylashgan hududdagi tuman yoki shaharning mahalliy byudjetiga to‘lanadi.

Yil mobaynida ajratilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkasi ajratilganidan keyingi oydan e'tiboran to'lanadi.

Yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, yer solig'ini to'lash yer uchastkasi kamaytirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Yer solig'i bo'yicha imtiyozlar belgilangan taqdirda, bu soliq imtiyoz huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran to'lanmaydi. Yer solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquqlar bekor qilingan taqdirda, bu soliq mazkur huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran to'lana boshlaydi.

Belgilangan tartibda berilgan yer uchastkalari uchun yer solig'i yer uchastkasidan foydalanish faktidan qat'iy nazar, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi.

Soliq davri uchun yer solig'i to'lash jismoniy shaxslar tomonidan hisobot yilining 15-oktyabriga qadar amalga oshiriladi.

Yer uchastkalari uchun qaysi paytdan boshlab haq to'lash kerak va mulk huquqi alohida turgan binolarga o'tish chog'ida ushbu majburiyatlar qachon tugallanadi? Munozara hozirga qadar davom etyapti. Ba'zi mutaxassislar fikricha, yuridik va jismoniy shaxslar binolar va inshootlar sotilishi chog'ida ular egallagan yer maydoni uchun soliqni xaridor ushbu uchastkaga doir huquqini ro'yxatdan o'tkazmaguniga qadar to'lashlari kerak. O'ylashimizcha, bu Soliq kodeksiga zid keladi. 103-moddaning uchinchi qismida muvofiq yer uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan), haqi to'lab qaytarib olingan, sotilgan taqdirda soliq undirish u amalga oshirilgan oydan e'tiboran to'xtatiladi (kamaytiriladi). Kodeksning ushbu me'yoriga ko'ra, undagi binolar va inshootlar sotilishi natijasida yer uchastkasi kamaygan taqdirda, tegishincha, ushbu oyda soliq summasi ham kamayadi. Xuddi shu tartib xarid qiluvchi tomonga ham taalluqli, ya'ni unda alohida turgan binolarni xarid qilish paytida majburiyatlar yuzaga keladi. Hisobvaraqa-faktura va qabul qilish topshirish dalolatnomasini imzolash sanasi binolar va inshootlarni xarid qilish (sotish) sanasi hisoblanishiga e'tibor qaratishi lozim. Biroq amaldagi tajribaning ko'rsatishicha, xaridor va sotuvchi har doim ham yer uchastkasiga doir o'z huquqlarini qaytadan ro'yxatdan o'tkazavermaydi.

Ana shunda yerga doir to'lovlar bo'yicha majburiyatlar ijrosi masalasi xal etilmay qolaveradi. Shu sababli yer uchastkalariga doir huquqning o'tish paytini, binobarin, ular uchun soliq to'lanishini ham oydinlashtiradigan me'yorni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Birinchi Prezidentimizning 2005-yil 22-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2006-yilga asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametri to'g'risida"gi PQ-244-son qarori bilan yuridik va jismoniy shaxslar uchun yer solig'i stavkalari 1,5 baravariga indeksatsiyalangan. Bunday ko'paytirishning bir qismi shu bilan shartlanganki, yer solig'i stavkalari so'mda belgilangan va uni inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda indeksatsiyalar lozim. Bundan tashqari, keyingi yillarda soliq yukini bevosita soliqlardan yer solig'i muhim o'rin tutadigan resurs soliqlariga qayta taqsimlash tamoyili ko'zga tashlanmoqda.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Yer solig'ini yuridik shaxslardan undirishning sababi nimada?
2. Yer solig'ining huquqiy asoslari O'zbekistonda qachon shakllangan?
3. O'zbekistonda yer fondi qanday tarkib topgan?
4. Kimlar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi?
5. Alohida soliq rejimiga o'tgan yuridik shaxslar yer solig'ini to'lovchilari bo'lib hisoblanishadimi?
6. Yer solig'ini undirish obyekti nima?
7. Soliq stavkalari qanday mezonlar asosida belgilanadi?
8. Qanday yerlar soliq solinmaydigan yer uchastkalari hisoblanadi?
9. Qanday yuridik shaxslar yer solig'idan ozod qilinadi?
10. Yer solig'ini hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash muddatlari qanday belgilangan?
11. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari kimlar?
12. Jismoniy shaxslarning qanday yerlari soliq solish obyekti bo'la oladi?

13. Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari qanday belgilanadi?

14. Jismoniy shaxslar berilgan yerlardan foydalanmagan holatda qanday tartibda ulardan soliq undiriladi?

15. Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan yer uchastkalaridan qanday tartibda soliq undiriladi?

16. Qanday toifadagi fuqarolar yer solig'idan ozod etiladi?

17. Jismoniy shaxslarning yer solig'i qaysi davlat organi tomonidan hisoblab chiqariladi?

18. Yer solig'i bo'yicha to'lov xabarnomalari soliq to'lovchilarga qaysi muddatgacha yetkaziladi?

19. Yer solig'i qaysi muddatda mahalliy byudjetga to'lanadi?

Topshiriqlar

1. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i hisobot shaklini o'rganish.

2. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha o'z vaqtida to'lamaganligi uchun moliyaviy jarimalarni o'rganish.

3. Soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibini o'rganish.

4. Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlaridagi ma'lumotlarning haqqoniyligi bo'yicha javobgarlikni o'rganish.

5. Dehqon xo'jaliklari yer solig'ini byudjetga to'lash tartibini o'rganib chiqish.

9-bob. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ

Reja

9.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari

9.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning obyeksi, uni aniqlash tartibi va stavkalari

9.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi

9.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va byudjetga to'lash muddatlari

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

9.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq respublikada joriy qilingan soliq tizimining eng oson va nisbatan takomillashgan shaklidir. Hududimiz sharoitida suv qadrlisi hisoblanadi. Chunki, respublikamizda qishloq xo'jaligi asosan sug'oriladigan yerlardan iborat. Suv har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq dunyoda birinchi bo'lib, u 1970-yilda Niderlandiyada soliq tizimida joriy qilingandi. Xitoy tadqiqotchilariga asosan, Niderlandiyada yer usti suvlarining ifloslanishi oldini olish uchun soliqni joriy etib, natijada kompaniyalar tomonidan suvni ifloslanishi keskin kamaytirilishiga erishilgandi. Keyinchalik yerosti suvlariga ham soliqni joriy etish bilan sanoat va mahalliy ishlab chiqarish korxonalarini suvdan tejab foydalanishni boshlashdi. Tadqiqotchilar shunday

xulosa qilishdiki, mazkur soliq yerosti suv resurslarining unumli va samarali, tejab foydalanish imkoni mavjudligini anglatdi⁴³.

1982-yildan 1998-yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar “suv uchun to‘lov” to‘lashar edi. Iste‘molchilarning suvdan samarali, tejab foydalanish maqsadida respublikamiz soliq qonunchiligiga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra 1998-yil 1-yanvardan boshlab suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi. O‘sha davrda ushbu soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kirib, respublika byudjetining daromad manbalaridan biri hisoblangan.

Suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishning asosini yetkazib berilayotgan suvga iste‘molchilarning qadrli munosabatda bo‘lishi tashkil qiladi. Bunda suv iste‘molchilarining suv yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib borishlari va suvdan foydalanishni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishlari muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida suvdan foydalanganlikni boshqarishning dastaklaridan biri, suv uchun to‘lov hisoblanadi, bu suvdan oqilona foydalanishga turtki bo‘ladi. O‘zbekistonda suvdan foydalanish Soliq kodeksining X bo‘limi bilan tartibga solinadigan maxsus soliqqa tortiladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilari, bizning mamlakatimiz hududida “suvdan foydalanuvchi” va “suv iste‘mol qiluvchi” subyektlar hisoblanadi. Avvalambor iboralarni o‘rganib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni quyidagi ta‘riflarni beradi:

➤ Suvdan foydalanish – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv resurslarini suv obyektidan olmagan holda ulardan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanish;

➤ Suvni iste‘mol qilish – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlarini qondirish uchun suv resurslaridan ularni suv obyektidan belgilangan tartibda olgan holda foydalanish.

⁴³ Ren T. & Wang G. Enlightenment of Netherlands’ water resource taxation on China’s water resource taxation. *Jiangsu Commer. Forum* 86. 2010.

9.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning obyekti, uni aniqlash tartibi va stavkalari

O‘z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo‘jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilardir.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish tartibi soliq solishning alohida tartibi o‘rnatilgan to‘lovchilarning ayrim toifalariga tatbiq etilmaydi.

Bunda, agar soliq solishning alohida tartibi o‘rnatilgan to‘lovchilar asosiy faoliyat turi bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullansalar, ular alohida hisob olib borishlari va shu faoliyatda foydalaniladigan suv hajmidan kelib chiqib suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lashlari kerak.

Suvdan foydalanish joyida yuridik shaxslar, davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatga olinish joyidan qat’iy nazar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘laydilar.

Aholi punktlarining suv ta‘minoti uchun suv yetkazib beruvchi yuridik shaxslar o‘z faoliyatida ishlatiladigan suv uchungina soliq to‘lovchilar hisoblanadi.

Yer usti va yerosti manbalaridan foydalaniladigan suv resurslarining hajmi soliq solish obyekti hisoblanadi.

Yer usti manbalariga kiradi: daryolar, ko‘llar, suv omborlari, yer yuzasidagi boshqa havzalar va suv manbalari, turli xil kanal va hovuzlar.

Yerosti manbalariga kiradi: artezian quduqlar va skvajinalar, vertikal va gorizontal zovur tarmog‘i.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va soliq to‘lovchilarga O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi. Suvdan qishloq xo‘jalik ekinlari va ko‘chatlarini sug‘orish uchun foydalanadigan yordamchi xo‘jaliklarga ega yuridik shaxslar, shuningdek, ilmiy-tadqiqot

tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv-tajriba xo'jaliklari soliqni qishloq xo'jalik korxonalarini uchun belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2699-sonli Qaroriga muvofiq 2017-yilda suv resurslaridan foydalanish uchun soliq stavkalari quyidagi jadvaldagi miqdorlarda belgilangan (9.1-jadval).

9.1-jadval

Suv resurslaridan foydalanish uchun soliq stavkalari⁴⁴

№	To'lovchilar	1 kub. metr uchun stavka (so'm)	
		yer usti suv resurslari manbalari	yerosti suv resurslari manbalari
1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalarini (2-6-bandlarda ko'rsatilganlaridan tashqari), dehqon xo'jaliklari (yuridik va jismoniy shaxslar), shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida suv resurslaridan foydalanadigan jismoniy shaxslar	120	150
2	Sanoat korxonalarini (3-6 bandlardan tashqari)	360	430
3	Avtotransport vositalarini yuvishga ixtisoslashtirilgan korxonalar	1200	1500
4	Elektr stansiyalari	30	50
5	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini	60	80
6	Alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi korxonalar	19040	19040
	- alkogolsiz ichimliklarni ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi bo'yicha - boshqa maqsadlarda		

⁴⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086 sonli qarori. www.lex.uz

Mazkur korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni solish tizimidan (soliq solishning umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan tartibi) qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan tartibda to'laydilar.

9.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan quyidagi yuridik shaxslar ozod etiladi:

a) notijorat tashkilotlari, ana shu faoliyatda ishlatilgan suv hajmidan kelib chiqib, suv resurslaridan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalanuvchilardan tashqari. Soliq solish maqsadida notijorat tashkilotlari deganda quyidagilar tushuniladi: faqat davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalanadigan, xarajatlarni qoplash uchun belgilangan smetalar doirasida dotatsiya oladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar; xayriya birlashmalari, uyushmalari va jamg'armalari, xalqaro tashkilotlar, diniy birlashmalar va boshqa tashkilotlar:

1) ijtimoiy-xayriya yoki tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishni ko'zlamaydigan, ta'sis hujjatlarida ta'kidlangan boshqa maqsadlar uchun barpo etilganlari;

2) moliyaviy va boshqa mablag'larni mazkur tashkilot xodimlari, muassislari yoki a'zolarining shaxsiy manfaatlari uchun taqsimlamaydigan va investitsiyalamaydiganlari (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnatga haq to'lashlar bundan mustasno);

b) yeroستي mineral suvlaridan davolash maqsadlarida foydalanadigan sog'liqni saqlash muassasalari, ular mineral suvlardan savdo tarmog'ida sotish uchun foydalanadigan hollar bundan mustasno;

d) farmatsevtika faoliyati bilan shug'ullanadigan va suvdan dorivor vositalar tayyorlashda foydalanadiganlar;

e) atrof-muhitga zararli ta'siri oldini olish maqsadida chiqarib tashlanadigan yeroستي suvlari uchun (ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar

uchun ishlatiladigan suv hajmlaridan tashqari). Masalan, sizot suvlarning sathini pasaytirish maqsadida chiqarib tashlanadigan zovur suvlari;

f) uning uchun byudjetga soliq to‘lagan yuridik shaxslardan suv olgan iste‘molchilar;

g) foydali qazilmalar qazib olish bilan yo‘l-yo‘lakay va shaxtadan suvni chiqarib tashlash uchun olingan yerosti suvlari uchun, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniladigan suv hajmlaridan tashqari;

h) agregatlar ishlashi uchun suvdan foydalanganlik uchun gidroelektrostansiyalar;

i) birlamchi foydalanganlik uchun haq to‘langan suvdan ikkilamchi foydalanuvchilar (masalan, sug‘orish uchun kollektor-zovur tarmog‘idagi suvdan foydalanish);

j) faoliyatning asosiy turi bo‘yicha qishloq xo‘jalik mahsuloti yetishtiruvchilar sho‘rlangan yerlarni sug‘orishga suvdan foydalanganlik uchun. Soliq imtiyozi yordamchi qishloq xo‘jaligiga ega yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi;

k) umumiy ishlovchilarining kamida ellik foizi nogironlar bo‘lgan, nogironlarning jamoat birlashmalari, “Nuroni” jamg‘armasi va “O‘zbekiston chernobilchilari” uyushmasi mulkida bo‘lganlari, savdo-sotiq, vositachilik, ta‘minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslardan tashqari.

Soliq to‘lovchilarga O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko‘ra taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

9.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va byudjetga to‘lash muddatlari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar tomonidan, dehqon xo‘jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va tashkil

etmaydigan)dan tashqari, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha amalda olingan soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan umuman xo'jalik bo'yicha o'tgan yilda 1 ga sug'oriladigan yerga sarflangan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitob:

1) yuridik shaxslar (dehqon xo'jaliklari, mikrofirmalar va kichik korxonalaridan tashqari) tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl (15-ilovadagi shakl bo'yicha) bo'yicha soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda;

2) mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – birinchi chorak, yarim yillik, 9 oy yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmasdan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl bo'yicha oyma-oy taqsimlangan holda, yil yakunlari bo'yicha esa – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

3) tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tomonidan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl bo'yicha (15-ilovadagi shakl bo'yicha) soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda davlat soliq xizmati organlariga o'sib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.

Dehqon xo'jaliklariga (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash to'g'risida to'lov xabarnomalari davlat soliq xizmati organlari tomonidan joriy yilning 1-mayidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Suvni markazlashtirilgan vodoprovod tarmog'idan oladigan yuridik shaxslar "Suvoqava" tizimi korxonalari bilan solishtirish jarayonida olingan suv hajmini aniqlashtirish chog'ida suv hajmidagi farqni solishtirish amalga oshirilgan davr uchun hisob-kitoblarda aks ettiradilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq quyidagi muddatlarda to'lanadi:

1. Yuridik shaxslar tomonidan (qishloq xo'jaligi korxonalari va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) – har oyda, hisobot oyidan keyingi oyning 15-kunigacha;

2. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan (dehqon xo'jaliklaridan tashqari) – har chorakda, hisobot choragidan keyingi oyning 15-kunigacha.

3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning umumiy summasi chorakda eng kam ish haqining ellik baravaridan kam miqdorni tashkil etadigan yuridik shaxslar soliqni chorakda bir marta, hisobot choragidan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay to'laydilar. Bunda, mikrofirmalar va kichik korxonalar hisob-kitoblarni soliq qonunchiligiga muvofiq shaklda taqdim etadilar.

Soliq to'lovchilar (qishloq xo'jalik korxonalaridan tashqari) joriy yilning 15-yanvariga qadar suvdan foydalanish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga soliqni belgilangan limitdan kelib chiqib yoki suv yetkazib berish shartnomasiga ko'ra har oyda yoki har chorakda to'lashlari to'g'risida bildiruvnoma yuboradilar.

4. Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari va dehqon xo'jaliklari (yuridik shaxs tashkil etadigan va yuridik shaxs tashkil etmaydigan) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yilda bir marta – hisobot yilining 15-dekabriga qadar to'laydilar.

Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari boshqa yuridik va jismoniy shaxslar foydalangan suv hajmini olingan suvning umumiy hajmidan chiqarib tashlaydilar, bunda 1 gektar sug'oriladigan yerni sug'orishga suv sarfining umuman xo'jalik bo'yicha o'rtacha miqdoridan kelib chiqiladi. Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summaları to'langan taqdirda, soliqlar, yig'implarning boshqa turlari bo'yicha qarz mavjud bo'lmasa, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasi bo'yicha o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlar hisobi o'tkaziladi.

Suv yerosti va yuzadagi manbalardan kelib tushadigan suv tarmog'idagi suvdan foydalanilganda soliq manbalar bo'yicha belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblanadi. Shahar va tumanlarning davlat soliq

xizmati organlari suv yetkazib beruvchi korxonalardan vodoprovod tarmog'iga yuzadagi va yerosti manbalaridan kelib tushadigan suv hajmlari nisbati to'g'risidagi ma'lumotlarni olishlari va mazkur ma'lumotlarni soliq to'lovchilarga yetkazishlari kerak.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan binolar bir qismi, ayrim xonalar boshqa yuridik va jismoniy shaxslarga ijaraga topshirilganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni "Suvoqava" tizimi korxonalari yoki suv xo'jaligi organlari yoxud boshqa korxonalar bilan suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan ijaraga beruvchilar to'laydilar.

Bino (xona)ni ijaraga olgan va o'zlari suv yetkazib berish to'g'risida shartnoma tuzgan yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni mustaqil ravishda to'laydilar. Amaldagi korxonalar va tashkilotlar hududida ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajaradigan yuridik shaxslar ushbu ishlarni bajarish jarayonida foydalaniladigan suv uchun soliq to'lamaydilar. Ta'mirlash-qurilish va boshqa ishlarni bajarish chog'ida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni ular uchun ushbu ishlar bajariladigan korxonalar va tashkilotlar to'laydilar. Yangi qurilish maydonchasida qurilish ishlarini bajarish chog'ida qurilish paytida foydalaniladigan suv hajmi uchun soliqni qurilish tashkiloti to'laydi.

Mulkchilik va bo'ysunish shaklidan qat'iy nazar issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni ular tomonidan yuzadagi va yerosti manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun ishlatilgan suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

Yuridik shaxslarning byudjet bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblarning buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

1. Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'i debeti; byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i krediti.

2. Byudjetga o'tkazilgan soliq summalari quyidagicha aks ettiriladi: byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'i debeti; pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'i krediti.

Soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egalar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'g'ri hisoblash va to'lanishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar kimlar?

2. Jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari bo'la olishadimi?

3. Soliqqa tortish obykti qanday tartibda aniqlanadi?

4. Soliq stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?

5. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida o'rnatilgan?

6. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqdan ozod etiladi?

7. Dehqon xo'jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni byudjetga to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?

8. Soliq qaysi muddatda davlat byudjetiga o'tkaziladi?

9. Bonuslar nima?

Topshiriqlar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni davlat byudjetiga ta'minlab beradigan asosiy soliq to'lovchilar tarkibini o'rganib chiqish.

2. Soliq kodeksida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar tarkibini o'rganish.

10-bob. YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILAR UCHUN SOLIQLAR VA MAXSUS TO'LOVLAR

Reja

10.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari

10.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilar tarkibi va soliq obyekti

10.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va ularning tabaqalanishi

10.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilish tartibi

10.5. Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish muddati. Soliq bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish muddatlari

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, jismoniy shaxs, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, ruda, foydali qazilma.

10.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – soliqlarning cheklangan resurslardan samarali va oqilona foydalanishini rag'batlantiruvchi mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan. So'nggi yillarda soliq tizimini takomillashtirishda resurs soliqlariga ustuvor ahamiyat qaratilishiga qaramasdan, amaldagi soliqlar tizimining tabiiy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirishga ta'siri unchalik sezilmayapti. Buning asosiy sabablarini amaldagi tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog'liq soliqlar mexanizmidagi muammolarning mavjudligi va soliqlarning rag'batlantiruvchi roli hamda ularning tabiiy resurslardan oqilona

foydalanishga bo'lgan ta'sirchanligi yetarli darajada emasligi bilan izohlash mumkin.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalashning hozirgi bosqichidagi talablar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq uchun ikki muhim vazifani keltirib chiqaradi, ya'ni ularning birinchisi byudjet tizimining daromadlar qismini moliyaviy mablag'lar bilan muntazam ravishda shakllantirish bo'lsa, ikkinchisi esa cheklangan tabiiy resurslardan samarali foydalanish va bu jarayonni rag'batlantiruvchi mexanizmining ta'sirchanligini ta'minlashdan iboratdir.

Soliqqa tortish maqsadida yerosti boyliklari deganda yer qobig'ining yuqori qismini qamrab oladigan hamda foydali qazilmalarni tadqiq qilish va qazib olish mumkin bo'lgan makon, foydali qazilmalar deganda – iqtisodiy va sog'lomlashtirish ahamiyatiga ega geologik hosilalar qaraladi.

Tabiiy resurslar umummilliy boylik hisoblanib, ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qayd etilganidek: "Yer, yerosti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir" (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55-moddasi).

Mamlakat soliq tizimida tabiiy resurs soliqlarining rolini oshirish, ular orqali xo'jalik subyektlarining tabiiy resurslardan tejamkorlik va oqilona foydalanishini ta'minlashga erishish mumkin.

Olib borilayotgan soliq siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri, bu – yerosti boyliklaridan samarali foydalanish maqsadida ularni davlat byudjeti daromadlaridagi salmog'ini oshirishdan iboratdir. Buning asosiy sababi mamlakatimizda mavjud bo'lgan yerosti boyliklaridan ularning qayta tiklanmasligini hisobga olgan holda o'z o'rnida foydalanishni ko'zda tutadi. Hozirgi kunda ustuvor yo'nalishlardan biri – bu mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishdir. 2019-yilda belgilangan byudjet-soliq siyosatining muhim jihatlaridan biri – yerosti boyliklaridan tejamli va samarali foydalanishga qaratilganligidir. Yerosti boyliklar har qanday davlat uchun asosiy boylik hisoblanadi.

Respublikamiz qonunchiligiga ko'ra mavjud yerosti boyliklari umumdavlat mulki hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentyabrdagi "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, 1995-yildan boshlab yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq joriy etildi va yerosti boyliklaridan foydalanuvchilar ularning hajmidan kelib chiqqan holda soliq to'lay boshladilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning joriy etilishidan asosiy maqsad – umumdavlat mulki hisoblangan yerosti boyliklaridan oqilona tarzda butun jamiyat a'zolarini va kelajak avlod manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanish samaradorligini oshirish hisoblanadi.

O'zbekistonda 2002-yil 13-dekabrda "Yerosti boyliklari to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri tasdiqlandi va ushbu qonunning asosiy vazifasi bo'lib, yerosti boyliklariga egalik qilish, ulardan foydalanish va tasarruf etishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat ekanligi belgilandi.

Soliq kodeksiga ko'ra yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat soliqlari tarkibiga kiradi. Ushbu soliq tabiiy boyliklardan foydalanishning samaradorligini ta'minlash bilan birga sof fiskal vazifani ham bajaradi.

Respublikamizda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq yerosti boyliklarining 56 turiga nisbatan belgilangan bo'lsada, byudjetga soliq tushumi faqatgina 4-5 turdagi yerosti boyliklariga mutloq ravishda bog'liq bo'lib qolmoqda.

10.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar tarkibi va soliq obykti

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen hosilalardan foydalanish, shuningdek, chaqnoq toshlar xomashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarini yig'ish bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar to'laydilar.

Tarkibida rangli, nodir, asl, qora metallar va boshqa mineral xomashyo bo'lgan rudalarni bir korxonaga qazib olib, uni bundan keyin qayta ishlash uchun boshqa korxonalariga bersa (eksport bundan mustasno), qazib olinadigan rudani qayta ishlaydigan va soliq stavkasi belgilangan tayyor mahsulot chiqaradigan korxonaga soliq to'lovchi hisoblanadi. Masalan, Olmaliq mis qazib olish korxonasi tarkibida mis bo'lgan, qazib olingan rudani boyitish fabrikasiga beradi, fabrika boyitilgan rudani Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining mis eritish zavodiga topshiradi. Kombinat tayyor mahsulot – tozalangan mis chiqaradi, soliq stavkasi ham unda belgilangan. Mazkur holatda rudani qazib oluvchi korxonaga emas, balki tozalangan misni olganlik uchun kombinat soliq to'lovchi hisoblanadi.

Ruda qayta ishlash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga yuklab jo'natilgan yoki eksport qilingan taqdirda rudani qazib olgan korxonaga soliq to'lovchi bo'lib hisoblanadi.

Quyidagilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa tortish obyektlari hisoblanadi:

1) Foydali qazilmalarni qazib olish hajmi (shu jumladan, yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar) ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotning haqiqatda sotilish qiymati bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini chegirgan holda.

Qazib olingan ruda tarkibidan, asosiy foydali qazilmadan tashqari, unga doir stavkalar belgilangan boshqa xomashyo ajratib olingan taqdirda yo'l-yo'lakay olinadigan foydali qazilmalar va qimmatli komponentlar soliqqa tortish obyekti bo'lib hisoblanadi.

Qazib olingan foydali qazilma yoki uning bir qismi korxonaga tomonidan boshqa materiallarni ishlab chiqarish yoki tayyorlash uchun xomashyo hisoblangan taqdirda soliq ushbu xomashyoni qazib olishning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib, tasdiqlangan stavkalar bo'yicha to'lanadi.

Hisobot oyida qazib olingan, lekin to'laligicha yoki qisman sotilmagan foydali qazilmalar hajmi uchun soliq sotilgan mahsulotning hisobot oyi yoki sotish amalga oshirilgan bundan oldingi oy uchun o'rtacha hisoblangan qiymatidan kelib chiqib to'lanadi.

Gaz qazib chiqaruvchi korxonalar uchun soliqqa tortish obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan sotish bahosi bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegirilgan holda, birlamchi tayyorgarlikdan o'tgan qatlamdan qazib olingan tabiiy gaz (tozalanmagan gaz) hajmi hisoblanadi.

2) Texnogen hosilalar hajmi (mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari) ajratib olingan asosiy foydali qazilmaning qonun hujjatlariga muvofiq haqiqiy sotilish qiymati bo'yicha, bunda qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i chegiriladi. Texnogen hosilalarga shu jumladan texnologik yoki boshqa sabablarga ko'ra vaqtincha ishlatilmayotgan mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlash chiqindilari kiradi.

3) To'plangan chaqnoq tosh xomashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarining hisob qiymati.

Yig'ish deganda chaqnoq tosh xomashyosi namunalari, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallarini tabiiy ochiq joylar, tabiiy yerosti bo'shliqlari (g'orlar), ishlatib bo'lingan karerlar, kon qazish sanoati uyumlari, daryo qayirlarida konchilik va boshqa maxsus ish turlarini bajarmasdan, yerostining bir butunligini buzmasdan olib to'plash tushuniladi.

10.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va ularning tabaqalanishi

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi va soliq to'lovchilarga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda yetkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli Qaroriga muvofiq 2018-yilda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari miqdorlari belgilangan. Har bir yer ostidan

olinadigan foydali qazilma uchun alohida turdagi soliq stavkalari belgilab qo'yildi (10.1-jadval).

10.1-jadval

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari

Soliqqa tortish obyektining nomi	Soliq solinadigan bazaga nisbatan, foizda
1. Asosiy va qo'shimcha foydali qazilmalar olinishiga nisbatan soliq stavkalari	
<i>Energiya manbalari:</i>	
Tabiiy gaz	30,0
Utilizatsiya qilingan tabiiy gaz	9,0
Yer ostidan qazib olingan gaz	2,6
Nobarqaror gaz kondensati	20,0
Neft	20,0
Ko'mir	4,0
<i>Rangli va noyob metallar:</i>	
Tozalangan mis	8,1
Molibdenli sanoat mahsuloti	4,0
Konsentrlangan qo'rg'oshin	4,0
Metall rux	4,0
Volfram konsentrati	10,4
Uran	10,0
<i>Asl metallar:</i>	
Oltin	5,0
Kumush	8,0
Qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zeb-ziynat uchun toshlar xomashyosi	24,0
<i>Qora metallar:</i>	
Temir	4,0
<i>Kon-kimyo xomashyosi:</i>	
Tosh (ovqatga ishlatiladigan) tuz	3,5
Kaliy tuzi	3,5
Natrit sulfat	3,5
Fosforitlar (grafitlarda)	5,0
Karbonat xomashyosi (ohaqtoshlar, dolomitlar)	3,5

Glaukonit	3,5
Mineral pigmentlar	4,8
<i>Kon-ruda xomashyosi:</i>	
Plavik shpatli konsentrat	21,2
Tabiiy grafit	8,0
Ikkilamchi boyitilmagan kulrang kaolin	7,9
Kvarts – dala shtapli xomashyosi	6,5
Shisha xomashyosi	3,0
Betonitli loy	4,8
Talk va talk toshi	4,0
Talkomagnizit	4,0
Mineral bo'yoqlar	5,7
Vollostanit	4,0
Asbest	4,0
Mineral tola ishlab chiqarish uchun bazalt	4,0
Bariy konsentrati	4,0
<i>Metallurgiya uchun noruda xomashyosi:</i>	
O'tga chidamli, qiyin eruvchan, qoliblash gilmoyasi	4,0
Ohaktoshlar, dolomitlar	4,0
Kvarts va kvartsitlar	6,5
Qoliplash qumlari	4,0
<i>Noruda qurilish materilalari:</i>	
Sement xomashyosi	5,0
Tabiiy bezaktoshdan bloklar	5,0
Marmar ushog'i	5,0
Gips toshi, ganch	5,0
Keramzit xomashyosi	5,0
G'isht – cherepitsa (qumoqsimon, lyossimon jinslar, zichlovchi sifatida lyosslar, qumlar va boshqalar)	5,0
Gips va angidrit	5,0
Arralanadigan, xarsangtosh va shag'al uchun toshlar	5,0
Qurilish qumlari	5,0
Tosh-shag'al aralashmasi, shag'al aralashmasi, mayda toshlar, shag'al	5,0

Qumtoshlar	5,0
Chig'anoq	5,0
Slanetslar	5,0
Agloporit	5,0
Boshqa keng tarqalgan foydali qazilmalar (margellar, argelitlar, amvritlar va boshqalar)	5,0
2. Foydali qazilmalarni qazib olish va mineral xomashyoni qayta ishlash jarayonida olingan texnogen hosilalardan foydalanganlik huquqi uchun	asosiy foydali qazilma boyligini qazib olganlik stavkasidan 30 %

10.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilish tartibi

Quyidagilar yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etiladilar:

a) yerosti boyluklarini geologik jihatdan o'rganuvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

b) geologik, mineralogik va boshqa alohida qo'riqlanadigan tabiiy hududlarda ilmiy ish olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar;

d) hamma joyda tarqalgan foydali qazilmalarni ularga berilgan yer uchastkalari doirasida belgilangan tartibda, o'z xo'jalik va maishiy ehtiyojlari uchun qazib olishni amalga oshiruvchi yer egalari va yerdan foydalanuvchilar.

Soliq qonunchiligiga muvofiq yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlar uchun o'z hududida qazib olingan va ishlatiladigan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lashdan ozod etiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga joriy etilishidan avval qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilarga taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugashiga qadar saqlanadi.

10.5. Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish muddati. Soliq bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish muddatlari

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblar quyidagi muddatlarda taqdim etiladi:

✓ yuridik va jismoniy shaxslar (mikrofirmalar va kichik korxonalaridan tashqari) soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan shakl bo'yicha soliqni to'lash uchun belgilangan muddatda;

✓ mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – birinchi chorak, yarim yillik, 9 oy yakunlari bo'yicha hisobot choragidan keyingi oying 25-kunidan kechiktirmasdan soliq qonunchiligiga muvofiq shakl bo'yicha oyma-oy taqsimlangan holda, yil yakunlari bo'yicha esa – yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda davlat soliq xizmati organlariga o'sib boruvchi yakun bilan taqdim etiladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni yuridik shaxslar quyidagi tartib va muddatlarda to'laydilar:

a) foydali qazilmalarni qazib olganlik va texnogen hosilalardan foydalanganlik uchun – har oyda, hisobot oyidan keyingi oying yigirmanchi kuniga qadar;

b) rangli tosh xomashyosi, paleontologik qoldiqlar va boshqa geologik kolleksiya materiallari namunalarini to'plaganlik uchun har chorakda hisob-kitoblarni taqdim etish uchun belgilangan kundan kechiktirmay.

Bunda mikrofirmalar va kichik korxonalar soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan shakl bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etadilar.

Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar yiliga bir marotaba, keyingi yilning 20-yanvaridan kechiktirmay, davlat soliq xizmati organlarining xabarnomasi bo'yicha hisob-kitobni ularga taqdim etadilar va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'laydilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq umumdavlat solig'i hisoblanadi va respublika byudjetiga kiritiladi.

Yuridik shaxslarning yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha hisob-kitoblari buxgalteriya hisobi byudjetga to'lovlar bo'yicha (turlar bo'yicha) qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritiladi.

Hisoblab yozilgan soliq summasi quyidagicha aks ettiriladi: davr xarajatlarini hisobga olish hisobvarag'ining debeti; byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Byudjetga o'tkazilgan soliq summolari quyidagicha aks ettiriladi: byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ining debeti; pul mablag'larini hisobga olish hisobvarag'ining krediti.

Soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha soliq summolari to'langan holda, boshqa soliqlar va yig'imlar bo'yicha qarz bo'lmagan taqdirda, ushbu summalar soliq to'lovchiga uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida qaytariladi yoki kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkaziladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar. Soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdor shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega bo'ladilar.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi davlat soliq xizmati organlari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradilar.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari kimlar?
2. Jismoniy shaxslar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilari bo'la olishadimi?
3. Soliqqa tortish obyekti qanday tartibda aniqlanadi?
4. Soliq stavkalari qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
5. Soliq stavkalari qaysi mezonlar asosida o'rnatilgan?
6. Qanday yuridik shaxslar suv resurslaridan foydalanilganlik uchun soliqdan ozod etiladi?

7. Dehqon xo'jaliklari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni byudjetga to'lash tartibi qanday amalga oshiriladi?

8. Soliq qaysi muddatda davlat byudjetiga o'tkaziladi?

9. Bonuslar nima?

10. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumi asosan qaysi yer osti qazilma boyliklari hissasiga to'g'ri keladi?

11. Respublikamizda eng yirik soliq to'lovchilar jumlasiga qaysi korxonalar kiradi?

12. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq tushumining asosiy qismi respublikamizning qaysi hududlari hissasiga to'g'ri keladi?

13. Yer qa'ridan foydalanganda soliqqa tortish obyekti va bazasi qanday aniqlanadi?

14. Qaysi mezonlar asosida soliq stavkalari tabaqalashtiriladi?

15. Hozirgi vaqtda yerosti qazilma boyliklarning nechta turiga nisbatan soliq stavkalari belgilangan?

Topshiriqlar

1. Yer qa'ridan foydalanganda va suv resurslaridan foydalanganda soliqqa tortishning zarurligini o'rganish.

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni davlat byudjetiga ta'minlab beradigan asosiy soliq to'lovchilar tarkibini o'rganib chiqish.

3. Soliq kodeksida yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan imtiyozlar tarkibini o'rganish.

4. Keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olish bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar soliq majburiyatlarini amalga oshirish tartibini o'rganib chiqish.

IV QISM. YIG‘IMLAR, MAJBURIY TO‘LOVLAR VA ELEKTRON HISOBOT

11-bob. MAHALLIY YIG‘IMLAR

Reja

- 11.1. Mahalliy yig‘imlar va ularning amal qilish xususiyatlari
- 11.2. Mahalliy yig‘imlarni hisoblash va to‘lash tartibi
- 11.3. Patta haqi to‘lovlari
- 11.4. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda yig‘imlarning ahamiyatini oshirish

Tayanch so‘z va iboralar

Mahalliy byudjet, mahalliy yig‘im, patta, patta haqi.

11.1. Mahalliy yig‘imlar va ularning amal qilish xususiyatlari

Mahalliy yig‘imlar – mamlakat qonunlariga asosan, davlat hokimiyati mahalliy organlari o‘z qarorlari bilan belgilangan va mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun ularning vakolatlari doirasida foydalaniladigan to‘lovlardir.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbai hisoblanib, ular hozirga qadar davlatchilik munosabatlari rivojlanishiga mutanosib ravishda shakllanib, takomillashib keldi. Agarda respublikamizning bozor munosabatlariga o‘tishi bilan bog‘liq turli sohalarda amalga oshirilgan va davom ettirilayotgan islohotlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mahalliy hokimiyat idoralarining mavqeini oshirish borasidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Anna shunday chora-tadbirlarning aniq yo‘nalishi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining daromad manbaini mustahkamlashga qaratilgandir.

Bu boradagi islohotlarning ilk huquqiy asoslaridan biri, shubhasiz 1993-yil 7-mayda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida”gi qonunidir. Ushbu qonunga muvofiq,

respublikamizda mahalliy soliqlar va yig'imglar joriy qilingan bo'lib, ularni joriy etishdan maqsad mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish manbaini vujudga keltirish, tabiiy va boshqa resurslarni qayta ishlab chiqarish, davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish qilib belgilandi.

Mahalliy soliqlar va yig'imglar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibidagi o'zgarishlar nafaqat son jihatdan, shuning bilan birgalikda, mohiyat jihatdan ham keng ko'lamli o'zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo'llanilib kelinmoqda.

Respublikamiz soliq tizimidagi mavjud mahalliy soliqlar va yig'imglarga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarning ayrimlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- ❖ mahalliy soliqlar va yig'imglar mahalliy davlat hokimiyati idoralari tasarrufida bo'lgan hududlar ehtiyojlari uchun ishlatiladi;

- ❖ ularning asosiy qismi mahalliy davlat hokimiyati idoralarining bevosita o'zlari tomonidan joriy etiladi;

- ❖ ularni huquqiy jihatdan tartibga solishda mahalliy davlat hokimiyati idoralariga bir qadar vakolatlar berilgan bo'lsada, respublika qonunchiligi bilan ham hisoblashishni talab etadi va boshqalar.

Mamlakatimizda mahalliy soliqlar va yig'imglar mahalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda kichik ulushga ega bo'lib, mahalliy byudjet xarajatlari asosan birlashtirilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtiriladi. Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, taraqqiy etgan mamlakatlarda mahalliy byudjet daromadlarining 60,0 foizidan ko'prog'ini mahalliy soliqlar va yig'imglar tashkil etadi.

Mahalliy yig'imglar mahalliy byudjetlar tarkibida birinchi moliyaviy manba sifatida qaralsa ham, bu soliqlar va yig'imglar mahalliy byudjetga birlashtirilgan xarajatlarini moliyalashda yetarli moliyaviy manba bo'la olmaydi.

11.2. Mahalliy yig'implarni hisoblash va to'lash tartibi

Mahalliy yig'implarning turlari:

✚ Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im.

✚ Avtotransportni saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'im.

✚ Patta to'lovlari.

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va avtotransportni saqlash bo'yicha pulli xizmatlarni ko'rsatganlik uchun yig'imning to'lovchilari bo'lib – O'zbekiston Respublikasi hududida ushbu tovarlar bilan qonunchilikda belgilangan tartibda chakana savdoni amalga oshiradigan va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadi.

Soliq obykti – tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxati tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish uchun yig'imdir.

Ushbu yig'im ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdoni amalga oshirish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqini olish uchun to'lanadi.


Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi ruxsat guvohnomasi bilan tasdiqlanadi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im yig'im stavkalarining qonun hujjatlarida belgilangan oylik miqdori doirasida hisoblab chiqariladi.

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning aniq stavkasi mahalliy davlat hokimiyatining vakillik organlari tomonidan belgilanadi va qonun hujjatlarida belgilangan eng yuqori stavkalardan ortiq bo'lishi mumkin emas.

11.3. Patta haqi to'lovlari

Bozorlarning daromadlari tarkibi quyidagilardan tashkil topadi:



11.1-chizma. Bozorlarning daromadlari tarkibi

Patta to'lovini bozorlarda tovarlar, buyumlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sotishni amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar to'laydi.

Patta to'lovi har bir sotish joyidan savdo qilingan har bir kun uchun yoki har bir tovar, buyum, chorva moli uchun undiriladigan qat'iy belgilangan to'lovdur.

Jismoniy shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasiga binoan savdo joyi uchun ijara haqi to'lanadigan hollarda, patta to'lovi summasi ijara haqi tarkibiga kiritiladi.

Patta to'lovi har bir to'lovchidan naqd pulli yoki naqd pulsiz shaklda, bir vaqtning o'zida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining chekini yoki terminal chekini berish orqali undiriladi.

Patta to'lovi miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Bozorlarning boshqa tushumlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ijara to'lovidan olingan daromadlar. Ijara to'lovi bozor ma'muriyatining tasarrufida bo'lgan binolar, inshootlar hamda boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadi;

2) sotuvchilarga va sotib oluvchilarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

3) bozor ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va realizatsiya qilishdan olingan

daromadlar (dehqon bozorlari uchun). Bunda realizatsiya qilingan tovarlarning xarid qiymati bilan sotish qiymati o'rtasidagi farq daromaddir;

4) qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

11.4. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda yig'implarning ahamiyatini oshirish

Mahalliy soliqlar va yig'implar mahalliy hukumatlar bajaradigan vazifalariga ko'ra belgilanib, ular ixtiyoriga to'liq, birlashtirilib berilishi mumkin. Ammo, bu soliqlar va yig'implar bugungi kunda mahalliy byudjet xarajatlarning atiga 30-40 foizini moliyalashtiradi. Bizningcha, kelgusida mahalliy byudjet daromadlarida mahalliy soliqlar va yig'implar salmog'ini 50-60 foizga yetkazish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichining dolzarb vazifalaridan biri – mahalliy byudjet daromadlarini boshqacha soliqsiz to'lovlar evaziga ko'paytirish masalasi bo'lib kelmoqda.

Soliq yukini oshirish imkoniyatlarining chegaralanganligi uchun, mahalliy byudjetlarning daromad qismida soliqsiz yig'implarning ahamiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalliy hokimiyat organlari o'zlariga tegishli bo'lgan mulkdan daromad manbalarini oshirish maqsadida foydalanishga o'tishlari uchun tegishli huquqiy va ma'muriy asoslar hamda chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqilib amaliyotga tatbiq etilishi lozim.

Bu borada quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz, ya'ni:

➤ iqtisodiy salohiyatiga bog'liq bo'lmagan, tabiiy geografik joylashuvining qulayligi tufayli yuzaga keladigan renta daromadlariga faqat mahalliy byudjetlarga tushadigan va mahalliy hokimiyatlar tomonidan undiriladigan mahalliy renta to'lovini joriy etishga ruxsat berish kerak. Bu amaliyot mahalliy hokimiyatlarda o'z hududlaridagi tabiiy va iqtisodiy resurslarga nisbatan tejamkorlik bilan yondashish va ularni tejab-tergab foydalanishga bo'lgan manfaatdorligini oshiradi va

mahalliy byudjet daromadlarini real oshirish imkoniyatlarini yaratadi.

➤ bu amaliyotni joriy etish va nazoratini olib borish vakolatini mahalliy hokimiyatlarga yuklatish lozimdir. Bizning fikrimizcha, soliqlarning respublika byudjetidan mahalliy byudjetlarga har yili qayta taqsimlanadigan me'yorlari ilmiy jihatdan asoslanmagan bo'lib, amaldagi ehtiyojlardan kelib chiqib belgilanmoqda. Bu esa, mahalliy hukumatda boqimandachilik kayfiyatlarini qaror toptirib, hududlarining iqtisodiy va soliq salohiyatidan samarali foydalanishga bo'lgan harakatlarini susaytirmoqda.

➤ bugungi kunda mahalliy byudjetlarni shakllantirish mexanizmi tub islohotlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Bizningcha, ushbu yo'nalishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

➤ mahalliy hukumat organlariga o'z hududlarida soliqlarni undirish va o'z byudjetini tuzishda ularga moliyaviy mustaqillik berilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunga amaliyotda xazinachilik xizmatlarini joriy etish orqali erishish mumkin.

➤ mahalliy hukumat organlariga soliq va byudjet mustaqilligini berish bilan bir qatorda, ularning moddiy javobgarligini oshirish ham ko'zda tutiladi.

➤ turli darajadagi hukumat organlarining byudjet ehtiyojlari baholanishi me'yorlar usuliga o'tkazilib, byudjet xarajatlari va transfertlari yagona me'yorlar asosida amalga oshirilishi talab etiladi. Darhaqiqat, respublikamizda 2000-yildan boshlab xarajatlarning ba'zi turlariga me'yorlar belgilangan bo'lsa-da, ammo amaliyotda qo'llanilmayapti. Bizningcha, besh yildan kam bo'lmagan muddatga byudjet xarajatlarining barqaror me'yorlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, davlatning iqtisodiy rivojlanishi ma'lum chegaraga yetgunga qadar, o'z zimmasidagi ijtimoiy muammolarni xal etish uchun moliyaviy mablag'lar markazlashtirilishining kuchaytirilishi taqozo etiladi. Ayrim mamlakatlarda davlat iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligiga qarab, soliq yukining simlanish darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Mahalliy yig‘imlarni to‘lovchilari kimlar?
2. Mahalliy yig‘imlar qaysi davlat organi tomonidan belgilanadi?
3. Mahalliy yig‘imlar stavkalari qaysi mezonlar asosida o‘rnatilgan?
4. Mahalliy yig‘imlar qaysi muddatlarda mahalliy byudjetga o‘tkaziladi?
5. Nima uchun mahalliy byudjetda mahalliy yig‘imlar salmog‘i past?
6. Respublikamizda mahalliy yig‘imlar salmog‘ini oshirish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirish lozim?

Topshiriqlar

1. Mahalliy yig‘imlar to‘lovchilar tarkibini o‘rganib chiqish.
2. Respublikamizda mahalliy yig‘imlar salmog‘ini oshirish borasida takliflar ishlab chiqish.

12-bob. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA MAJBURIY TO'LOVLAR

Reja

12.1. Yagona ijtimoiy to'lov (Ijtimoiy soliq)

12.2. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar

Tayanch so'z va iboralar

Yuridik shaxs, yagona ijtimoiy to'lov, ijtimoiy soliq, Yo'l jamg'armasi, ajratma.

12.1. Yagona ijtimoiy to'lov (Ijtimoiy soliq)

2020-yilgacha yagona ijtimoiy to'lov har oyda soliq solinadigan bazadan hamda belgilangan stavkalardan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilar edi. 2020-yildan boshlab soliq amaliyotida u soliqqa tenglashtirildi va ijtimoiy soliq deb ataldi.

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to'lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish obyektidir.

Ijtimoiy soliqni soliq to'lovchilari deb quyidagilar e'tirof etiladi:

➤ O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari;

➤ O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar, chet el yuridik shaxslarining vakolatxonolari va filiallari;

➤ ijtimoiy soliq to'laydigan jismoniy shaxslarning ayrim toifalari.

Quyidagilar soliq solish obyektini hisoblanmaydi:

✓ ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'lig'iga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararining o'rnini qoplash tarzidagi, ushbu Kodeks 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

✓ paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar uchun soliqni hisoblab chiqarish maqsadida soliq bazasi ularning O'zbekiston Respublikasida byudjet tashkilotlari xodimlari uchun ish haqi miqdorining oshishi inobatga olingan holda qayta hisoblab chiqariladigan, ular O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga ishga yuborilguniga qadar oxirgi ish joyida mehnatga haq to'lash tarzida olgan daromadlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Soliq soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda har oyda hisoblab chiqariladi.

Soliq ish beruvchining va ayrim toifadagi jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobidan to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarini va konsullik muassasalari xodimlari bo'yicha, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kvota qilingan lavozimlarga xizmat safariga yuborilgan shaxslar bo'yicha soliqni to'lash majburiyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining zimmasiga yuklatiladi.

Soliq hisoboti soliq hisobida turilgan joydagi soliq organlariga soliq to'lovchi tomonidan ortib boruvchi yakun bilan har oyda hisobot davridan keyingi o'ning 15 kundan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi. O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan yil yakunlari bo'yicha soliqning hisoboti hisobot yilidan keyingi yilning 25-martiga qadar taqdim etiladi.

Soliqni to'lash har oyda, soliq hisobotini taqdim etish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona ijtimoiy to'lov stavkalari⁴⁵

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Soliq to'lovchilar, bundan 2 – 4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2	Byudjet tashkilotlari	25
3	“SOS – O‘zbekiston Bolalar mahallalari” uyushmalari	7
4	Ixtisoslashtirilgan tsexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo‘lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Kalendar yil soliq davridir.

Yil oyi hisobot davridir.

Soliq soliq to'lovchining kalendar oyda ishlagan kunlari sonidan qat'iy nazar:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

2) yakka tartibdagi tadbirkor bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan jismoniy shaxslar tomonidan (bundan buyon matnda yakka tartibdagi tadbirkorning xodimlari deb yuritiladi) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

3) faoliyatni yuridik shaxs tashkil etmagan holda, oilaviy tadbirkorlik shaklida amalga oshiruvchi oila a'zolari tomonidan:

- yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan oila a'zosi tomonidan – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan kam bo‘lmagan miqdorda;

⁴⁵ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 405-modda. 2020. 30 dekabrda qabul qilingani. www.lex.uz

• oilaning boshqa a'zolari tomonidan (bundan o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar mustasno) – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

4) "Hunarmand" uyushmasining hunarmandchilik faoliyati subyektlari bo'lgan, qishloq tumanlarida ro'yxatdan o'tgan va faoliyatini amalga oshirayotgan a'zolari tomonidan o'z faoliyatining dastlabki ikki yilida – oyiga bazaviy hisoblash miqdorining 50 foizi miqdorida;

5) "Usta-shogird" maktablari o'quvchilari tomonidan ular yigirma besh yoshga to'lguniga qadar ishlagan davrida – yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravaridan kam bo'lmagan miqdorda majburiy tartibda to'lanadi. Belgilangan miqdordagi soliqning to'lanishi mehnat stajini hisoblab chiqarishda bir yil deb hisobga olinadi.

12.2. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilar kiradi:

❖ avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im;

❖ chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im.

Avtotransport vositalarini oluvchi va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirishni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im to'lovchilardir.

Chet davlatlar avtotransport vositalarining egalari yoki foydalanuvchilari ushbu vositalarning O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im to'lovchilardir.

Yig'imlar uchun soliq solish obyekti quyidagilardir:

❖ avtotransport vositalarini olish va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish;

✚ chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirishi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tish.

Soliq solinadigan baza quyidagilardir:

olingan va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kiriladigan avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati;

O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganida yoki uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganida chet davlatlarning avtotransport vositalari.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘imni to‘lashdan quyidagilar ozod qilinadilar:

1) ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo‘l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobilni va (yoki) motoaravachani oluvchi barcha guruhlardagi nogironlar;

2) yaqin qarindoshlaridan hadya shartnomasi yoki meros asosida avtomobillar va motoaravachalar oluvchi fuqarolar;

3) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarini saqlash, ta‘mirlash, rekonstruksiya qilish va qurishni amalga oshiruvchi ixtisoslashtirilgan yo‘l xo‘jalik boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar – mazkur ishlarni amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan avtotransport vositalari bo‘yicha;

4) faoliyatining asosiy turi yo‘lovchilar tashish bo‘lgan, qonun hujjatlariga muvofiq yo‘lovchilar tashish uchun belgilangan namunadagi litsenziyaga ega bo‘lgan avtotransport korxonalari – yo‘lovchilar tashishni amalga oshiruvchi transport vositalari bo‘yicha (yengil avtomobillar va yo‘nalishli taksilardan tashqari);

5) yuridik shaxslar – qirq tonnadan ortiq yuk ko‘taradigan, olingan kon avtosamosvallari bo‘yicha;

6) homiylik (beg‘araz) yordami sifatida avtomobillarni olgan (sotib olgan) bolalar uylari, ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar, nogiron bolalar uchun markazlar, qariyalar va kichik yoshdagi nogironlar uchun internat-uyalar, shuningdek, byudjet hisobidan moliyalashtiriladigan tibbiyot muassasalari;

7) yuridik shaxslar – avtotransport vositalarini bitta tizim (davlat va xo‘jalik boshqaruvi organi) ichida balansdan balansga bepul o‘tkazishda;

8) qayta tashkil etish natijasida avtotransport vositasini olgan huquqiy voris;

9) avtotransport vositalarini yuridik shaxslarga lizingga berish uchun oluvchi lizing beruvchilar.

Avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im ular O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilayotganda, qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganda quyidagi hollarda undiriladi:

1) avtotransport vositalari oldi-sotdi, almashtirish, hadya, bepul berish shartnomasi asosida, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar asosida mulk qilib olinganda;

2) avtotransport vositalari yuridik shaxsning ustav fondiga (ustav kapitaliga) yoki qonun hujjatlarida belgilangan tartibda dividendlar sifatida olinganda;

3) avtotransport vositalari lizingga berish uchun olinganda, Yig‘im taraflarning yozma kelishuviga ko‘ra lizing beruvchidan yoki lizing oluvchidan undiriladi. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan taqdirda, yig‘im lizing oluvchidan undiriladi. Lizing shartnomasi muddati tugaganidan so‘ng mazkur lizing (ikkilamchi lizing) shartnomasi predmeti bo‘lgan avtotransport vositasi qayta ro‘yxatdan o‘tkazilayotganida takroran yig‘im undirilmaydi;

4) avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirilganda.

Avtotransport vositalarini olish va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirish uchun yig‘im to‘langanligi to‘g‘risidagi hujjat taqdim etilmagan holda avtotransport vositalarini ro‘yxatdan o‘tkazish, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish yoki texnik ko‘rikdan o‘tkazish amalga oshirilmaydi.

Chet davlatlar avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o‘tganligi uchun

yig'ım chet davlatning avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasi hududiga kirayotganida undiriladi.

O'z-o'zini tekshirish uchun savollar

1. Ijtimoiy soliq to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanishadi?
2. Ijtimoiy soliq mablag'lari qanday tartibda jamg'armalarga taqsimlanadi?
3. Ijtimoiy soliq obykti va bazasi qanday aniqlanadi?
4. Ijtimoiy soliqdan qanday chegirmalar nazarda tutilgan?
5. Ijtimoiy soliq qanday tartibda hisoblab chiqariladi?
6. Mikrofirma va kichik korxonalar ijtimoiy soliqni qaysi muddatda to'lashadi?
7. Respublika Yo'l jamg'armasiga yig'ımlarning to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?
8. Respublika Yo'l jamg'armasiga yig'ımlarning obykti va bazasi qanday topiladi?

Topshiriqlar

1. Respublika Yo'l jamg'armasiga yig'ımlar tashkil topish manbalarini o'rganib chiqish.
2. Ijtimoiy soliqni to'lash tartibini o'rganish.

13-bob. ELEKTRON HISOBOT VA UNI JO‘NATISH TARTIBI

Reja

13.1. Hisobotlarni elektron ko‘rinishda topshirishning zarurligi, joriy etilishi va me‘yoriy-huquqiy asoslari. Elektron raqamli imzo

13.2. “Soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmatlar” tizimi (“Shaxsiy kabinet”)ga kirish paytida ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar oynasi

13.3. Hisobotning o‘z vaqtida topshirilganligi va soliq inspektori tomonidan imzolanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni olish tartibi

Tayanch so‘z va iboralar

Soliq to‘lovchi, soliq hisoboti, moliyaviy hisobot, elektron raqamli imzo, shaxsiy kabinet.

13.1. Hisobotlarni elektron ko‘rinishda topshirishning zarurligi, joriy etilishi va me‘yoriy-huquqiy asoslari. Elektron raqamli imzo

Bugungi kunda respublika Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini boshqarish ishlarini muvofiqlashtirishda soliq obyektlari va soliq to‘lovchi subyektlarni to‘liq ro‘yxatga olish, barcha turdagi soliqlar va yig‘imlar hisob-kitobini haqqoniy ma‘lumotlar asosida yuritilishini ta‘minlash, soliq to‘lovi jarayonlarini soddalashtirish, soliq qonunchiligining buzilishini oldini olish hamda soliq va tushumlarning yig‘uvchanligini oshirish asosiy masalalardan biri bo‘lib, bu o‘z navbatida sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish va uni boshqarishni to‘g‘ri tashkil etish, shu asosda soliq yukini aniqlashning ilmiy asoslangan va har tomonlama samarali bo‘lgan usullarini ishlab chiqish hamda davlat soliq idoralari tomonidan o‘rnatilgan nazorat ishlarini imkon qadar mukammallashtirishni talab qiladi.

Hukumatimiz tomonidan sohani har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 3-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi soliq

organlari ma'lumotlarni ishlash yagona kompyuter tizimini yaratish to'g'risida"gi 388-sonli qarori bilan soliq xizmati organlarini kompyuterlashtirish vazifasi belgilangan bo'lsa, 1995-yil 14-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi soliq organlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va xodimlarning ijtimoiy himoyalanihini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 359-sonli qarori bilan Davlat soliq qo'mitasi tasarrufida "Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi" tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalaridan biri soliq xizmati organlari uchun dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish va ma'lumotlarga ishlov beradigan yagona kompyuter tizimini yaratishdan iborat ekanligi belgilab berildi.

Soliq xizmati organlarida keyingi o'n yillik davrda soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslarni soliq idoralarida ro'yxatga olish, hisobini yuritish va ma'lumotlarga avtomat ishlov beradigan yagona axborot - hisobga olish tizimi yaratildi. Tizimni samarali ishlashini ta'minlash maqsadida soliq to'lovlarini banklardan avtomat ravishda olish va ularni soliq to'lovchining shaxsiy hisobvaraqaalarida yuritilishini ta'minlash bo'yicha banklar bilan va chet ellardan tijorat maqsadida tovar-moddiy boyliklarini olib keluvchi tadbirkor subyektlar to'g'risida ma'lumot olish bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi bilan ma'lumot ayriboshlash yo'lga qo'yilgan.

Soliq idoralarida har bir soliq to'lovchi uchun elektron hisobvaraqaalari ochilib, unda soliq to'lovchilar to'g'risida ma'lumotlar jamlanib, ular asosida ma'lumotlar bazasi tashkil etilgan.

Davlat soliq xizmati organlari faoliyatida axborot kommunikatsiya-texnologiyalarini joriy etish va uni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi va Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 26-sentyabrdagi "Elektron raqamli imzodan foydalanish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to'g'risida"gi 215-sonli qarorlar qabul qilindi.

Bugungi kunda soliq xizmati organlarida soliq to'lovchi yuridik shaxslardan moliya va soliq hisobotlarni Internet tarmog'i orqali qabul qilish

tizimi ishga tushirildi. Tizimning ishlash prinsipi sodda yaratilgan bo'lib, hisobotlarni elektron shaklda topshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan elektron raqamli imzodan foydalaniladi.

Tizimda soliq organlariga taqdim etiladigan soliq va moliya hisobotlariga qo'yilgan elektron raqamli imzoning maxsus dasturiy ta'minot yordamida haqqoniyligi tekshirib ko'riladi va tasdig'ini topgandan so'ng ma'lumotlar subyektlarning shaxsiy hisobvaraqlariga kiritiladi, aks holda hisobotlar qabul qilinmaydi va korxonaga bu haqda ma'lumot yuboriladi.

Ushbu tizimning ishga tushirilishi:

➤ soliq ma'murchiligi tizimini takomillashtirish, soddalashtirish va shunigdek, barqarorligini ta'minlash;

➤ soliq qonunchiligining buzilishiga yo'l qo'ymaslik uni oldini olish va nazorat o'rnatish;

➤ tadbirkorlik subyektlari tomonidan moliya va soliq hisobotlarini hisob-kitob qilishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan mantiqiy xatoliklarni oldini olish;

➤ hisobot shakllarini xarid qilish xarajatlarini, soliq inspeksiyasiga kelish-ketish va navbat kutish uchun ketadigan vaqtni iqtisod qilish;

➤ taqdim etiladigan soliq va moliya hisobotlarini avtomat tarzda tahlil etib, ularning shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkazish;

➤ tadbirkorlik subyektlariga sifatli xizmat ko'rsatish va soliq xizmati organlari xodimlarining ishini yengillashtirish va boshqa shu kabi masalalarni hal etishda ijobiy natija beradi.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq va moliyaviy hisobotlarni elektron shaklda topshirish uchun yaratilgan dasturiy mahsulni Internet tarmogidan www.soliq.uz saytiga kirib, ko'chirib olish imkoniyati yaratilgan. Agar soliq qonunchiligi yoki amaldagi me'yoriy hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsa, unga mos holda dasturiy mahsulot yordamida topshiriladigan hisobot shakllariga ham kerakli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, navbatdagi raqamlangan yangi varianti ishlab chiqiladi. Ushbu sayt orqali dasturiy mahsulotning yangilangan variantini hech bir qiyinchiliksiz yangilash imkoni yaratilgan.

Yuqorida qayd etilgan jarayonlarning aniq mohiyatini tushunish uchun bir necha yangi tushunchalarni kiritildi.

Elektron raqamli imzo (ERI) – elektron ma'lumotning aslligini aniqlash maqsadida ma'lumot bilan birga qabul qilinadigan, elektron vositalar orqali yaratilgan o'ziga xos identifikator, boshqacha qilib aytganda subyekt to'g'risidagi kerakli ma'lumotlarni kriptografiya usullaridan foydalanib kodlashtirish.

ERI quyidagi masalalarni hal qilishda yordam beradi:

- ✓ Ma'lumotning muallifini aniqlash (identifikatsiya);
- ✓ Ma'lumotning aslligini aniqlash (autentifikatsiya);
- ✓ Uzatilgan ma'lumotning yaxlitligini ta'minlash.

Bulardan tashqari, ERI quyidagilar haqida guvohlik berishi shart:

- ❖ Imzo faqat olgan shaxs tomonidan qo'yilishi mumkin;
- ❖ Faqat shu hujjat imzolangan, boshqa hujjat bo'lishi mumkin emas;
- ❖ Hujjatni imzolagan shaxs, imzolagani xaqidagi faktni bekor qila olmaydi.

Tizimdan foydalanishning yana bir qulayligi shundan iboratki, u soliq xizmati organlarida ishlaydigan xodimlar ishini yengillashtirish va soliq to'lovchilar uchun qulay shart-sharoit yaratish bilan birga soliq to'lovchi subyektlardan qabul qilib olingan ma'lumotlar asosida ularning moliyaviy holatini baholash va o'z navbatida soliq organlari tashkiliy strukturasi va ishlash mexanizimini takomillashuviga olib keladi.

Bu o'ziga xos murakkab jarayon hisoblanib, uning ijobiy hal qilinishi to'rtta prinsipga asoslanadi:

✚ unikal ma'lumotlar bazasini yaratish va unga asoslangan axborot-kommunikatsiya tizimini boshqarish;

✚ texnika va texnologiya ta'minoti;

✚ dasturiy ta'minot;

✚ malakali kadrlarni tayyorlash.

Bugungi kunda soliqlarni hisoblash, yig'ish va ularni tahlil qilishda yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish texnologiyalarini va shu bilan birga, soliq to'lovchilar bilan davlat soliq xizmati organlari o'rtasida soliq majburiyatlari bo'yicha o'zaro munosabatlar jarayonini yanada

takomillashtirish va rivojlantirish, shuningdek, DSQ bilan boshqa aloqador davlat idoralari o'rtasida soliq to'lovchi subyektlar ma'lumotlari bo'yicha elektron hujjat aylanishini yo'lga qo'yish va shu asosda soliq obyektlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlar to'plash bo'yicha bir necha loyihalar ishlab chiqilib, ularni tizimga tatbiq etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Quyida uning ustunliklarini ko'ramiz:

1. Soliq va moliyaviy hisobotni elektron ko'rinishda shakllantirish hisob-kitoblarni tezkor tuzatish va aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, buxgalterlar uchun soliq inspeksiyalarida navbatda turib, vaqt yo'qotishlarning oldini olish hamda soliq hisobotini topshirish muddatining oxirgi kun soat 24 gacha uzaytirilgani, shubhasiz, katta afzallik hisoblanadi.

2. Elektron ko'rinishdagi soliq va moliyaviy hisobotni qabul qilish va qayta ishlash ma'lumotlarni soliq to'lovchilar shaxsiy kartochkalariga avtomatik tarzda kiritish imkonini beradi, natijada ma'lumotlarni qo'lda kiritish vaqtidagi xato qilish ehtimolining oldi olinadi.

3. Soliq to'lovchilarning byudjet va byudjetdan tashqari fondlar bilan o'zaro hisob-kitoblardagi xabardorligi oshadi.

4. Soliq va moliyaviy hisobot shakllarining dolzarbligi ta'minlanadi, chunki tasdiqlangan shakllar o'zgartirilgan taqdirda, elektron shakllar darhol yangilanadi.

5. Mazkur tizimda elektron raqamli imzo va shifrlash kabi sertifikatlashtirilgan kriptografik vositalardan foydalanish axborotning muhofaza qilinishi va maxfiyligini ta'minlaydi.

Ular elektron ko'rinishdagi soliq va moliyaviy hisobotni qog'ozda nusxasini chiqarmasdan turib jo'natishlari, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar bilan o'zaro hisob-kitoblar haqida axborot – solishtirma dalolatnomani olishlari, Elektron raqamli imzolar ro'yxatida o'zlarining elektron raqamli imzolari faolligini kuzatishlari mumkin. Eng ko'p talab qilinayotgan katta xizmatlardan biri – xo'jalik yurituvchi subyektlar tekshirishlari reja-jadvalidan ko'chirma olish hisoblanadi.

13.2. “Soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmatlar” tizimi (“Shaxsiy kabinet”)ga kirish paytida ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar oynasi

Barcha soliq hisobotlari va moliyaviy hisob-kitoblar Davlat soliq qo‘mitasi markaziy serveriga kelib tushadi, shundan so‘ng soliq inspeksiyalariga yo‘naltiriladi. Tuman yoki shahar inspeksiyasida ma‘lumotlar shaxsiy kartochkaga kiritiladi. Kartochkani to‘ldirish vaqtida matematik va mantiqiy xatolar tuzatiladi.

Har bir soliq to‘lovchisida o‘zining shaxsiy kabineti mavjud bo‘lib, bu yerda u yuborilgan hisobotning ahvoli (qabul qilingani yoki xatolari mavjudligi sababli rad etilgani) haqida ma‘lumot olishi mumkin. Hisobotda xato aniqlangan taqdirda, foydalanuvchi uni tuzatishi va hisobotni takroran jo‘natishi mumkin.

Hozirgi vaqtda interaktiv xizmatlar ko‘lami soliq to‘lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan murojaatni jo‘natish imkoniyati bilan to‘ldirildi. Bu savol, shikoyat, taklif, maslahat bo‘lishi mumkin. Avval soliq to‘lovchilar soliq organlariga xat bilan murojaat etardi va bu jarayon ikki haftagacha vaqtni olar edi. Internetdan foydalanish tufayli, mazkur jarayon ancha tezlashtirildi.

Soliq to‘lovchilarga qog‘ozsiz shaklda davlat xizmatlarini ko‘rsatish turi faol rivojlanib bormoqda. Vazirlar Mahkamasining 2011-yilning 2-mayida qabul qilingan “Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to‘lovchilarga axborot xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori bilan Davlat soliq xizmati organlarining yagona ma‘lumotlar bazasini tashkil etish va soliq to‘lovchilarga axborot xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish yuzasidan chora-tadbirlar majmui tasdiqlandi.

Soliqlarning barcha turlari bo‘yicha avtomatlashtirilgan to‘lov tizimini joriy etish soliq to‘lovchilar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratishi bilan birga, soliq to‘lovlari shaffofligini, zarur axborotga ega bo‘lishini va ularni o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Интерактив хизматлар рўйхати



13.1-rasm. www.soliq.uz saytida Interaktiv xizmatlar ro‘yxati

Yangi ishga tushirilgan elektron soliқ xizmatlari my.soliq.uz portalining elektron davlat xizmatlari interaktiv va axborot davlat xizmatlariga ajratilgan. Xizmatlar yo‘nalishiga ko‘ra “murojaatlar yuborish”, “soliqlarni to‘lash”, “ma‘lumotnomalar olish”, “hisobga qo‘yish” kabi guruhlariga bo‘lingan.

Bugungi kunda, davlat soliқ qo‘mitasining 31 ta elektron davlat xizmatlari, shu jumladan, 18 ta interaktiv va 13 ta axborot xizmatlari elektron soliқ xizmatlari my.soliq.uz portaliga joylashtirilgan. Bundan tashqari, 27 turdagi ochiq ma‘lumotlardan ham foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Portalda soliқ majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq barcha masalalarni elektron shaklda hal etishga mo‘ljallangan yuridik va jismoniy shaxslarning “shaxsiy kabinet”lari yanada qulay ko‘rinishda qayta ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun alohida “shaxsiy kabinet” joriy etildi.



Yangi portalda soliqlarni mustaqil ravishda hisoblab chiqarish, hisobot va soliq deklaratsiyalarini yuborish, rasmiy tushuntirishlar va 14 xil turdagi ma'lumotnomalar (spravka) olish mumkin. Shuningdek, korxonaning hisob raqamiga qo'yilgan inkasso topshiriqnomalari ro'yxati bilan tanishish, soliqlarni onlayn rejimida to'lash, korxonaga yuborilgan ogohlantirish xabarnomalari to'g'risida tezkor xabardor bo'lish, fuqarolarga hisoblangan sug'urta badallarini ko'rish kabi 10 dan ortiq yangi imkoniyatlar yaratildi.

Jumladan, **portal yordamida tadbirkorlik subyektlari barcha turdagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni onlayn rejimida to'lashlari mumkin.** Buning uchun elektron raqamli imzo kaliti orqali shaxsiy kabinetga kirib, soliq turini tanlash va to'lov summasini ko'rsatib, "to'lash" tugmasini bosish kifoya. Korxonaning elektron to'lov topshiriqnomasi bankka avtomatik ravishda yetkaziladi va shu zahotiy oq to'lov amalga oshirilib, soliq to'lovchining shaxsiy kartochkasiga qayd etiladi. Agar hisob-raqamda pul miqdori yetarli bo'lmasa, to'lov topshiriqnomasi 2-sonli kartotekaga joylashtirilib, bu haqda Davlat soliq qo'mitasiga elektron xabarnoma yuboriladi. Mazkur to'lov tizimi 24 soat davomida uzluksiz va bepul ishlaydi.

13.3. Hisobotning o'z vaqtida topshirilganligi va soliq inspektori tomonidan imzolanganligi to'g'risidagi ma'lumotni olish tartibi


Davlat Soliq Qo'mitasining 2005-yil 10-iyuldagi 2005-42-son qaroriga ilova qilib "Davlat soliq xizmati organlari tadbirkorlik subyektlaridan moliyaviy hisobot, soliqlar, majburiy to'lovlar va daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar, yozma arizalar va bildirishnomalarni qabul qilib olish hamda ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida" nizomi tasdiqlangan.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish

to‘g‘risida”gi PQ–100-sonli qaroriga asosan soliq to‘lovchilar tomonidan moliyaviy hisobot, soliqlar, majburiy to‘lovlar va ajratmalar, daromadlar to‘g‘risidagi deklaratsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblari (shu jumladan, qonunchilikka muvofiq hisob-kitoblarga ilova qilinadigan hujjatlar) hamda soliqlar va majburiy to‘lovlarni hisoblash, to‘lashga doir yozma arizalar va bildirishnomalarni soliq organlariga taqdim etish borasida o‘zaro munosabatlar tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom amaldagi qonunchilikka ko‘ra soliq to‘lovchi bo‘lgan va davlat soliq xizmati organlariga hisobotlar taqdim etishi belgilangan tadbirkorlik subyektlariga va boshqa tashkilotlarga tatbiq etiladi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning shakllari, ularni tuzish tartibi va taqdim etish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.



13.2-rasm. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali

Soliqlar, majburiy to‘lovlar va ajratmalar bo‘yicha hisob-kitoblarni tuzish tartibi hamda taqdim qilish muddatlari O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Amaldagi qonunchilik bilan belgilangan moliyaviy, soliq hisobotlar va soliqlarni hisoblab chiqish bilan bog'liq bo'lgan majburiy ma'lumotnomalardan tashqari soliq to'lovchilardan qo'shimcha ravishda har qanday ma'lumotlar, ma'lumotnoma va hujjatlarni talab qilish qat'iyan man etiladi.

Hisobotlar soliq to'lovchilar tomonidan quyidagi tartiblarda taqdim etishlari mumkin:

a) soliq to'lovchi hisobga qo'yilgan davlat soliq xizmati organiga bevosita tashrifi orqali.

Soliq to'lovchilar tomonidan hisobotlar soliq inspeksiyalardagi alohida maxsus ajratilgan xonalarda (operatsion zallarda) taqdim etiladi.

b) pochta aloqasi orqali.

d) elektron hujjat aylanishi orqali.

Ushbu tartibda hisobotlar soliq to'lovchi tomonidan elektron shakllarda tayyorlanib, belgilangan muddatlarda hisobga qo'yilgan davlat soliq inspeksiyalariga elektron aloqa orqali yuboriladi. Elektron hujjatlarda tayyorlangan hisobotlar bevosita soliq to'lovchi yoki ularning axborot vositachisi orqali yuborilishi mumkin.

Elektron shaklda qayd etilgan hisobotlar elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va hisobotlarning belgilangan shakllari to'liq to'ldirilgan bo'lishi kerak. Soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lashga doir yozma arizalar va bildirishnomalarni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan quyidagi majburiy rekvizitlariga ega bo'lishi kerak:

- elektron raqamli imzo;
- elektron hujjatni jo'natuvchi soliq to'lovchining nomi;
- elektron hujjatni jo'natuvchining pochta va elektron manzili;
- hujjat yaratilgan sana.

Elektron hujjatlarda taqdim etilayotgan hisobotlardagi ma'lumotlarni himoyasini ta'minlash maqsadida, elektron hujjat aylanishining ishtirokchilari tomonidan ma'lumotlarni kriptografiya himoya vositalari qo'llaniladi.

Elektron shaklda hisobotlarni taqdim etgan soliq to'lovchilar ushbu hisobotlarni qog'oz nusxalarda taqdim etish majburiyatiga ega emas.

Hisobotlarni taqdim etish tartibi soliq to'lovchilar tomonidan tanlab olinadi.

Bunda, hisobotlarni tasdiqlangan shakllarda taqdim etilishi ta'minlanishi shart.

Soliq to'lovchilar tomonidan elektron hujjat aylanishi orqali taqdim etilgan hisobotlarni qabul qilish va ishlov berish uchun hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmada alohida elektron manzilga ega bo'lgan elektron hujjatlarni qabul qilib oluvchi kompyuter o'rnatiladi. Ushbu kompyuter davlat soliq inspeksiyasining lokal tarmog'iga ulangan bo'lishi lozim.

Pochta aloqasi orqali soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan hisobotlar davlat soliq inspeksiyasining umumiy bo'limiga kelgach, umumiy bo'lim pochta konvertidagi barcha hujjatlarni yagona raqam va kelib tushish sanasi bilan ro'yxatdan o'tkazib, bir kun ichida reestr asosida hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmaga taqdim etadi.

Soliq to'lovchilar hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmaning mas'ul xodimlariga bevosita hisobotlarni topshirganda, hisobotlarni qabul qilib olgan shaxs soliq to'lovchining hisobotning ikkinchi nusxasini o'ngdan pastki burchagiga davlat soliq xizmati idorasining ro'yxatga olish shtampini qo'yadi, kirish raqami va hujjatning kelib tushgan sanasini ko'rsatadi.

Davlat soliq inspeksiyasining hisobotlarni qabul qiluvchi bo'linmaga soliq to'lovchilarning hisobotlari tushgandan so'ng, ularni olinganligini, soliq to'lovchilarning hisobotlarini ro'yxatga olish jurnaliga bir kun ichida qayd qiladilar.

Topshiriladigan hisobotlarni qayd qilish jurnali raqamlanishi, tikilgan, Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'ining imzosi va muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

Soliq to'lovchilarning hisobotlarini olish jurnalida hisobotlar soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan sanasi:

✓ elektron hujjat aylanishi orqali taqdim etilganda, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq,

hisobotlarni jo‘natuvchi tomonidan uning bekor qilinishi mumkin bo‘lmagan jo‘natilish sanasi;

✓ hisobotlarni jo‘natuvchi tomonidan uning bekor qilinishi mumkin bo‘lmagan jo‘natilish sanasi;

✓ pochta aloqasi orqali taqdim etilganda, hisobotlarni yuborilganligi to‘g‘risida pochta bo‘limining shtampidagi sanasi;

✓ soliq to‘lovchilarning bevosita davlat soliq inspeksiyasiga tashrifi orqali taqdim etilganda, hisobotlarni qabul qilib olgan shaxs tomonidan hujjatning kelib tushganligi to‘g‘risida ko‘rsatilgan sanasi hisoblanadi.

Elektron shakldagi hisobot qabul qilinganligi haqida soliq inspeksiyasining mansabdor shaxsi tomonidan elektron raqamli imzo qo‘yiladi va imzolangan hisobot soliq to‘lovchiga qaytariladi.

Elektron shaklda taqdim etilgan hisobotlar maxsus ajratilgan kompyuterlarda saqlanadi. Elektron hisobotlarni saqlash chog‘ida ulardan foydalanish va ularning qog‘oz nusxalarini taqdim etish imkoniyati ta‘minlanishi lozim.

O‘z-o‘zini tekshirish uchun savollar

1. Hisobotlarni elektron ko‘rinishda topshirishning zarurligini qanday asoslash mumkin?

2. Elektron raqamli imzo nima va u qanday ishlaydi?

3. “Soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmatlar” tizimi (“Shaxsiy kabinet”)ga kirish qanday amalga oshiriladi?

4. Hisobotning o‘z vaqtida topshirilganligi va soliq inspektori tomonidan imzolanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni qanday olish mumkin?

5. Hisobotlarni elektron ko‘rinishda topshirishning me‘yoriy-huquqiy asoslari nimalardan iborat?

6. my.soliq.uz sayti orqali qanday interaktiv xizmatlar amalga oshiriladi?

7. Jismoniy va yuridik shaxslar elektron raqamli imzo orqali qanday qulayliklarga ega bo‘ladi?

Topshiriqlar

1. Biror korxonada misolida elektron raqamli imzo orqali soliq hisobotlarini jo'natish tartibini o'rganib chiqish.

2. Hisobotning o'z vaqtida topshirilganligi va soliq inspektori tomonidan imzolanganligi to'g'risidagi ma'lumotni olish tartibini o'rganish.

GLOSSARIY

Avtomobil vositalarini sotib olish solig'i – ularni sotib oluvchi, ulmashtiruvchi, lizingga oluvchi va ustav fondiga badal sifatida kirituvchi yuridik shaxslar va alohida tadbirkorlar tomonidan to'lanadi. Soliqni hisoblash sotish bahosi (qo'shilgan qiymat solig'i va aksizlar chegirilgan) asosida amalga oshiriladi. Yengil avtomobillarni shaxsiy foydalanish maqsadida sotib oluvchi fuqarolar bu soliqni to'lashdan ozod qilinadi.

Avtomobil yullari foydalanuvchilaridan olinadigan soliq – korxonalar va tadbirkorlikning mahsulot (ish,xizmat)ni sotishdan olgan tushumlari hisobidan to'lanadi. Soliqqa tortiladigan baza (asos)dan qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar va boshqa soliqlarning summasi chegiriladi. Umumiy foydalanishga mo'ljallangan, yo'llarni saqlashga xizmat qiladigan ixtisoslashtirilgan yo'l korxonalarini bu to'lovni to'ulashdan ozod qilinadi.

Aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni taxlil qilish – uning umumiy summasi va turlari bo'yicha haqiqiy miqdorini belgilangan me'yorlar bilan takkoshlashdan boshlanadi.

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi – ularning aylanish tezligi, daromadlilik va rentabelligi bilan, ya'ni aylanma mablag'larning 1 so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori bilan belgilanadi.

Aylanma mablag'larni immobilizatsiyalash koeffitsiyenti – debitorlik qarzining aylanma mablag'lardagi ulushini ko'rsatadi.

Aylanma mablag'larning kunlarda ifodalangan aylanish tezligi – aylanma mablag'lar o'rtacha yillik summasining bir kunlik sotilgan mahsulot qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi.

Aksizlar – keng iste'mol tovarlari va xizmatlardan olinadigan egri soliqlarning turi. Aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarayotgan yoki bunday tovarlarni import qilayotgan yuridik va jismoniy shaxslar byudjetga aksiz solig'ini to'laydi. Aksiz tulanadigan tovarlar ro'yxati va aksiz solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Bunday tovarlar jumlasiga aroq, liker-arop mahsulotlari, konyak, shampandan vinosi, pivo, tamaki mahsulotlari, yengil avtomobillari, zebi-ziynat buyumlari, neft mahsulotlari va shu kabilar kiradi.

Aksizosti tovarlar – aksizlar o'rnatilgan (belgilangan) tovarlar.

Asosiy vositalar – bu uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) o'zgarimas shaklda ishlaydigan, qiymati birlik uchun belgilangan chegaradan yuqori, o'z qiymatini qismlab yo'qotadigan moddiy-ashyoviy boylikdir.

Asosiy ish joyi – ish beruvchi mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq xodimning mehnat daftarchasini yuritishi shart bo'lgan ish joyi;

Asosiy faoliyat turi – yuridik shaxsning umumiy realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati;

Asosiy faoliyatidan olingan foyda – asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plyus, asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

Balans likvidligi – korxonaning boshqa korxonalar bilan iqtisodiy aloqalar darajasini ko'rsatadi. Ko'rinib turibdiki, balans likvidligi moliyaviy mustahkamlik singari, korxonalar moliyaviy holatini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Balans – lotincha “bis” - ikki marta, “banh” – tarozi pallasini so'zlaridan tarkib topgan bo'lib, tom ma'noda ikki pala degan ma'noni anglatadi va tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Balans netto – qiymatdagi tartibga soluvchi moddalar summasi chegirilgan balans bo'lib, buni “tozalash” deyiladi.

Balansning realligi – moddalar obyektiv voqelikka muvofiq kelishini anglatadi.

Balansning to'g'riligi – balans tuzishda asoslanilgan hujjatlarning to'raligi va sifat bilan ta'minlanadi.

Birja solig'i – birja oborotidan olinadigan soliq proporsional stavkalar bo'yicha olinib, uning darajasi bitimlar summasiga nisbatan 1% dan 2,5% gacha tebranadi. Bu soliqqa tortish obyekti bo'lib, fond birjasidagi qimmatbaho qog'ozlar oboroti hisoblanadi.

Boj deklaratsiyasi – milliy qonunchilikning talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan, o'zida chegaradan o'tayotgan yuklar (eksport yoki import qilinayotgan tovarlar, yo'lovchi yuki, uning qo'lidagi yuki, boyliklar va valyutalar) to'g'risidagi ma'lumotlarni aks ettirgan hujjat.

Boj poshlinalari – iste'mol soliqlarining tarkibiga kiradi. Ularning maqsadi daromad olish bo'lmasdan, balki ichki bozorni, milliy sanoatni va qishloq xo'jaligini himoya qilishdir. Import qilinadigan tovarlarning bahosi bilan ichki bozordagi xuddi shunga o'xshash tovarlarning bahosini tenglashtirilishi lozim.

Boj poshlinalarining stavkalari – hukumat tomonidan o'rnatilib, yagona hisoblanadi va chegaradan tovarlarni olib utuvchi shaxslarga bog'liq bo'lmagan holda o'zgarasdir.

Byudjetdan ajratiladigan subsidiya – davlat tomonidan muayyan maqsadlar uchun byudjet hisobidan beriladigan pul mablag'lari;

Grant – davlatlar, davlatlarning hukumatlari, xalqaro va chet el hukumatga qarashli tashkilotlar tomonidan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan ro‘yxatga kiritilgan xalqaro va chet el nohukumat tashkilotlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga, O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlariga, yuridik va jismoniy shaxslarga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk, shuningdek, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumatiga beg‘araz asosda beriladigan mol-mulk;

Davlat soliq inspeksiya xizmatining vazifalari va funksiyalari – 1) soliq to‘lovchilarning (xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni ham qo‘shib hisoblanganda) to‘liq hisobga olinishini ta‘minlash; 2) soliq to‘lovchilar tomonidan buxgalteriya hisoboti va balanslarini, soliq hisob-kitoblarni, hisobotlarni, deklaratsiyalar va to‘lovlarni hisoblash va to‘lash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etilishini nazorat qilish, shuningdek, foyda, daromad, soliqqa tortishning boshqa obyektlarini to‘g‘ri aniqlanganligi va hisoblanganligini bo‘yicha bu hujjatlarning to‘g‘riligini tekshirish.

Daromad solig‘i bo‘yicha jarimalar – ushbu soliq to‘lanmaganda, to‘liq to‘lanmaganda yoki to‘lash tartibi buzilganda (rioya qilinmaganda), pulni undirish, moddiy ta‘sir ko‘rsatishdan iborat. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va tadbirkor sifatida qayddan o‘tgan jismoniy shaxslardan soliq o‘z vaqtida tegishli byudjetga o‘tkazilmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun to‘lov muddatidan keyingi kundan boshlab to‘langan kungacha (bu kun ham qo‘shiladi) 0,7% miqdorida penya undiriladi.

Daromadlar to‘g‘risida deklaratsiya – o‘tgan davr mobaynida olingan daromadlar, mulklar va ularga tegishli bo‘lgan soliq chegirmalari hamda imtiyozlari to‘g‘risida soliq to‘lovchining rasmiy arizasi. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda asosiy moliyaviy hujjat bo‘lib, ulardan olinadigan daromad solig‘ining hajmini aniqlash uchun fuqarolarning daromadlari unda qayd etiladi.

Daromatlardan olinadigan soliq – foyda solig‘idan tashqari aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha (davlat obligatsiyalari va davlatning boshqa qimmatbaho qog‘ozlari bo‘yicha olingan daromatlardan tashqari) olingan dividendlar va foizlardan, kazinolar, videosalonlarning daromadlaridan, o‘yin avtomatlarining daromadlaridan, ommaviy konsert tomosha tadbirlarini o‘tkazishdan olingan daromatlardan korxonalar va tashkilotlar tomonidan to‘lanadi.

Debitorlar – xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, bo‘nak to‘lovlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar, shu‘ba korxonalar bilan hisob-kitoblar, uyushgan korxonalar bilan hisob-kitoblar, ta‘sischilar va boshqa debitorlar bilan hisob-kitoblar.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning tuzilishi – har bir tur qarzlarning umumiy summasida qancha foizni tashkil etishi bilan ifodalanadi.

Dividend – aksiyalar bo‘yicha to‘lanishi lozim bo‘lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislari o‘rtasida (ishtirokchilari, a‘zolari o‘rtasida ularning ulushlari, paylari, hissaları bo‘yicha) taqsimlanadigan sof foydaning bir qismi; yuridik shaxs tugatilganda mol–mulkni taqsimlashdan olingan, shuningdek, muassis (ishtirokchi, a‘zo) tomonidan yuridik shaxsda ishtirok etish ulushini (payini, hissasini) olgandagi daromadlar, bundan muassis (ishtirokchi, a‘zo) ustav fondiga (ustav kapitaliga) hissa sifatida kiritgan mol–mulkning qiymati chegiriladi;

Doimiy harakatdagi aktivlar guruhiga – balansdagi barcha pul mablag‘lari va qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar, ya‘ni qiymatli qog‘ozlar kiradi.

Yerostidan foydalanganlik uchun soliq – bu soliqni O‘zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni, shuningdek, foydali qazilmalar qazib olish bilan bog‘liq bo‘lmagan yerosti inshootlari qurish va ulardan foidalanishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydilar.

Yer solig‘i – yer egalari, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar to‘laydigan soliq. Yer solig‘ining miqdori yer egalari, yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar xo‘jalik faoliyatining natijalariga bog‘liq bo‘lmasdan, balki bir yil uchun yer birligiga nisbatan barqaror to‘lovlar ko‘rinishida o‘rnatiladi.

Yer uchun to‘lovlarning shakllari – yer solig‘i, ijara haqi va yerning normativ bahosidan iboratdir. Yerning egalari, yerning mulkdorlari va yerdan foydalanuvchilar yillik yer solig‘iga tortiladi. Ijaraga berilgan yer uchun ijara haqi olinadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan mahalliy soliqlar – yer uchun to‘lovlar (yer solig‘i, yer uchun ijara haqi), reklama solig‘i, mahalliy yig‘imlar (birjada amalga oshirilgan bitimlar bo‘yicha yig‘im, mahalliy auksion va lotareya o‘yinlarini o‘tkazish huquqi uchun litsenziya yig‘imi, savdo qilish huquqi uchun yig‘im va boshqa maqsadli yig‘imlar)dan iborat.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar – daromad solig‘i, fuqarolarning mulkidan olinadigan soliqlar (transport vositalarisolig‘i, mol–mulk solig‘i, uy-joy solig‘i, meros tariqasida utadigan mulkdan olinadigan soliq), tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismonii shaxslardan olinadigan kayd etish yig‘imi, boshqa soliq, yig‘im va to‘lovlardan iborat.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq – umumdavlat soliqlarining tarkibiga kirib, byudjet daromadlarining muhim manbalaridan biri

hisoblanadi. Moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo'lgan jismoniy shaxslar bu soliqning to'lovchilari hisoblanadi. Soliq progressiv xarakterga ega.

Jon solig'i – har bir soliq to'lovchidan teng summalarda olinadigan soliq.

Jorijiy valyuta operatsiyalaridan olinadigan soliq – rivojlangan va ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarda keng tarqalgan soliq turi. Xorijiy valyuta bilan bo'ladigan har qanday operatsiyadan olinadi. Soliqning stavkasi bitim qiymatining 1% dan 25% gachasini tashkil etishi mumkin. Masalan, Keniyada – 1%, Braziliyada – 25%.

Zaxiralar va sarflar – ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, qayta sotiladigan tovarlar, bo'lajak davrlar harakatlari.

Ijara (lizing) to'lovi – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchiga (lizing beruvchiga) to'laydigan summa;

Ijaraga beruvchining (lizing beruvchining) foizli daromadi – buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq aniqlanadigan ijara (lizing) to'lovi summasi bilan ijara (lizing) obyektining qiymatini qoplash summasi o'rtasidagi farq ko'rinishidagi ijara (lizing) to'lovining bir qismi;

Ijtimoiy soliqlar – ish haqi va ishchi kuchiga nisbatan qo'llaniladigan soliqlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy ta'minotga badallaridan (ajratmalaridan) iborat.

Yig'imlar – qonun aktlariga muvofiq belgilangan tartiblar va shartlarda to'lovchilar tomonidan tegishli darajadagi byudjetlarga yoki byudjetdan tashqari fondlarga o'tkaziladigan majburiy badallar. Ularning tarkibiga savdo-sotiq qilish uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar kiradi.

Yilning sof foydasi – bu soliq to'langandan keyin xo'jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi.

Import-eksport solig'i – soliqqa torishning ko'rinishlaridan biri: tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish vositasi (chorasi). Soliqqa tortish obyekti bo'lib belgilangan kurs bo'yicha milliy valyutada hisoblangan tovarlarning boj qiymati yoki og'irlik va miqdor birliklarida ifodalangan tovarlarning soni hisoblanadi.

Imtiyozli soliqqa tortish – jismoniy yoki yuridik shaxslardan to'liq yoki qisman ozod etish.

Investitsion soliq krediti – Soliq to‘lovchi tomonidan ma‘lum bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo‘yicha juda muhim buyurtmani bajarganligi yoki shu hudud aholisiga juda muhim xizmatni taqdim etganligi uchun mahalliy hokimiyat organlari tomonidan soliq summasi doirasida beriladigan yengillik, imtiyoz (soliq to‘lovini kechiktirilishi). Bu kredit soliq to‘lovchi va mahalliy ma‘muriyat o‘rtasida tuziladigan soliq bitimi bilan rasmiylashtiriladi.

Investitsion faoliyatda pul oqimlari harakati – asbob-uskunalar, bino-inshootlarni, qimmatli qog‘ozlarni, (qarz majburiyatlarini ham, kompaniya aksiyalarini ham) sotib olish va sotib yuborishni ko‘zda tutadi

Investitsiyalar – yuridik jihatdan mustaqil bo‘lgan korxonaga muddat (bir yildan kam bo‘lmagan) davomida qo‘shimcha foyda olish, ta‘sir etish doirasini sotib olish maqsadlarida yoki shu sohada o‘z faoliyatini tashkil qilgandan ko‘ra uni shunda qo‘yish (sarf etish) avzaltroq bo‘lganligi uchun kapitalni joylashtirishni anglatadi. Foyda (daromad) olish va ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida pul mablag‘lari, maqsadli bank omonatlari, aksiyalar va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar, litsenziyalar, kreditlar, boshqa har xil mulklar yoki mulkiy huquqlar hamda intellektual boyliklarni tadbirkorlik va faoliyatning boshqa turlari obyektlariga qo‘yilishining barchasi investitsiyalar hisoblanadi. Investitsiyalarning moliyaviy, real, yalpi, sof, xususiy va davlat kabi turlari bo‘lishi mumkin.

Insonparvarlik yordami – aholining ijtimoiy jihatdan nochor guruhlariga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatish, ijtimoiy soha muassasalarini qo‘llab-quvvatlash, tabiiy ofatlar, falokatlar va halokatlar, epidemiyalar, epizootiyalar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularni bartaraf etish uchun aniq maqsadli beg‘araz ko‘maklashish. Insonparvarlik yordami dori vositalari va tibbiy ahamiyatga molik buyumlar, xalq iste‘moli tovarlari, boshqa tovarlar, shu jumladan asbob-uskunalar, transport va texnika, shuningdek ixtiyoriy ravishdagi xayr-ehsonlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar, shu jumladan insonparvarlik yordami yuklarini tashish, kuzatib borish va saqlash tariqasida beriladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan vakolatli tashkilotlar orqali taqsimlanadi;

Iste‘mol solig‘i – bir necha mamlakatlardagi soliqlar guruhi, daromad sarf qilinayotgan paytda olinadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i va aksizlar ana shunday soliq tarkibiga kiradi. Boj poshlinalarini ham iste‘mol soliqlari qatoriga kiritish mumkin. Bu soliqlarning ayrimlari davlat foydasiga olinsa, boshqa bir qismi mahalliy byudjetlarga borib tushadi.

Yo‘l fondini shakllantiruvchi soliqlar – yoqilg‘i-moylovchi materiallarni sotishdan olinadigan soliq, avtomobil yo‘llaridan foydalanuvchilardan olinadigan

soliq, transport vositalarining egalaridan olinadigan soliq va transport vositalarini sotib olganlik uchun to'lanadigan soliqdan iborat.

Ish faolligi solig'i – bir necha xorijiy mamlakatlarning (masalan AQShda) soliqqa tortish amaliyotida qo'llanilib, o'z tarkibiga ikki elementni oladi: 1) korxonaning umumiy yillik oborotini soliqqa tortish (odatda 1,0% dan 2,5 % gacha); 2) ish haqi fondini soliqqa tortish.

Ish haqi solig'i – yuridik shaxslardan ish haqi xarajatlariga nisbatan va xodimlarning ish haqidan ma'lum foizda olinadi.

Ishlab turgan kapitalning chaqqonlik koeffitsiyenti – Bu korxonaning zaxiralari va xarajatlarini, korxonaning zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojini qoplovchi o'zlik mablag'lar manbalariga bo'lish bilan aniqlanib, korxonaning moddiy aylanma mablag'lari bilan uni qoplovchi o'zlik manbalarning o'zaro nisbatini ifodalaydi.

Ishlarni (xizmatlarni) eksport qilish – ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi tomonidan chet davlatning yuridik yoki jismoniy shaxsi uchun ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish;

Kasb solig'i (kasbiy soliq) – mahalliy hokimiyat organlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining barcha turlaridan har yili olinadigan to'g'ri (bevosita) soliqlardan biri. Masalan, Fransiyada kasb solig'i (kasbiy soliq)ning stavkasini hisoblashda baza sifatida ko'chmas mulk ijarasining qiymati, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan barcha asbob-uskunalarining qiymati (subyektning o'z mulkimi yoki ijaraga olgan va bundan qat'iy nazar), ish haqi fondining qiymati va boshqalar xizmat qiladi.

Kvotativ soliqlar – daromad yoki mulk qiymatining puldagi ifodasiga nisbatan o'rnatiladigan va so'ng ma'muriy birliklardan tortib to alohida soliq to'lovchilar o'rtasida taqsimlanadigan soliqlar.

Korporatsiyalarning daromadidan olinadigan soliq – daromad solig'i va foyda solig'ining (ayrim mamlakatlarda) o'miga barcha kompaniyalarning foydasidan olinadigan qat'iy foiz. Barcha korporativ organ va nokorporativ assotsiatsiyalarga summalaridan ham soliq olishni taqozo etadi.

Korxonaning aylanma mablag'lari – uning aylanma fondlarda, muomala fondlarida va boshqa harakatdagi aktivlarda turgan pul mablag'laridir.

Korxonaning rentabelligi nisbiy ko'rsatkich bo'lib – korxonaning faoliyati samaradorlik darajasini ifodalaydi.

Kredit tashkilotlari – tegishli litsenziyaga ega bo'lgan banklar, kredit uyushmalari, mikro kredit tashkilotlari, lombardlar va boshqa kredit tashkilotlari;

Kreditorlik va debitorlik karzlari nisbatining koeffitsiyenti – kreditorlik qarzining debitorlik qarzidagi ulushini ko'rsatadi

Kurs bo'yiicha farq – milliy valyutaga nisbatan chet el valyutasi kursining o'zgarishi munosabati bilan chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarda vujudga keladigan (ijobiy, salbiy) farq;

Qayta ishlashga berilgan xomashyo va materiallar – buyurtmachiga tegishli xomashyo va materiallar bo'lib, buyurtmachi ularni mahsulot ishlab chiqarish uchun boshqa shaxsga sanoat asosida qayta ishlashga beradi hamda tuzilgan shartnomaga muvofiq mahsulot keyinchalik buyurtmachiga qaytariladi;

Qo'shilgan qiymat solig'i – ishlab chiqarish va muomala jarayonlarining barcha bosqichlarida yaratilgan qo'shilgan qiymat bir qismining byudjetga olish shakli. Tovarlar va xizmatlardan olinadigan egri (bilvosita) soliqlarning tarkibiga kiradi. Tovarlarini (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya va import qilish oboroti qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan obyekt hisoblanadi.

Litsenziya – u yoki bu mahsulotni tayyorlash, xo'jalik ishlab chiqarish va ilmiy faoliyatning turini amalga oshirish, tovarlarning ma'lum bir turi va miqdorini eksport yoki import qilish, olib chiqish yoki o'tkazish ketishga davlat yoki mahalliy boshqaruv organlarining rasmiy ruxsati (roziligi). Savdo qilish huquqi yoki lotoreya va mahalliy auksionlarni o'tkazish uchun litsenziya uch nusxada rasmiylashtiriladi. Birinchi nusxa ijarachiga (o'tkazuvchiga, shug'ullanuvchiga) beriladi, ikkinchisi tuman soliq inspeksiyasiga yo'llanadi, uchinchi nusxa esa tegishli qaror, xat va unga ilova qilingan hujjatlar bilan birgalikda tuman yoki shahar ma'muriyatining ish jildida saqlanadi. Litsenziya olish uchun murojaat etayotgan jismoniy shaxslar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega ekanliklari to'g'risida guvohnomaga ega bo'lishlari shart.

Maqsadli soliq imtiyozi – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan davlatning maqsadli ijtimoiy, iqtisodiy, investitsion va boshqa dasturlarning bajarilganligi uchun soliqqa tortish hajmining pasaytirilishi. Investitsion soliq kreditidan farqli ravishda o'zaro manfaatdorlik (o'zaro foidalilik) asosida mintaqaviy byudjetga borib tushuvchi soliq summalari doirasida ijroya hokimiyati organlari tomonidan har qanday korxonaga berilishi mumkin.

Mahalliy soliqlar va yig'imlar – mahalliy byudjetga olinadigan jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to'lovlari. Ularning tarkibiga quyidagilarni kiradi: mol-mulk solig'i, yer solig'i, avtotransport vositalarini olib sotganlik uchun soliq, savdo-sotiq qilish huquqi uchun yig'im, shu jumladan, ayrim turdagi tovarlarni sotish huquqini beruvchi litsenziya yig'imlari, yuridik shaxslarni, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni ro'yxatga olganlik uchun

yig'im, avtotransport to'xtash joyidan foydalanganlik uchun yig'im, obodonchilik ishlari uchun yig'im va boshqalar.

Maxsus boj poshlinalari – boj poshlinalarining ko'rinishlaridan biri bo'lib, agar mamlakatga olib kirilayotgan tovarlar shunga o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchi mamlakatning o'zidagilarga zarar yetkazadigan bo'lsa, himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Boshqa mamlakatlarning diskriminatsion harakatlariga nisbatan javob tariqasida ham qo'llanishi mumkin.

Mahsulot sotishdan olingan foyda yalpi foyda – bu sotishdan olingan sof tushumdan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini olish bilan aniqlanadi.

Moliyaviy barqaror korxonona – aktivlar (asosiy fondlar, nomoddiy aktivlar, aylanma mablag'lar)ga qo'yilgan mablag'larni o'z mablag'lari hisobiga qoplaydigan, noo'rin debitorlik qarzariga yo'l qo'ymaydigan hamda o'z majburiyatlariga o'z vaqtida to'laydigan korxonona.

Moliyaviy barqarorlik – o'z va qarz mablag'lari nisbati bilan aniqlanadi.

Moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti – moliyaviy qaramlik va moliyaviy qiyinchiliklar xavfining ko'payishi yoki kamayishini ko'rsatadi.

Moliyaviy faoliyatda pul oqimlari harakati – xususiy kapital va majburiyatlar moddalarini kiritib, aksionerlardan moliyalashtirishni olish va ular tomonidan qo'yilgan investitsiyalarni qaytarib olish va kreditorlardan qarz olish va keyinchalik majburiyatlarni qoplashdan iborat.

Mol-mulk – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish predmetlari bo'la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan, pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlar hamda nomoddiy obyektlar. Obyektlarni mol-mulk jumlasiga kiritish fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

Muddati o'tgan debitorlik karzi koeffitsiyenti – debitorlik qarzida uning muddati o'tgan qismi qanday ulushga egaligini ko'rsatadi.

Mulk solig'i (mulkiy soliq) – o'z takibiga ko'chmas mulk (yer, binolar) solig'ini va shaxsiy mulk (asbob-uskunalar, zaxiralar) solig'ini oladi. Mahalliy hokimiyat organlari foydasiga hisoblanib, ko'pgina mamlakatlarda ular daromadlarning asosiy manbai hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda bu soliq yuridik shaxslarning mol-mulkiga va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqlarga bo'lgan.

Mulkiy soliqa tortish – soliq to'lovchining mulkidan, ko'p xollarda uning kapitalidan olinadigan soliqlar tizimi. Odatda progressiv xarakterga ega - mulkning ulchami (hajmi, miqdori) oshishiga karab soliqning stavkasi ham ortadi.

Mutlok likvidlik koeffitsiyenti – korxonaning naqd pul mablag'lari bilan qisqa muddatli majburiyatlar o'rtasidagi nisbat bilan aniqlanadi va qisqa muddatli korxonona

majburiyatlarni korxonaning naqd pul mablagʻlari bilan qoplanish darajasini ifodalaydi.

Nomoddiy aktivlar – yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan binolar, inshootlar, aqliy mulk, tovar zaxiralari, ixtirolar, "nou-xau" va boshqalardan foydalanishga doir mulkiy huquqdir.

Oborot soligʻi – ishlab chiqarishning yakuniy bosqichida xalq isteʼmoli uchun ishlab chiqarilgan tovarlarning qiymatidan olinadigan soliq turi.

Oila aʼzolari – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bolalar, shu jumladan farzandlikka olinganlar;

Operativ ijara – moliyaviy ijara shartnomasi boʻlmagan mulkiy ijara (ijaraga berish) shartnomasi asosida mol-mulkni vaqtincha egalik qilish va foydalanishga berish;

Operatsion faoliyatda pul okimlari harakati – pul ekvivalentida sifatlangan sof daromad moddalarini operatsion faoliyatdan natijalarini oʻz ichiga oladi.

Progressiv soliq – soliqqa tortish bazasining oshishi bilan soliq stavkalarining koʻtarilishi xarakterladigan soliq turi.

Progressiv soliqqa tortish – soliqqa tortilgan summaning oʻsishiga mos ravishda soliq stavkasi ham ortadigan soliqqa tortish tizimi. Ular quyidagi shakllarda mavjud boʻladi: 1) oddiy progressiya – daromadlarining barcha summasi uchun soliqning stavkasi daromadning oʻsishiga muvofiq oʻsadi (ortadi); 2) murakkab progressiya – daromad qismlarga boʻlinadi va ularning har biri oʻz stavkasi boʻyicha soliqqa tortiladi. Daromadning har bir keyingi qismi uchun soliqning stavkasi oldingisiga nisbatan yuqoriroq boʻladi.

Proportsional soliq – soliq shaklida olinishi mumkin boʻlgan summa soliqqa tortish bazasining oʻlchamiga (miqdoriga, hajmiga) proportsionaldir. Bu soliq yagona stavkali soliqlar jumlasiga kiradi.

Proportsional soliqqa tortish – soliqning stavkasi soliq toʻlovchi daromadlarning hajmiga bogʻliq boʻlmagan holda uning daromadiga nisbatan foizda oʻrnatiladi.

Pul mablagʻlari – kassadagi, valyuta mablagʻlar, qisqa muddatli qoʻyilmalar, qayta sotib olingan oʻz aksiyalari.

Pul okimi taxlilining asosiy vazifasi – moliyaviy maʼlumotlarni chuqur oʻrganish asosida imkoniyatlardan foydalanish darajasiga iqtisodiy tashxis qoʻyishdan iboratdir.

Pulli kapital daromadlaridan olinadigan soliq – dividendlar, aksiyalarning foizlari, bankdagi omonatlar boʻyicha foizlar, zayomlar boʻyicha yutuqlar va boshqa shunga oʻxshash bir necha daromadlardan olinadi. Avstriya, Kanada, Ispaniya,

Fransiya kabi mamlakatlarda amal qiladi. Pulli kapitalning egasiga daromad berilayotgan paytda soliq ushlab qolinadi. Soliqning stavkasi 20%dan 40% gacha tebranadi.

Real soliq – soliq to‘lovchilarining ayrim mulklarini soliqqa tortiladigan to‘g‘ri soliqlardan iboratdir.

Realizatsiya qilish – sotish, ayirboshlash, beg‘araz berish maqsadida tovarlarni jo‘natish (topshirish), ishlarni bajarish va xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek, garovga qo‘yilgan tovarlarga bo‘lgan mulk huquqini garovga qo‘yuvchi tomonidan garovga oluvchiga topshirish. Hisobvaraqa-fakturalar, ishlar bajarilganligi yoki xizmatlar ko‘rsatilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomalar, tovarlar jo‘natilganligini (topshirilganligini), ishlar bajarilganligini, xizmatlar ko‘rsatilganligini tasdiqlovchi kvitansiyalar, cheklar va boshqa hujjatlar realizatsiya qilganlikni tasdiqlovchi hujjatlardir;

Regressiv soliq – soliqqa tortiladigan daromadning oshishi bilan soliq stavkasining pasayishi xarakterlidir. Bunday soliqlar toifasiga, xususan, egri (bilvosita) soliqlarni kiritish mumkin. Regressiv soliqlarning yuki (ogirligi) boylarga nisbatan kambagal katamlar uchun og‘irroq deb sanaladi. Masalan, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash uchun kambag‘allar boylarga nisbat o‘z daromadlarining ko‘proq qismini (hissasini) sarflaydilar. Proporsional soliq ham regressiv bo‘lishi mumkin.

Regressiv soliqqa tortish – soliq asosi (bazasi)ning o‘sib borishi bilan soliq stavkasining pasayishini taqozo etadi. Soliq undirish og‘irligi daromadga teskari proporsionaldir: daromad qancha kam bo‘lsa, soliq to‘lovchi uchun soliqning og‘irligi shuncha og‘irdir. Hozirgi paytda qo‘shilgan qiymat solig‘ining joriy etilishi bilan egri (bilvosita) soliqlarning regressivligi kuchayib bormoqda.

Rezidentlar – kalendar yilida mamlakatda 183 kundan kam bo‘lmagan muddatda yashagan, O‘zbekistonda doimiy yashash joyiga ega bo‘lgan va bo‘lmagan soliq to‘lovchilardan iborat. Shu mamlakat rezidentlarining daromadlari (shu mamlakat hududida va undan tashqarida olinganlari ham) shu mamlakatda soliqqa tortilishi shart.

Rentabellik – foyda olish darajasi, sarflangan xarajat yoki kapital hisobiga to‘g‘ri keladigan foyda hajmini belgilaydi.

Royalti – quyidagilar uchun har qanday turdagi to‘lovlar: a) fan, adabiyot va san‘at asarlaridan, shu jumladan, elektron-hisoblash mashinalari uchun dasturlar, audiovizual asarlardan hamda turdosh huquqlar obyektlaridan, jumladan ijrolar va fonogrammalardan foydalanganlik yoxud ulardan foydalanish huquqini berganlik uchun; b) sanoat mulki obyektiga, savdo markasiga, dizayn yoki modelga, rejaga,

maxfiy formula yoki jarayonga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi patentdan (guvohnomad) yoxud sanoat, tijorat yoki ilmiy tajribaga taalluqli axborotdan (nou- xaudan) foydalanganlik uchun.

Savdo faoliyati – qayta sotish maqsadida olingan tovarlarni sotishga doir faoliyat.

Sarmoya qo'yilmalari – xo'jalik yoki pudrat usulida amalga oshirilayotgan tugallanmagan qurilish qiymati, shuningdek, asosiy podani tashkil etish, geologiya- qidiruv ishlariga sarflar va korxonalariga bo'nak.

Sarmoyani immobilizatsiyalash koeffitsiyenti – xo'jalik mablag'lari umumiy summasida debitorlik qarzining ulushini ko'rsatadi.

Soliq asosi (bazasi) – umumiy holda belgilangan soliqqa tortish davri mobaynida ma'lum hududdagi soliq to'lovchilar va soliqqa tortish obyektlarining yig'indisi.

Soliq badallari (to'lovlari) – soliq qonunchiligi bo'yicha belgilangan tartibda va muddatda soliq to'lovchilar tomonidan tulanadigan, hisoblangan yoki qat'iy lashtirilgan summalaridir. Ularni hisoblash tartibi xar bir soliq turi bo'yicha qonunga binoan aniqlanadi.

Soliq imtiyozi – soliq to'lovchining soliq majburiyatlari hajmining to'liq yoki qisman qisqarishi, to'lov muddatining kechiktirilishi yoki orqaga surilishi. Soliqlarning rag'batlantiruvchi funksiyasi soliq imtiyozlari tizimi orqali amalga oshiriladi. Soliq imtiyozi soliqqa tortish obyektining o'zgarishida, soliqqa tortish bazasining kamayishida (qisqarishida), soliq stavkalarining pasaytirilishida va boshqalarda o'z ifodasini topadi.

Soliq inspeksiyalari – Davlat soliq qo'mitasining yagona tizimi tarkibiga kiruvchi tuzilmaviy birlik. Ularning tarkibiy tuzilishi funksional belgiga ko'ra aniqlanadi. Buning asosi sifatida turli belgilar: mulkchilik shakli, xo'jalik faoliyatining turi, to'lovlar hajmi, soliqlarning turlari va h.k.lar olinishi mumkin. Fuqarolarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish uchun soliq inspeksiyasi nazorati ostida bo'lgan hudud uchastkalariga bo'linadi.

Soliq inspeksiyasi – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining yagona tizimiga kiruvchi tarkibiy tuzilma birligi. Inspeksiyalarning tarkibiy tuzilishi funksional belgilarga qarab belgilanadi: mulkchilik shakli; xo'jalik faoliyatining turi; to'lovlar hajmi va boshqalar.

Soliq qonunchiligi – davlatda soliqlarning turi, ularni undirish mexanizmi va soliq majburiyatlarining vujudga kelishi, o'zgarishi va to'xtatishini tartibga solib turuvchi yuridik me'yorlar yig'indisi; moliyaviy huquq instituti. Soliq huquqi davlatning ijtimoiy – iqtisodiy tuzilishi (qurilishi), uning vazifasi va funksiyalari bilan belgilanadi.

Soliq krediti – mintaqaviy soliq organi tomonidan korxonaga beriladigan va tegishli shartnoma bilan rasmiylashtiriladigan kredit. Odatda investitsiyalar va innovatsion xarajatlarni amalga oshirish uchun qaytaruvchanlik va haqlilik asosida beriladi.

Soliq qarzi – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha qarz summasi, shu jumladan, ushbu Kodeksda belgilangan muddatida to'lanmagan moliyaviy sanksiyalar;

Soliq nazorati – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lik va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash ustidan nazorat. Nazorat tekshiruv ishlarini amalga oshirish davomida bevosita korxonaning o'zida (hujjatli tekshiruv) yoki korxonalar tomonidan belgilangan muddatlarda taqdim etiladigan va soliq organi ixtiyoriga kelib tushadigan bank hujjatlari, buxgalteriya hisobotlari va hisob-kitoblari asosida (kameril tekshiruv) amalga oshirilishi mumkin. Korxonalar ustidan doimiy nazoratga soliq organlarida har bir soliq turi va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va kelib tushish ustidan operativ buxgalteriya hisobini joriy etish orqali erishiladi.

Soliq og'irligi (yuki, «zulmi») – davlat va jamiyat hayotida soliqlarning rolini karakterlab (ko'rsatib) beradigan eng umumlashgan ko'rsatkich. Ishlab chiqarishning umumiy hajmi va daromadlarda soliq ajratmalarining salmog'ini (hissasini) ko'rsatuvchi, bozor iqtisodiyotining amalga oshirilayotgan modelidan kelib chiqadigan o'lcham. Soliq yig'imlarining jami milliy mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi.

Soliq organlari – soliq qonunchiligiga rioya qilish, mamlakatning qonunlariga muvofiq belgilangan (o'rnatilgan) soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishi, ularning to'lik va o'z vaqtida byudjetga o'tkazilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi yagona mustaqil markazlashtirilgan tizim.

Soliq organlarining majburiyatlari – soliq organlari av ularning xodimlari mamlakat Konstitutsiyasiga, korxonalar, tashkilot, muassasa va fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini ximoya qilnadigan uning boshqa qonunlariga qat'iy rioya qilishlari, tijoriy siri va boshqa siri ma'lumotlarni saqlashlari lozim.

Soliq politsiyasi – huquqni muhofaza qiluvchi organ. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi: soliq jinoyatlari va huquq-buzarliklarining kelib chiqishini oldini olish, ogohlantirish va aniqlash (bir vaqtning o'zida soliq politsiyasi organlari aniqlangan boshqa iqtisodiy jinoyatlar to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi tegishli organlarga ma'lumot berishlari shart); davlat soliq qo'mitasi faoliyatining xavfsizligini ta'minlash, uning xodimlarini xizmat burchlarini bajarishdagi huquqqa

qarshi harakatlardan himoya qilish; soliq organlaridagi korrupsiyani oldini olish, ogohlantirish va aniqlash.

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi;

Soliq stavkasi – soliqqa tortish birligiga to'g'ri keluvchi soliqning hajmi (miqdori, darajasi). Qat'iy soliq stavkalari daromadlarga bog'liq bo'lmagan holda soliqqa tortish birligiga nisbatan absolyut summalarida o'rnatiladi. Proporsional stavkalar daromadning hajmiga (miqdoriga) bog'liq bo'lmagan holda unga nisbatan bir xil foizlarda belgilanadi. Progressiv soliq stavkalari soliqqa tortiladigan daromad hajmining ortishi bilan oshib boradi. Regresiv soliq stavkalari esa, aksincha, daromadning ortib borishi bilan pasayadi.

Soliq tizimi – mamlakat doirasida (hududda) to'lovlardan (yuridik va jismoniy shaxslardan) belgilangan tartibda olinadigan soliqlar, yig'imglar va boshqa to'lovlar hamda ular tarkibiy tuzilishining shakl va uslublari yig'indisi.

Soliq to'lagungacha olingan foyda – bu umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda, plyus favqulodda (ko'zda tutilmagan) vaziyatlardan ko'rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi.

Soliq to'lovchilarini hisobga olish (qaytadan o'tkazish) – soliq to'lovchilar majburiy ravishda (tartibda) Davlat qo'mitasining organlari hisobdan (qaytdan) o'tishi shart. Bunda bank va boshqa kredit tashkilotlari soliq to'lovchilar tomonidan ularning soliq organlari hisobdan (qaytdan) o'tganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani taqdim etganlaridan so'nggina ularga hisob – kitob va boshqa hisob varaqlarini ochishda ham besh kunlik muddat ichida ularga (soliq to'lovchilarga) xabar berishi kerak.

Soliq tushumlari – Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan byudjet daromadlari va xarajatlari klassifikatsiyasining daromadlar qismidagi har bir soliq va boshqa majburiy to'lovlarga mo'ljallangan qism, band, kod va moddaga muvofiq vakolatli banklarning hisob – kitob schyotiga yoziladigan, hisoblangan va haqiqatda kelib tushgan soliq badallari (to'lovlari) va moliyaviy sanksiyalar.

Soliq hisob – kitoblari – yuridik shaxslar tomonidan qonunda ko'zda tutilgan muddatlarda buxgalteriya hisoboti bilan birgalikda soliq organlariga taqdim etilib, o'zida ma'lum hisobot davri mobaynida to'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan to'lovlar summasini aks ettiradi. Soliq summalarini hisoblash tartibi soliq qonunchiligiga ko'ra har bir soliq turi bo'yicha alohida-alohida belgilangan.

Soliq yurisdiksiyasi – davlat soliq organlarining huquqiy masalalarni va soliq huquqbuzarligi to'g'risidagi ishlarni xal qilish bo'yicha qonunga binoan (yoki boshqa me'yoriy hujjatga ko'ra) belgilangan vakolatlari yig'indisi. Bu vakolatlar ikki mezon bo'yicha aniqlanadi: 1) rezidentlik; 2) hududiylik. Bular, o'z navbatida soliqqa tortiladigan daromadlarning tarkibini aniqlab beradi. Barcha mamlakatlarda bu mezonlarni qo'llashda yagonalik bo'lmaganligi uchun ikki marta soliqqa tortish muammosi vujudga keladi. Mezonlarni tanlash har bir mamlakatning milliy manfaatlari bilan bog'liqdir. Ayrim mamlakatlar amaliyotida bu mezonlar turli variantlarda kombinatsiya qilib qo'llash keng tarqalgan. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada asos sifatida rezidentlik mezonini olinsa-da, u mamlakatlarning aniq manfaatlariga bog'liq ravishda hududiylik mezonini bilan to'ldiradi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida esa soliq yurisdiksiyasi afzallik bilan hududiylik mezonini qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bu tartib Fransiya, Shveysariya va boshqa mamlakatlarning soliq amaliyotida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliqlar – qonunda belgilangan tartibdagi stavka bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlardan va fuqarolar (yuridik va jismoniy shaxslar)dan davlat tomonidan davlat yoki mahalliy byudjetga olinadigan majburiy to'lovlar.

Soliqlar klassifikatsiyasi – soliqlarning undirish uslubi, qo'llaniladigan stavkalarining xarakteri, soliq imtiyozlari, soliqqa tortish manbai va obyektini kabi belgilar bo'yicha guruhlariga ajratilishi (bo'linishi).

Sotib olish solig'i – davlat daromadlarini ko'paytirish yoki ayrim tovarlarni ishlab chiqarishni cheklab qo'yish maqsadida mamlakatda ishlab chiqarilayotgan ayrim tovarlardan olinadigan soliq. Odatda eksportga mo'ljallangan tovarlardan olinmaydi.

Sotish solig'i – tovarlarning sotish qiymatiga nisbatan foizlarda belgilanadi va ishlab chiqaruvchi tomonidan tulanadi. Aksizlarning ko'rinishlaridan iborat.

Sotishdan olinadigan soliq – ayrim xorijiy mamlakatlarda (masalan, AKShning ayrim shtatlarida) qo'llaniladi va iste'molchidan olinadigan egri (bilvosita) soliqni o'zida gavalantiradi, odatda bu soliqqa iste'mol tovarlari (restoranlar bundan mustasno) tortilmaydi.

Sof tushum – tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxida hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aksiz solig'ini summalarini kiritmagan holda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum.

Sof foyda – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langanidan keyin yuridik shaxs ixtiyorida qoladigan foyda.

Taqsimlanmagan foyda solig'i – alohida soliq to'lovchi sifatida tan olingan aksionerlik kompaniyalari, banklar va boshqa institutlar foydasining dividendlarga taqsimlanmagan qismidan olinadi.

Tannarx – mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdagi xarajatlarning qiymat bahosi. Tannarx buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

Tovar oboroti – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'lar.

Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushum – realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun olingan (olinishi lozim bo'lgan) mablag'lar summasi, shu jumladan realizatsiya qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun haq to'lash yoki qarzni uzish hisobiga tushadigan mol-mulk qiymati.

Tovarlarni eksport qilish – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlarni, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, qayta olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

To'g'ri (bevosita) soliqlar – daromad solig'i, foyda solig'i, resurs to'lovlari, mol-mulk solig'i va boshqalardan iborat bo'lib, ularga egalik qilish va ulardan foydalanish soliqqa tortish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

To'lov qobiliyati – xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larni yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi.

To'lov manbai – soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri – soliq to'lovchilarga oid davlat ma'lumotlar bazasi tizimi.

Uy-joy solig'i – ko'chmas mulk solig'ining ko'rinishlaridan biri bo'lib, bu soliqqa uy-joyga ega bo'lganlar tortiladi. Masalan, Fransiyada qo'llanib kelmoqda.

Umidsiz qarz – sud qaroriga binoan majburiyatlarning tugatilishi, qarzdorning bankrotligi, tugatilishi yoki vafot etishi oqibatida yoxud da'vo qilish muddati o'tishi oqibatida uzish mumkin bo'lmagan qarz.

Umumiy kapitalning chaqqonlik koeffitsiyenti – bu korxonaning umumiy aylanma aktivlarini uning mol-mulki qimmatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanib, u korxonaning umuman mablag'lar bilan ta'minlanganligini va o'z majburiyatlaridan qutilish salohiyatini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichga korxonaning mol-mulkini tarkibi – o'zlik manbalar va korxonaning majburiyatlari o'rtasidagi o'zaro nisbat ta'sir ko'rsatadi.

Favqulodda holatlar – taraflarning xohish-irodasi va harakatlariga bog‘liq bo‘lmagan, tabiat hodisalari (zilzila, ko‘chkilar, bo‘ron, qurg‘oqchilik va boshqalar), boshqa tabiiy ofatlar yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush holati, qamal holati, davlat manfaatlarini ko‘zlab importni hamda eksportni taqiqlash va boshqalar) keltirib chiqargan muayyan sharoitlardagi favqulodda, oldini olib bo‘lmaydigan va kutilmagan holatlar bo‘lib, qabul qilingan majburiyatlar shular tufayli bajarila olmaydi.

Foyda – absolyut ko‘rsatkich bo‘lib, u korxonalar faoliyati samarasini ifodalaydi

Foyda solig‘i – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning foydasidan olinib, byudjetning asosiy daromadlaridan biri hisoblanadi. Bu to‘g‘ri (bevosita) soliqlidir. Uning summasi soliq to‘lovchi korxonaning yakuniy moliyaviy natijasiga bog‘liq bo‘ladi. Moliya yilida soliq solinadigan foydaga ega bo‘lgan yuridik shaxslar foyda solig‘ini to‘lovchilar hisoblanadi. Yalpi foyda bilan ma‘lum chegirmalar o‘rtasidagi farq sifatida hisoblangan foyda soliqqa tortish obyektidir. Foyda solig‘i barcha soliqlar to‘langandan so‘ng korxonaga ixtiyoriga qolgan foyda hisobidan to‘lanadi.

Foizlar – har qanday turdagi qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, depozit qo‘yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

Xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar) – bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi, plus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

Xususiy kapital – korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Hisoblanmagan soliqlar summasi – nazoratni amalga oshirishda obyektiv va subyektiv xarakterdagi ko‘p omillarga bog‘liqlidir: a) soliq inspeksiyasi xodimlarining malakasiga; b) soliq qonunchiligini soliq to‘lovchilarga tushuntirish ishlarining olib borilish darajasiga; d) korxoanlarning qonunga itoatkorligiga va h.k. boshqa sharoitlar teng bo‘lgan taqdirda eng muhim omil bo‘lib, soliqqa tortish bazasi (asosi)ning o‘lchami hisoblanadi. Soliqqa tortish bazasi (asosi) qancha katta bo‘lsa, nazoratni amalga oshirish jarayonida soliqlarni qo‘shimcha hisoblash va soliq to‘lovchilarga moliyaviy jazolarni berish imkoniyatini shuncha ko‘p bo‘ladi.

Hujjat bilan tasdiqlangan xarajatlar – operatsiya sanasini, summasini, xususiyatini aniqlash va uning ishtirokchilarini identifikatsiya qilish imkonini beradigan hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlar.

Shaxsiy soliqlar – taqdim etilgan imtiyozlarni hisobga olgan holda daromadning o‘lchamiga (miqdoriga, hajmiga) muvofiq olinadigan to‘g‘ri soliqlardir.

Egri (bilvosita) soliqlar – xo‘jalik axtlari va oborotlari hamda moliyaviy operatsiyalardan kelib chiqadi. Bu soliqlarning tarkibiga qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksizlar, boj poshlinalari, qimmatbaho qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalardan olinadigan soliq va boshqalar kiradi. Egri (bilvosita) soliqqa tortishda shu soliqni to‘lashi kerak bo‘lgan va shu soliqqa tortilishi lozim bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslar turlicha shaxslardir.

Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar – qo‘shilgan qiymat solig‘i, korxon va tashkilotlarning daromadi (foydasi)dan olinadigan soliq, aksizlar, yo‘l fondlarini shakllantirish uchun manba sifatida foydalaniladigan soliqlar, korxon mol-mulki solig‘i, yer uchun to‘lovlar, reklama solig‘i, birjada amalga oshirilgan bitimlardan olinadigan yig‘im, mahalliy auksion va lotoreyalarni o‘tkazish huquqi uchun litsenziya yig‘imi, boshqa soliq, yig‘im va majburiy to‘lovlardan iborat.

Yutuq – lotereyalar, o‘yinlar, tanlovlar, musobaqalar (olimpiadalar), festivallar va shu kabi boshqa tadbirlarda olingan, natura holidi yoki pulda ifodalangan to‘lovlar, sovrinlar va boshqa daromadlar.

Yaqin qarindoshlar – er-xotin, ota-ona, bolalar, tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opa-singillar, bobolar, buvilar, nevaralar.

Yashirin soliq – iste‘molchi tomonidan bevosita to‘lanmaydigan, lekin unga mo‘ljallangan tovarning bahosi tarkibiga uni ogohlantirmasdan, unga xabar bermasdan, unga bildirmasdan kiritilgan soliq. Masalan, boj poshlinasi.

TEST

To'g'ri soliq bu – ?

=Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq

~Yer, Qo'shilgan qiymat solig'i

~Mol-mulk, Aksiz solig'i

~YAIT va Yer solig'i

Soliq obyektiga deganda:

=Soliq fanidan daromad, mol-mulk yoki iqtisodiy faoliyat tushuniladi.

~Yuridik shaxslar ya'ni korxonalar, firma, kompaniya, tashkilotlar tushuniladi.

~Barcha soliq to'lovchilar tushuniladi.

~Barcha soliq undiruvchilar tushuniladi.

Soliq to'lovchilar bu – ?

=zimmatisiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati

~Rezidentlar va nerezidentlar

~Nerezidentlar va tashkilotlar

~Rezidentlar, yuridik shaxslar

Soliqlarning asosiy fiskal funksiyasi qanday ma'noni anglatadi ?

=lotincha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni

~italiyancha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni aytatadi

~ingilizcha fiscus so'zi bo'lib, xazina degan ma'noni

~lotincha fiscus so'zi bo'lib, xazira degan ma'noni

Soliq agentlari bu –

=soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

~soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslardir.

~soliqlarni hisoblab chiqarish va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslardir.

~soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va davlat byudjetiga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir.

Proporsional soliq stavkasi deb nimaga aytiladi?

=bunda soliqqa tortish obyektiga qanday bo'lishidan qat'iy nazar soliq stavkasi o'zgarmaydi.

~ bu stavkada daromad yoki boshqa obyekt qiymati oshib borishi bilan birga soliq stavkasi ham oshib boradi.

~soliq stavkasida daromad oshishi bilan yoki soliq obyektiga o'zgarishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi.

~soliq to'lovchining daromadi va mulki, oborotidagi davlatning hissasidir.

Regressiv stavka bu – ?

≡soliq obyektining oshib borishi bilan soliq stavkasi kamayib borib, daromad yoki mahsulot ko'plab ishlab chiqarishni talab qiladi.

~bu stavkada daromad yoki boshka obyekt qiymati oshib borishi bilan birga soliq stavkasi ham oshib boradi

~soliq stavkasida daromad oshishi bilan yoki soliq obyekt o'zgarishi bilan soliq stavkasi kamayib boradi.

~bunda stavka o'zgarmasdan daromad, oborot, xarajat oshgan taqdirda ham stavka proporsiyasi o'zgarmaydi.

Progressiv soliq stavkasining nechta turi mavjud?

≡ikki turi mavjud

~amalda beshta turi bor

~amalda to'rtta turi bor

~amalda uchta turi bor

Soliq bazasini hisoblash usullarini ko'rsating?

≡kassa usuli va hisobga olish usullaridir

~kadastrli va hisobga olish usullaridir

~kassa usuli va kadastrli usullaridir

~to'g'ri va egri hisoblash usullaridir

Soliq bazasini hisoblashning nechta usuli mavjud?

≡Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud

~Soliq bazasini hisoblashning uch xil usuli amalda mavjud

~Soliq bazasini hisoblashning to'rtta usuli mavjud

~Soliq bazasini hisoblashning ikki xil usuli mavjud emas

Soliqqa oid jinoyatchilar uchun javobgarlik o'lchovi qanday nomlanadi?

≡moliyaviy jazo

~amalda ma'muriy jazo

~amalda jinoiy jazo

~amalda jazo yo'q

Qonunchilikda nazarda tutilgan yoki shartnoma majburiyati bo'yicha belgilangan vaqtdan kechikkan har bir kun uchun bitim bo'yicha qayd etilgan summaning foizidagi ulushi qanday nomlanadi?

≡Penya

~Sug'urta badali

~Soliq manbai

~Soliqqa tortish normasi

Soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi bu..... ?

~soliq yukidir

~sug'urta badali summasi

~soliq hisob-kitobi

~soliq og'irligi me'yori

Umumdavlat soliqlarga qaysi bir soliq turi kiradi?

~Jismoniy shaxslar daromad solig'i

~Qat'iy belgilangan soliq

~Yagona yer solig'i

~Sug'urta badali summasi

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish huquqiga egami?

=Hududidagi soliq to'lovchilarga imtiyoz berishga haqli emas.

~Hududida joylashgan to'lovchilarga imtiyoz berishga haqli.

~Hududi doirasida imtiyoz berishga haqli hisoblanadi.

~Hududi doirasidan ayrim turlari bo'yicha imtiyoz berishga haqli.

Soliq to'lovchilar doirasidan kelib chiqqan holda soliqlar nechki guruhga bo'linishi mumkin?

=2 guruhga

~3 guruhga

~5 guruhga

~1 guruhga

Soliq qonunchiligida soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar ikkiga bo'lingan ular qaysilar?

=Yuridik, jismoniy shaxslar

~korxonalar va jismoniy shaxslar

~korxonalar, fuqarolar

~yuridik shaxslar va fuqarolar

Soliq qonunchiligida jismoniy shaxslar bu – ?

=yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar va chet el fuqarolari hamda fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

~yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

~yuridik shaxs maqomini olmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va ajnabiy fuqarolar kiradi.

~Ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar kiradi.

Soliqlarning tashkil qilish uslublari ikki guruhga bo'linadi bularga – ?

=Ixchamlashtirilgan va umumiy tartibda tashkil qilishdir

~Elementlari va tamoyillari
~soliq imtiyozlari va soliq manbai
~soliq yuki va boshqalar kiradi

Soliqqa tortish usullari necha xil ko'rishda amalga oshiriladi.

=3 xil ko'rishda amalga oshiriladi.
~5 xil ko'rishda amalga oshiriladi.
~2 xil ko'rishda amalga oshiriladi.
~4 xil ko'rishda amalga oshiriladi.

Soliq yuki bu – ?

=soliq to'lovchining muayyan vaqt oralig'ida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi.
~soliq to'lovchining bir yilda to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi.
~soliq to'lovchining moliya yilida to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi.
~soliq to'lovchining to'lagan soliqlari yig'indisini ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining “Korxonalar, tashkilotlar, birlashmalardan olinadigan soliqlar to'g'risida”gi Qonun qachon qabul qilingan?

=1991-yil 15-fevral
~1990-yil 15-mart
~1992-yil 10-fevral
~1993-yil 5-fevral

Soliq siyosatining – birinchi vazifasi?

=korxonalarni respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan
~davlat byudjeti daromadining safarbarligini ta'minlashdan
~davlat byudjeti xarajatining safarbarligini ta'minlashdan
~korxonalarni aholi uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishini rag'batlantirishdan

“O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida”gi Qonuni qachon qabul qilingan?

=1991-yil 31-avgustdagi
~1992-yil 31-avgustdagi
~1990-yil 31-avgustdagi
~1993-yil 31-avgustdagi

O'zbekiston Respublikasining birinchi Soliq kodeksi qachon qabul qilingan?

=1997-yilda
~1998-yilda
~2008-yilda
~1996-yilda

O'zbekiston Respublikasida soliqlarni joriy qilishga faqat qaysi davlat organi haqlidir.

=Oliy Majlis
~Vazirlar Mahkamasi

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- Mahalliy hokimiyat organlari

O'zbekiston respublikasi Prezidentining O'zbekiston respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risidagi Farmoni qachon qabul qilingan?

- ~2018 y
- ~2019 y
- ~2020 y
- ~2017 y

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab necha guruhga bo'linadi?

- =3 guruhga
- ~4 guruhga
- ~5 guruhga
- ~2 guruhga

Tarixan soliqlar ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga qarab ikki guruhga to'g'ri va egri soliqlar guruhlariga bo'linadi?

- =to'g'ri va egri
- ~bevosita va bilvosita soliq
- ~mahalliy va umumdavlat soliq
- ~to'g'ri va bevosita soliq

Byudjetga o'tkazish nuqtayi nazaridan soliqlar qanday soliq'larga bo'linadi?

- =umumdavlat va mahalliy
- ~To'g'ri, egri
- ~Bevosita, bilvosita
- ~To'g'ri, bevosita

Soliqlar paydo bo'lish manbaiga ko'rasoliqlarga bo'linadi?

- =yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan
- ~umumdavlat va mahalliy soliq
- ~bevosita va bilvosita soliq
- ~to'g'ri va egri soliq

“Soliq” tushunchasiga ta’rif bering.

- =muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi
- ~Yuridik shaxslar tomonidan byudjetga undiriladigan barcha to'lovlar tushuniladi
- ~Jismoniy shaxslar tomonidan byudjetga to'lanadigan majburiy to'lovlar tushuniladi
- ~Soliq deganda davlat byudjetiga undiriluvchi majburiy to'lov tushuniladi

Davlat byudjeti daromadlarining asosiy manbalarini ko'rsating.

- =Soliqlar
- ~Majburiy to'lovlar
- ~Soliqsiz daromadlar

~Soliqsiz to'lovlar

Soliqlarning qanday o'ziga xos belgilari mavjud?

=Majburiylik, foizlilik, muddatlilik

~Majburiylik, davlat byudjetiga tushishlik, qat'iylik, ekvivalentsizlik

~Majburiylik, muddatlilik

~byudjetga tushishlilik

Soliq stavkasining turlarini aniqlang.

=Proporsional, progressiv, regressiv

~O'sib boruvchi, kamayib boruvchi

~To'g'ri, proporsional

~Regressiv, qat'iy

Soliqqa tortishning qanday usullari mavjud?

=Kadastrli, deklaratsiya, manba oldida soliqla tortish

~To'g'ri va egri

~Bevosita va bilvosita

~Kadastrli va deklaratsiya

Soliqlarning soliqla tortish obyektini bo'yicha guruhlarni ko'rsating.

=Oborotdan, daromaddan, mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar

~Mahalliy va umumdavlat soliqlari

~Mol-mulk qiymatidan soliqlar

~Yer maydoniga qarab olinadigan, xarajatlariga qarab olinadigan soliqlar

Soliqlar byudjetga tushishiga ko'ra ... larga bo'linadi?

=Umumdavlat hamda mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar

~Oborotdan, mol-mulkdan va daromaddan olinadigan soliq

~Jismoniy shaxslar va yuridik shaxslardan olinadigan soliq

~Egri soliqlar va to'g'ri soliqlar

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i umumdavlat soliqlari nechanchi yildan boshlab kiritilgan

=2008-yil

~2009-yil

~2007-yil

~2006-yil

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari kimlar?

=O'zbekiston Respublikasi rezidentlar va norezidentlar

~Moliya yilida soliqla tortiladigan foydaga ega bo'lgan yuridik shaxslar

~Yuridik va jismoniy shaxslar

~Kichik mikrofirma va sanoat korxonalarini

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bazasi bu –

- ~Jami daromaddan xarajatlarni, imtiyozlar kamaytiriladigan summalarni ayirishdan iborat.
- ~Moliya yilida soliqqa tortiladigan foydasini xarajatlarga nisbati
- ~Tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan
- ~Sof tushumni xarajatlarga nisbati

Soliq solinadigan foydani hisoblashda jami daromaddan chegirib tashlanadigan xarajatlar necha guruhdan iborat

- =5
- ~4
- ~3
- ~2

Yuridik shaxslar jami daromadlar bu....

- =tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushum va boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi.
- ~tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan sof tushum tushuniladi
- ~tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumdan xarajatlarni ayirish
- ~sof tushum va boshqa solikli daromadlarni o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxslar sof tushumi bu.....

- =tovarlarni sotishdan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar.
- ~asosiy faoliyatning daromadlaridan iborat.
- ~jami daromaddan xarajatlarni, imtiyozlar kamaytiriladigan summalarni ayirishdan iborat.
- ~sof tushum va boshqa daromadlarni o'z ichiga oladi.

Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi qanday daromatlardan iborat:

- =tovarlarni sotishdan olinadigan daromadlar va boshqa daromadlar.
- ~asosiy faoliyatning daromadlaridan iborat.
- ~sof tushumi va asosiy faoliyatning solikli daromadlaridan iborat.
- ~jami daromaddan xarajatlarni, imtiyozlar kamaytiriladigan summalarni ayirishdan iborat.

Yuridik shaxslar foyda soliq stavkasi necha foiz?

- =15 foiz
- ~14 foiz
- ~16 foiz
- ~17 foiz

Dividendlar va foizlardan soliq stavkasi?

- =5 foiz
- ~10 foiz
- ~4 foiz
- ~12 foiz

O'zbekistonda foyda solig'i qachon joriy qilingan?

- =1991-yildan
- ~1990-yildan
- ~1992-yildan
- ~1993-yildan

Yuridik shaxslar foyda solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitoblarni qanday ravishda amalga oshiradilar?

- =Mustaqil
- ~Moliya Vazirligi
- ~Davlat soliq inspeksiyasi orqali
- ~Davlat soliq qo'mitasi orqali

Foyda solig'ining obyekti bu – ?

- =O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining foydasi
- ~O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining va norezidentlarining mulki, yerlari
- ~O'zbekiston Respublikasi rezidentlari Davlat muassasalari
- ~Yuridik shaxslarning mol-mulkleri, yerlari

Soddalashtirilgan soliq tizimiga o'tgan kichik korxonalar va mikrofirmalar mol-mulk solig'ini to'lovchilar hisoblanadimi?

- =Mol-mulk solig'ini to'lovchilari hisoblanmaydi
- ~Mol-mulk solig'ini belgilangan tartibda to'laydilar
- ~Ijaraga berilgan mol-mulklardan soliq to'laydilar
- ~Faqat asosiy vositalari bo'yicha soliq to'laydilar

Yagona soliq to'lovi to'lovchilari qo'shilgan qiymat solig'ini.....

- =Ixtiyoriy ravishda to'laydilar
- ~Umumbelgilangan tartibda to'lashga majbur
- ~Nollik stavkada soliq to'laydilar
- ~Pasaytirilgan stavkada soliq to'laydilar

Savdo korxonalariga qo'llaniladigan soliq stavkalarini tabaqalanishining asosiy mezonini ko'rsating.

- =Joylashgan joyiga va aholi soniga qarab
- ~Ishchilar soniga qarab
- ~Daromadlik darajasiga qarab
- ~Joylashgan joyiga qarab

Yagona soliq to'lovining obyekti nima?

- =Yalpi tushum
- ~Sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq
- ~Korxonada davr xarajatlari
- ~Korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda

Nollqqa tortishning soddalashtirilgan tizimini qoʻllaydigan mikrofirma va kichik korxonalar quyidagi qaysi soliqlarni toʻlaydilar?

- Import qilinadigan tovarlar boʻyicha QQS
- Nuv resurrlaridan foydalanganlik uchun soliq, QQS
- Yer soligʻi
- Obodonlashtirish infratuzilmani rivojlantirish soligʻi

Nollq solishning soddalashtirilgan tartibi qaysi soliqlar boʻyicha soliq hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi?

- Yagona soliq toʻlovi, yagona yer soligʻi hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari boʻyicha qatʻiy belgilangan soliq
- Yagona soliq toʻlovi, aksiz soligʻi hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari boʻyicha qatʻiy belgilangan soliq
- Yagona soliq toʻlovi, yer soligʻi, yer qaʻridan foydalanganlik uchun soliq
- Yagona soliq toʻlovi hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari boʻyicha qatʻiy belgilangan soliq

Yagona soliq toʻlovida soliq solish obyekti sifatida qaralmaydi:

- Sugʻurta shartnomalari boʻyicha sugʻurta toʻvoni (sugʻurta summasi) tariqasida olingan mablagʻlar
- Oʻz kuchlari bilan bajarilgan qurilish, loyiha-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlarini realizatsiya qilishdan tushgan tushum
- Oʻyin chiptalarini ularda koʻrsatilgan narx boʻyicha tarqatishdan tushgan tushum
- Korxonada koʻrsatilgan xizmatlar uchun pul mukofoti summasi

Yagona yer soligʻi soliq tizimiga qachon joriy etilgan:

- 1998-yil 1-maydan
- 2004-yil 1-yanvardan
- 1997-yil 1-maydan
- 1999-yil 1-yanvardan

Yagona yer soligʻi toʻlovchilari boʻlgan subyektlarni aniqlang.

- Qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, qishloq xoʻjaligi yoʻnalishidagi oʻquv-tajriba xoʻjaliklari
- Fermer va dehqon xoʻjaliklari, oʻrmon va ovchilik xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar, dehqon xoʻjaliklari
- Faqatgina paxta yetishtirish bilan shugʻullanuvchi qishloq xoʻjaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

Yagona yer soligʻining soliq solinadigan bazasini belgilang

- Soliq solinadigan yer uchastkalarining meʼyoriy qiymati
- Ijaraga olingan yer uchastkalari meʼyoriy qiymati baza
- Yer uchastkalarining maydoni
- Qishloq xoʻjaligini yuritish uchun berilgan yer uchastkasi

Yagona yer solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating.

- =Hisobot yilining 1-sentyabrgacha 30 % va 1-dekabrigacha qolgani
- ~Hisobot yilining 1-iyuligacha 20%, 1-sentyabrgacha 80% va 1-dekabrgacha qolgani
- ~Hisobot yilining 1-iyuligacha 35%, 1-sentyabrgacha 65% va 1-dekabrgacha qolgani
- ~Hisobot yilining 1-sentyabrgacha 40% va 1-dekabrgacha qolgani

2020-yildan daromad solig'i stavkasi qancha etib belgilanishi nazarda tutilgan?

- =12%
- ~15%
- ~13%
- ~10%

Jismoniy shaxslar to'layotgan soliqlar ichida byudjet tushumlaridan salmoqli o'rnini egallaydigan soliq bu –

- =jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
- ~foyda solig'i va YAIT
- ~jismoniy shaxslardan olinadigan INPS
- ~yuridik shaxslardan olinadigan YAIT

Mehnatga haq to'lashni miqdori necha qismdan iborat?

- =4
- ~3
- ~5
- ~6

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bu –

- =Doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 183 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs
- ~Doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 180 kun yoki undan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs
- ~Doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 186 kundan ko'proq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs
- ~Doimiy yashab turgan yoki moliya yilida boshlanadigan yoxud tugaydigan o'n ikki oygacha bo'lgan istalgan davr mobaynida 187 kundan kamroq muddatda O'zbekistonda turgan jismoniy shaxs

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i qachondan boshlab joriy etilgan?

- =1991-yil 15-fevraldan
- ~1992-yil 15-fevraldan
- ~1990-yil 15-fevraldan
- ~1993-yil 15-fevraldan

O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan jismoniy shaxslarga ularning qaysi faoliyati manbalaridan olingan daromadlari bo'yicha soliq solinadi?

- O'zbekiston Respublikasida va undan tashqaridagi faoliyati manbalaridan
- O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi barcha faoliyat manbalaridan
- Foiz ko'rinishidagi daromadlari manbaidan
- O'zbekiston Respublikasi hududidagi manbalardan

Jismoniy shaxslarga berilgan imtiyozlar bu –

- ~xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonolari va konsullik muassasalarining ma'muriy–texnik xodimlari hamda ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari
- ~xorijiy davlatlar diplomatik vakolatxonalarining boshliqlari va xodimlari
- ~konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari.
- ~diplomatik vakolatxonolari va konsullik muassasalarining ma'muriy–texnik xodimlari, ularning o'zlari bilan birga yashaydigan oila a'zolari

Quyidagi qaysi jismoniy shaxslar har oy uchun eng kam ish haqining 4 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha soliqdan ozod qilingan.

- ~“O'zbekiston Qahramoni”, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar
- ~yosh oilalar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar
- ~davlat zayomining obligatsiyalari bo'yicha yutuqlar, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizlar, lotereya bo'yicha yutuqlar
- ~barcha fuqarolarning sug'urta to'lovi sifatida oladigan summalari

Respublikasi yo'l jamg'armasiga ajrtmalarni ajratishdan maqsad nima?

- =Yo'ldan oqilona foydalanish
- ~Byudjetni shakllantirish
- ~Xalqaro yo'llarni yerni qayta ta'mirlash
- ~Yo'l fondi mablag'larini shakllantirish va yo'l qurilishini mablag' bilan ta'minlash

Xalqaro tashishlarda transport xizmatlari ko'rsatishdan olinadigan daromadlarga nisbatan soliq stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

- =6 foiz
- ~5 foiz
- ~7 foiz
- ~8 foiz

Jismoniy shaxslarning quyidagilardan qaysi daromadlariga soliq solinmaydi?

- =moddiy yordam summalari, davlat pensiyalardan, olingan alimlar sportchilar olgan pul mukofoti
- ~xodimlarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar
- ~mulkiy daromadlar
- ~moddiy naf tarzidagi daromadlar

QQSni davlat byudjetining daromad qismiga jalb qilish g'oyasi dastlab nechanchi asrning boshlarida yuzaga keldi.

=20-asrning boshlarida

~19-asrning boshlarida

~18-asrning oxirlarida

~17-asrning o'rtalarida

QQS ni birinchi marta Germaniya byudjet amaliyotida joriy etishni nechanchi yilda Vilgelm fon Simens ilgari surdi.

=1919-yilda

~1921-yilda

~1918-yilda

~1920-yilda

QQSni amaliyotga joriy etish va undirish mexanizmi birinchi marta fransuz moliyachisi qaysi olimi tomonidan ishlab chiqildi.

=Lore

~M.Fransua

~Vilgelm Simens

~A.Laffer

Fransiyada QQS i haqiqatda nechanchi yildan boshlab joriy etildi.

=1968-yil

~1967-yil

~1970-yil

~1971-yil

Nechanchi asrning qaysi yillarida QQSi G'arbiy Yevropaning qator mamlakatlarining soliq amaliyotida joriy qilindi.

=20-asrning 70-yillarida

~20-asrning 90-yillarida

~20-asrning 80-yillarida

~19-asrning 60-yillarida

QQSni undirishni tartibga solishning huquqiy me'yorlarini umumlashtirish to'g'risidagi maxsus Direktiva qachon qabul qilindi?

=1977-yilda qabul qilindi

~1970-yilda qabul qilindi

~1978-yilda qabul qilindi

~1988-yilda qabul qilindi

QQSdan imtiyozlar amalda nechta guruhda berilgan.

=4 guruhda

~6 guruhda

~3 guruhda

~5 guruhda

Berilgan imtiyozlarning qay biri tovarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish oborotidan ozod etilgan?

- =bemorlar va keksalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;
- ~insonparvarlik yordami tariqasida olib kirilayotgan tovarlar
- ~gidrometeorologiya va aerologiya ishlari
- ~pul mablag'larini konvertatsiya qilish bo'yicha operatsiyalar;

Berilgan imtiyozlarning qay biri moliyaviy xizmat QQSdan ozod etilgan?

- =milliy valyuta va chet el valyutasi bilan bog'liq operatsiyalar
- ~ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlov xizmatlari
- ~o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulot qiymati
- ~aholini elektr energiyasi bilan ta'minlash xarajatlari

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha QQS qaysi formula orqali hisoblanadi:

- =SQQS = (IQTBQ = BBS = AS) x QQSST /100
- ~SQQS = (IQTBQ = BBS = AS) x QQSST/90
- ~BQQS = SQQS - TQQS/105
- ~SQQS = STOB X SS / 110

Hisobvara-q-faktura yetkazib beruvchi korxonadan necha nusxada to'ldiriladi.

- =2 nusxada
- ~1 nusxada
- ~3 nusxada
- ~4 nusxada

Kimlar QQS to'lovchisi hisoblanishmaydi?

- =Notijorat tashkilotlar, soliq solishning soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchilar.
- ~Byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar
- ~Byudjet oldida hisob-kitobini amalga oshiruvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- ~Soddalashtirilgan tartibi bo'yicha soliq to'lovchi shaxslar.

QQSning obyektini bo'lib nima hisoblanadi?

- =tovar (ish, xizmat)larni realizatsiya qilish oboroti hamda tovarlarning importi hisoblanadi
- ~tovarlarni eksport qilish oboroti, tovarlarning importi hisoblanadi
- ~xizmatlarni realizatsiya qilish oboroti, xizmatlarning eksporti hisoblanadi
- ~tovarlarni realizatsiya qilish oboroti hisoblanadi

Soliq solinadigan import deganda nima tushiniladi?

- =Respublikamiz bo'jxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi
- ~Bo'jxona hududiga olib kirilayotgan tovarlar hisoblanadi
- ~Bo'jxona hududiga olib kirilayotgan xizmatlar hisoblanadi
- ~O'zbekiston Respublikasining bo'jxona hududidan olib chiqarilgan tovarlar hisoblanadi

Suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarga QQS ning qanday stavkasi qo'llaniladi?

=Nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi

~Amaldagi qo'shilgan qiymat solig'i solinadi

~Amaldagi qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydi

~Uchta stavka bo'yicha QQS solinadi

Aksiz solig'i O'zbekiston Respublikasida qachon joriy etilgan?

=1992-yil

~1991-yil

~1995-yil

~1998-yil

Aksiz markalarining nominal qiymati aksiz solig'i to'lovi hisobiga

=Barcha markalar kiritiladi

~Faqat alkogolli uchun kiritiladi

~Barcha mahsulotlarda markalar kiritilmaydi

~Tamaki mahsulotlari uchun kiritiladi

Aksiz markalarining joriy etilish yilini ko'rsating.

=1996-yil 1-oktyabr

~1997-yil 6-may

~1995-yil 1-yanvar

~1998-yil 1-yanvar

Aksiz solig'ini to'lash muddatlarini ko'rsating.

=Har 10 kunlikda

~Har 15 kunlikda

~Har oy 8 kunida

~Har oy 20 kunida

Aksiz solig'i stavkalari va aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati kim tomonidan belgilanadi?

=O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

~O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

~O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi

~O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi

Aksiz solig'ining to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

=Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va import qiluvchi yuridik va jismoniy shaxslar

~Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi jismoniy shaxslar

~Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar

~Aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarni eksport qiluvchi yuridik shaxslar

Aksiz solig'i quyidagilarning qaysilariga solinmaydi?

- =Aksiz to'lanadigan tovarlarning eksportiga
- ~Aksiz to'lanadigan tovarlarning importiga tortiladi
- ~Berilgan xomashyodan tayyorlangan mahsulotga
- ~Vino va vino materiallariga

Aksiz solig'i to'lovchilari bo'lib:

- =Aksiz solig'i solinadigan tovarlar ishlab chiqaruvchilar, mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchilar, tovarlarni import qiluvchi yuridik shaxslar
- ~Aksiz solig'i solinadigan tovarlarni ro'yxatga oluvchi korxonalar va ular faoliyatini tashkil etuvchi moliya inspektorlari
- ~Aksiz solig'i solinadigan tovarlarni oxirgi iste'molchilari va eksport qiluvchi korxonalar
- ~Aksiz solig'i solinadigan qishloq xo'jaligi tovarlarini realizatsiya qiluvchi va aksizli tovarlarni eksport qiluvchi korxonalar

Import qilinadigan aksiz solig'i solinadigan tovarlar bo'yicha soliq obyekt.

- =Boj qiymati
- ~Mahsulot tannarxi jami
- ~Ulgurji tovar oboroti
- ~Chakana tovar oboroti

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan aksizli tovarining aksiz solig'i summasi

- ***
- =To'liq ishlab chiqarish tannarxi, korxonalar foydasi, aksiz solig'ini hisobga olgan holdagi sotuv narxidan aniqlanadi
- ~Xo'jalik subyektlarida belgilangan jami ulgurji narxidan aniqlanadi
- ~Xo'jalik subyektlarini ishlab chiqarish xarajatlari va foyda summalaridan aniqlanadi
- ~Ishlab chiqarish xarajatlari va foyda, qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olgan holda

Aksiz solig'i Davlat byudjeti daromadlarini qaysi daromad manbalari turi tarkibiga qarashli?

- =Egri soliqlar
- ~Soliqsiz daromadlar
- ~Bevosita soliqlar
- ~Alkogolli tovarlar uchun yig'imlar

Aksiz to'lanadigan tovarlar va xizmatlar ro'yxati qaysi me'yoriy hujjat bilan tasdiqlanadi?

- =O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori
- ~O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi
- ~O'zbekiston Respublikasi qonuni
- ~O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni

"Aksiz" so'zi qanday ma'noni anglatadi?

- =chertib olish, kesib olish

- ~byudjetga undirish, olish
- ~qo'shilgan qiymat narxi
- ~alkogol ichimlik narxi

Aksiz solig'i qaysi byudjetga tushadi?

- =Respublika byudjetiga
- ~Byudjetdan tashqari fondlarga
- ~Mahalliy byudjet, fondlarga
- ~Soliq organiga, fondlarga

O'zbekistonda qachondan boshlab mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'ini joriy qiladi.

- =2019-yil 1-yanvardan boshlab
- ~2020-yil 1-yanvardan boshlab
- ~2018-yil 1-oktyabrdan boshlab
- ~2021-yil 1-yanvardan boshlab

Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini soliqqa tortiladigan bazasini aniqlang.

- =asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati
- ~asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati
- ~asosiy vositalarning eskirish summasi
- ~asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati

Yuridik shaxslarning mol-mulklaridan soliq qachon joriy etildi?

- =1991-yil
- ~1990-yil
- ~1992-yil
- ~1993-yil

Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq qanday xususiyatga ega?

- =rag'batlantirish
- ~tartibga soluvchi soliq
- ~o'suvchi, ko'payib boruvchi
- ~nazorat qiluvchi soliq

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilarini aniqlang.

- =Respublika hududida soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan yuridik shaxslar
- ~notijorat tashkilotlar faoliyati
- ~yagona soliq to'lovi to'lovchilari bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalar
- ~yagona yer solig'i to'lovchilari bo'lgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar faoliyati

Yuridik shaxslar mol-mulkidan olinadigan soliq bo'yicha soliq solish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq qiymati qanday tartibda aniqlanadi?

- hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summaning 12 dan bir qismi sifatida
- hisobot davridagi har bir oyning oxirgi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summaning 14 dan bir qismi sifatida
- hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summaning 10 dan bir qismi sifatida
- hisobot davridagi har bir oyning birinchi kunidagi holatga ko'ra soliq solish obyektlarining qoldiq qiymatlarini qo'shishdan olingan summaning 14 dan bir qismi sifatida

Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i solik solish obyektini ko'rsating?

=asosiy vositalar, shu jumladan, moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalar;

- asosiy vositalarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati
- mol-mulk solig'i summasi asosiy vositalarning qoldiq qiymati
- mikrofirma va kichik korxonlar asosiy vositalari.

Yuridik shaxslar mol-mulkida tugallanmagan qurilish obyektlari – bu?

- =qurilish boshlanganidan e'tiboran 24 oy ichida qurilishi tugallangan obyektlar kiradi
- qurilish boshlanganidan e'tiboran 12 oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi
- qurilish obyektiga doir loyiha~smeta hujjatlarida belgilangan 26 oy ichida
- asbob-uskunalar montaj qilishga topshirilgan paytdan e'tiboran 36 oydan ko'p bo'lmasligi kerak.

Qonun hujjatlariga muvofiq mulk qilib olingan yer uchastkalari soliq solish obyektini? Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

- =solish obyektini sifatida qaralmaydi
- solish obyektini, bazasi sifatida qaraladi
- solish obyektini, bazasi sifatida qaralmaydi
- solish qisman bazasi sifatida qaraladi

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bu Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.

- =mahalliy soliq
- foyda (daromad) solig'i
- umumdavlat darajasidagi soliq
- konsolidatsiyalashtirilgan soliq tizimi

Yuridik shaxslarni mol-mulk solig'ini kim hisob-kitob qiladi?

- =yuridik shaxsning o'zi
- Respublika davlat soliq organi
- viloyat soliq boshqarmasi, inspeksiyasi
- yer uchastkasining soliq to'lovchisi

Yuridik shaxslarni mol-mulk solig'ining soliq stavkasi qancha (2020-yil)?

- =2%
- 3%

~3,5%

~5%

Mol-mulk soligini soliqqa tortish obyekti:

=Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati

~Asosiy fondlarning o'rtacha yillik belgilangan qoldiq qiymati

~Asosiy fondlarning balans yillik qiymati, balanslashgan qiymati

~Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati va asosiy fondlarni

Asosiy vositalar o'rtacha yillik qoldiq qiymati qaysi soliq turining soliqqa tortish obyekti hisoblanadi?

=Yuridik shaxslarni mulk solig'i

~Fuqaroni mol-mulk solig'i tomonidan

~Foyda va aksiz solig'i tomonidan

~Daromad va aksiz solig'i tomonidan

2020-yil uchun jismoniy shaxslarning turar-joylari, kvartiralar (shaharlarda joylashgan umumiy maydoni 200 m2. dan ortiq bo'lganlari bundan mustasno) dala-hovli, garajlar va boshqa imoratlariga belgilangan mol-mulk solig'ining stavkasi necha foiz qilib belgilangan?

=0,2

~0,25

~1,5

~0,1

Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan obyekti to'g'ri keltirilgan?

=uy-joylar, kvartiralar, garajlar, bog' uylari, bino, inshootlari

~motoaravachalar

~avtomobillar

~motorli qayiq, avtomobillar

Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri ko'rsatilgan?

=solish obyektlarining inventarizatsiya qiymati

~soliq solish obyektlarining fizik ko'rsatkichlari

~soliq solish obyektlarining bozor qiymati

~soliq solish obyektlarining birja bahosi

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari..... bilan belgilanadi.

=O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

~Moliya vazirligining qarori

~Vazirlar Mahkamasining qarori

~DSQning maxsus qarori

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq tomonidan hisoblab chiqariladi.

~davlat soliq xizmati organlari

~jismoniy shaxslar o'zlari

~Davlat soliq boshqarmasi

~Davlat soliq qo'mitasi

Mol-mulkka mulk huquqi bir mulkdordan boshqasiga o'tganda, yangi mulkdor soliqni e'tiboran to'laydi

~mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan

~mulk huquqini qo'lga kiritgandan keyingi yildan

~mulk huquqini qo'lga kiritgandan keyingi oydan

~mulk huquqini qo'lga kiritgandan uch oydan

Jismoniy shaxslarning shaharda joylashgan umumiy maydoni 200 m² dan oshiq va 500 m² gacha bo'lgan turar-joylar va kvartiralariga belgilangan mol-mulk solig'i stavkasi necha foiz?

~0,25%

~0,35%

~1,7%

~1,2%

Quyida keltirilgan jismoniy shaxslardan qaysilari jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lashdan ozod etilgan?

~O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar

~madaniyat va xalq ta'limi xodimlari

~O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'lganlar, madaniyat va xalq ta'limi xodimlari

~og'ir mehnat sharoitida ishlovchilar

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uchun foydalaniladigan soliq solish obyektlariga nisbatan....

~qo'llanilmaydi

~qisman qo'llaniladi

~qisman qo'llaniladi

~tegishli vazirlik qarorlari asosida

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar.....

~mulkdorning tanloviga binoan faqat bitta mol-mulk obyektga taalluqli bo'ladi

~mulkdorning barcha mol-mulk obyektlariga taalluqli bo'ladi

~mulkdorning tadbirkorlik maqsadlarida foydalanayotgan mol-mulk obyektlariga taalluqli bo'ladi

~mulkdorning ijaraga bergan mol-mulkklariga taalluqli bo'ladi

Jismoniy shaxslarning mol-mulklari qaysi tashkilot tomonidan baholanadi?

- =solliq inspeksiyalari tomonidan
- ~Davlat solliq qo'mitasi tomonidan
- ~texnik inventarizatsiyalash byurosi qarori
- ~Davlat notariuslari tasdiqlagan shartnoma

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan solliq qachondan undiriladi?

- =mulk huquqi vujudga kelgan oydan e'tiboran
- ~mulk huquqi vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab
- ~mulk huquqi vujudga kelgan yildan keyingi yil boshidan
- ~mulk huquqi vujudga kelgan kundandan boshlab

2020-yilda jismoniy shaxslar mol-mulkini inventarizatsiya qiymati bo'lmasa solliq undirish uchun boshqa shahar va qishloq joylarda qanday shartli qiymat qabul qilinadi?

- =90.0 mln so'm
- ~210.0 mln so'm
- ~164.0 mln so'm
- ~80.0 mln so'm

Mol-mulk yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda solliqni birinchi mulkdor to'laydi.

- =yilning 1-yanvaridan e'tiboran mulk huquqini yo'qotgan oyning boshlanishiga qadar
- ~mulk huquqini yo'qotgan yilning oxiriga qadar
- ~mulk huquqini yo'qotgan oydan keyingi oygacha
- ~mulk huquqini yo'qotgan chorakning oxiriga qadar

Jismoniy shaxslarga mol-mulk solliq'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasi qaysi muddatdan kechiktirmay taqdim etiladi?

- =joriy yilning 1-martigacha
- ~joriy yilning 5-yanvarigacha
- ~joriy yilning 25-apreligacha
- ~joriy yilning 15-iyunigacha

Jismoniy shaxslar mol-mulk solliq'ini qaysi muddatlarda to'laydilar?

- =15-aprel va 15-oktyabrga qadar
- ~14-yanvarga qadar
- ~16-noyabrga qadar
- ~17-iyun va 15-dekabrga qadar

Jismoniy shaxslarning shaharda joylashgan umumiy maydoni 500 kv.m.dan oshiq bo'lgan turar-joylar va kvartiralariga belgilangan mol-mulk solliq'ining stavkasi necha foiz?

- =0,35
- ~0,25
- ~0,20

~1,7

Qaysi javobda pensionerlar uchun mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor to'g'ri ko'rsatilgan?

=umumiy maydonning 60 m² hajmida

~umumiy maydonning 62 m² hajmida

~umumiy maydonning 65 m² hajmida

~umumiy maydonning 55 m² hajmida

Mol-mulk butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'ini undirish ... to'xtatiladi.

=mol-mulk vayron bo'lgan kundan e'tiboran

~mol-mulk butunlay vayron bo'lgan yildan e'tiboran

~mol-mulk butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran

~mol-mulk butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan bazasini aniqlang.

=yer uchastkasining soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni

~yuridik shaxs tasarrufida bo'lmagan yer uchastkalari maydoni

~mavjud yer uchastkasining umumiy maydoni

~yuridik shaxs tasarrufida bo'lgan barcha yer uchastkalari

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq stavkalarini qo'llashda Toshkent shahri necha zonaga bo'lingan?

=5 zonaga

~4 zonaga

~12 zonaga

~7 zonaga

Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i bo'yicha soliq obyektini aniqlang.

=mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan yer uchastkalari

~aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi yerlari

~aholining madaniy~maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar

~kommunal~maishiy yerlar

Nechanchi yildan yuridik shaxslar yer solig'i undiriladigan bo'ldi?

=1990-yildan

~1991-yildan

~1998-yildan

~1989-yildan

Mobil aloqa xizmatiga aksiz solig'i stavkasi necha foiz qilib belgilangan.

=15 foiz

- ~12 foiz
- ~20 foiz
- ~18 foiz

Madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy muhofaza qilish obyektlari egallagan yerlarga soliq solinadimi?

=Soliq solinmaydi

~Qisman soliq solinadi

~Bir qismiga solinadi

~Bir qismiga solinmaydi

Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yer solig'i summasi qaysi formula bilan aniqlanadi?

= $ES = SSB * CC * K$

~ $S = SSB * C * K$

~ $S = SSB * CC$

~ $S = YES * CC * K$

Yer solig'ini to'lashdan quyidagi qaysi yuridik shaxslar ozod qilinadi?

=madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari

~ishlovchilari umumiy sonining kamida 50 foizini nogironlar, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylari tashkil qilgan yuridik shaxslar

~savdo, vositachilik, ta'minot~sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar

~mikrofirma va kichik korxonlar

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha soliq stavkalari qanday belgilanadi.

=1 gektar uchun mutlaq miqdorda

~1 metri uchun mutlaq miqdorda

~2 gektar uchun mutlaq miqdorda

~1 kvadrat metri uchun mutlaq miqdorda

Yer solig'i qaysi guruhga kiradi?

=Resurs solig'i

~Bilvosita solig'i

~Umumdavlat solig'i

~Mahalliy solig'i

Ball bonitetining eng to'liq ta'rifini bering.

=yerning tabiiy unumdorligi va uning sifati bahosi

~yerni sifatli baholash qiymati

~yer maydoni va soliq to'lov yig'indisi

~yer solig'i stavkasi, to'lovi

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining to'lovchilari bo'lib kimlar hisoblanadi?

=mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir

~egaligida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

~foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar

~o'z mulkida, egaligida va foydalanishida yer uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari yer solig'ini to'lovchilardir

Ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini soliq solish obyektiga bo'ladi?

=ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyektiga bo'lmaydi

~ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyektiga bo'ladi

~Vazirlar Mahkamasining qarori asosida ayrim ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyektiga bo'ladi

~Davlat soliq qo'mitasining qarori asosida ayrim ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari soliq solish obyektiga bo'ladi

Jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomasini taqdim etish muddati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan.

=joriy yilning 1-martigacha

~joriy yilning 25-apreligacha

~joriy yilning 15-iyunigacha

~joriy yilning 5-yanvarigacha

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari qanday me'yoriy hujjat bilan tasdiqlanadi?

=Vazirlar Mahkamasi qarori

~O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori

~Moliya vazirligi qarori

~Mahalliy davlat hokimiyati organlari qarori

Quyidagi jismoniy shaxslardan qaysilari jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'idan ozod etilmagan?

=yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar

~uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar

~II guruh nogironlari

~Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni

Qaysi javobda jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan bazasi to'g'ri berilgan?

=yer uchastkalarining me'yoriy qiymati

~yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotlar

~yer uchastkalarining inventarizatsiya jami qiymati

~yer uchastkalarining bozor jami qiymati

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ini byudjetga to'lash muddatini ko'rsating.

=hisobot yilining 15-oktyabriga qadar

~hisobot yilining 14-iyuli, 15-noyabriga qadar

~hisobot yilining 20-iyunigacha, 15-dekabrigacha

~hisobot yilining 25-dekabrigacha

To'langan jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i summasi belgilangan tartibda qaysi byudjetga tushadi?

=mahalliy byudjetga

~Respublika byudjetiga

~pensiya jamg'armasiga

~yo'l jamg'armasiga

Yer solig'ini joriy etishdan ko'zlangan maqsadlarni ko'rsating.

=davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va yer resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish

~davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashdan iborat

~fiskal funksiyani bajarish

~mahalliy byudjet daromadlarini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash

Yer uchastkalarini Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan ijaraga olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan intiyozlar tatbiq etiladimi?

=tatbiq etilmaydi

~tatbiq etiladi

~qisman tatbiq etiladi

~pasaytiruvchi koeffitsiyentlar qo'llaniladi

Quyida keltirilgan jismoniy shaxslardan qaysilari yer solig'ini to'lashdan ozod etilgan?

=I va II guruh nogironlari

~madaniyat va xalq ta'limi xodimlari

~yolg'iz bo'lmagan, boquvchisi bor pensionerlar

~og'ir mehnat sharoitida ishlovchilar

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq solinadigan obyekti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

=yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari

~ko'p kvartirali uylar egallagan yer uchastkalari

~tarixiy~madaniy ahamiyatga molik yer uchastkalari

~sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yer uchastkalari maydoni

Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i..... tomonidan hisoblab chiqariladi.

=Davlat soliq xizmati organlari

- ~Jismoniy shaxslar o'zlari
- ~Davlat soliq qo'mitasi
- ~Davlat soliq boshqarmasi

Jismoniy shaxslar yer solig'ini amalga oshirish maqsadida Toshkent shahri nechta zonaga bo'linadi?

- =14 zona
- ~16 zona
- ~15 zona
- ~4 zona

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad:

- =davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- ~ishlab chiqarish subyektlarini qo'llab-quvvatlash
- ~davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash mahsulot narxini pasaytirish
- ~davlat byudjetini moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash darajasi

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilarini aniqlang.

- =o'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, norezidentlar
- ~notijorat tashkilotlari
- ~yagona soliq to'lovi to'lovchilari
- ~yuridik va jismoniy shaxslar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang.

- =foydalanilgan suvning hajmi
- ~yer usti suv resurslari
- ~yerosti suv resurslari
- ~chuchuk suv manbalarining hajmi

Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi hududga to'laydi?

- =ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga
- ~Davlat soliq qo'mitasi zimmasiga
- ~davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar suvdan foydalanish hududiga
- ~suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga kelishuviga muvofiq

O'zbekistonda 1998-yilga qadar suvdan foydalanayotgan korxonalar to'lashar edi.

- = "suv uchun to'lov"
- ~"suv uchun soliq"
- ~"suv uchun yig'im"
- ~"suv uchun ajratma"

Yuridik shaxs o'z faoliyatida ro'yxatdan o'tgan tumandan boshqa tumandagi suv resurslaridan foydalanganida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni qaysi soliq organiga to'laydi.

=Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinish joyidan qat'iy nazar suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organiga

~Ro'yxatdan o'tgan davlat soliq xizmati organi bilan suvdan foydalanish joyidagi soliq xizmati organi kelishuvi

~Davlat soliq qo'mitasiga yuklangan

~Ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq xizmati organiga yuklangan

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilarini aniqlang.

=Barcha yuridik va jismoniy shaxslar

~O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar, dehqon xo'jaliklari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar

~O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi yuridik shaxslar va norezidentlar

~O'z faoliyatida suvdan foydalanuvchi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasini aniqlang.

=Yer usti va yerosti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

~Chuchuk suv manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

~yeryosti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

~yer usti manbalaridan foydalanilgan suv resurslarining hajmi

Yerosti suv resurslaridan foydalanganlik uchun (1 kub m.) sanoat korxonalarini qancha soliq to'laydi?

=430 so'm

~220 so'm

~650 so'm

~449 so'm

2020-yil uchun yerosti suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni (1 kub m.)ga elektr stansiyalari necha so'm to'laydi?

=60 so'm

~50 so'm

~90 so'm

~65.5 so'm

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni kimlar to'lamaydi?

=Notijorat tashkilotlari va fermer xo'jaliklari

~Banklar

~Ishlab chiqarish korxonalarini

~Sug'urta kompaniyalari

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bu Nuqtalar o'rniga kerakli so'zni qo'ying.

- ~Mahalliy soliq (yig'imglar)
- Umundavlat solig'i
- Konsolidatsiyalashgan soliq
- Federal davlat solig'i

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq obykti bo'lib nima hisoblanadi:

- Yer usti va yerosti manbalaridan olingan suvlar
- Yerosti suvi va tiniq oqadigan suv
- Yer usti manbalaridan olingan suvlar
- Yerosti manbalaridan olinadigan suvlari

Suv resurslarining yer usti manbalariida quyidagilardan qaysi biri kiradi?

- ~Ko'llar, daryolar
- ~Artezanlar
- ~Skvajinalar
- ~Gorizontal drenaj tarmoqlar

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bazasi nima?

- Foydalanilgan suv hajmi
- Olib foydalaniladigan suv resurslari
- ~Kommunal xo'jalikdagi suv hajmi
- ~Tranzit o'tkazilgan suv resurslari

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisoblash tartibini aniqlang.

- =yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq alohida ruxsatnomaga ega bo'lgan yuridik shaxs tomonidan hisoblanadi
- ~yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq uni to'lovchilar tomonidan hisoblab chiqariladi
- ~yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni davlat soliq xizmati organlari hisoblaydi
- ~yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq faqat qayta ishlovchi korxonalar hisoblaydi

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etishdan maqsad nima?

- =Davlat byudjetini moliyaviy resurs bilan ta'minlash va yerosti boyliklaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- ~Davlat byudjetini moliyaviy resurs bilan ta'minlash
- ~Mavjud yer boylaridan samarali va oqilona foydalanishni rag'batlantirish
- ~Mahalliy byudjet daromadlarini barqaror moliyaviy resurs bilan ta'minlash

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchilarni aniqlang.

- =Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslar
- ~Yuridik shaxs va jismoniy shaxslar
- ~Jismoniy shaxslar qazib oluvchi
- ~Yuridik shaxslar qazib oluvchi

Yer qa'ridan qazib olinayotgan tabiiy gaz uchun qancha soliq to'lanadi?

=30 %

~31 %

~20 %

~35 %

Yer qa'ridan qazib olinayotgan neft uchun qancha soliq to'lanadi?

=20%

~10%

~22 %

~25%

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solinadigan bazasini belgilang.

=Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulot hajmining hisobot davri uchun o'rtacha olingan realizatsiya qilish bahosida hisoblab chiqilgan qiymati soliq solinadigan bazadir

~Foydali qazilmalar qazib oluvchi yuridik va jismoniy shaxslarning mahsulotni sotishdan tushgan tushumi

~Jismoniy shaxslar yer uchastkalari doirasida kavlab olgan hamda o'zining xo'jalik va ro'zg'or ehtiyojlari uchun foydalanilgan keng tarqalgan foydali qazilmalar hajmi

~Yuridik shaxslar sanoat yo'sinida dastlabki qayta ishlovdan o'tkazilgan kavlab olingan uglevodorodlar qiymati

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq solish obyekti nima?

=Kavlab olingan (ajratib olingan) tayyor mahsulotning hajmi

~Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotning hajmi

~Yer unumdorligi hisobga olingan normativ yer qiymati

~Milliy boyliklarni realizatsiya qilish hajmi

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq davri nima?

=Kalendar yil

~Olti oylik muddat

~Chorak

~Oy

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga jismoniy shaxslar tomonidan qaysi muddatga qadar taqdim etiladi?

=soliq davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay

~soliq davridan keyingi yilning 1-apreldan kechiktirmay

~soliq davridan keyingi yilning 1-mayidan kechiktirmay

~soliq davridan keyingi yilning 15-yanvaridan kechiktirmay

Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun bonusni respublikamizda nechta turi bor.

=3 turi

~2 turi

~4 turi

5 turi

Mahalliy byudjetlar daromad manbaini noto'g'risini ko'rsating.

- ~Boshqaruvchi daromadlar
- ~Tartibga soluvchi daromadlar
- ~Soliqlar va mahalliy yig'imlar
- ~Soliqli, soliqsiz to'lovlar

2020-yil uchun Samarqand shahrida alkogolli mahsulotlarni realizatsiya qilish uchun litsenziya yig'imi stavkasi qancha?

- ~1 oy uchun 1 mln sum
- ~1 oy uchun 1.5 mln sum
- ~1 oy uchun 700 ming sum
- ~1 oy uchun 600 ming sum

Mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lovchilari kimlar?

- ~mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslar
- ~jismoniy shaxslar va norezidentlar
- ~faqat norezidentlar va yuridik shaxslar
- ~yuridik shaxslar va qisman norezidentlar

Quyidagilardan qaysi biri mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tarkibiga kirmaydi:

- ~yagona soliq to'lovi
- ~yer solig'i
- ~litsenziya yig'imi
- ~mulk solig'i

Ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi qaysi hujjat bilan tasdiqlanadi?

- =ruxsat guvohnomasi
- ~ma'lumotnoma
- ~Nizom
- ~hujjat bilan tasdiqlanmaydi

Patta to'lovi miqdorlari kim tomonidan tasdiqlanadi

- =Hududiy mahalliy davlat hokimiyati organlari
- ~O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- ~O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
- ~Hududdagi bozorlar

Qaysi javobda korxonaning maqsadli jamg'armalariga o'tkazadigan to'lovlari berilgan?

- =Yagona ijtimoiy to'lov
- ~Qo'shilgan qiymat solig'i
- ~Davlat bojlari

~yer solig'i

Yagona ijtimoiy to'lovning soliq solish obyekti nima?

=ish haqi tarzidagi daromadlar

~sug'urta tarzidagi tovonlar

~mulkiy tUSDagi daromadlar

~korxonA jami daromAdlari

O'zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to'lov qancha?

=25 % va 12 %

~20% va 15 %

~24 % va 12 %

~28 % va 12 %

Tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'imning obyekti qaysi javobda keltirilgan?

=Tovarlar va xizmatlarning qonun hujjatlarida belgilanadigan ro'yxati

~Tovarlar va xizmatlarning belgilangan narxi

~Sotib olish va sotish qiymati o'rtasidagi farq

~Tovarlar va xizmatlar realizatsiyasidan tushgan tushum

O'zbekiston Respublikasida yagona ijtimoiy to'lov qaysi jamg'armaga tushadi?

=Pensiya jamg'armasi, Bandlik jamg'armasiga

~Mahalliy byudjetga

~Yul jamg'armasiga

~NuroniY jamg'armasiga

Byudjetning soliqsiz daromadlariga nima kiradi?

=Jarimalar, davlat mulkini ijaraga berish

~Aksiz solig'i

~Patentlar

~Kreditlar

O'zbekiston Respublikasi pensiya fondining iqtisodiy mohiyati nima?

=Pensiya fondi shakllantirish va fuqarolarning pensiyaga chiqishini rag'batlantirish

~Fuqarolardan majburiy mablag' olish

~Nogironlarga nafaqa berish uchun

~Yoshga doir nafaqa berish uchun

Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarning soliq solish obyekti va soliq solinadigan bazasi nima?

=Sof tushum

~Soliq solinadigan foyda

~Maqsadli jamg'armalarga xarajatlar

~KorxonA ixtiyorida turgan yer maydoni

Yagona soliq to'lovining necha foizi O'zbekiston Respublikasi pensiya jamg'armasiga o'tkazilmoqda?

- 46 foizi
- 4 foizi
- ~24.8 foizi
- ~11.8 foizi

Yuridik shaxslar uchun respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmaning bazasini aniqlang.

- =yalpi tushum
- ~tovar oboroti
- ~sof foyda
- ~tekin olingan mol-mulk, mulkiy huquqlar, shuningdek, ishlar va xizmatlar

Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imning soliq solinadigan bazasini belgilang.

- =avtotransport vositalari dvigatelining ot kuchidagi quvvati yoki avtotransport vositalarining qiymati va tranzit vositalar
- ~faoliyatining asosiy turi yo'lovchilar tashish bo'lgan avtotransport korxonalar tasarrufidagi vositalar qiymati
- ~umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llarini saqlash, ta'mirlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar tasarrufidagi vositalar qiymati
- ~ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan qo'l bilan boshqarishga moslashtirilgan yengil avtomobillar va motoaravachalar qiymati

Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarni to'lovchilarni aniqlang.

- =O'zbekiston Respublikasining rezident va nerezidentlari
- ~oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan (ishonchli shaxs) sherik (ishtirokchi)
- ~ yuridik shaxs
- ~ixtisoslashtirilgan yo'l xo'jaligi boshqaruvi organi tuzilmasiga kiradigan korxonalar
- ~savdo korxonalari

Mikrofirmalar va kichik korxonalar jumlasiga kirmaydigan soliq to'lovchilar tomonidan Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalarning hisob-kitobi qanday muddatda taqdim etiladi?

- =har oyda soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- ~har oyda soliq davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay
- ~yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay
- ~yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

Respublika yo'l jamg'armasi yig'imlariga quyidagilarning qaysi biri kiradi?

- =chet davlatlar avtotransport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranzit tarzida o'tganligi uchun yig'im
- ~ayrim turdagi xizmatlar ko'rsatish huquqi uchun yig'im
- ~konsullik yig'imi
- ~tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im

Respublika yo‘l jamg‘armasiga majburiy ajratmalarni to‘lash qanday muddatda amalga oshiriladi?

=hisobot davridan keyingi oyning 15-kunidan kechiktirmay

~hisobot davridan keyingi oyning 5-kunidan kechiktirmay

~hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay

~hisobot davridan keyingi oyning 10-kunidan kechiktirmay

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston, 2014. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi 2007-yil 25-dekabrda 136-son qonuni bilan tasdiqlangan) (keyinchalik kiritilgan o'zgartirishlar va qo'shimchalarni hisobga olgan holda).
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2020-yil 30-dekabrda qabul qilingan.
4. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. 2016. 13-aprel.
5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. 1997. 29-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF4947-sonli farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017. 6-son. 70-modda. 20-son. 354-modda.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-3454-sonli qarori. www.lex.uz
8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017. 104 b.
9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O'zbekiston, 2017. 56 b.
10. Griffiths A.L. Global markets gyrate on fears of Europe's spreading financial crisis / A.L. Griffiths, K. Nerenberg, D. Wals. 2010. URL: <http://www.wsws.org>.
11. James S. & Nobes C. The Economics of Taxation: Principles, Policy and Practice. 7th ed. Financial Times/Prentice Hall, Harlow. 2004.
12. Smith, A. The Wealth of Nations. Edited by Campbell R.H. & Skinner A.S. The Glasgow edition of the Works and Correspondence of Adam Smith. 1776. Vol. 2.
13. Vahobov A., Sanaqulova B. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish: Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2013. 388 b.
14. Vahobov A.V., Jo'rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. T.: Sharq, 2009. 526 b.

15. J.R. Zaynalov, S.S. Aliyeva, Z.O. Axrorov va boshq. Moliya (Korxonalar moliyasi): Darslik. T.: Iqtisod-Moliya, 2018. 268 b.
16. Abduraxmonov O. Xorijiy mamlakatlar soliq tizimlari: O'quv qo'llanmasi. T.: TDIU, 2003.
17. Барулин С.В. Финансы. М.: Кронус, 2010. 640 с.
18. Болдырев Б.Г. Финансы капитализма. М.: Финансы, 1987. С. 21.
19. Vaxobov A., Sirojiddinova Z. O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti. T.: TMI, 2002. 36 b.
20. Gataulin Sh.K. Soliqlar va soliqqa tortish. T.: Uz.R DSQ 1996.
21. Жидкова Е. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.: Эксмо, 2010. 240 с.
22. Jo'rayev A., Usmanova M. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. T., 2015.
23. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005. 306 b.
24. J.R. Zaynalov, S.S. Aliyeva, Z.O. Axrorov va boshq. Soliq va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. Samarqand: Zarafshon, 2019. 420 b.
25. Иловайский С.И. Косвенное налогообложение в теории и практике. Пенза: ПГСХА, 2010. С. 115.
26. Islamkulov A. Byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta'minlash yo'llari: Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darjasi uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2012. 150 b.
27. Isroilov B.I. Soliq tizimi. T.: Sharq, 2013.
28. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz faravonligini yanada yuksaltirishdir. T.: O'zbekiston, 2010. 41b.
29. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005. 90 b.
30. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1998. 358 b.
31. Косолапов А.И. Налоги и налогообложение. Учебн.пос. М.: Дашков и К, 2005. 597-598 с.
32. Львова Н.Л. Налоги и налогообложение в России. Учебник. М.: Дело, 2006. 281-282 с.
33. Malikov T., Haydarov N. Moliya: umumdavlat moliyasi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2009. 556 b.
34. Малмигин И. Налоги как элементы финанса. М., 1997. С. 69.
35. Мандрочешенко О., Пинская М. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.: Дашков и К, 2010. 344 с.

36. Maxmudov N., Adizov M. Soliqlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini baholash. T., 2014.
37. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. М.: Инфра-М, 2006. С. 185.
38. Musagaliyev A.J. Yuridik shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirishning dolzarb masalalari: Monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2010. 211 b.
39. Налоговая политика: теория и практика / Под ред. И.А. Майбурева. М.: Юнити, 2010. С. 316.
40. Niyazmetov I.M. Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot: Monografiya. T., 2016.
41. Olimjonov O. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliq siyosati //Hayot va iqtisod. 1992.
42. Паншов В.Г. Налоги и налоговая система Российской Федерации. М.: Финансы и статистика, 2006. 394 с.
43. Паркинсон С. Закон и доходы. М.: Интерконтакт, 1992. С.14-15.
44. С.Г. Пепеляев и др. Основы налогового права. М.: Финансы и статистика, 2000
45. Пушкарева В. История финансовой мысли и политики налогов: Учебное пособие. М.: Инфра-М, 1996. С.17.
46. Самофалов В.Г. Косвенные налоги и подоходный налог: Учебник. СПб.: Питер, 2007. С. 50.
47. A. Tagayev va boshq. Soliq nazariyasi. T.: Yangi asr avlodi, 2010.
48. Temur tuzuklari. T.: Cho'lpon, 1991. 98 b.
49. Toshmatov Sh.A. Kichik tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish asoslari. T.: Moliya, 2012. 97 b.
50. Toshmurodova B.E. Soliq nazorati: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2007. 158 b.
51. Toshmurodova B.E. Soliqlar vositasida iqtisodiyotni boshqarish mexanizmi. T.: Yangi asr avlodi, 2002. 128 b.
52. Toshmurodova B.E., Elmirzayev S.E. Korporativ soliq menejmenti. T.: Mumtoz so'z, 2010. 104 b.
53. Umarov B. Korxonalar mol-mulkini soliqqa tortish mexanizmidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari (O'zbekiston Respublikasi materiallari asosida). Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darjasi uchun yozilgan dissertatsiyasi. 2002. 142 b
54. Финансы, денежное обращение и кредит: Учебник/ Под ред. Самсонова. М.: Инфра-М, 2001. С. 64-66.
55. Xvan L.B. Soliq huquqi. T.: Konsauditinform, 2001.

56. Худолеев В. Налоги и налогообложение: Учебник. М.: Форум, 2009. 320 с.
57. Черник Д.Г. Налоги: Учебник. М.: Финансы и статистика, 2009. С. 15.
58. Черник Д.Г. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. М.: Юнити-Дана, 2010. 367 с.
59. Elmirezayev S.E. O'zbekiston Respublikasida korporativ soliq menejmentini rivojlantirish istiqbollari: I.f.n. ilmiy.dar.olish uchun taqdim etilgan diss.avtoref. T., 2012. 9 b.
60. Yahyoyev Q. O'zbekistonning solikli va soliqsiz to'lovlari. T.: TMI, 1994.
61. Yahyoyev Q. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. T. G'afur G'ulom, 2003.
62. Internet saytlari:
- www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi portali.
 - www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumati sayti.
 - www.mf.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti.
 - www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasining rasmiy sayti.
 - www.ziyonet.uz – bilimlar sayti.
 - www.iqtisodiyot.uz – “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” elektron jurnali sayti.

MUNDARIJA

Kirish	3
1-QISM. BEVOSITA SOLIQ TURLARI	
1-bob. “Soliqlar va soliqqa tortish” faniga kirish	5
1.1. “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining maqsadi, predmeti va vazifalari	5
1.2. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari	8
1.3. Soliqlarning funksiyalari va tamoyillari.....	19
1.4. O‘zbekiston soliq tizimida amalda bo‘lgan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar	33
1.5. Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar: iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra guruhlanishi; byudjetga tushishiga ko‘ra guruhlanishi; soliq to‘lovchilari nuqtayi nazaridan guruhlanishi	36
1.6. Soliq elementlari.....	49
1.7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar ustidan soliq organlarining nazorati.....	57
2-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i.....	62
2.1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ining iqtisodiy mohiyati	62
2.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ining byudjet daromadlarida tutgan o‘rni.....	66
2.3. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i to‘lovchilari tarkibi	69
2.4. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ining soliq solish obyekti. Yuridik shaxslarning jami daromadlari tarkibi	70
2.5. Soliqqa tortiladigan bazani aniqlash	75
2.6. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘ini hisoblash va to‘lash muddatlari	78
3-bob. Aylanmadan olinadigan soliq	83
3.1. Soddalashtirilgan soliq tizimining soliq amaliyotida tadbiiq etilishi (tarixiy aspekt).....	83
3.2. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soddalashtirilgan soliq tizimining iqtisodiy ahamiyati.....	85
3.3. Aylanmadan olinadigan soliq va uning amal qilish jarayoni.....	87
3.4. Aylanmadan olinadigan soliqning obyekti.....	90
3.5. Aylanmadan olinadigan soliq stavkalari	94

3.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha taqdim etilgan imtiyozlar va preferentsiyalar. Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish muddatlari	98
4-bob. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i.....	101
4.1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va uning o'ziga xosligi	101
4.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i soliq solish obyekti	103
4.3. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari	104
4.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqning stavkasi va soliq bo'yicha imtiyozlar.....	114
4.5. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqni hisoblash uslubiyati.....	124
4.6. Deklaratsiya tushunchasi va uni joriy qilish sabablari. Jismoniy shaxslarning deklaratsiyaga kiritiladigan daromadlari tarkibi	127

2-QISM. BILVOSITA SOLIQ TURLARI

5-bob. Qo'shilgan qiymat solig'I.....	133
5.1. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'i joriy qilinishining iqtisodiy sabablari va ahamiyati	133
5.2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti	140
5.3. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari	149
5.4. Qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash va hisob-kitoblarni taqdim etish muddatlari	160
5.5. Hisobvara-q-fakturani to'ldirish tartibi	162
6-bob. Aksiz solig'i.....	168
6.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aksiz solig'i va uning soliq tizimida tutgan o'rni	168
6.2. Aksiz solig'i to'lovchilari tarkibi	176
6.3. Aksiz solig'ining soliqqa tortish obyekti	178
6.4. O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga aksiz solig'i stavkalari	181
6.5. Aksiz solig'ini hisoblash tartibi va muddatlari	184

3-QISM. MOL-MULK SOLIG'I VA RESURS TO'LOVLARI

7-bob. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq..... 188

7.1. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga mol-mulk solig'ining joriy etilishi va uning iqtisodiy mohiyati 189

7.2. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i to'lovchilari tarkibi 193

7.3. Mol-mulk solig'i bo'yicha soliqqa tortiladigan obyekt 194

7.4. Me'yordagi muddatlarda o'rnatilmagan asbob-uskunalar uchun mol-mulk solig'ini hisoblash. Belgilangan muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlariga mol-mulk solig'ini hisoblash..... 197

7.5. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari va imtiyozlari 200

7.6. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash muddatlari 201

7.7. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk solig'i va uning ahamiyati 203

7.8. Jismoniy shaxslardan mol-mulk solig'ini undirish tartibi 206

7.9. Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari 218

8-bob. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i..... 222

8.1. Yer solig'i joriy etilishining asosiy sabablari 222

8.2. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ini to'lovchilar tarkibi..... 227

8.3. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining soliq objekti 228

8.4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari 232

8.5. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha imtiyozlar va soliqni hisoblash hamda byudjetga to'lash tartibi 233

8.6. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i va uning iqtisodiy ahamiyati 238

8.7. Yer uchastkalarini ijaraga olish va mulk huquqi. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'ining to'lovchilari, soliq objekti va uni aniqlash tartibi 241

8.8. Yer solig'i bo'yicha jismoniy shaxslarga beriladigan imtiyozlar 243

8.9. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i stavkalari, uni hisoblash, byudjetga undirish tartibi va uni to'lash muddatlari 245

9-bob. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	249
9.1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va uning joriy etilish sabablari	249
9.2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning obykti, uni aniqlash tartibi va stavkalari	251
9.3. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar tarkibi	253
9.4. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi va byudjetga to'lash muddatlari	254
10-bob. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar	259
10.1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning o'ziga xos xususiyatlari	259
10.2. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning to'lovchilar tarkibi va soliq obykti	261
10.3. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning stavkalari va ularning tabaqalanishi	263
10.4. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha imtiyozlar va ularning qo'llanilish tartibi	266
10.5. Soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish muddati. Soliq bo'yicha hisob-kitoblarni topshirish muddatlari	267
4-QISM. YIG'IMLAR, MAJBURIY TO'LOVLAR VA ELEKTRON HISOBOT	
11-bob. Mahalliy yig'imlar	270
11.1. Mahalliy yig'imlar va ularning amal qilish xususiyatlari	270
11.2. Mahalliy yig'imlarni hisoblash va to'lash tartibi	272
11.3. Patta haqi to'lovlari	273
11.4. Mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirishda yig'imlarning ahamiyatini oshirish	274
12-bob. DAVLAT MAQSADLI JAMG'ARMALARIGA MAJBURIY TO'LOVLAR	277
12.1. Yagona ijtimoiy to'lov (Ijtimoiy soliq)	277
12.2. Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar	280
13-bob. ELEKTRON HISOBOT VA UNI JO'NATISH TARTIBI	284
13.1. Hisobotlarni elektron ko'rinishda topshirishning zarurligi, joriy etilishi va me'yoriy-huquqiy asoslari. Elektron raqamli imzo	284

13.2. “Soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmatlar” tizimi (“Shaxsiy kabinet”)ga kirish paytida ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi ma‘lumotlar oynasi	289
13.3. Hisobotning o‘z vaqtida topshirilganligi va soliq inspektori tomonidan imzolanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotni olish tartibi.....	291
GLOSSARIY	297
TESTLAR.....	315
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	347

СОДЕРЖАНИЕ

Введение	3
ЧАСТЬ 1. ВИДЫ ПРЯМЫХ НАЛОГОВ	
Глава 1. Введение в дисциплину “Налоги и налогообложение”	5
1.1. Цель, предмет и задачи дисциплины “Налоги и налогообложение”	5
1.2. Экономическая сущность и особенности налогов	8
1.3. Функции и принципы налогов.....	19
1.4. Налоги и другие обязательные платежи, действующие в налоговой системе Узбекистана.....	33
1.5. Налоги и другие обязательные платежи: группировка по экономической сущности; группировка по поступлению в бюджет; группировка с точки зрения налогоплательщиков.....	36
1.6. Элементы налогов.....	49
1.7. Контроль налоговых органов над налогами и другими обязательными платежами в условиях модернизации экономики.....	57
Глава 2. Налог на прибыль юридических лиц	62
2.1. Экономическая сущность налога на прибыль юридических лиц	62
2.2. Роль налога на прибыль юридических лиц в доходах бюджета в условиях модернизации экономики.....	66
2.3. Структура плательщиков налога на прибыль юридических лиц	69
2.4. Объект налогообложения налогом на прибыль юридических лиц. Структура общих доходов юридических лиц.....	70
2.5. Определение налогооблагаемой базы.....	75
2.6. Сроки сдачи расчетов и уплаты налога на прибыль юридических лиц	78
Глава 3. Налог с оборота	83
3.1. Внедрение упрощенной системы налогообложения в практику (исторический аспект).....	83
3.2. Экономическая сущность упрощенной системы налогообложения в условиях модернизации экономики.....	85
3.3. Налог с оборота и процесс его введения	87
3.4. Объект налогообложения налога с оборота.....	90
3.5. Ставки налога с оборота.....	94
3.6. Льготы и преференции, представленные по налогу с оборота в	

условиях модернизации экономики. Сроки сдачи расчетов по налогу с оборота.....	98
Глава 4. Налог на доходы физических лиц	101
4.1. Налог на доходы физических лиц и его особенности.....	101
4.2. Налогооблагаемый объект налога на доходы физических лиц...	103
4.3. Общегоодовой налог на доходы физических лиц.....	104
4.4. Ставка налога и льготы по налогу на доходы физических лиц в условиях модернизации экономики.....	114
4.5. Методика расчета налога на доходы физических лиц	124
4.6. Понятие декларации и причины ее использования. Структура доходов, включаемых в декларацию физических лиц.....	127
ЧАСТЬ 2. ВИДЫ КОСВЕННЫХ НАЛОГОВ	
Глава 5. Налог на добавленную стоимость	133
5.1. Экономические причины и значение введения налога на добавленную стоимость в Узбекистане.....	133
5.2. Налогооблагаемый объект налога на добавленную стоимость...	140
5.3. Ставки налога на добавленную стоимость	149
5.4. Сроки уплаты и сдачи расчетов по налогу на добавленную стоимость.....	160
5.5. Порядок заполнения счета-фактуры	162
Глава 6. Акцизный налог.....	168
6.1. Акцизный налог и его роль в налоговой системе в условиях модернизации экономики	168
6.2. Структура налогоплательщиков акцизного налога.....	176
6.3. Объект налогообложения акцизным налогом	178
6.4. Ставки акцизного налога на товары, производимые в Республике Узбекистан.....	181
6.5. Порядок и сроки расчета акцизного налога	184
ЧАСТЬ 3. НАЛОГ НА ИМУЩЕСТВО И РЕСУРСНЫЕ НАЛОГИ	
Глава 7. Налог на имущество юридических лиц 188	
7.1. Внедрение налога на имущество в налоговую систему Республики Узбекистан и его экономическое значение в условиях модернизации экономики.....	189
7.2. Структура налогоплательщиков налога на имущество юридических лиц.....	193
7.3. Объект налогообложения налогом на имущество юридических лиц	194

7.4. Расчет налога на имущество за оборудование, не установленное в нормативные сроки. Налог на имущество за строительство, не завершённое в установленный срок.....	197
7.5. Ставки и льготы по налогу на имущество юридических лиц	200
7.6. Сроки расчета и уплаты налога на имущество юридических лиц	201
7.7. Налог на имущество физических лиц и его значение в условиях модернизации экономики	203
7.8. Порядок налогообложения налогом на имущество физических лиц	206
7.9. Сроки уплаты налога на имущество физических лиц.....	218
Глава 8. Земельный налог, взимаемый с юридических лиц.....	222
8.1. Основные причины введения земельного налога, взимаемого с юридических лиц	222
8.2. Структура налогоплательщиков земельного налога, взимаемого с юридических лиц	227
8.3. Объект налогообложения земельным налогом, взимаемым с юридических лиц	228
8.4. Ставки земельного налога, взимаемого с юридических лиц в условиях модернизации экономики.....	232
8.5. Льготы, порядок расчета и уплаты земельного налога, взимаемого с юридических лиц	233
8.6. Земельный налог, взимаемый с физических лиц и его экономическое значение в условиях модернизации экономики.....	238
8.7. Аренда земельных участков и право собственности. Плательщики, налогооблагаемый объект и порядок его определения по земельному налогу, взимаемому с физических лиц.....	241
8.8. Льготы по земельному налогу, взимаемому с физических лиц..	243
8.9. Ставки по земельному налогу, взимаемому с физических лиц, порядок его расчета и сроки уплаты в бюджет	245
Глава 9. Налог за пользование водными ресурсами	249
9.1. Налог за пользование водными ресурсами и причины его введения.....	249
9.2. Объект налогообложения налогом за пользование водными ресурсами, порядок его определения и ставки	251
9.3. Структура льгот по налогу за пользование водными ресурсами.....	253

9.4. Порядок расчета и сроки уплаты в бюджет налога за пользование водными ресурсами	254
Глава 10. Налоги и специальные платежи для недропользователей	259
10.1. Особенности налога за пользование недрами	259
10.2. Структура налогоплательщиков и налогооблагаемый объект налога за пользование недрами	261
10.3. Ставки налога за пользование недрами и их классификация	263
10.4. Льготы по налогу за пользование недрами и порядок их использования	266
10.5. Сроки расчета и уплаты налога в бюджет. Сроки сдачи расчетов по налогу в бюджет	267
ЧАСТЬ 4. СБОРЫ, ОБЯЗАТЕЛЬНЫЕ ПЛАТЕЖИ И ЭЛЕКТРОННАЯ ОТЧЕТНОСТЬ	
Глава 11. Местные сборы	270
11.1. Местные сборы и особенности их взимания	270
11.2. Порядок расчета и уплаты местных сборов	272
11.3. Платежи по разовому сбору	273
11.4. Повышение значения сборов в формировании доходов местного бюджета	274
Глава 12. ОБЯЗАТЕЛЬНЫЕ ПЛАТЕЖИ В ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЦЕЛЕВЫЕ ФОНДЫ	277
12.1. Единый социальный платеж (Социальный налог)	277
12.2. Сборы в Республиканский дорожный фонд	280
Глава 13. ЭЛЕКТРОННАЯ ОТЧЕТНОСТЬ И ПОРЯДОК ЕЕ ОТПРАВЛЕНИЯ	284
13.1. Необходимость, внедрение и нормативно-правовые основы сдачи отчетов в электронной форме. Электронная цифровая подпись	284
13.2. Окно сведений при регистрации в системе “Интерактивные услуги для налогоплательщиков” (“Личный кабинет”)	289
13.3. Порядок получения сведений о своевременности сдачи отчета и подписании его налоговым инспектором	291
ГЛОССАРИЙ	297
ТЕСТЫ	315
ЛИТЕРАТУРА	347

CONTENTS

INTRODUCTION.....	3
PART 1. TYPES OF DIRECT TAXES	
Chapter 1. Introduction to the discipline "Taxes and Taxation"	5
1.1. Purpose, subject and objectives of the discipline "Taxes and Taxation".....	5
1.2. The economic essence and features of taxes	8
1.3. Functions and principles of taxes	19
1.4. Taxes and other mandatory payments in force in the tax system of Uzbekistan	33
1.5. Taxes and other obligatory payments: grouping by economic essence; grouping by budget receipts; grouping from the point of view of taxpayers	36
1.6. Elements of taxes	49
1.7. Control of tax authorities over taxes and other mandatory payments in the context of economic modernization.....	57
Chapter 2. Income tax on legal entities.....	62
2.1. The economic essence of corporate income tax	62
2.2. The role of corporate income tax in budget revenues in the context of economic modernization.....	66
2.3. The structure of taxpayers of corporate income tax	69
2.4. The object of taxation is the tax on profit of legal entities. Structure of total income of legal entities	70
2.5. Determination of the taxable base	75
2.6. Deadlines for submission of settlements and payment of corporate income tax.....	78
Chapter 3. Sales tax	83
3.1. Implementation of a simplified taxation system into practice (historical aspect).....	83
3.2. The economic essence of the simplified taxation system in the context of economic modernization	85
3.3. Sales tax and the process of its introduction.....	87
3.4. The object of taxation of value added tax.....	90
3.5. VAT rates.....	94

3.6. Benefits and preferences presented for turnover tax in the context of economic modernization. Terms of delivery of calculations for value added tax.....	98
Chapter 4. Personal income tax.....	101
4.1. Personal income tax and its features.....	101
4.2. Taxable object of personal income tax	103
4.3. Total Annual personal income tax.....	104
4.4. Tax rate and personal income tax benefits in the context of economic modernization	114
4.5. Methodology for calculating personal income tax	124
4.6. The concept of the declaration and the reasons for its use. The structure of income included in the declaration of individuals.....	127

PART 2. TYPES OF INDIRECT TAXES

Chapter 5. Value-added tax	133
5.1. Economic reasons and significance of the introduction of value-added tax in Uzbekistan	133
5.2. Taxable object of value-added tax	140
5.3. Value-added tax rates.....	149
5.4. Terms of payment and delivery of calculations for value-added tax.....	160
5.5. Procedure for filling out an invoice	162
Chapter 6. Excise tax.....	168
6.1. Excise tax and its role in the tax system in the context of economic modernization	168
6.2. Structure of excise taxpayers	176
6.3. Object of taxation by excise tax.....	178
6.4. Excise tax rates for goods produced in the Republic of Uzbekistan.....	181
6.5. Procedure and terms for calculating excise tax	184

PART 3. PROPERTY TAX AND RESOURCE TAXES

Chapter 7. Tax on property of legal entities.....	188
7.1. The introduction of property tax into the tax system of the Republic of Uzbekistan and its economic significance in the context of economic modernization.....	189
7.2. The structure of taxpayers of property tax of legal entities	193
7.3. Object of taxation with property tax of legal entities	194

7.4. Calculation of property tax for equipment not established within the specified time frame. Property tax for construction not completed on time.....	197
7.5. Rates and benefits for property tax of legal entities	200
7.6. Terms of calculation and payment of property tax of legal entities ..	201
7.7. Personal property tax and its importance in the context of economic modernization	203
7.8. The procedure for taxation with property tax of individuals.....	206
7.9. Terms of payment of property tax for individuals.....	218
Chapter 8. Land tax from legal entities.....	222
8.1. The main reasons for the introduction of land tax from legal entities	222
8.2. The structure of taxpayers of land tax from legal entities	227
8.3. Object of taxation by the land tax from legal entities.....	228
8.4. Land tax rates from legal entities in the context of economic modernization	232
8.5. Benefits, procedure for calculating and paying land tax from legal entities.....	233
8.6. Land tax from individuals and its economic significance in the context of economic modernization	238
8.7. Land lease and ownership. Payers, taxable object and the procedure for determining it for land tax from individuals.....	241
8.8. Land tax incentives for individuals.....	243
8.9. Rates for land tax from individuals, the procedure for calculating it and the timing of payment to the budget.....	245
Chapter 9. Tax for the use of water resources.....	249
9.1. Water use tax and reasons for its introduction.....	249
9.2. The object of taxation by the tax for the use of water resources, the procedure for its determination and rates	251
9.3. Structure of tax incentives for the use of water resources	253
9.4. The procedure for calculating and timing of payment to the budget of tax for the use of water resources.....	254
Chapter 10. Taxes and special payments for subsoil users.....	259
10.1. Features of the tax for the use of subsoil.....	259
10.2. The structure of taxpayers and taxable object of tax for the use of subsoil	261
10.3. Subsoil use tax rates and their classification.....	263
10.4. Tax incentives for the use of subsoil and the procedure for their use	

10.5. Terms of calculation and payment of tax to the budget. Deadlines for submitting tax calculations to the budget.....	267
PART 4. FEES, MANDATORY PAYMENTS AND ELECTRONIC REPORTING	
Chapter 11. Local taxes.....	270
11.1. Local taxes and peculiarities of their collection.....	270
11.2. Procedure for calculating and paying local taxes.....	272
11.3. One-time collection payments.....	273
11.4. Increasing the importance of fees in the formation of local budget revenues	274
Chapter 12. MANDATORY PAYMENTS TO STATE TARGET FUNDS	277
12.1. Unified social payment (Social tax).....	277
12.2. Taxes to the Republican Road Fund	280
Chapter 13. ELECTRONIC REPORTING AND THE ORDER OF ITS SENDING.....	284
13.1. The need, implementation and regulatory framework for submitting reports in electronic form. Electronic digital signature.....	284
13.2. Information window when registering in the "Interactive Services for Taxpayers" system ("Personal Account")	289
13.3. The procedure for obtaining information on the timeliness of the submission of the report and its signing by the tax inspector	291
GLOSSARY	297
TESTS.....	315
LITERATURE.....	347

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

Darslik

Muharrir N. Rustamova

Badiiy muharrir K. Boyxo'jayev

Kompyuterda sahifalovchi K. Boyxo'jayev

Nashr lits. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 12.10.2021.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i 20,9.
Hisob-nashr tabog'i 21,8. Adadi 100.
11-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60^A.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60^A.

88315,01

67.402

ISBN 978-9943-7322-3-0



9 789943 732230